Преемственность – объективная закономерность развития природы и общества. Преемственное развитие есть диалектическое единство сохранения и отрицания, рост нового на основе старого, с принятием его или в борьбе с ним. Без сохранения нет обогащения; без отрицания нет развития, обновления. В этом взаимодействии противоположностей отрицание выступает орудием освобождения жизнеспособных элементов от всего, что мешает дальнейшему их развитию [1].

Процесс преемственности проявляется по-разному в таких частях, как наука и искусство. В точных и естественных науках процесс преемственности носит отчетливо выраженную восходящую направленность. По мере более правильного постижения законов действительности отменяются прежние достижения, остается лишь их право на место в истории. Что же касается великих произведений искусства, созданных даже в отдаленные эпохи, то они во все последующее время не утрачивают своей ценности и часто прогрессируют в своем значении.

Повторяемость – одно из проявлений закона исторической преемственности. Не каждое мгновение приносит что-то абсолютно новое, полностью порывающее с прошлым. Всякому развитию, в том числе и развитию литературы, присуще единство изменчивости и устойчивости, неповторимости и повторяемости. На языке диалектической логики это называется тождеством развивающегося предмета.

Искусству более чем какой-либо другой области деятельности противопоставлена преднамеренная повторяемость. Здесь хорошо то, что бывает один раз. О достоинствах отдельного произведения мы судим не по сходству с другими, а по отличию от других. Казалось бы, идеальное произведение – это абсолютно несходное с другими. Но появление такого произведения невозможно, оно оказалось бы вне преемственных связей и осталось бы «неведомым шедевром» [2].

Конечно, произведение подлинного искусства всегда оригинально и неповторимо как целое. Но в каждом неповторимом целом есть общие (повторяющиеся) элементы, черты, стороны. Эта повторяемость обусловлена, во-первых, отражением в произведениях искусства общих (сходных, повторяющихся) явлений действительности. Во-вторых, художественное творчество, будучи индивидуальным по форме, коллективно по существу. Произведение любого автора – результат не только его единоличных усилий, но и усвоенного им опыта предшественников. В-третьих, сама специфика литературно-художественного освоения мира придает произведениям определенные черты общности, порождает некоторые устойчивые формы. Таковы, например, литературные жанры.

В творческой личности повторяются черты эпохи, нации, народа, класса, узкой социальной, идеологической группы, особенностей психики, человеческого характера. Отдельный писатель, ни на кого не похожий, сближается с другими в том или ином отношении. Но различие и сходство никогда не бывают абсолютными в ряду родственных явлений. Иначе не мог бы образоваться сам этот ряд как многообразное единство.

Обзор литературы. Как отмечал в свое время А. Бушмин, «произведения искусства представляют собою высокоинтегрированную систему, в которую элементы традиции входят как ее собственные внутренние элементы. Старое здесь не является простым прибавлением к новому, стоит не рядом с ним, а исчезает в нем. Взаимодействие унаследованного и личного оказывается настолько сложным и взаимопроникающим, что ответить на вопрос: что принадлежит традиции и что автору? – всегда бывает трудно и тем труднее, чем мощнее художник» [3].

Писатель, по наблюдению Е.А. Яблокова, сумел соединить воедино в романе «Мастер и Маргарита» поэтику романтизма, реализма и модернизма. И это во многом перекликается с литературной ситуацией Серебряного века, когда формировались новые эстетические принципы литературного письма[4].

Типическими чертами декадентства как художественного мировоззрения было игнорирование реальности. В искусстве этого направления складывался определенный тип сознания, отношения к миру и человеку. В этом смысле декадентство – это не только одно из направлений в искусстве или категория художественного стиля, но и определенное мировоззрение, в основе которого лежало идеалистическое учение о непознаваемости мира и закономерностей его развития.

Именно в этот период широко распространяется русская идеалистическая философия В.Розанова, А.Волынского, Вл.Соловьева. Значительное влияние на формирование философских и эстетических концепций нового направления имела философия А.Шопенгауэра, Ф.Ницше, А.Бергсона, И.Канта.

В работе Д.Мережковского «О причинах упадка и новых течениях современной русской литературы» (1893) утверждается, что русская литература находится на грани глубочайшего кризиса, к которому ее завела гражданская тенденциозность. Именно идея

общественного служения, по мнению Мережковского, завела русскую литературу в идейный и художественный тупик. Основу же истинного искусства составляет вечное религиозное мистическое чувство, символизация и расширение художественной впечатлительности в духе изощренного импрессионизма[5].

Взгляды Вячеслава Иванова опираются на необходимость преодоления индивидуализма на почве «теургических воззрений». Он развивает идею коллективной связи людей, «соборности». Путь искусства – это движение к национальной почве, к религиозно понимаемой народности. Задача искусства – в мифотворчестве [6].

Материалы и методы. В литературных произведениях ничто так не обманчиво, как внешнее сходство с кем-либо или с чем-либо, подкупающее своей очевидностью. Подлинная традиция, творчески освоенная, - всегда в глубине, в растворенном состоянии.

Художественное творчество никогда не остается простым использованием готовых форм. Включая традицию, оно вместе с тем каждый раз является новым актом художественного познания действительности, осуществляемого в новых формах. Поиски, создание, совершенствование новых форм у художников есть всегда мыслительный процесс – стремление наиболее полно, точно выразить, выкристаллизовать идею, мысль, чувство, настроение. Поэтому в каждом подлинно художественном произведении форма создается заново, это всегда – конкретная форма конкретного содержания. Все выдающиеся произведения литературы, основанные на глубоких внутренних потребностях, вырываются за пределы традиционных форм.

«В понятие «литературное влияние» или «литературная традиция» вкладывается обобщающий смысл, охватывающий все разнообразие форм и видов литературно-художественной преемственности. Контакты последующего с предыдущим многообразны и изменчивы, никакая классификация не может их исчерпать. Постоянен лишь сам факт влияния как проявление закона преемственности. Творческие связи писателей могут приобретать характер *контактных* или *контрастных*, а порой и *конфликтных* отношений.

Различно и функциональное значение литературных воздействий. В одних случаях они играют характер первого толчка, побудительного импульса к выбору нового направления творческих исканий, к формированию той или иной новой творческой особенности преемника. В других – стимулируют в каком-либо отношении уже определившееся направление творческой мысли. В-третьих, своим вмешательством резко изменяют прежний ход дела» [7].

По аспектам творчества контакты между писателями могут быть философско-эстетическими, идейно-нравственными, проблемно-тематическими, формально-стилистическими или же многосторонними. В пределах одного из названных аспектов воздействие может проявляться разнообразно. В художественной форме – в композиции, в типологии, в приемах изобразительности, в художественной стилистике. Сближаясь в одном, писатель может расходиться в другом. Литературные предшественники воздействуют на литературных последователей не только прямо, непосредственно, но и через общее движение эстетической мысли и литературы.

И.П. Эккерман в «Разговорах с Гёте в последние годы его жизни» приводит слова, сказанные поэтом 4 января 1827 г.: «Мы одарены известными способностями, но своим развитием обязаны тысяче воздействий на нас великого мира Я за многое должен благодарить греков и французов; я бесконечно обязан Шекспиру, Стерну и Гольдсмиту. Однако этим источники моего развития далеко еще не исчерпаны; разыскивать их можно до бесконечности, но в этом нет никакой надобности» [8]. Творческая индивидуальность писателя формируется тем успешнее, чем разнообразнее источники ее развития.

Формирование личности Михаила Афанасьевича Булгакова приходится на конец XIX – начало XX века. Это была переломная эпоха, как в социальном, религиозном, так

и в культурном плане. Воспитанный в семье профессора духовной академии, будущий писатель впитал безмятежный и счастливый мир детства и отрочества, который проявляется во многих его произведениях. В его судьбе своеобразно переплелись медицинское образование и врачебная практика с художественным творчеством, огромная любовь к театру и сатирическое изображение действительности в круто изменившемся мире. Эстетическое мироощущение автора складывается из его непосредственно-оценочного отношения к действительности, формируемого на основе чувственного отражения этой действительности в его сознании, и способности создавать её художественный образ. Булгакову присуще бесстрашие мысли, стремление дойти до корня тех явлений, которые ему представляются вредными, пошлыми, уродливыми, унижающими достоинство человека. Наряду с мироощущением художника большое значение имеет его мировидение.

Роман М. Булгакова «Мастер и Маргарита» - итоговое произведение писателя. Он создавался более десяти лет (1928-1940), имел несколько редакций, первая из которых была уничтожена автором (1930), а работа над окончательным текстом продолжалась вплоть до самой смерти писателя. Этот роман полифоничен, богат сложными философскими и нравственными проблемами, захватывающими широкий круг тем. «Мастер и Маргарита» - это сложное, многоплановое произведение. Афористичность языка, мастерское изображение примет времени, меткая сатира сочетаются в нем с извечной проблемой выбора между возвышенным и низменным, преходящим и вечным. Со страниц романа перед нами предстает сложная картина мироздания, в которую, как нити, вплетаются различные сюжетные линии.

Жанр «Мастера и Маргариты» непросто определить, обычно его характеризуют как философский, фантастический и сатирический роман. Помимо этого, он вобрал в себя необычайную полифонию жанров, начиная с исторического романа и заканчивая буффонадой. «Мастер и Маргарита» - это двойной роман, он состоит из повествования о судьбе мастера и романа, написанного им о Понтии Пилате.

В «Мастере и Маргарите» очень интересно проявилась характерная для произведений Михаила Булгакова «многослойность» восприятия мира, которая в ряде его предыдущих произведений обуславливала двойное художественное осмысление событий (в измерении будничного, конечного и в измерении вечного, бессмертного). В последнем романе эта особенность мышления писателя воплотилась в уникальной конструкции художественной реальности: наличие трех миров, два из которых фантастический и древний (ершалаимский) представляют вечность, а третий – современность, то есть советскую действительность 20-30-х годов. Промежуток времени, разделяющий ершалаимских и московских героев, составляет приблизительно две тысячи лет. Но это не помешало М. А. Булгакову найти в их мировоззрении, поведении, отношении к правящему режиму некие точки соприкосновения. Именно эти жанровые особенности «Мастера и Маргариты» делают роман явлением новым, самобытным. Описанные ситуации, сквозные мотивы и темы создают впечатление сложной системы зеркал, каждое отражение которой создает новые смысловые оттенки.

«Изначально, в произведениях Серебряного века дьявол наделялся гносеологическими атрибутами и онтологическим основанием. Христианская доктрина относительного дуализма переосмыслена модернистами в абсолютный дуализм, «обожествление зла», где сатана - величина креативная, моральная, творческая»[9]. Практически все исследователи поэзии В. Брюсова, отмечают его увлечение оккультизмом и черной магией, с дьяволом в творчестве поэта, по мнению литературоведов, связаны понятия истины и бессмертия. Любимцы поэта - герои, одержимые демоном самореализации, страстью разрушения. Их деяния равны «божественному» проведению по значимости исторических последствий. В стихах же Ф. Соллогуба христианский бог представляется злым Демиургом. Он сотворил мир,

состоящий из обывательской серости, пошлости и глупости, а дьявол, выражающий бунтарский протест против этого филистерского благополучия и успокоенности, отождествляется с понятием «блага», духовного освобождения человека. Попытку полной реабилитации inferнальных сил предпринимают акмеисты. Н. Гумилев, к примеру, создает демона как единственного хозяина Вселенной.

В начале 1900-х годов символизм переживает новый этап развития. Московскую группу символистов, в которую входили С.Соловьев и А.Белый, а затем и А.Блок принято называть «младосимволистами». В центре их внимания – вопросы о судьбах России, народной жизни. Предчувствие новой эры принимает у них мистическую окраску. Основным источником мистических чаяний становится философия и поэзия Владимира Соловьева [10]. Реальное развитие России заставило Соловьева выдвинуть идею законченности мировой истории, наступления ее последнего периода, завершение борьбы между Христом и Антихристом. Ожидание нового откровения, близкого конца становится их темой, их своеобразной мистической лексикой. Идея завершенности исторического развития культуры была вообще характерна для декадентского направления. Идея прогресса рассматривалась как исход борьбы между Востоком и Западом, будущего мессианства России, понимание истории как гибели и возрождения (всеединства) личности и ее нравственного преображения в красоте, религиозном чувстве.

«В творчестве Блока отношение к Мировому Злу меняется. Поэт признает совершенство «дьявольского» космоса, но не принимает его, содрогаясь в предчувствии грядущих катастроф. К 30-м годам XX века гностические настроения постепенно угасают, диссонируя с жизнеутверждающим пафосом социалистического искусства. Идеи «дьяволиады» не укладываются в новый культурный контекст».

Явления материального мира выступали для символистов лишь как символ идеи. Поэтому основным стилевым выражением символистского метода становится «двоемирие», параллелизм, «двойничество». Образ всегда имел два значения, заключал в себе два плана. Постигание сущностей высшего плана теоретиками символизма связывалось с постижением мира эмпирической реальности. Художник должен видеть абстрактное в индивидуальном явлении не только сохраняя, но и усиливая его индивидуальность.

Выводы. Таким образом, в XX веке русская литература начинает по-настоящему обживать дьявольское измерение. Первой, уловив разразившуюся в стране духовную катастрофу, литература Серебряного века выразила ее в религиозно-духовной проблематике. Булгаковский Воланд уже выражает новый взгляд на люциферизм, которым и завершились поиски поэтов Серебряного века. Отталкиваясь от образа Мефистофеля, Воланд выражает особого героя, бытийно даже более могучего, чем представленный там же Иешуа, что дает возможность пересмотреть тему падшего ангела с совершенно неожиданных позиций. Подсвеченный романтической струей, булгаковский дьявол не просто коварный соблазнитель, сделка с которым ни при каких обстоятельствах не обернется выгодой для смертного, - это внутренне сложный персонаж, не лишенный чести и благородства. Добро и зло у Булгакова не противопоставлены, а взаимно дополняемы, более того, образ Воланда вобрал в себя некоторые христианские добродетели, совместив их одновременно с функциями судьи и палача, карающего заслуживающих возмездия.

Заключение. Михаил Булгаков создавал роман-миф («Мастер и Маргарита») как бы отталкиваясь от традиций Серебряного века. В этом произведении четко прослеживаются дуалистические противопоставления тени и света, милосердия и справедливости, мира Божьего и царства Князя Тьмы, преступления и наказания. В мифологическом сопоставлении даны два города (Москва и Ершалаим) как сакральное соединение сиюминутного настоящего с вечностью. Разлад между вечными

нравственными ценностями и действительностью 30-40-х годов, отметавшей культурное наследие великой страны, нашел свое отражение в этом произведении. Романтическое двоемирие оказывается близким для мироощущения Булгакова. В образе булгаковского Сатаны проявляется общая тенденция оправдания дьявола.

Использованная литература.

1. Введение в курс философии (под ред. акад. Ф.С. Файзуллина). - Уфа: УГАТУ, 1996;
2. Зинин С.А. Внутри предметные связи в изучении школьного историко-литературного курса. -М.: «Русское слово», 2004
3. Бушмин А. Преемственность в развитии литературы. (Электронный ресурс). – URL: <http://www-kniga.ru/free/preemstvennost-v-razvitii-literatury.html>
4. Яблоков, Е. А. Лицо времени за стеклом вечности. Историо философия Михаила Булгакова. // ОН: Общественные науки и современность. - 1992. - №3. - С. 97-108.
5. России и русской философской культуре. - М.:1990. – С.322.
6. Бушмин А. Преемственность в развитии литературы. (Электронный ресурс). – URL: <http://www-kniga.ru/free/preemstvennost-v-razvitii-literatury.html>
7. Цитируется по кн.: Галинская И.Л. Владимир Набоков: современные прочтения: Сб.науч.тр. / РАН. ИНИОН. Центр гумани. науч.-информ. исслед. Отд. культурологии; Отв. ред. Скворцов Л.В. – М.: 2005. – С. 8.
8. Ковтун Н. Русская культура XX века в контексте «сатанинского» мифа. В Кн.: Смыслы мифа: мифология в истории и культуре. Сборник в честь 90-летия профессора М.И. Шахновича. Серия «Мыслители». Выпуск №8 - СПб.: Издательство Санкт-Петербургского философского общества, 2001. - С. 300.
9. Соловьев Вл. Общий смысл искусства. (Электронный ресурс). – URL: http://nhkh.ru/soloviev/smysl_isk.html

Saidov Jasur Shavkatovich,

Buxoro davlat universiteti,

Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasi o'qituvchisi

O'ZBEK OPERA SAN'ATINING RIVOJLANISHI VA MUSIQA TA'LIMIDA QO'LLANILISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya: Maqolada o'zbek opera san'atining rivojlanishi va musiqa ta'limida qo'llanilish imkoniyatlari, talabalarni bu san'atga qiziqishini uyg'otish, o'zbek opera asarlarini o'rgatishda musiqiy idrok masalalari pedagogik muammo ekanligi hamda talabalarda tinglash madaniyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalarning samaradorlik darajasi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Opera, libretto, xoreografiya, uvertyura.

Аннотация: В статье развитие узбекского оперного искусства и возможности его использования в музыкальном образовании, пробуждение интереса учащихся к этому искусству, вопрос музыкального восприятия при преподавании узбекских оперных произведений является педагогической проблемой, а также пути развития слушательской культуры, у студентов обсуждается уровень эффективности современных педагогических технологий.

Ключевые слова: Опера, либретто, хореография, увертюра.

Annotation: In the article the development of Uzbek opera art and the possibilities of its use in music education, awakening the interest of students in this art, the issue of musical perception in teaching Uzbek opera works is a pedagogical problem, as well as ways of developing the listening culture of students, the level of effectiveness of modern pedagogical technologies is discussed.

Key words: Opera, libretto, choreography, overture.

Kirish. Butun dunyo bo'yicha olganda barcha musiqiy janrlarning eng yuqori cho'qqisi bu opera san'ati hisoblanadi. Opera boy badiiy imkoniyatlari bilan betakror bo'lgan serqirra janr sifatida haqiqiy ijodni o'zida namoyon etib, inson ichki dunyosining nozik qirralarini tasvirlash qobiliyatiga ega bo'lgan va hayotning diqqatga sazovor bo'lgan ko'nikmalarini musiqiy obrazda umumlashtiruvchi o'ta murakkab badiiy ijod turi bo'lib, faqatgina o'ziga xos shakllarni, ijodiy estetik va texnologik masalalarning keng doirasini ko'zda tutuvchi janrdir. Shuning uchun ham bu san'at talabani tinglashi yoki sahnadagi jarayonni ilk marotaba ko'rishidayoq o'ziga jalb etuvchi xususiyatga ega. Opera-bu teatr, she'riyat, raqs va musiqani birlashtiruvchi sintetik janr. Uning badiiy ta'sir vositalari chegarasiz va shuning uchun ham u musiqa sohasida yetakchi o'rin egallaydi. Opera ("italyancha"- opera so'zma - so'z, "lotincha" mehnat mahsuli, ish, asar) sintetik, murakkab janr, yirik musiqali sahna asari hisoblanadi. Opera san'atiga bo'lgan qiziqish avvalambor janrning kuchli badiiy ta'siri bilan belgilanadi. Chunki, opera janri vokal, cholg'u musiqasini, she'riyat, teatr va tasviriy san'at, raqs, balet san'ati va plastik harakatni o'zida birlashtiradi. Bu albatta talaba bir opera san'atini o'rganishi orqali, san'atning bir nechta yo'nalishini mukammal o'rganishi uchun katta imkon beradi. Opera san'ati inson tafakkurining yuksak namunalaridan biri hisoblanadi. Musiqa tarixida uning taqdiri muhim va alohida ahamiyatga molik. Janr paydo bo'lishi bilanoq eng yirik, demokratik hamda insonlarni ma'naviy madaniyatiga o'z ta'sirini o'tkaza oladigan san'at turi sifatida rivojlanadi. Opera aytishimiz joizki, klassik davrda o'ziga xos, romantizm davrida o'zgacha, 20-asrda esa turli qiyofalarda o'zini namoyon qildi. Musiqa san'atining yirik, monumental janrlaridan biri bo'lgan opera, O'zbekistonga 20-asrning boshlarida kirib keldi. Milliy o'zbek operalarining dastlabki namunalari ta'kidlab o'tkanimizdek, o'zbek musiqali dramasi rivoji asosida yuzaga kelgan. Dastlabki o'zbek operalari o'zbek va rus kompazitorlari ijodiy hamkorligida yuzaga kelgan bo'lsa, keyinchalik tarixiy, romantik, lirik, dramatik mavzularga murojaat etib, kompozitorlarning mustaqil ijod namunalari paydo bo'ldi.

O'zbek opera san'ati o'z taraqqiyoti davomida kompozitorlar tomonidan turli uslub va yo'nalishlarda qamrab olindi. O'zbek operalarining deyarli barchasi yevropacha shakllar asosida, milliylik ruhi va xalqimizning turli an'analari xos tarzda tarannum etilgan. Shuning uchun ham bugungi kunda, Yangi O'zbekistonni barpo etishda bu san'atning ahamiyati va roli juda ham katta.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. O'zbek opera san'ati xususida Respublikamiz olimlari va kompozitorlari Rustam Abdullayev "Opera dramaturgiyasi", T.Y.Solomonova "O'zbek musiqasi tarixi", D. Murodova. "Mustaqillik davri o'zbek kompozitorlik ijodiyoti to'g'risida-musiqqa ijodiyoti masalalari" A.Jabborov "Musiqali drama va komediya janrlari O'zbekiston kompozitorlarining ijodiyotida" kitoblarida, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) olimlaridan Andrey Slonim, Firuddin Safarov, Irkin Gabitov, Rudakiy Allanbayevlar o'zlarining bir qator maqola va kitoblarida zamonaviy va milliy o'zbek operalarda an'analarning yangilanish jarayoni xususida, chet el olimlari - Pekker. Ya "O'zbekskaya opera", T.Vizgo A.Kazlovskiy "Ulug'bek", Plungyan. V "Maysaraning ishi" kitoblarida o'zbek operalarining paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari haqida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar.

Har qanday millatga mansub qo'shiqchi uchun nafas olib kuylash muhimligini ta'kidlab mashhur qo'shiqchi G'ulom Abdurahmonov shunday degan edi: "Milliy vokal uslubi nutqning xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Eng asosiysi tilning nozikligini his etishdir. Har qaysi millatga o'zining nutq uslubi va o'ziga xos intonatsiya xususiyatlari bo'ladi. Mana shularni qo'shiqda aks ettira olish kerak. Italiya maktablaridan opera tovushini va uning yo'nalishini olish, kuylash usuli esa har bir millatning tiliga mos bo'lishi lozim" (G'. Abdurahmonovning Tamara qiziga yozib olgan xotiralaridan).

Tahlil va natijalar. Yusak ma'naviyatli jamiyat qurish va Yangi O'zbekistonni barpo etishda va jahon hamjamiyatiga kirib borish ko'p jihatdan ma'naviy madaniyatning taraqqiyoti uchun o'zbek opera san'atining rivoji alohida ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, yosh iste'dod egalarini tarbiyasida musiqaning ayniqsa, opera san'atining o'rni beqiyos. Bu san'atni talabalarga o'rgatishimizda e'tibor beriladigan bir nechta jihatlari mavjud. Aytishimiz joizki, bugungi kunda aksariyat ko'pgina talabalar jiddiy musiqani tinglashmaydi. Buning sababi ham bitta, chunki bu musiqa janri boshqa san'at janrlariga qaraganda biroz murakkab bo'lganligi tufayli uni tushunishmaydi. Talabalarga bu janrni tushuntirish uchun esa o'qituvchidan katta mahorat va tayyorgarlik talab etadi. Talabani bu san'atga qiziqishini uyg'otish, eng avvalo tinglashga o'rgatish kerak. Tinglash mobaynida o'qituvchi rahbarlik qilishi, eng muhimi tinglanayotgan asar talabalar yoshiga mos va esda qolarli bo'lishi, har tomonlama (musiqiy ohang, sur'at) jihatidan yengilroq bo'lishi, o'qituvchi tinglanayotgan asar mazmuni orqali talabalarga axloqiy-estetik tarbiya berib borishi lozim deb o'ylayman. Ayrim nazariyachilar milliy operada bo'g'iz bilan kuylashni saqlab qolish zarurligini ya'ni o'zbek xalq qo'shiqlariga xos kuylash usulini o'zgartirmaslik kerakligini isbotladilar. Ammo sekin-asta har qanday opera qo'shig'i o'zining butun dunyo opera madaniyatiga xos qanaqadir umumiy xususiyatlarga ham ega bo'lishi kerak deb hisoblandi. Operaning adabiy asosi librettodagi voqealar, musiqiy dramaturgiya vositalari bilan, avvalo, vokal musiqa shakllarida gavdalantiriladi. Qahramonlarning hissiy kechinmalari, asosan, yakkaxon opera xonandalari ijrosidagi ariya, ariozo, kavatina kabi tugal musiqa asarlarida o'z ifodasini topadi. Operadagi rechitativ tugal musiqa shakllarini o'zaro bog'lab, musiqiy dramaturgiya jarayonida muhim vazifalar bajaradi. Ariyalar, ariozolar, kavatinalar o'z-o'zidan operani tashkil etmaydi. Operaning klassik turida syujetni va harakatning rivojlanishini ommaga yetkazishning asosiy vositasi bu rechitativdir. Rechitativ oddiy akkordlar bilan qo'llab-quvvatlangan va tabiiy nutq intonatsiyasiga asoslangan erkin metrda tez ohangdor deklomatsiya hisoblanadi. O'zbek operalarida rechitativlar kam uchraydi. Komik operalarda rechitativ ko'pincha dialog bilan almashtiriladi. Buni S.Yudakovning "Maysaraning ishi" komedik (buffa) operasida, Qozi va Mullado'st sahnasida uchratish mumkin. Rechitativ og'zaki matnning ma'nosini tushunmaydigan

tinglovchi o'quvchilar uchun zerikarli bo'lib tuyulishi mumkin, lekin u ko'pincha operaning mazmun tuzilishida ajralmas hisoblanadi. Turli vokal ansambllari jumladan, duet, trio, kvartet, kvintetlarda qahramonlarning bir-birlari bilan o'zaro munosabatlari, dramatik, lirik, komedik voqealar o'z aksini topadi. Operaning mazmun-mohiyati ashuladan iborat ekan, dramaning eng yuqori lahzalari ariya, duet va boshqa shartli shakllarning tugallangan shakllarida aks etadi. Bunda musiqa oldinga chiqadi, ariya monologga, duet dialogga o'xshaydi, trio odatda personajlardan birining qolgan ikki ishtirokchisiga nisbatan qarama-qarshi tuyg'ularini o'zida mujassam etadi. Keyinchalik murakkablashishi bilan turli xil ansambl shakllari paydo bo'ladi. (kvartet, kvintet, sekstet) Bunday shakllarning kiritilishi odatda, bir yoki bir nechta his-tuyg'ularning rivojlanishi uchun, joy ochish uchun harakatni to'xtatadi. Ansamblga birlashgan xonandalar guruhigina sodir bo'layotgan voqealarga bir vaqtning o'zida bir nechta fikrlarni bildirishi mumkin.

O'zbek opera san'ati turmush sharoitlariga ko'ra, zamon talablariga asosida asta-sekinlik bilan musiqali drama ildizida o'z rivojini topdi. O'zbekistonda opera san'atining vujudga kelishi, uni rivojlanishida rus musiqa san'ati va madaniyatining alohida hissasi borligini ta'kidlab o'tishimiz lozim. Kompazitorlar V.A.Uspenskiy, R.M.Glier, A. Kazlovskiy, G. Mushel va boshqalar o'zbek musiqa san'atining turli janrlarida, jumladan, opera janrida ham ijod qilganliklari, o'zbek operalarini yaratilishida o'zlarining ulkan hissalarini qo'shganliklari sababli, o'zbek opera san'atini yana ham boyiganini ko'rishimiz mumkin. O'zbek milliy operalarida undagi eng qimmatli narsa bu maftunkor ohang, kompazitorlar tomonidan tasvirlangan personajlarning tabiiyligi, syujetning soddaligi va uyg'unligi, tinglovchi-tomoshabinlar uchun tushunarli, jonliligidir. O'zbek operalarinig dunyoga kelishi bu zamon talabi bo'lib, Respublikamizning madaniy rivojiga yana bir katta qadam hisoblendi. Shu orqali o'zbek operalari dunyo sahnalarini ko'rish uchun zamin bo'ldi.

“Opera musiqa va teatr o'rtasidagi o'zaro muhabbatdan tug'ilgan san'atdir, bu musiqa bilan ifodalangan teatrga o'xshaydi” deb yozadi zamonamizning ko'zga ko'ringan opera rejissyorlaridan biri B.A.Pokrovskiy. Rassom tabiatni bo'yoqlar bilan tasvirlasa kompozitor va musiqachi tabiatni musiqa bilan ta'riflaydi va shu orqali opera san'ati o'quvchilar qalbiga, ongiga kirib boradi. O'zbek opera san'atini talalarga o'rgatishda eng avvalo asarning mazmuni haqida gapirib, o'qituvchi tomonidan ijro etib berilsa, darslarni o'tishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda darslar olib borilsa, musiqa darslarini ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish mazmuni, shakl, usullari aniqlansa, ta'limga texnologik yondashishning ilmiy – nazariy va amaliy jihatlariga asoslansa dars samaradorligi yanada oshadi. Kuzatuvlarim davomida shunga amin bo'ldimki, ijodkorlar opera sohasidagi izlanishlar natijasida orttirgan zarur tajriba va erishgan yutuqlari pirovardida bu jabhada muvaffaqiyat qozonganliklarining asosiy sababi xalq musiqasiga va tarixga asoslanganliklaridir. Talaba bunda nafaqat opera musiqasini balki tarixni ham o'rganadi. Aytishimiz joizki, talabalarda musiqiy didini oshirishda uni tarbiyalashda o'qituvchining mahorati muhim rol o'ynaydi. Tajriba-sinov ishlarini olib borishim jarayonida ishlatilgan uslublar o'zbek opera san'atining paydo bo'lish va rivojlanish tarixini, uning xususiyatlari, mavzu va janrlari talabalarining ma'naviy-axloqiy tarbiyasidagi potentsional imkoniyatlarini aniqladi. O'qituvchi kuylash uchun opera ichidagi biror-bir ariya, ariozo, kavatina tanlar ekan, avvalambor asarning badiiy qiymati, mazmuni, tarbiyaviy ahamiyati, obrazlar doirasini sinchiklab tahlil qilib chiqadi. Olingan natijaga qarab qo'shiqni ya'ni ariya yoki ariozoni o'rgatish metodlari tanlandi va shu metodlar asosida ish olib boriladi. Dars mashg'ulotlari farayonida asosan multimedia orqali talabalarining musiqiy savodini oshirish, o'zbek opera san'atiga muhbbat uyg'otish, opera va akademik xonandalik san'atining o'zaro ajrata olishi, ularni eshitib anglab farqlay bilishi, akademik xonandalik opera san'atining o'ziga xos turlariga bo'linishiga, har birining o'ziga xos ijro pastanovkasi mavjudligi haqida har bir talabaga alohida-alohida tushuntirilib berish lozim deb o'ylayman.

- O'zbek opera san'atining musiqa ta'limida qo'llanilishida e'tibor beriladigan eng birinchi jarayon bu, talabalarining ovoz imkoniyatlaridan kelib chiqib, yosh doirasiga mos to'g'ri asar tanlay bilishdir.

- Talabalarga opera asarini o'rgatishdan oldin, opera janrining o'ziga xos xususiyatlari, tarixi haqida, opera kompozitori, asar muallifi, opera yaratilgan davr va asarning mazmuni (librettosi) haqida hikoya qilib berish lozim.

- Asarning xarakterini talaba yaxshiroq tushunishi uchun opera parchalari asosan muqaddima (uvertyura) va ariyalar (original ijrosi) tinglash uchun tavsiya etiladi. Chunki uvertyura simfonik orkestr ijrosidagi sof cholg'u musiqa bo'lishiga qaramay, u operaning asosiy musiqiy materialidan qisqartirilib olinadi va talabaga asar haqida nisbatan yaxlitroq tasavvur paydo qiladi.

- Opera asarini o'rgatishdagi muhim masalalardan biri bu-so'z. So'z matnning operadagi o'rni hisoblanadi. Shuning uchun talabalar bilan ko'proq so'z ustida ishlash lozim. Kuylash jarayonida so'z yaxshi talaffuz etilmasa, asarni tushunish ham shunchalik qiyin bo'ladi.

Ta'lim jarayonida talabalar o'zbek opera san'atini butun nafosati bilan o'rganishlari, idrok etishlari ommaviy faoliyatlari: opera asarining simfonik orkestr jo'rligida yangragan musiqa qismini (uvertyura) tinglash, uni tahlil qilish, jamoa bo'lib opera asarining ommaviy xor sahnalarini kuylash, nazariy bilimlarni o'zlashtirish (musiqa savodxonligi), asarga ritmik jo'r bo'lish masalalarini shakllantirish musiqiy ta'limning bugungi kundagi asosiy mazmunini tashkil etadi.

Xulosa. Qaysi xalqning madaniy tarixi qanchalik qadimiy bo'lsa, o'sha xalqning axloqiy go'zalligi, urf-odat rang-barangligi, ko'lami keng, ta'lim-tarbiya ildizlari ham shunchalik chuqur bo'ladi. Chunki har qanday madaniyat, axloq, urf-odat va ta'lim-tarbiya inson faoliyatining kechinmalari, sinovlari boy hayotiy tajribalari asosida yuzaga keladi va maqbullari avlodlar avlodga o'tadi.

O'zbek opera san'atining paydo bo'lishi nafaqat musiqa san'atidagi ulkan taraqqiyotdan darak beradi, balki yurtimizda musiqaning dunyoviy unsurlari o'sib borayotganidan dalolat beradi. Bugungi kunda o'zbek operalarining mavzu va mazmun doirasi yanada kengaytirib, musiqiy ohanglar serjiloligi boyitildi. Mazmunni talqin qilishda, musiqiy kompazitsiyaning boyishida asosiy urg'u milliy hamda umumbashariy ma'naviy qadriyatlarni tarannum etishga, murakkab vaziyat va psixologik holatlarni chuqur iroda etishga qaratildi. Ushbu davr o'zbek kompazitorlari opera asarlarida o'zbek xalq musiqa merosi: maqom yo'lidagi ashular, katta ashulalar, xalq kuyi va mumtoz ashulalaridan kengroq foydalanishdi. Milliy ijrochilik an'analarini zamonaviy ifoda va musiqiy texnik vositalar bilan uzviy bog'lashdi. Hozirgi davrda haqiqiy hayotiy san'atga bo'lgan ochiq intilish zamonaviy talabani hayajonga soluvchi muammolarni, uning his-hayajonlarini, fikrlarini yorqin tasvirlashga qaratilgan talaba ongidagi chuqur rivojlanishdan dalolatdir. O'zbek opera san'ati janrining kompleks tabiati uni yakka opera xonandalari, ommaviy xor jamoasi, balet raqqoslari, mimans (sahna aktyorlari) bilan birgalikda, simfonik orkestr jo'rligida katta sahnada ijro etilishi, keng demokratik auditoriya bilan muloqotda bo'lishni taqozo etdi. O'zbek opera san'atining talabalar o'rtasida tutgan o'rning o'ziga xosligi ham shundan iboratdir.

Tavsiyalar. "Opera va faqat opera sizni odamlarga yaqinlashtiradi, musiqangizni haqiqiy tomoshabinga o'xshatadi. Sizni nafaqat alohida davralarning, balki qulay sharoitlarda- butun xalqning mulkiga aylantiradi" degan edi o'z zamonasining mashhur kompozitori Pyotr Ilich Chaykovskiy.

Birinchiidan, Opera janri musiqasi talabalarda estetik zavq uyg'otishi bilan birga ularning g'oyaviy emotsional kechinmalarini yuksaltiradi, fikrlarini teranlashtiradi, ularga hayotni, haqiqatni bilishga, insoniy kamolga erishishida yordamlashadi.

Ikkinchidan, talabalar milliy o'zbek opera san'atini o'rganish orqali bu san'atiga hurmat, muhabbat, uni o'rganishga qiziqishni, shu orqali ularda kuylash, vokal madaniyatlarini shakllantirishda, milliy ong, milliy mafkurani shakllantirishda katta yordam beradi.

Uchinchidan, o'zbek operalari asosan tarixiy mavzularda, xalq kuylari, xalq qo'shiqlaridan foydalanib, simfonik orkestrga moslashtirib yozilgan. Bu orqali talabalar nafaqat operani, balki, tarixni hamda xalq kuylariga asoslangan vokal qo'shiqlarni ham o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Пеккер Я. “Узбекская опера” Москва, 1984.
2. E.Rahimov “Vokal” Toshkent, 2010-y.-[38-45 b];
3. Rustam Abdullayev “Opera dramaturgiyasi” Toshkent, 2007-y. [27-76 b];
4. Saidov J.Sh, O'zbek opera san'atini shakllanish asoslari “Central Asian journal of education and innovation” Volume 1, Issue 2, December 2022, pp 140-143; <https://doi.org/10.5281/zenodo.7439632>
5. Saidov J.Sh, Zamonaviy estrada san'ati o'zbek kompozitorlarining ijodiyotida Pedagogik ta'lim: xalqaro tajriba va innovatsion yondashuvlar” mavzusidagi an'anaviy ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Buxoro, 2022-yil 6-aprel, 896-902-B.
6. Saidov. J.Sh Amaliy mashg'ulot jarayonida talabalarga o'zbek kompozitorlarining romanslarini o'rgatish usullari “Медицина, педагогика и технология: теория и проактика” Том 2, Выпуск 2, 198-207 <https://universalpublishings.com>
7. Saidov J.Sh O'zbek opera san'atining mustaqillik davrida rivojlanish bosqichlari /TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN-2023. Volume 1, Issue-4 C.88-95: <http://universalpublishings.com>
8. Rajabov Tuxtasin Ibodovich. Effectiveness of the process of teaching Bukhara children folk songs in music class. <https://www.eurchembull.com/issue-content/effectiveness-of-the-process-of-teaching-bukhara-children-folk-songs-in-music-class-7277ECB> European Chemical Bulletin.ISSN 2063-5346 Eur. Chem. Bull. 2023, 12 (Special Issue 4), 16389-16397.
9. Rajabov Tuxtasin Ibodovich,Madrimov. B. Kh, Nurullaev F.G Teaching bukhara children folk songs in music lessons as an actual problem. International Journal of Psychosocial Rehabilitation 6049-6056 бет Vol. 24, Issue 04. 2020йил. ISSN: 1475-7192
10. Rajabov, Tuxtasin Ibodovich. B.Jamilova N.Safarova K.Nusratova X.Bakieva Basics of Uzbek Children's Reading. TEST Engineering & Management November-December 2019 ISSN:0193-4120 Page No.4207-4214 Published bu:The Mattingley Publishing Co,Inc
11. Rajabov, Tuxtasin Ibodovich. Practical situation of teaching uzbek musical folklore in the continuous education system. International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE)

Komilov Nodirbek Bokijonovich,
Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti dotsenti,
Pedagogika fanlari doktori (DSc)

TIBBIYOT TARIXI FANINING OLIY TIBBIY TA'LIMNI TRANSFORMATSIYA QILISH JARAYONIDAGI O'RNI

Annotatsiya: Ushbu maqolada tibbiyot tarixi fanining zamonaviy tendensiyalari haqida fikr yuritilib, jahon olimlarining ushbu fan doirasida olib borgan tadqiqotlari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: tibbiy ta'lim, kompetensiya, tendensiya, metodika, tibbiy deontologiya, tibbiy amaliyot, ijtimoiy prinsip, gumanitar fanlar, empirik tadqiqot, didaktik imkoniyat.

Аннотация: В данной статье отражены современные тенденции в истории медицины и представлена информация об исследованиях, проведенных мировыми учеными в этой области.

Ключевые слова: медицинское образование, компетентность, тенденция, методология, медицинская деонтология, медицинская практика, социальный принцип, гуманитарные науки, эмпирические исследования, дидактические возможности.

Annotation: This article reflects on modern trends in the history of medicine and provides information on the research conducted by world scientists in this field.

Key words: medical education, competence, trend, methodology, medical deontology, medical practice, social principle, humanities, empirical research, didactic opportunity.

Kirish. Bugun jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy hayot sharoitlarining o'zgarishi va mamlakatimiz sog'liqni saqlash tizimi tubdan isloh qilinishi munosabati bilan zamonaviy tibbiy ta'lim oldida turgan dolzarb muammolarni hal qilishga qaratilgan turli xil chora-tadbirlar ishlab chiqilib amaliyotga tadbiq etilmoqda.

Jamiyatdagi qadriyatlarining o'zgarishi, bozor iqtisodiyoti qonunlarining ustunligi tibbiy ta'limning davlat-o'qituvchi-shogird tizimida alohida munosabatlar paydo bo'ladigan sohaga aylanishiga olib keladi. Ushbu munosabatlarning o'ziga xosligi ko'p jihatdan tibbiyot xodimlarini kasbiy tayyorlash jarayoniga va talabalarining kelajakdagi kasbiy ixtisoslik yo'nalishini tanlashiga ta'sir ko'rsatadigan turli omillarga bog'liq.

Tibbiyot universiteti talabalarini kasbga yo'naltirish jarayoni oliy tibbiy ta'lim tizimining kredit tizimi asosida yo'lga qo'yilishi munosabati bilan alohida ahamiyatga ega bo'lib, uning asosiy tamoyili oliy ma'lumot olishda talabalarining o'z ta'lim strategiyalarini shakllantirishdagi faol rolidir. Bu jarayonda universitet o'quv faoliyatining samarali algoritmlarini ishlab chiqish va amalga oshirish orqali talabalar tomonidan kelajakdagi mutaxassislikni tanlashning omillari va motivlariga ta'sir qilish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

Tibbiyot tarixi fani tibbiyot ta'lim muassasalarida muhim o'rin tutadi, chunki u talabalarga tibbiy bilimlarning tarixi, ilmiy va kasbiy qadriyatlarini shakllantirishga yordam beradi. Tibbiyot tarixi fanini o'qitishda quyidagi asosiy yo'nalishlar mavjud:

1. Tibbiy ilmiy an'analarni va ularning rivojlanishini o'rganish. Tibbiyot tarixi fanini o'qitishda talabalarga tibbiyotning tarixiy rivoji, o'tmishdagi muhim kasbiy yutuqlar va fanning zamonaviy holatiga erishish uchun qilingan mehnat haqida bilimlar beriladi. Bu talabalarga tibbiyotdagi muammolarga tarixi va ilmnining turli bosqichlaridan kelib chiqib yondashishga yordam beradi.

2. Tibbiy ta'limning tarixi va rivojlanishini tushunish. Tibbiyot ta'limi tarixi talabalarga tibbiy ta'limning paydo bo'lishi, rivojlanishi va jamiyatga bo'lgan ta'siri haqida tushuncha beradi. Bu talabalarga tibbiy ta'lim tizimining o'tgan davrlardan bugungi kungacha qanday o'zgarganini va rivojlanganligini tushunish imkonini yaratadi.

3. Tibbiy axloq va kasbiy qadriyatlarni shakllantirish. Tibbiyot tarixi fani talabalarga tibbiy axloq, kasbiy mas'uliyat va insonparvarlikka asoslangan yondashuvlarni o'rgatishga qaratilgan. Tibbiy ta'limda talabalarga ma'naviy asoslar va tibbiy kasbning axloqiy jihatlari ta'lim jarayonida katta ahamiyatga ega. Tarixiy masalalar va o'tmishdagi shifokorlar va olimlarning ishlari orqali axloq va etika nazariyasini talqin qilish talabalarning kasbiy ma'naviyatini mustahkamlaydi.

4. Zamonaviy tibbiy texnologiyalar va usullarning tarixi. Tibbiyot tarixi fanini o'qitishning yana bir muhim yo'nalishi zamonaviy tibbiy usullar va texnologiyalarning tarixi bilan bog'liq. Talabalarga tibbiyotdagi muhim yangiliklar, innovatsiyalar va ilmiy yutuqlar haqida ma'lumotlar berish orqali, ular zamonaviy tibbiyotni tarixiy xulosalar bilan anglashadi.

5. Tibbiy fanning global rivojlanishini va xalqaro tajribalarni o'rganish. Tibbiyot tarixi fani talabalarga tibbiyotning turli davlatlardagi rivojlanishini, xalqaro tibbiy hamkorlik va ilmiy aloqalarning ahamiyatini o'rganishga yordam beradi. Talabalar tibbiy fanning global ahamiyati va uning jahon miqyosdagi ta'sirini tushunish imkoniga ega bo'ladilar.

6. Tarixiy tadqiqotlar va ilmiy ishlanmalarni qo'llash. Tibbiyot tarixi fanini o'qitishda talabalarga tarixiy tadqiqotlar va ilmiy ishlanmalarning ahamiyatini tushuntirish muhim. Bu ularga o'z tadqiqotlarini yuritishda tarixiy kontekstni hisobga olish va ilmiy yutuqlarning tarixiy jihatlari qo'llashga yordam beradi.

7. Interaktiv ta'lim usullari va muloqotni rivojlantirish. Tibbiyot tarixi fanini o'qitishda talabalarni faol muloqot va interaktiv ta'lim usullari bilan o'qitish ahamiyatlidir. Bu metodlar talabalarning nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llashga yordam beradi, shuningdek, ularning fikrlash va ta'lim jarayoniga ishtirok etish qobiliyatini rivojlantiradi.

8. Tibbiy tarixning madaniy va ijtimoiy ahamiyati. Tibbiyot tarixi fani talabalarga tibbiyotning madaniy va ijtimoiy jihatlari tushunishga yordam beradi. Tibbiy fanning tarixiy rivoji jamiyatning tibbiyotga bo'lgan munosabatini, tibbiyotning ijtimoiy ahamiyati va inson huquqlariga ta'sirini ko'rsatadi.

Adabiyotlar taxlili va metodologiya. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, tibbiyot tarixi fani dastlab Yevropa va AQShda tibbiyot oliy ta'lim muassasalari uchun fan sifatida kiritilgan va bu jarayon ijobiy natijalarga olib kelgan edi. Keyinchalik bu fan, hatto magistratura bosqichida ham o'qitilishi lozimligi belgilangan edi.

Ushbu fanni o'qitish, uning asosiy yo'nalishlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etishi barobarida bo'lajak shifokorlarda ekslyuziv kompetensiyalarni shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi.

Nemis olimi Kurt Shprengel o'zining besh jildli "Tibbiyotning pragmatik tarixi haqida ocherk (1792-1803)" asarida tibbiyot tarixining asosiy jihatlari tasvirlab beradi. Uning fikricha tibbiyot tarixi quyidagi ijobiy xususiyatlarga ega:

1. Tibbiyot tarixi - shifokor ongi-tafakkuri rivojlanishining asosiy bo'lagi;
2. Tibbiyot tarixi - tibbiy bilimlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradigan kuch;
3. Tibbiyot tarixi - shifokorda fuqarolik burchi va mas'uliyatini tarbiyaladigan vosita;
4. Tibbiyot tarixi - bo'lajak shifokorlarni intellektual kamtarlik va bag'rikenglikka o'rgatish usuli [1].

XIX asr davomida tarixchilar o'tmishga murojaat qilish orqali qimmatli saboqlarni olishga harakat qilishdi. Keyingi o'n yilliklar davomida nemis olimlari bu dalillarni takrorladilar va takomillashtirdilar, ya'ni tarixni takabburlikka qarshi vosita sifatida taklif qilish, tibbiyot tarixi va tarixiy patologiyani o'rganish orqali shifokorlarga kasallikning etiologiyasini tushunishlariga yordam berish. Bu borada tibbiyot tarixi - qimmatli gnoseologik vosita ekanligini ta'kidladilar.

Natijalar. Tibbiyot tarixi fani oliy tibbiy ta'limni transformatsiya qilish jarayonida muhim o'rin tutadi. Uning ahamiyati quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

1. Ta'limning ma'naviy va ma'rifiy asoslari - tibbiyot tarixi fani talabalarga tibbiy bilim va an'analarning rivojlanishi haqida tushuncha beradi. Bu kelajakda tibbiy bilimlarning qadr-

qimmatini anglab, ma'naviy-axloqiy asoslarga asoslangan qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

2. Kasbiy qadriyatlarni shakllantirish - fan orqali talabalar tibbiy axloq, mas'uliyat va insonparvarlikning tarixi bilan tanishadilar. Bu ularning kasbiy faoliyatida qat'iy qadriyatlarning shakllanishiga yordam beradi.

3. Tarixiy xulosalar asosida innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash -tibbiyot tarixi fani rivojlanishning o'tmishdagi turli bosqichlarini o'rganib, hozirgi zamon tibbiyotini takomillashtirishda ilmiy yutuqlar va xato-qolishlarni baholash imkoniyatini beradi.

4. O'quv jarayonining transdissiplinarligi - tibbiyot tarixi fani nafaqat tibbiy bilimlarni, balki tarix, falsafa, madaniyat va jamiyatshunoslik bilan bog'liq bilimlarni ham o'zida mujassamlashtirib, talabalarning umumiy dunyoqarashini boyitadi.

5. Tibbiy ta'limni globalashtirish - fan orqali talabalar turli davlatlardagi tibbiyot rivojlanishi va uning zamonaviy global tahdidlarga qanday javob berganini o'rganadilar. Bu ularni xalqaro miqyosda faoliyat yuritishga tayyorlaydi.

6. Tibbiy metodologiya va fanning asoslarini o'rganish - tibbiyot tarixi talabalarga ilmiy yondashuv, klinik tadqiqotlar va tibbiyotning rivojlanish bosqichlarini tushunishga yordam beradi. Bu ularga muammolarga ilmiy asoslangan yondashuvni ishlab chiqishni o'rgatadi [2].

Muhokama. Tibbiyot tarixi fani asrlar davomida tibbiy ta'lim muassasalarida bo'lajak shifokorlarga dastur sifatida o'qitilib kelinmoqda. Sababi har bir shifokor o'zi mehnat qilayotgan sohaning tarixini mukammal bilishi va bu sohada muvafaqqiyatli ish olib borishi lozimdir. Eng muhimi, bu jarayon tibbiy deontologiya ajralmas qismi hisoblanadi.

Shunga o'xshash dalillar Fransiya, Angliya va Amerika Qo'shma Shtatlarida paydo bo'lgan. Masalan, Tomas Djefferson o'zining shaxsiy shifokori Robli Dungalisonni Virjiniya universitetida tibbiyot va uning tarixidan dars berish uchun yollagan, chunki "talaba ilm-fanning oldingi taraqqiyotidan nimanidir o'rganishi kerak" degan tushuncha bo'lgan. Demak, tibbiyot tarixi fani barcha davrlarda tibbiyotning asosiy tarmog'i hisoblangan va uni o'rganish muhim bo'lgan.

Tibbiyot tarixiga ijobiy munosabat tufayli 1929-yilda AQShda "Tibbiyot tarixi instituti" tashkil etiladi. Uning birinchi prezidenti bo'lgan YE.Kordell institutning ochilish marosimida quyidagi fikrlarni ta'kidlaydi: "Tibbiyot tarixi nimani va qanday tekshirishni o'rgatadi. Dunyoqarashni kengaytiradi va fikrni mustahkamlaydi. Eng muhimi, tibbiyot tarixi – e'tibordan chetda qolgan kashfiyotlarni ochish mumkin bo'lgan boy kondir". Bu kabi fikrlar tibbiyotning asosiy qismi bo'lgan ushbu fan ahamiyatini yanada oshishiga olib kelgan [3].

1960-yillarda AQShda 19 ta universitetlarda tibbiyot tarixi kafedralari faoliyati yo'lga qo'yildi. Bundan tashqari, Kauntvey tibbiyot tarixi kutubxonasi, Osler tibbiyot tarixi kutubxonasi, Yaledagi tibbiyot kutubxonalari faoliyati rivojlantirildi [4].

1970 yilda Kanzas universiteti tibbiyot tarixi va falsafasi kafedrasi mudiri Robert Xadson tibbiyot tarixidan dars beradigan o'qituvchilarni tanqid qilib, fanda Misr yoki Mesopotamiya tibbiyot yutuqlariga haddan ziyod e'tibor berishning salbiy oqibatlari haqida fikr yuritib, o'qituvchilar ko'proq mamlakat tibbiyot tarixi va uning yutuqlariga e'tibor qaratishi lozimligini ta'kidlaydi. Natijada sal keyinroq AQSH tibbiyot tarixi kafedrasi tashkil etiladi [5].

XXI asrda tibbiyot tarixini o'rganish o'zining ahamiyatini yo'qotmadi, balki bo'lajak shifokor o'rganishi lozim bo'lgan soha sifatida tan olindi. AQShning Pensilvaniya universiteti professori S.Lederer va boshqalar o'zlarining ilmiy tadqiqotida bakalavr bosqichida tahsil olayotgan talabalarga "Tibbiyot tarixi" fanini o'qitish ularda konvergentlik (biror bir muammo bo'yicha qat'iy fikrga moyillik) xususiyatini rivojlantirishi haqida fikr bildirishgan.

AQShning Xarvard universiteti professori David Djons va boshqalar tibbiyot tarixini tibbiy bilim, fikrlash va amaliyotning muhim tarkibiy qismi sifatida ko'rsatadilar. Ushbu fan kasallikning sabablari (masalan, vaqt o'tishi bilan kasallikdagi o'zgarishlarni hisobga olish uchun zarur bo'lgan reduksion mexanizmlar), samaradorlik tabiati (masalan, shifokorlar nima uchun ularning davolashlari samarali deb o'ylashi va ularning davolash usullari o'tmishda

qanday bo'lganligi va kelajakda qanday bo'lishi) haqida muhim ma'lumotlarni taqdim etadi va tahlil qilish imkonini beradi. Bularning barchasi shifokorlar anatomiya yoki patofiziologiyani samarali diagnostika uchun o'rganishlari kerak bo'lganidek, tibbiyot tarixini ham oldingi o'ringa olib chiqadi [6].

Tibbiyot tarixi fani oliy tibbiy ta'limning ajralmas qismi bo'lib, talabalarning kasbiy va ma'naviy jihatdan shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Uning o'zni va ahamiyati quyidagi jihatlarida namoyon bo'ladi:

1. Tibbiyotning ilmiy asoslarini tushunishni rivojlantirish. Tibbiyot tarixi fani talabalarga tibbiyotning rivojlanish bosqichlari, turli davrlarda amalga oshirilgan ilmiy yutuqlar va ularning ahamiyati haqida bilim beradi. Bu tibbiyot sohasidagi muammolarga ilmiy yondashuvni shakllantirishda yordam beradi.

2. Kasbiy qadriyatlarni va axloqiy yondashuvlarni shakllantirish. Tibbiyot tarixi talabalarga tibbiy kasbning ma'naviy asoslari va uning axloqiy tamoyillari haqida tushuncha beradi. O'tmishdagi buyuk olimlar va shifokorlarning ishlarini o'rganish ularda mas'uliyatli va insonparvar yondashuvni shakllantiradi.

3. Zamonaviy tibbiy ta'limda tarixiy ildizlarni anglash. Tibbiyotning tarixi orqali talabalar zamonaviy tibbiyot usullari va texnologiyalarining tarixi va ildizlarini tushunadilar. Bu zamonaviy tibbiyotni chuqurroq idrok etish va undagi ilmiy yutuqlarni qadrlashga imkon yaratadi.

4. Innovatsiyalarni rivojlantirish uchun tarixiy saboqlar. Tibbiyot tarixi fanini o'rganish talabalarga o'tmishdagi yutuqlar va xatolardan saboq olish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, yangi tadqiqotlarni rejalashtirishda va amaliy ishlarda qo'l keladi.

5. Transdissiplinar yondashuvni shakllantirish. Tibbiyot tarixi fani ta'lim jarayonini tarix, falsafa, madaniyat va jamiyatshunoslik sohalari bilan uyg'unlashtiradi. Bu talabalarning dunyoqarashini kengaytirib, ularni har tomonlama yetuk shaxs sifatida tayyorlashga hissa qo'shadi.

6. Global ta'lim jarayonidagi roli. Tibbiyot tarixi fani orqali talabalar turli mamlakatlarda tibbiyotning rivojlanishi va uning global ahamiyati haqida bilim oladilar. Bu ularni xalqaro miqyosda faoliyat yuritishga tayyorlaydi.

7. Talabalarda ilmiy qiziqish uyg'otish. Tibbiyot tarixi fanining tadqiqot jarayoni talabalarda ilmiy fikrlashni va tadqiqotlarga qiziqishni shakllantiradi. Bu oliy tibbiy ta'lim tizimida ilmiy faoliyatning rivojlanishiga turtki beradi [7].

Tibbiyot tarixi fani nafaqat talabalarga tibbiyotning ilmiy asoslarini o'rgatish, balki ularni ma'naviy jihatdan kamolotga yetkazish va kasbiy qiyofalarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Shu sababli, uning oliy tibbiy ta'lim tizimidagi roli nihoyatda ahamiyatlidir. U talabalarning yetuk shifokor bo'lib shakllanishida muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Xulosa qilib shuni aytish mumkin, Tibbiyot tarixi fan bo'lajak shifokorlarning eksklyuziv kompetensiyalari bo'lgan – tolerantlik, kommunikativ, kognitiv, konvergentlik kompetensiyalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydigan va tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rganishi lozim bo'lgan fan sohasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Kent L, Ward PJ. Investigating the Presence of the *History of Medicine* in North American Medical Education: Can One of the Medical Humanities Concisely Integrate with Biomedical and Clinical Content with Reference to Clinical Competencies? // *Med Science Education*, 2020 Sep 17, 30(4):1531-1539. doi: 10.1007/s40670-020-01074-0. eCollection 2020 Dec. PMID: 34457821. –P. 33-78.

2. Gazzaniga V, Licata M, Ciliberti R, Siri A. The teaching of the History of Medicine in Italy: a path in progress // *Acta Biomed*. 2021 Jul 1, 92(3):e2021245. doi: 10.23750/abm.v92i3.9388. PMID: 34212937. –P.214-251.

3. Jones, David S., Jeremy A. Greene, Jacalyn Duffin, and John Harley Warner. Making the Case for History in Medical Education // Journal of the History of Medicine and Allied Sciences. № 4 (November 13): doi:10.1093/jhmas/jru026. – P.623–652.

4. N.Komilov. Didactic opportunities of teaching history of medicine to foreign students studying in higher medical educational institutions // Академические исследования в современной науке. Том 2, № 19.-С.119-122.

5. N. Komilov. Teaching history of medicine to foreign students is vital factor of pedagogy // World of Scientific news in Science. № 3/2. 2024. -P.51-55

6. Komilov N. Role of historical factors of history of medicines pedagogy / International scientific conference innovative trends in science, practice and education. №3, 2024. -P.95-98

7. Komilov N. Analysis of the main aspects of increasing the exclusive competence of students through teaching the history of medicine / Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. №2, 2024. -P.18-20

Qaxxorova Hilola Kamolovna,

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi "Mehrli maktab" davlat ta'lim muassasasining Buxoro viloyati filiali tarbiyachisi

QO'SHMA LOYIHALAR VA GURUH FAOLIYATIDA ISHTIROK ETISH ORQALI "MEHRLI MAKTAB" BOLALARIDA MULOQOT KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada, "Mehrli maktab" tarbiyalanuvchilariga ta'lim-tarbiya berish dasturi asosida bolalar o'rtasida muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan qo'shma loyihalar va guruh faoliyatlari nazariy jihatdan o'rganilgan. Bundan tashqari, bu dasturdagi, bolalar o'rtasida jamoaviy ishlash, o'zaro hurmat va empatiya hosil qilish, muloqotda aniq va tushunarli bo'lish kabi ko'nikmalarni oshirishga qaratilgan faoliyatlar amaliy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Faoliyat, muloqot, ko'nikma, qo'shma loyiha, ijtimoiylashuv.

Аннотация: В данной статье теоретически рассмотрены совместные проекты и групповые мероприятия, направленные на развитие коммуникативных навыков у детей на основе образовательно-воспитательной программы для воспитанников "Mehrli maktab". Кроме того, были проанализированы практические действия в этой программе, направленные на развитие у детей таких навыков, как командная работа, взаимное уважение и сочувствие, а также ясность и понимание в общении.

Ключевые слова: Деятельность, общение, навыки, совместный проект, социализация.

Annotation: In this article, joint projects and group activities aimed at the development of communication skills between children on the basis of an educational and educational program for pupils of a "Mehrli maktab" are theoretically studied. In addition, activities in this program, aimed at enhancing skills such as teamwork among children, generating mutual respect and empathy, and being clear and understandable in communication, have been practically analyzed.

Key words: Activity, communication, skills, joint project, socialization.

Kirish. Insonning ijtimoiy rivojlanishida muloqotning o'rni beqiyosdir. Ayniqsa, bolalik davrida, to'g'ri va samarali muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish nafaqat ta'lim jarayonining muvaffaqiyatini, balki bolalar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalar, empatiya va bir-biriga hurmat kabi muhim qadriyatlarning shakllanishiga ham zamin yaratadi. Maktab yoshidagi bolalar uchun muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning shaxsiy va ijtimoiy o'sishiga katta hissa qo'shadi.

"Mehrli maktab" dasturi o'zining o'ziga xos yondashuvi bilan bolalar o'rtasida hamkorlik, jamoaviy ishlash va ijtimoiy muloqotning ahamiyatini targ'ib qiladi. Ushbu dastur orqali bolalar o'zaro muloqot qilish, bir-birini tushunish, fikr almashish va ijtimoiy vaziyatlarda o'zlarini to'g'ri tutishni o'rganadilar. "Mehrli maktab"ning asosiy g'oyasi bolalarga o'zaro hamkorlikda ishlashni, bir-birining fikrini hurmat qilishni va muammolarni birgalikda hal qilishni o'rgatishdir.

Loyiha va guruh faoliyati - bu bolalar uchun ijtimoiy va emotsional ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradigan samarali usullardan biridir. Guruhda ishlash orqali bolalar bir-birini tushunish, o'zaro fikr almashish, o'zaro yordam ko'rsatish va jamoa sifatida ishlash ko'nikmalarini egallaydilar. Qo'shma loyihalar va guruh faoliyatlari bolalarda nafaqat muloqotning samarali usullarini o'rgatadi, balki ularning liderlik, mas'uliyat va empatiya kabi ijtimoiy fazilatlarini ham rivojlantiradi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi "Mehrli maktab" bolalarida muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish uchun guruh faoliyatlari va qo'shma loyihalarning ahamiyatini o'rganishdir.

Tadqiqotda guruhdagi ishlash, bir-biriga yordam berish, o'zaro muloqot orqali bolalar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash, hamda ularning o'zaro muloqotda ishonchli va samarali bo'lishini ta'minlashga qaratilgan usullar tahlil qilinadi. Natijada, bu metodlar bolalar orasida ijtimoiy yondashuvni, tenglikni va hurmatni rivojlantiradi.

Shuningdek, bu jarayon o'quvchilarga o'z fikrlarini aniq ifodalash, boshqa bolalar fikrini tinglash va jamiyatda o'z o'rnini topish kabi qobiliyatlarni rivojlantirishda yordam beradi. Shuning uchun, guruh faoliyatlari va qo'shma loyihalarda ishtirok etish nafaqat bolalarning bilim olish jarayoniga, balki ularning ijtimoiy ko'nikmalarining shakllanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. "Qo'shma loyihalar va guruh faoliyatida ishtirok etish orqali 'Meharli maktab' bolalarida muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish" mavzusida ilmiy izlanishlar olib borgan bir nechta olimlar va ta'lim sohasi mutaxassislari mavjud. Ushbu olimlar bolalar o'rtasida ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish, muloqotning ahamiyati va guruh ishlari orqali samarali o'qitish metodlarini ishlab chiqish kabi sohalarida ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Quyida shu yo'nalishdagi ba'zi olimlar va ularning tadqiqotlari haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan:

Lev Vigotskiy rus psixologi bo'lib, uning ishlari bolalar o'rtasidagi ijtimoiy o'zaro ta'sirlar va muloqotning rivojlanishiga oid juda muhim ilmiy asoslarni o'zida jamlagan. Vigotskiyning "Ijtimoiy rivojlanish nazariyasi" da muloqotning bolalar ongini rivojlantirishdagi rolini o'rganilgan. U muloqot va tilning bolalarning fikrlash, mantiqiy tafakkur va ijtimoiy aloqalarini shakllantirishdagi ahamiyatini ta'kidladi. Uning ta'kidlashicha, bolalar o'zaro muloqotda bo'lish orqali o'zlarining kognitiv va emotsional ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Shuningdek, u guruh ishlari va qo'shma faoliyatlarning bolalar o'rtasida hamjihatlik va o'zaro tushunishni kuchaytirishdagi ahamiyatini ko'rsatgan.

Amerikalik pedagog va psixolog Jon Devey ta'lim jarayonida guruh faoliyatining va tajribaviy o'rgatishning muhimligini ta'kidlagan. Deveyning "Tajribaviy ta'lim" konsepsiyasiga ko'ra, o'quvchilar o'z tajribalarini bir-biri bilan bo'lishish orqali bilimlarini mustahkamlashadi va o'zaro muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Deveyning fikriga ko'ra, bolalar o'rtasida ijtimoiy faoliyatlar, guruh ishlari va qo'shma loyihalar ular o'rtasidagi muhim ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish uchun zarur. Bunday faoliyatlar bolalarga mas'uliyatni his qilish, o'z fikrlarini boshqalarga yetkazish va samarali ishlashni o'rgatadi.

David Kolb - "Tajribaviy o'qish sikli" nazariyasini ishlab chiqqan psixolog va pedagogdir. Kolbning ishlari tajriba asosida o'qishning bolalar o'rtasidagi o'zaro muloqotni kuchaytirishdagi ahamiyatini ko'rsatadi. Kolbning nazariyasiga ko'ra, o'quvchilar faqat passiv ravishda bilimlarni qabul qilmaydi, balki guruh ishlari va qo'shma faoliyatlar orqali tajribalarini tahlil qilib, o'zgarishlarga moslashadilar. Bu jarayonda muloqot, muhokama va hamkorlik qilish ko'nikmalarining rivojlanishi yuzaga keladi.

Kerol Gilligan - ijtimoiy va etika psixologiyasi sohasidagi yetakchi olimlardan biri hisoblanadi. Uning "Etika va psixologiyada o'zaro munosabatlar" haqidagi ishlari, guruhdagi hamkorlik va o'zaro muloqotning ahamiyatini o'rganadi. Gilligan, ayniqsa, bolalar o'rtasida hamdardlik, o'zaro yordam va jamoaviy ishlashni rivojlantirishning muhimligini ta'kidladi. Ularning ijtimoiy rivojlanishiga, o'zaro empatiya va muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Howard Gardner, "Ko'p intellektual nazariyasi" ni ishlab chiqqan psixolog va ta'limshunosdir. U, bolalar o'rtasida muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda turli intellektual salohiyatlarni hisobga olishning muhimligini ta'kidlagan. Gardnerning nazariyasiga ko'ra, har bir bola turli usullar orqali muloqot qilishni o'rganadi, masalan, vizual, musiqiy, lingvistik va boshqalar. Bunday yondashuvlar guruhda ishlash va qo'shma loyihalarda ishtirok etishda bolalarning har xil turdagi intellektual salohiyatlarini rivojlantiradi.

Sheron Uelch, guruh ishlarida va qo'shma loyihalarda o'quvchilarning ijtimoiy va emotsional rivojlanishi bilan bog'liq tadqiqotlar olib borgan. U o'quvchilarga muloqot va

ko'nikmalarni rivojlantirishda guruh ishlari va jamoaviy loyihalar orqali qanday yordam berilishi mumkinligini o'rganib, ijtimoiy-emotsional o'qitishning samaradorligini isbotlagan. U, shuningdek, bolalar o'rtasida jamoaviy ruh va muloqotning ijobiy ta'sirini ta'kidlagan.

Rustamov Shavkat Shuratovich – O'zbekistonlik ilmiy tadqiqotchi, pedagog va ta'lim sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassisdir. U o'qitish va ta'lim tizimining samaradorligini oshirish, bolalar va yoshlar o'rtasida ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish, muloqot va guruh faoliyatlarini o'rganish bilan shug'ullanadi.

Shavkat Rustamovning ilmiy izlanishlari asosan pedagogika, ta'lim psixologiyasi, ijtimoiy-emotsional rivojlanish, shuningdek, maktab ta'limi tizimida yangi pedagogik yondashuvlarni qo'llashga qaratilgan. Uning ishlarida bolalar o'rtasida ijtimoiy ko'nikmalar, muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, guruh ishlari va hamkorlikka asoslangan o'qitish metodlarini qo'llashga alohida e'tibor berilgan.

Yuqoridagi olimlar va ularning tadqiqotlari, bolalar o'rtasidagi muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda guruh faoliyatlari, qo'shma loyihalar va o'zaro hamkorlikning muhimligini ko'rsatadi. Ularning ilmiy ishlari, bolalar o'rtasida o'zaro tushunishni, empatiya va hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali ta'lim metodlarini ishlab chiqishda asos bo'lgan.

Muhokama. Bolalar o'rtasida muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan guruh faoliyatlari va qo'shma loyihalar, ayniqsa, "Mehrli maktab" dasturida alohida ahamiyatga ega. Bu jarayon bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishini ta'minlaydi, ularning muloqot ko'nikmalarini kuchaytiradi va jamiyatda muvaffaqiyatli insonlar bo'lishga yordam beradi. Pedagoglar va ta'lim tizimi mutaxassislari guruh ishlari va qo'shma loyihalardan samarali foydalanish orqali bolalarning o'zaro muloqot qilish, hamkorlik qilish, bir-biriga yordam berish kabi muhim ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ishlarni davom ettirishi zarur.

1. Muloqot ko'nikmalarining bolalar rivojlanishidagi ahamiyati: Muloqot ko'nikmalari har bir bolaga o'z fikrini aniq va tushunarli tarzda ifodalashga yordam beradi, shu bilan birga boshqalarning fikrini tinglash, tushunish va empatiya ko'rsatish kabi ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantiradi. Bu ko'nikmalar, ayniqsa, maktab yoshidagi bolalar uchun juda muhim, chunki ular o'zaro munosabatlarni, hamkorlikni va muammolarni hal qilishni o'rganmoqdalar. Muloqot orqali bolalar o'zlarining ijtimoiy tarmoqlarini shakllantiradilar va turli ijtimoiy vaziyatlarda moslashuvchan bo'lishni o'rganadilar.

2. Qo'shma loyihalar va guruh faoliyatlarining samaradorligi: Qo'shma loyihalar va guruh faoliyatlari o'quvchilarga birgalikda ishlash va bir-biriga yordam berish imkoniyatini yaratadi. Bu jarayonlarda bolalar birgalikda maqsadlar belgilab, o'zaro fikr almashish, qarorlar qabul qilish va o'zaro yordam orqali o'rganishadi. Maktabdagi guruh faoliyatlari va loyihalar nafaqat o'quvchilarning bilimini oshiradi, balki ularning ijtimoiy ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Bunday faoliyatlarda ishtirok etish bolalar orasida muloqot, tashkilotchilik va mas'uliyatni rivojlantiradi.

3. "Mehrli maktab" dasturining ijtimoiy-emotsional rivojlanishga ta'siri: "Mehrli maktab" dasturi bolalar o'rtasida ijtimoiy-emotsional rivojlanishni rag'batlantirishga qaratilgan. Bu dastur bolalarga muloqot, hamkorlik, muammolarni hal qilish va ijtimoiy munosabatlarni boshqarish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishda yordam beradi. "Mehrli maktab"da guruh faoliyatlari va qo'shma loyihalar orqali bolalar o'zaro mehr-oqibat, tushunish va bir-biriga yordam berish kabi qadriyatlarni o'rganadilar. Bu, o'z navbatida, ularning ijtimoiy ongini va muammolarni konstruktiv ravishda hal qilish ko'nikmalarini oshiradi.

4. Guruh ishlari orqali o'rganishning afzalliklari: Guruh ishlari va qo'shma loyihalarda bolalar bir-biriga yordam berish, o'zaro fikr almashish va birgalikda muammolarni hal qilish orqali ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradilar. Ushbu jarayonda bolalar o'zaro xushmuomalalik, o'z fikrlarini erkin ifodalash va boshqalarga e'tiborli bo'lish kabi ko'nikmalarni egallashadi. Guruh ishlari nafaqat bolalarning muloqot ko'nikmalarini, balki liderlik, qarorlar qabul qilish va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

5. "Mehrli maktab" dasturining muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni: "Mehrli maktab"ning asosiy g'oyalardan biri bolalar o'rtasidagi muloqot va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishdir. Bu dasturda guruh faoliyatlari va qo'shma loyihalar orqali bolalar o'zaro yordam berish, fikr almashish va bir-birini tushunish orqali muloqot ko'nikmalarini o'rganadilar. "Mehrli maktab"da bolalarga nafaqat bilim berish, balki ijtimoiy jihatdan ham rivojlanish imkoniyati yaratish muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv bolalarni faqat ta'lim sohasida emas, balki hayotda ham muvaffaqiyatli insonlar bo'lishga tayyorlaydi.

6. Ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirishda pedagogning roli: Pedagoglar guruh faoliyatlarini tashkil etishda va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ularning vazifasi – bolalarni o'z fikrlarini erkin ifodalashga, boshqalarning fikrini tinglashga va o'zaro yordam berishga undashdir. Pedagoglar bolalar orasida ijtimoiy muhitni yaratish, ular o'rtasidagi muloqotni qo'llab-quvvatlash va guruh ishlari uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratishda katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, pedagoglar bolalarga muloqotda muvaffaqiyatga erishishning texnik va psixologik jihatlarini ham o'rgatishi lozim.

7. Ta'lim jarayonidagi yangi metod va yondashuvlar: Guruh faoliyatlari va qo'shma loyihalar orqali muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik metodlarni qo'llash zarur. Masalan, kooperativ o'qitish, interaktiv o'qitish, va kritik tafakkur kabi yondashuvlar bolalarning guruhda faol ishtirok etishiga yordam beradi. Ushbu metodlar nafaqat bilimlarni o'rgatish, balki bolalarda jamoaviy ishlash, muloqot qilish va ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirishni ta'minlaydi.

Xulosa. Bugungi kunda ta'lim tizimida bolalar o'rtasida samarali muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, ijtimoiy-emotsional rivojlanish va guruhda ishlashga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. "Mehrli maktab" dasturi va unga o'xshash ta'lim loyihalari, bolalar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash, ularning o'zaro muloqot qilish, fikr almashish va birgalikda ishlash kabi ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

Muloqot ko'nikmalari bolalarning nafaqat o'quv jarayonida, balki hayotdagi boshqa barcha sohalarida muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun zarurdir. O'z fikrini aniq ifodalash, boshqalarni tinglash va tushunish, hissiy muvozanatni saqlash, mas'uliyatni olish – bularning barchasi ijtimoiy rivojlanishning ajralmas qismidir. Shuning uchun, ta'lim jarayonida muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Bu nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini oshiradi, balki ularga ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatga erishish imkonini yaratadi.

Guruh faoliyatlari va qo'shma loyihalarda ishtirok etish bolalarga birgalikda ishlash, qarorlar qabul qilish, muloqot qilish va o'zaro yordam berish ko'nikmalarini o'rgatadi. Bunday faoliyatlarda bolalar bir-biriga yordam berish, o'z fikrlarini erkin ifodalash, jamoaviy maqsadlarga erishish uchun birgalikda harakat qilishni o'rganadilar. Bu esa ularning o'zaro hurmat, hamdardlik va empatiya kabi muhim ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarini rivojlantiradi.

"Mehrli maktab" dasturi bolalar o'rtasida ijtimoiy va emosional ko'nikmalarni rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. Dastur doirasida amalga oshirilgan guruh ishlari, qo'shma loyihalar va o'quvchilarga oid ijtimoiy faoliyatlar bolalarni nafaqat ta'lim bilan ta'minlabgina qolmay, balki ularni bir-biri bilan o'zaro muloqot qilish, qiyinchiliklarni birgalikda hal qilishga o'rgatadi. Bu dastur bolalarning ijtimoiy ongini rivojlantiradi va ularni jamiyatda muvaffaqiyatli yashashga tayyorlaydi.

Pedagoglar guruh faoliyatlarini tashkil etishda, bolalarni muloqotga undashda va ularning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga yordam berishda muhim rol o'ynaydi. Ular bolalarning o'z fikrlarini erkin ifodalashiga yordam berish, boshqalar fikrini tinglashga undash va guruhdagi ishlarni samarali boshqarish orqali muloqot ko'nikmalarining rivojlanishiga ta'sir qiladi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, masalan, kooperativ o'qitish va interaktiv metodlar, bolalarni guruhda ishlashga, bir-biriga yordam berishga va ijtimoiy vaziyatlarni hal qilishga tayyorlaydi.

Guruh ishlari va qo'shma loyihalar nafaqat muloqot ko'nikmalarini, balki boshqa ko'plab ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradi. Ushbu metodlar yordamida bolalar o'zaro ishonchni o'rnatish, jamoa a'zolariga yordam berish, xatolarni qabul qilish va o'rganish, yangi g'oyalarni yaratish va muammolarni hal qilishni o'rganadilar. Bunday faoliyatlar o'quvchilarga jamiyatda muvaffaqiyatli yashash uchun zarur bo'lgan barcha ijtimoiy ko'nikmalarni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Выготский Л.С. Мышление и речь // Собр. соч. в 6 т. М., 2002. Т. 2. 504 с.
2. Выготский Л.С. Мышление и речь. 1999. С.134.
3. Макарова И.В. Психология. –М.: Изд-во Юрайт, 2010. – 237 с.
4. Muxtarova A.E. “Педагогико-психологические особенности развития рефлексивных способностей у учащихся” Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnali Toshkent-2023. – 68 b.
5. Педагогика тарихи: (Педагогика олий ўқув юртлари ва дорилфунунлар талабалари учун ўқув қўлланма)/ К.Ношимов, С.Нишонова, М.Иномова ва бошқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 48 б.
6. Sunnatova R.I. Individualno-tipologicheskiye osobennosti misli-telnoy deyatel'nosti: Avtoref. dis...d. psixol. nauk. – T.: NUUZ, 2001.–41 s.
7. Safayev N.S. Psixologicheskiye osobennosti natsionalnogo samosoznaniya studencheskoy molodeji. Avtoref. dis...d. psixol.nauk. – T.: NUUZ, 2005. – 38 s.
8. Шамсиев Ў.Б. Оилада мактабгача ёшдаги бола шахси ўзини ўзи англашининг ижтимоий психологик омиллари дисс.Тошкент – 2010 йил. – 252 б.

Ziyotova Madina Mansur qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti,
Boshlang'ich ta'lim nazariyasi 1-bosqich magistranti

OLIY TA'LIM MUASSALARIDA TARBIVAVIY ISHLARNI TIZIMLI TASHKIL ETISH -PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni tizimli tashkil etishning ahamiyatini o'rganadi. Tadqiqotda tarbiyaning ilmiy-pedagogik asoslari, samarali metodlar va zamonaviy yondashuvlar tahlil qilingan. Tizimli tarbiyaviy ishlarni tashkil etish orqali talabalarni ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy jihatdan rivojlantirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Ushbu ish ta'lim tizimining samaradorligini oshirish va talabalarni ijtimoiy faol va mas'uliyatli shaxslar sifatida shakllantirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: tarbiyaviy ishlar, tizimli tashkil etish, oliy ta'lim, pedagogika, axloqiy rivojlanish, ijtimoiy faollik.

Annotation: This research examines the importance of systematic organization of educational work in higher education institutions. The study analyzes the scientific-pedagogical foundations, effective methods, and modern approaches to the organization of educational activities. It explores the opportunities for developing students' moral, ethical, and social aspects through structured educational work. The work aims to enhance the effectiveness of the education system and contribute to shaping socially active and responsible individuals.

Key words: educational activities, systematic organization, higher education, pedagogy, moral development, social activity.

Аннотация: Настоящее исследование изучает важность системной организации воспитательной работы в высших учебных заведениях. В исследовании анализируются научно-педагогические основы, эффективные методы и современные подходы к организации воспитательной деятельности. Рассматриваются возможности развития моральных, этических и социальных аспектов студентов через структурированную воспитательную работу. Работа направлена на повышение эффективности образовательной системы и способствует формированию социально активных и ответственных личностей.

Ключевые слова: воспитательная работа, системная организация, высшее образование, педагогика, моральное развитие, социальная активность.

Kirish. Oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni tizimli tashkil etish, bugungi kunda pedagogic ta'lim jarayonlarining ajralmas qismi hisoblanadi. Ta'limning asosiy maqsadi nafaqat bilim berish, balki talabalarni ijtimoiy, axloqiy va ma'naviy jihatdan to'laqonli rivojlantirishdir. Oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar talabalarni mustaqil fikrlashga, ijtimoiy mas'uliyatga, shaxs sifatida o'zini ifoda eta olishga va global dunyoda faqat bilimga emas, balki o'zini olib borish madaniyatiga ham ega bo'lishga tayyorlaydi.

Biroq, O'zbekiston va boshqa mamlakatlarda oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar tizimli tarzda tashkil etilmaganligi sababli, bu sohada samarali natijalar olishda muammolar yuzaga kelmoqda. Ko'pincha, tarbiyaviy tadbirlar o'quv jarayonidan alohida o'tkaziladi va ularning samaradorligi hamda ta'sir kuchi cheklangan bo'ladi. Ushbu tadqiqotda, oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni tizimli tashkil etishning ahamiyati va uning samarali metodlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda mavjud muammolarni hal etish uchun innovatsion yondashuvlar, usullar va tizimli integratsiya qilish masalalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, tarbiyaviy ishlar orqali talabalar faolligini oshirish, ijtimoiy mas'uliyat va axloqiy qadriyatlarni shakllantirish uchun samarali strategiyalar ishlab chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili. Oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni tizimli tashkil etish masalasi pedagogika va psixologiya sohalarida ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari, maqolalar va

metodik qo'llanmalar asosida o'rganilgan. Quyida bu sohadagi asosiy ilmiy adabiyotlar tahlil qilinadi.

Dewey, J. (1938). *Experience and Education*: Dewey ta'limning jarayon sifatida qarashini ta'kidlab, tarbiyaviy ishlarning faol va interaktiv usullar asosida tashkil etilishi zarurligini ko'rsatadi. U o'quvchilarning ijtimoiy tajribalari asosida o'rganishni targ'ib qiladi, bu esa tarbiyaning samarali bo'lishiga hissa qo'shadi. Dewey ta'limda tizimli yondashuvni qo'llashni ta'kidlab, o'quvchilarni faqat bilim bilan emas, balki jamiyatda o'z o'rnini topish uchun tarbiyalash lozimligini bildiradi.[1]

Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*: Vygotskylik yondashuv, tarbiyaviy ishlarni o'quvchilarni ijtimoiy muhitda rivojlantirishga qaratilgan yondashuv sifatida taqdim etadi. U o'rgatish va tarbiya jarayonlarining o'zaro bog'liqligini va talabalarni jamiyatda faollikka chaqirish zarurligini ta'kidlaydi. Bu adabiyotda tarbiyaning ijtimoiy jihati, yoshlarning o'zaro aloqalarini va shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor berilgan.[2]

Bruner, J. (1966). *Toward a Theory of Instruction*: Bruner ta'limning o'ziga xos shakllarini tahlil qilib, tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish uchun talabalarining o'qish motivatsiyasini oshirishga yordam beruvchi metodlar va yondashuvlarni ishlab chiqqan. Bruner fikricha, tizimli tarbiya orqali talabalar yangi bilimlarni faol o'zlashtiradi, bu esa ularda mustaqil fikrlash va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishga imkon beradi.[3]

Karlson, R. (2001). *Lingvodidaktik asoslar*: Karlsonning tadqiqotida tarbiyaviy ishlarni tilshunoslik va didaktika asosida tashkil etish masalalari ko'rib chiqiladi. U tarbiyaviy ishlarning maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydi, bu esa talabalar o'rtasida yaxshi kommunikatsiya va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.[4]

Smith, R. (2010). *Creative Teaching in Primary Schools*: Smithning ishida ijodiy yondashuvlar orqali tarbiyaviy ishlarni qanday qilib samarali tashkil etish mumkinligi haqida so'z yuritiladi. U talabalarni o'z-o'zini anglashga, shaxsiy rivojlanishlariga va mustaqil fikrlashga undash uchun ijodiy metodlarni taklif etadi.[5]

Yuqoridagi xorijiy olimlarning fikrlaridan va ularning ilmiy tadqiqot ishlaridan kelib chiqqan holda oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarning tizimli tashkil etilishi muhimligini qayd etishi kerak. Bu jarayon faqat nazariy emas, balki amaliy asosga ega bo'lishi, talabalarining shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga xizmat qilishi lozim. Mavjud holatni tahlil qilib, tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda uchrayotgan muammolarni ochib berishi kerak. Masalan, quyidagilar ko'rsatib o'tilishi mumkin.

- Tarbiyaviy ishlarning noto'g'ri rejalashtirilishi.
- O'qituvchi va talaba o'rtasidagi aloqa yetishmovchiligi.
- Zamonaviy pedagogik yondashuvlarning qo'llanmasligi.

Natija va muhokama. Oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni tizimli tashkil etish, nafaqat talabalarni bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlash, balki ularni ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy jihatdan rivojlantirishga qaratilgan muhim pedagogik jarayondir. Tadqiqot natijalariga ko'ra, tarbiyaviy ishlarni tizimli tashkil etishning samaradorligi ta'lim muassasasining umumiy maqsadlari bilan uyg'un ravishda amalga oshirilganida yuqori bo'ladi.

Tarbiyaviy ishlar faqatgina o'quv jarayonidan ajratilgan alohida tadbirlar sifatida emas, balki butun ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida ko'rilishi lozim. Bu o'quvchilarning jamiyatga faol, mas'uliyatli va axloqiy qadriyatlarni qabul qilgan shaxslar sifatida integratsiyasini ta'minlaydi. Shu bilan birga, tizimli tarbiyaviy ishlar orqali talabalar o'rtasida o'zaro hurmat, tenglik, ijtimoiy mas'uliyat va o'z-o'zini anglash kabi muhim qadr-qimmatlar shakllanadi. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish uchun bir nechta omillar muhim rol o'ynaydi:

Innovatsion pedagogik metodlar: Interaktiv usullar, guruhli mashg'ulotlar, tajriba asosida o'rganish kabi metodlar talabalar uchun nafaqat bilimlarni, balki ijtimoiy va ma'naviy ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Zamonaviy texnologiyalarni qo'llash tarbiyaviy ishlar jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi. Onlayn platformalar, forumlar va vebinarlar yordamida talabalar bilan aloqani yaxshilash mumkin.

Psixologik yondashuv: Talabalar psixologiyasi va ularning individual ehtiyojlariga mos ravishda tarbiyaviy ishlarga yondashish, ularning samaradorligini oshiradi. Shuningdek, o'qituvchilarning psixologik tayyorgarligi ham muhim ahamiyatga ega.

O'qituvchilarning professional tayyorgarligi: Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda o'qituvchilar va tarbiya bo'yicha mas'ul shaxslarning bilimlari va malakasi muhim o'rin tutadi. Pedagoglar o'z ishlarini innovatsion metodlar va zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida olib borishlari zarur. Shu bilan birga, tadqiqotda tarbiyaviy ishlarni tizimli tashkil etishdagi ba'zi muammolar ham aniqlangan:

Resurslarning yetishmasligi: Ko'plab oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni samarali amalga oshirish uchun yetarli moliyaviy va material resurslar mavjud emas. Tarbiyaviy ishlar va o'quv jarayonining uzviyligi: Tarbiyaviy ishlar ko'pincha alohida tadbirlar sifatida o'tkazilib, o'quv jarayonining ajralmas qismi sifatida amalga oshirilmayapti. Pedagoglarning tayyorlanishi: Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda o'qituvchilarning psixologik va pedagogik tayyorgarligi yetarli darajada emas.

Tarbiyaviy ishlarni tizimli tashkil etish uchun tizimli yondashuvni qo'llash zarur. Tarbiya o'quv jarayonining ajralmas qismi bo'lishi kerak, shunda talabalar o'quv va tarbiyaviy jarayonlarni birlashtirib o'zlashtiradilar. Oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni yaxshilash uchun muhim qadamlar quyidagilar bo'lishi mumkin:

1. Tarbiyaviy dasturlarni takomillashtirish: Milliy va umumjahon qadriyatlariga mos keladigan, talabalar ehtiyojlarini hisobga olgan tarbiyaviy dasturlar ishlab chiqish zarur.

2. Pedagogik kadrlarni tayyorlash: O'qituvchilarni tarbiyaviy ishlar olib borish uchun maxsus tayyorlash va ularning kasbiy mahoratini oshirish.

3. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash: Tarbiyaviy ishlarni yangi pedagogik texnologiyalar va metodlar yordamida amalga oshirish, bu esa talabalar uchun yanada qiziqarli va samarali bo'ladi.

Tarbiyaviy ishlar tizimli ravishda tashkil etilganda, bu talabalar o'rtasida yuqori ijtimoiy mas'uliyat va shaxsiy rivojlanishni ta'minlaydi. Oliy ta'limda tarbiya jarayoniga zamonaviy yondashuvni joriy etish, nafaqat ta'limning sifatini oshiradi, balki jamiyatda barqaror ijtimoiy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa. Oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni tizimli tashkil etish talabalarni nafaqat bilim va kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lgan, balki axloqiy va ma'naviy qadriyatlar asosida shakllangan shaxs sifatida rivojlantirish uchun muhimdir.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, tarbiyaviy ishlarni samarali amalga oshirishda quyidagi omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega:

1. Tizimli yondashuv – tarbiyaviy ishlarni o'quv jarayoni bilan uzviy bog'liq holda rejalashtirish va amalga oshirish.

2. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash – talabalarni qiziqtirish va ularning faol ishtirokini ta'minlash uchun interaktiv va zamonaviy usullardan foydalanish.

3. Pedagogik kadrlarning tayyorgarligi – tarbiyaviy ishlarni amalga oshiruvchi pedagoglarning kasbiy va psixologik tayyorgarligini oshirish zarur.

4. Axborot texnologiyalaridan foydalanish – raqamli vositalar yordamida tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish.

Tarbiyaviy ishlarni tizimli tashkil etish o'quvchilarni ijtimoiy faol, ma'naviy va axloqiy jihatdan yetuk shaxslar sifatida shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasalarida ushbu jarayonni modernizatsiya qilish va samarali boshqaruv tizimini yaratish jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Dewey, J. (1938). Experience and Education. New York: Macmillan.

2. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
3. Bruner, J. (1966). *Toward a Theory of Instruction*. Cambridge, MA: Belknap Press of Harvard University Press.
4. Smith, R. (2010). *Creative Teaching in Primary Schools*. London: Routledge.
5. Nazarova, L. (2015). *Innovatsion yondashuvlar asosida ta'limni rivojlantirish*. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti.
6. OECD (2018). *The Future of Education and Skills: Education 2030*. Paris: OECD Publishing.
7. Karlson, R. (2001). *Lingvodidaktik asoslar*. Moskva: Prosveshcheniye.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-apreldagi "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.
9. Hasanov, R. (2018). *Pedagogik texnologiyalar va innovatsion ta'lim*. Toshkent: Fan nashriyoti.
10. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonuni (2020).

Musayeva Amina Karamatovna,

Osiyo xalqaro universiteti

Tarix va filologiya kafedrası assistant-o'qituvchisi.

E-mail: musayevaaminakaramatovna@oxu.uz

RUS TILI FANIDAN TALABALARDA RIVOJALANTIRILADIGAN KOMPETENSIYALAR VA ULARNI BAHOLASH MEZONLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada rus tili fanidan talabalarda rivojlanitiriladigan kompetensiyalar va ularni baholash mezonlari, til kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan usul va vositalardan foydalanishning afzalliklari va imkoniyatlari, dars jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanish natijadorligini baholashning a'lo, yaxshi, qoniqarli, qoniqarsiz darajalari, xalqaro baholash hamda milliy dastur integratsiyasi haqida ilmiy ma'lumotlar bayon etilgan hamda loyihaviy dars namunasi tavsiya sifatida keltirilgan.

Kalit so'zlar: kommunikativlik, mezon, baholash darajasi, innovatsion yondashuv, interfaol usullar, innovatsion texnologiyalar, loyihalar, testlar, media ta'lim vositalari.

Аннотация: В данной статье изложена научная информация о компетенциях и критериях их оценки, развиваемых у студентов по русскому языку, преимуществах и возможностях использования методов и средств, направленных на развитие языковой компетенции, отличном, хорошем, удовлетворительном, неудовлетворительном уровнях оценки эффективности использования инновационных подходов в процессе урока, международной оценке и интеграции национальной программы, а также приведен пример проектного урока в качестве рекомендации.

Ключевые слова: коммуникативность, критерий, уровень оценки, инновационный подход, интерактивные методы, инновационные технологии, проекты, тесты, средства медиаобразования.

Annotation: This article describes the competencies and criteria for their assessment in students of the Russian language, the advantages and possibilities of using methods and tools aimed at developing language competence, excellent, good, satisfactory, unsatisfactory levels of assessment of the effectiveness of the use of innovative approaches in the course of the lesson, International Assessment and integration of the national program.

Key words: communicativity, criterion, assessment level, innovative approach, interactive methods, innovative technologies, projects, tests, media education tools.

Kirish. Talabalar bilimini nazorat qilish va baholash jarayoniga oid huquqiy asoslar "Ta'lim to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining qonunida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-sonli qarorida, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 2018 yil 9 avgustdagi 19-2018 sonli buyrug'ida, o'quv jarayonini nazorati uchun uslubiy ta'minotlar B.Sh.Usmonov va R.A.Habibullaev "Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish" o'quv qo'llanmasida, R.Habibullaev va V.Topildiev "Kredit-modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish" o'quv-uslubiy majmuasida, L. V.Peregudov va M.X.Saidov "Oliy ta'lim menejmenti va iqtisodiyoti" o'quv qo'llanmasida, S.S.G'ulomov, H.R.Raimov, M.H.Saidov, B.H.Hodiev "Ta'lim-tarbiya sifati va qirralari" yo'llanmalarga javoblarida va AQSh oliy ta'lim tizimiga kirish manbalarida tahlil etilgan. Talabalar bilimini baholash jarayonini to'g'ri tashkil etish uchun professor-o'qituvchidan mantiq ilmining analogiya, argumentlash, isbot va raddiya usullarini chuqurroq o'rganishni taqozo qiladi.

Oliy ta'limda talabalarining bilim va ko'nikmalarini baholash akademik muvaffaqiyat va shaxsiy o'sishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Universitet va kollejlardagi rus tili darslari samarali baholash uchun noyob qiyinchiliklar va imkoniyatlarni taqdim etadi. Ushbu

maqola ushbu ilg'or ta'lim muassasalarida baholash mexanizmlarini o'rganadi, talabalarning tilni bilish darajasini har tomonlama baholash uchun zamonaviy usullar, texnologik integratsiya va ilg'or tajribalarni yoritadi.

Talabalar bilimini baholash ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'quv maqsadlariga erishishni ta'minlash hamda o'qituvchi va talabalarga fikr bildirishdir. Rus tili darslarida bu jarayon talabalar rivojlanishi kerak bo'lgan turli ko'nikmalarni samarali o'lchash uchun ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi. Ushbu maqola rus tili darslarida talabalar bilimini baholashning zamonaviy mexanizmlarini o'rganadi, turli usullar, texnologiyalar va ilg'or tajribalarni yoritadi.

Dissertatsiya tadqiqotida rus tili darslarida talabalarning kommunikativ kompetentligini innovatsion yondashuvlar asosida baholashda quyidagi mezonlari belgilab olindi:

-muloqot samaradorligi: talabalarning muloqot vaziyatlarida ma'lumotlarni ifoda etish, o'z fikrlarini ifodalash, digarlarni tinglash va muhokama qilish qobiliyati.


-lug'at boyligi: talabalarning o'z fikrlarini ifodalash va ma'lumotlarni tushunish uchun rus tilining keng lug'at boyligidan foydalanish qobiliyati.

-grammatik aniqlik: talabalarning rus tili grammatika qoidalariga rioya qilgan holda o'z fikrlarini ifodalash qobiliyati.

-fonetik to'g'ri talaffuz: talabalarning rus tili tovushlarini to'g'ri talaffuz qilish qobiliyati.

-madaniyatlar o'rtasi kompetentligi: talabalarning rus tilidagi kommunikatsiyaning madaniyatlar o'rtasi jihatlarini, masalan, aloqa usullari, noverbal ishoralar va muloqot etiketini tushunish qobiliyati.

Innovatsion yondashuvlar asosida talabalarning rus tilidan kommunikativ kompetensiyaga egalik darajasini baholashda bir qancha qulay ta'lim vositalardan foydalanildi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Talabalarning rus tilidan kommunikativ kompetensiyasini baholash vositalari

Oliy ta'lim jarayonida rus tili fanini o'qitishda talabalarning til ko'nikmalarini baholashda foydalaniladigan ta'lim vositalari o'ziga xos maqsad va vazifalarni bajaradi. Ular dars turi va shaklidan kelib chiqib tanlanadi va talabalarning ehtiyojlariga asoslanib qo'llaniladi. Ularning mazmun mohiyati quyidagicha aks ettiriladi:

Portfolio - talabalarning kommunikativ faoliyatlarining turli namunalarini to'plash, masalan, esselar, muloqotlar, prezentatsiyalar.


Loyihaga asoslangan o'qitish - talabalarni rus tili kommunikativ faoliyatini o'z ichiga oluvchi loyihalarni amalga oshirishga undash, masalan, videoroliklar, audio yozuvlar.

Raqamli texnologiyalar - onlayn forumlar, videokonferensiya va ijtimoiy media kabi texnologiyalardan foydalanish.

O'zaro baholash - talabalarni o'zlarining chiqishlarini va bir-birlarining chiqishlarini baholashga undash.

Innovatsion yondoshuvlar asosida baholash talabalarning rus tilidagi kommunikativ kompetentligini ko'proq haqiqiy va hayotiy vaziyatlarda baholashga imkon beradi. Bunday baholash usullari talabalarning kommunikativ qobiliyatini rivojlantirishda va ularning rus tilida o'zlarini ishonch bilan ifoda eta olish malakasini oshirishda yordam beradi.

Dissertatsiya tadqiqotida rus tili darslarida talabalarning kommunikativ kompetentligini innovatsion yondoshuvlar asosida rivojlantirishda quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi (2-rasmga qarang).



2-rasm. Rus tili darslarida talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish bosqichlari

1-jadval.

Rus tili darslarida talabalarning kommunikativ kompetentligini innovatsion yondoshuvlar asosida rivojlantirish bosqichlari

№	Bosqichlar	Amalga oshirish mexanizmi
1	Hozirgi holatni baholash	Talabalarning rus tilidagi kommunikativ qobiliyatini baholash. Ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash. Rivojlanish uchun sohalarni belgilash.
2	Maqsadlarni belgilash	Talabalar o'quvning oxirigacha erishishi kerak bo'lgan kommunikativ kompetentlikning maqsadlarini belgilash. Bu maqsadlar aniq, o'lchanadigan, erishiladigan, muhim va vaqtga bog'liq bo'lishi kerak (SMART).
3	Innovatsion yondoshuvlarni tanlash	Talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish uchun innovatsion yondashuvlarni tanlash, masalan: loyihaga asoslangan o'qitish; raqamli texnologiyalar; rolly o'yinlar; simmulatsiyalar
4	O'quv rejalarini ishlab chiqish	Innovatsion yondashuvlarni o'z ichiga oluvchi o'quv rejalarini ishlab chiqish. Rejalar talabalarning ehtiyojlari va maqsadlariga mos kelishi kerak.
5	Darslarni o'tkazish	Innovatsion yondashuvlardan foydalanib darslarni o'tkazish. Darslar muloqotga asoslangan, ishtirokchan bo'lishi va talabalarni o'zlarini ifoda etishga undashi kerak.
6	Talabalarni baholash	Talabalarning kommunikativ kompetentligini innovatsion vositalardan foydalanib baholash, masalan: portfolio, loyihalar, raqamli topshiriqlar, o'zaro baholash

7	Natijalarni baholash va bosqichlarda o'zgartirish kiritish	Talabalarning kommunikativ kompetentligi rivojlanishidagi natijalarni baholash. Ehtiyojga qarab o'quv rejalari va yondashuvlarda o'zgartirishlar kiritish.
---	--	--

Innovatsion yondoshuvlardan talabalarning rus tilidagi kommunikativ kompetentligini rivojlantirish uchun bosqichma-bosqich foydalanish ularning kommunikativ qobiliyatini oshirishga va ularni rus tilida o'zlarini ishonch bilan ifoda eta olishga yordam beradi. Rus tili darslarida talabalarning kommunikativ kompetentligini innovatsion yondoshuvlar asosida rivojlanganligini aniqlashda quyidagi baholash mezonlari va darajalari belgilab olindi (2-jadvalga qarang).

2-jadval.

Rus tili darslarida talabalarning kommunikativlik darajasining rivojlanganliini baholovchi mezonlar

Baholash darajasi	Baholash mezonlari
A'lo	Talaba muloqot vaziyatlarida o'z fikrlarini samarali va ishonchli ifodalay oladi. rus tili grammatika qoidalariga rioya qiladi va tovushlarni to'g'ri talaffuz qiladi. rus tilidagi kommunikatsiyaning madaniyatlar o'rtasi jihatlarini tushunadi. rus tilining keng lug'at boyligiga ega va o'z fikrlarini aniq va to'g'ri ifodalay oladi.
Yaxshi	Talaba muloqot vaziyatlarida o'z fikrlarini samarali ifodalay oladi. rus tilining keng lug'at boyligiga ega va o'z fikrlarini aniq ifodalay oladi. rus tili grammatika qoidalariga asosan rioya qiladi va tovushlarni to'g'ri talaffuz qiladi. rus tilidagi kommunikatsiyaning madaniyatlar o'rtasi jihatlarini tushunishga intiladi.
Qoniqarli	Talaba muloqot vaziyatlarida o'z fikrlarini asosan samarali ifodalay oladi. rus tilining keng lug'at boyligiga ega va o'z fikrlarini asosan aniq ifodalay oladi. rus tili grammatika qoidalariga asosan rioya qiladi va tovushlarni asosan to'g'ri talaffuz qiladi. rus tilidagi kommunikatsiyaning madaniyatlar o'rtasi jihatlarini asosan tushunadi.
Qoniqarsiz	Talaba muloqot vaziyatlarida o'z fikrlarini samarali ifodalay olmaydi. rus tilining cheklangan lug'at boyligiga ega va o'z fikrlarini aniq ifodalay olmaydi. rus tili grammatika qoidalariga rioya qilmaydi va tovushlarni to'g'ri talaffuz qilmaydi. rus tilidagi kommunikatsiyaning madaniyatlar o'rtasi jihatlarini tushunmaydi.

Baholash darajalari talabaning kommunikativ kompetentligining umumiy saviyasini aks ettirishi muhimdir. Baholashda talabaning muloqot vaziyatlarida qanchalik samarali ifoda etishi, lug'at boyligi, grammatik aniqligi, tovushlarni talaffuz qilishi va madaniyatlar o'rtasi kompetentligi hisobga olinishi kerak.

Rus tili darslarida talabalarning kommunikativ kompetentligini innovatsion yondoshuvlar asosida rivojlantirish dars loyihasi.

Maqsad: Talabalarning rus tilidagi kommunikativ qobiliyatini rivojlantirish uchun innovatsion yondoshuvlarni qo'llash.

Vazifalar:

- talabalarning kommunikativ kompetentligining hozirgi holatini baholash.
- rus tilidagi kommunikativ kompetentligini rivojlantirish uchun talabalarning ehtiyojlari va maqsadlariga mos innovatsion yondoshuvlarni tanlash.
- innovatsion yondoshuvlardan foydalanib o'quv rejalari ishlab chiqish.
- innovatsion yondoshuvlardan foydalanib darslar o'tkazish.
- talabalarning kommunikativ kompetentligini innovatsion vositalardan foydalanib baholash.
- natijalarni baholash va ehtiyojga qarab o'quv rejalari va yondoshuvlarda o'zgartirishlar kiritish.

Innovatsion yondoshuvlar:

- loyihaga asoslangan o'qitish: talabalarni rus tilidagi kommunikativ faoliyatini o'z ichiga oluvchi loyihalarni amalga oshirishga undash.
- raqamli texnologiyalar: onlayn forumlar, videokonferensiyalar va ijtimoiy media kabi texnologiyalardan foydalanish.
- rolli o'yinlar: talabalarni turli rollarda ishlashga undash.
- simmulatsiyalar: talabalarni haqiqiy hayot kommunikativ vaziyatlarini tajriba qilishga undash.

baholash vositalari:

- portfolio: talabalarning kommunikativ faoliyatlarining turli namunalarini to'plash.
- loyihalar: talabalarning rus tilidagi kommunikativ faoliyatini o'z ichiga oluvchi loyihalari.
- raqamli topshiriqlar: onlayn forumlar, videokonferensiyalar va ijtimoiy mediada bajariladigan topshiriqlar.
- o'zaro baholash: talabalarni o'zlarining chiqishlarini va bir-birlarining chiqishlarini baholashga undash.

Natijalarni baholash.

- natijalarni o'quv yili boshlang'ichidagi talabalarning kommunikativ kompetentligining baholanishi bilan taqqoslash.
- talabalarning rus tilidagi kommunikativ qobiliyatini oshirganligini tasdiqlovchi miqdoriy va sifatli ma'lumotlarni to'plash.
- talabalarning innovatsion yondoshuvlarni foydali va samarali deb topishi haqida fikr-mulohazalarini yig'ish.

Ushbu loyiha talabalarning rus tilidagi kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda va ularni rus tilida o'zlarini ishonch bilan ifoda eta olishga yordam berishda samarali usullardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF5847-son Farmoni.
2. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi "Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida"gi 824-son qarori.
3. Usmonov B.Sh., Xabibullaev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma.—Toshkent, TKTI 2020.
4. Avliyakov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. -Toshkent, 2001.

*Saidova Moxinur Murodovna,
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

PLURILINGUAL O'QUVCHILARNING TIL O'RGANISHDAGI O'ZIGA XOSLIKLARI

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada koreys tili ikkinchi xorijiy til sifatida o'rganilishi o'quvchilarning til ta'limiga qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qilishga harakat qilindi. Bu o'rinda har bir yangi o'rganilayotgan tilning avvalgi o'zlashtirilgan tillarga, va aksincha, bir nechta tillarning yangi xorijiy tilga o'tkazadigan ta'sirlari tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: plurilingvizm, ikkinchi xorijiy til, koreys tili, bosqichma-bosqich kuchaytirish modeli (CEM.)

Аннотация: В этой научной статье была предпринята попытка проанализировать, как изучение корейского языка как второго иностранного языка влияет на языковое образование учащихся. На этом этапе анализировались влияния, которые каждый новый изучаемый язык оказывает на предыдущие заимствованные языки, и наоборот, которые несколько языков переносят на новый иностранный язык.

Ключевые слова: плюрилингвизм, второй иностранный язык, корейский язык, модель постепенного усиления (CEM.)

Annotation: This academic paper attempted to analyze how the study of Korean as a second foreign language affects students' language education. In this place, the influence of each newly studied language on the previously acquired languages, and vice versa, on the transfer of several languages to a new foreign language, was analyzed.

Key words: plurilinguism, second foreign language, Korean, step-by-step reinforcement model (CEM.)

Kirish. Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatishni ommalashtirishni yangi bosqichga olib chiqish va sohani rivojlantirish uchun tizimli ishlarni tashkil etish, ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, buning uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish maqsadida xorijiy tillarni puxta o'zlashtirish, tilning asosiy ko'nikmalarini shakllantirish uchun videorolik, o'yin, ko'ngilochar ko'rsatuv, filmlar va boshqa o'rgatuvchi kontent yaratish, xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, dasturiy ta'minot loyihalarini ishlab chiqish va joriy etish, dunyo bo'yicha samarali natija bergan o'qitish metodikalari, dastur va darsliklarni maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumta'lim maktablari, akademik litsey, oliy ta'lim muassasalari va o'quv markazlarida joriy etish, "umumiy o'rta ta'lim muassasasida o'quvchilarni ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunarga o'rgatish" vazifa sifatida belgilangan ekan, bu vazifani bajarishda tillararo munosabatlarni o'rganish va shu asosda yangi nazariy hamda amaliy xulosalarga kelish dolzarb bo'lib, tanlangan mavzuning dolzarbligi va zaruratini belgilaydi.

Ikkinchi xorijiy til orqali o'rganilayotgan xorijiy til bo'yicha boshlang'ich darajada muloqot qila olish orqali kundalik va ijtimoiy hayot uchun zarur asosiy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish, fikr va his-tuyg'ularni ifodalash hamda muammolarni hal qilish qobiliyati ham shakllantiriladi. Bundan tashqari, o'quvchilar ko'p tillilik va multi-madaniyat haqidagi tushunchalarga ham ega bo'ladi.

①. O'quvchilarni ikkinchi xorijiy tilni o'rganishga qiziqtirish va undash orqali ularning umumiy bilimlari shakllantiriladi;

②. O'quvchilarda boshlang'ich muloqot qobiliyatlari takomillashtiriladi;

③. Ikkinchi xorijiy tilni o'rganish orqali o'quvchilar milliy va umuminsoniy qadriyatlar, XXI asr ko'nikmalarini shakllantiriladi;

④. O'quvchilarda o'zining va boshqalarning fikr va tajribalarini o'zaro baham ko'rish hamda ularni his qila olish, muammolarni hamkorlik munosabati bilan hal qilish ko'nikmalarini va ijtimoiy tuyg'ularni rivojlantiradi;

⑤. Madaniyatni o'rganish orqali o'quvchilar boshqa mamlakat madaniyati va urf-odatlariga nisbatan to'g'ri munosabatni o'rganadi.

Mazkur ta'lim dasturi o'quvchilarda XXI asrda ilmiy va kasbiy faoliyatida muhim ko'nikmalarni ya'ni kreativ fikrlash, kommunikativlek, muammolarni yechish va qaror qabul qilish, tanqidiy fikrlash, tadqiqotchilik, jamoada ishlash, AKT ko'nikmalari va media savodxonligini shakllantiradi. Dasturda umuminsoniy qadriyatlarga alohida e'tibor qaratilib o'quvchilarni faol fuqaro sifatida vatanparvarlik, insonparvarlik, ochiqlik, tashabbuskorlik, hayoti davomida ilmga intilish, mehnatsevarlik va bag'rikenglik ruhida kamol topishiga zamin yaratadi.

Koreys tili ikkinchi xorijiy til sifatida o'rganilishi o'quvchilarning til ta'limiga qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qilishga harakat qilamiz. Bu esa o'z o'rnida "plurilingvizm" va "multilingualizm" tushunchalariga aniqlik kiritish zaruratini tug'diradi. Ikki tilli va ko'p tilli jamiyatlar umumiy bo'lgan Yevropa Kengashida (2007: 6), "multilingualism", ya'ni ko'p tillilik "jamiyatlar, muassasalar, tashkilotlar va shaxslarning kundalik hayotida muntazam ravishda bir nechta tilda ishtirok etish qobiliyati" deb ta'riflanadi. Yevropa Kengashining Yevropa standartiga ko'ra, "ko'p tillilik" ma'lum bir mintaqada bir nechta tillarning birgalikda ishlatilishini bildiradi, "plurilingvizm" esa so'zlovchining ikki yoki undan ortiq tildan foydalanish qobiliyatini, ya'ni individual qatlamni anglatadi. Yuqorida aytilganlar turli tillarda gapirish qobiliyatiga ishora qiladi. "Multilingualism" va "plurilingvizm" ni farqlash kerakligi sababli, ikki yoki undan ortiq tilni o'z ona tili sifatida ishlata oladigan odamlar "plurilingual so'zlovchi" deb, jamiyatda bir nechta tillarning mavjud bo'lib birgalikda ishlatilishi esa "multilingual jamiyat" deb ataladi.

O'zbekiston holatida ona tili o'zbek tili bo'lib, rus tili esa o'ziga xos "lingua franca" vazifasini bajargani sababli jamiyatimizni ko'p tilli jamiyat deb bimalol nomlay olamiz. Jamiyatimiz a'zolari, xususan yuqori sinf o'quvchilari ingliz tili hamda qo'shimcha ikkinchi xorijiy tilni o'rganayotganlari ularni plurilingual so'zlovchiga aylantiradi. Hammarberg (2009) o'quvchi tomonidan o'rganilgan L1 va L2 tillaridan tashqari barcha boshqa tillarni L3 deb nomlaydi. Bunda o'rganish tartibidan qat'iy nazar, hattoki beshinchi bo'lib o'rganiladigan barcha til L3 bo'lib, ona tilidan tashqari boshqa til esa L2 deb qoraladi.

L3 ta'limida bir vaqtning o'zida yoki ketma-ket bir nechta tillarni o'rganishingizga qarab farqlar paydo bo'ladi. Bu bir vaqtning o'zida o'rganish va ketma-ket o'rganish deb ataladi va Cenoz (2000: 40) plurilingual o'zlashtirish kontekstini 12 turdagi tartib va bir vaqtililikka qarab bo'lgan. Ular orasida L3 ni o'zlashtirish uchun to'rtta kontekst mavjud:


- (a) Lx/Ly/Lz
- (b) L1 → Lx/y
- (c) L1 → L2 → L3
- (d) Lx/y → L3

Bunda (a) bir vaqtning o'zida uchta tilni o'rganish holati, (b) bir tilli shaxs bir vaqtning o'zida ikkita chet tilini o'rganish holati va (c) uchta tilni ketma-ket o'rganish holati. (d) esa ikki tilli shaxs qo'shimcha ravishda boshqa tilni o'rganadigan holat bo'lib, bizning tadqiqotimizda o'zbek yuqori sinf o'quvchisining til muhiti (d) holatiga mos keladi, ya'ni o'quvchi o'zbek va rus tillarini deyarli bir vaqtda o'zlashtiradi va keyinchalik uchinchi til sifatida avval ingliz, keyin koreys tilini o'rganadi. Shu sababli, tadqiqotimiz uchinchi tilni o'zlashtirish kontekstlari orasida (d) muhitidagi o'quvchilarga qaratilgan.

Koreys tilini uchinchi til sifatida o'rganish bo'yicha, xususan ko'p tilli muhitda koreys tilini uchinchi til sifatida o'rganish bo'yicha tadqiqotlar haqida izlanishimiz natijasida haligacha ilmiy ishlar yetarli va xilma-xil emasligini aniqladik. Koreys tilini uchinchi til sifatida o'rganish bo'yicha tadqiqot tendentsiyasi asosan ikkinchi til yapon tili bo'lgan o'quvchilar uchun koreys tilini uchinchi til sifatida o'rganish bo'yicha tadqiqotlarga xolos. Masalan, Jaehyeon Cho(2011) tipologik jihatdan koreys tiliga o'xshash yapon tilini o'rganish tajribasining koreys tilini uchinchi til sifatida egallashiga ta'sirini o'rgandi. Ushbu tadqiqotda yapon tili ta'sirida ijobiy sintaktik interferens elementlarini aniqlash uchun 6 ta koreyscha sintaktik elementni o'z ichiga olgan 40 ta jumla bilan induktsiyalangan nutq tajribasi o'tkazildi. Tadqiqot natijasida yapon tilini birinchi yoki ikkinchi til sifatida o'rganish


tajribasiga ega bo'lgan koreys tili o'quvchilari yapon tilini avvaldan tajribasiga ega bo'lmagan o'quvchilarga nisbatan eksperimental natijalarda sezilarli farqlar ko'rsatdi. Biroq, bu farq yapon tilini birinchi til sifatida o'rgangan guruh va yapon tilini ikkinchi til sifatida o'rgangan guruh o'rtasida katta farq topilmadi. Shuning uchun uchinchi tilni o'zlashtirish jarayonida sintaktik bilimlarni erkin va tanlab o'tkazish mumkinligi aytiladi va bu orqali uchinchi tilni o'zlashtirish nazariyalari orasida CEM (Bosqichma-bosqich kuchaytirish modeli) gipotezasi isbotlanlana oladi. Ushbu model Flynn va boshq., (2004)ga ko'ra til o'rganish UG (universal grammatikka) tamoyillari asosida boshqariladigan kumulyativ jarayon ekanligini va ilgari olingan har qanday til tizimi yangi tilni o'rganishda osonlashtiruvchi vazifasida ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, boshlang'ich darajadagi uchinchi til o'rganuvchilarning sintaktik o'zlashtirish jarayonida birinchi til ikkinchi tilga qaraganda ko'proq ta'sir ko'rsatadi, ammo o'rta darajadagi uchinchi til o'rganuvchilar uchun birinchi til va ikkinchi til uchinchi til o'rtasidagi sintaktik interferens darajasidagi farq minimal ekanligi aniqlandi. Bu birinchi tilning uchinchi tilga ta'siri yangi boshlanuvchilar uchun mavjudligini isbotlaydi.

O'zbek o'quvchilarining holatida o'zbek tili va koreys tili gap qurilishi(SOV) va so'z yasash jihatdan o'xshash ekanligi ushbu ikkinchi xorijiy tilni o'rganishda ijobiy interferens sifatida xizmat qila oladi. Biroq ikki tilning harflar tizimi, yozilish tartibi, tuzilish, o'ziga xos tovushlariga ega bo'lishi kabi farqlari o'quvchiga qiyinchilik keltirishi mumkin. Bu jarayonni Cumulative Enhancement Model (Bosqichma-bosqich kuchaytirish modeli) nuqtai nazaridan ko'rib chiqamiz, chunki u bir tildan boshqa tilga o'rganishdagi o'zaro ta'sirni tushuntiradi. Unga ko'ra har bir yangi til, avvalgi tillar o'rganilgan bilimlarga tayangan holda tezroq o'rganiladi. (1-rasmga qarang):



1- rasm. L4ning o'zlashtirilishida bundan avvalgi o'rganilgan tillarning ijobiy ta'siri (CEM bo'yicha)

Plurilingval o'quvchilar bir nechta tilni bir vaqtning o'zida biladigan shaxslardir. Bunday o'quvchilar odatda bir tilni ona ona tili sifatida sotib olishgan, boshqa tillarni esa o'quv orqali yoki aloqa orqali o'rganganlar. Plurilingval o'quvchilar til o'rganishda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishadi (2-rasmga qarang).



2-rasm. Plurilingval o'quvchilar til o'rganish xususiyatlari

Plurilingval o'quvchilar til o'rganishda o'ziga xos xususiyatlari mazmuni va unda belgilangan vazifalar mohiyati quyidagi tarzda izohlanadi:

1. Til bilimlari transferi - Plurilingval o'quvchilar bitta tilning grammatikasini, lug'atini va talaffuzini boshqa tillarga o'tkazishlari mumkin bo'lib, bu ularga yangi tillarni tezroq va osonroq o'rganishga yordam beradi.

2. Til ongi - Plurilingval o'quvchilar turli tillar o'rtasidagi o'xshashliklarni va farqlarni tushunish bo'yicha yaxshi rivojlangan tushunchalarga ega bo'lishadi. Bu ularga yangi tillardagi tushunchalarni o'zlashtirishda yordam beradi.

3. Meta-til ongi - Plurilingval o'quvchilar tillar qanday ishlashi haqida ongga egadirlar va bu ularga tilning muayyan jihatlarini chuqurroq tushunish va yangi tillarni tahlil qilishga yordam beradi.

4. Madaniy ong - Plurilingval o'quvchilar turli tillar bilan bog'liq bo'lgan turli madaniyatlar haqida tushunishadi. Bu ularga yangi tillarni madaniy kontekstda o'rganish va ularni samaraliroq qo'llash imkonini beradi.

5. Kognitiv gibkostlik - Plurilingval o'quvchilar ko'pincha kognitiv gibkostlikka ega bo'lishadi. Bu ularga turli til kodlari o'rtasida osonroq o'tish va turli tillardagi muammolarni hal qilish imkonini beradi.

6. Til ichidagi turli xillikni qabul qilish - Plurilingval o'quvchilar tillardagi turli xillikni qabul qilishga moyildirlar. Bu ularga turli aksantlarni, lahjalarni va tilning boshqa shakllarini qadrlash imkonini beradi.

7. Til muvaffaqiyati - Plurilingval o'quvchilar odatda yangi tillarni o'rganishga turtki berishadi. Ular tillarning boyligini va madaniylarni bog'laydigan qurol sifatida qadrlashadi.

Plurilingval o'quvchilarning bu o'ziga xos xususiyatlari ularga til o'rganishda noyob ustunliklar beradi. Ular yangi tillarni tezroq va samaraliroq o'rganishlari mumkin, turli tillardagi muammolarni hal qilishlari va tillarni madaniy va kognitiv jihatdan qadrlashlari mumkin. Bu xususiyatlar ularni global fuqarolar sifatida muvaffaqiyat qozonish va turli xil tillar va madaniyatlar bilan boyitilgan dunyoda gullab-yashnashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Cenoz J.(2013).The influence of bilingualism on third language acquisition: Focus on multilingualism.Language&Teaching,46,pp 71-86

2. Flynn, S., Foley, C., & Vinnitskaya, I. (2004). The Cumulative-Enhancement Model of Language Acquisition: Comparing Adults' and Children's Patterns of Development in First, Second and Third Language Acquisition of Relative Clauses. International Journal of Multilingualism, 1, 3-16.

3. Hammarberg B.(2009).Processes in third language acquisition. Edinburg: Edinburg University Press. pp. 171

4. M.M. Saidova (2024). Integrativ yondashuv asosida o'quvchilarga koreys tilini o'qitishda xalqaro hamkorlik tajribalarining ahamiyati. Inter education & global study, (6), 14-22.

5. Saidova M.M. (2024). O'quvchilarning koreys tilidan nutq va akademik yozuv ko'nikmalarini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish bosqichlari va tamoillar. Экономика и социум, (7 (122)), 256-262. doi: 10.5281/zenodo.13314888

6. Saidova. M.M. Integrativ yondashuv asosida o'quvchilarga ikkinchi xorijiy tilni o'qitish metodikasi.Buxoro Xamd Print, 2024.

Odilova Halima Azamatovna,

BuxDU San'atshunoslik (Musiqashunoslik) yo'nalishi 2-bosqich talabasi

DARSDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARDA DUTOR MUSIQA ASBOBINI O'RGATISHNING METODIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek milliy cholg'ularidan dutor cholg'usi va yaralish tarixi, dutorlar oilasidutorchi qizlar ansamblli ularning ijro usullari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Milliy, xalq cholg'ulari, dutor cholg'usi, musiqa, madaniyat, ansanbl, orkestr, koset, dutor alt, dutor prima, dutor sekunda, dutor bas, cholg'u usullari.

Аннотация: В данной статье рассматривается история дутора, одного из узбекских национальных музыкальных инструментов, и способы его исполнения семьей дутора и ансамблем девушек-дutorниц.

Ключевые слова: народные, народные инструменты, дutorный инструмент, музыка, культура, ансамбль, оркестр, младший дutor, дutor-альт, дutor-прима, дutor-секунда, дutor-бас, инструментальные методы.

Annotation: Three articles discuss the history of the creation of the Uzbek national instrument, the dutor, the dutor family, and the methods of performing the dutor by the ensemble of dutor players.

Key words: National, folk instruments, dutor instrument, music, culture, ensemble, orchestra, coset, dutor alto, dutor prima, dutor secunda, dutor bass, instrument methods.

Kirish. Prezidentimizning aholining, ayniqsa, olis hududlarda istiqomat qiladigan fuqarolarga madaniy dam olish konsert tomosha tadbirlarini tizimli ravishda yo'lga qo'yish madaniyat va san'at sohasida istedadli yosh ijodkorlarni izlab topish va qo'llab-quvvatlash ta'lim muassasalarini milliy cholg'ular musiqa darsliklari, notalar to'plami va o'quv metodik adabiyotlar bilan ta'minlashning yaxlit tizimini yaratish maqsadida shuningdek 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq, PQ-112-сон 02.02.2022. Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida hamda 2022-2023 yillardan boshlab ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalar musiqiy bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo'lgan munosabatini shakllantirish, yosh iste'dodlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora tadbirlar amalga oshirilishi belgilandi: Mazkur qarorda o'quvchilarga milliy musiqa cholg'ularidan kamida uchta kuy ijro etish ko'nikmalari hamda bu haqida ularning ta'lim to'g'risidagi hujjatlariga tegishlicha qayd etish. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida quyidagi milliy cholg'ularni ijro etish o'rgatiladi. Bular dutor, do'mbira, doira, tanbur rubob, g'ijjak va nay milliy cholg'ulari o'rgatiladi va ushbu cholg'ularda kamida uchta kuy ijro etish mahorati bo'lishi shart. Shu kabi qaror va farmonlar darsdan tashqari mashg'ulotlarda dutor musiqa asbobini o'rgatishning metodik imkoniyatlari deb maqolamiz mavzusini nomlashimizga asos bo'ladi.

Maqsad. Ushbu maqolani yozishdan maqsad shundaki o'quvchi yoshlarga o'rta ta'lim maktablarida darsdan tashqari vaqtini unumli o'tkazish maqsadida ularga turli musiqa cholg'ularini o'rgatish va milliy cholg'ularimizga bo'lgan qiziqishini yanada orttirishdan iborat.

Materiyallar va metodlar. Dutor milliy cholg'usi haqidagi dastlabki yozma ma'lumotlar XV asrda yashab ijod etgan va hazrat Alisher Navoiyning zamondoshi bo'lgan Zaynulobiddin al-Husaynning "Qonuni ilmi musiqiy va amaliy musiqiy" ya'ni musiqaning amaliy qoidalari nomli risolasi 16-bobida uchratishimiz mumkin. XVI-XVII asrlarda Dutoriy nomi bilan ijod etgan Hiroflik Yusuf dutoriy Mashhadlik Mirquliy Dutoriy nomlari yozib qoldirilgan. Zaynulobiddin tomonidan yaratilgan mazkur risolaga dutor haqida muhim ma'lumotlar qayd etilgan. Risolada tasvirlangan cholg'u zamonaviy dutordan unchalik farq qilmaydi. Mavjud farqlari esa, asosan dutorning shaklida ko'rish mumkin. Xususan, dasta qismi qisqaroq bo'lib,

kosasi zamonaviy dutorga nisbatan kattaroq ekanligi tasvirlanadi. Dutor sozi Markaziy Osiyoning o'zbek, tojik, turkman va uyg'ur xalqlari orasida keng tarqalgan cholg'ulardan biri.

Ayni paytda respublikamizda dator ijrochiligi to'rt asosiy uslubga bo'lindi. Bular Xorazm, Samarqand-Buxoro, Qashqadaryo-Surxondaryo va Farg'ona-Toshkent mahalliy yo'llari alohida o'rin tutadi. Dutor turlari haqida so'z yuritadigan bo'lsak, tarixiy rivojlanish jarayonida turkman, tojik, uyg'ur, xorazim va o'zbek datorlari shakllangan. Bular tuzilishi jihatdan unchalik farqlanmasa-da har holda ko'rinishi torlari bilan bir biridan ajralib turadi. Masalan uyg'ur va tojik datorlarining bir biriga o'xshalik tomoni shundaki ularning kosasi turkman datorlariga metallardan yasalgan sim taqiladi. Tojik datorlari ayrimlari o'zbek datoriga o'xshaydi.

Biz dator milliy cholg'u asbobi haqida qisqacha ma'lumot bermoqchi bo'lsak. Dutor-forscha ikki tor degan ma'noni anglatadi hamda uning kosasi tut, dastasi o'rik daraxtidan yasaladi. Cholg'uning kosaxonasi 8-12 ta yupqa bir-biriga yonma-yon yopishtirilgan taxtachalar (qovurg'a) dan ishlanadi. Kosaxonaning ustki ochiq qismiga yupqa qopqoq yopiladi va kosaxona bo'g'iz orqali dastaga ulanadi. Dutorning uzunligi va ingichka dastasiga 13-17 ta parda bilan bog'lanadi. Uning torlari ipakdan bo'ladi. Dutor Uyg'ur xalqida kattaroq shaklda Turkmanistonda esa faqat o'yma hamda Xorazm va Qoraqalpog'istonda kosaxonasi qovurg'ali datorlar bilan birga hajmi kichik o'yma xillari xam uchraydi. Shunday qilib dator cholg'usi qadimiy cholg'u bo'lib turli xalqlar va elatlarda takomillashib ansambillar va orkestrlar shakllana boshladi. Bunga misol tariqasida 1939-yilda dastlab "dutorchi qiz-juvonlar" ansambli tashkil etilgan bunda badiiy rahbar L. Sarimsoqova, musiqa rahbari Yu. Rajabiyalar bo'lgan va 1958-yilda yangidan "dutorchi xotin-qizlar ansambili" tashkil etilgan, 1964 yildan boshlab tarqalgan va 1977-yilda Toshkent shahar Madaniyat uyida A.Ilyasev boshchiligidagi "dutorchi qizlar ansambili" tuzilgan. Ansambillar Tojikiston, Rossiya, Fransiya, Germaniya, Turkiya mamlakatlarida gastrolga bo'lgan. O'zbekiston viloyatlari o'quv yurtlarida ham datorchi qizlar ansambillari mavjud. Bulardan Nukuz shahridagi "qirg'iz" datorchi qizlar ansambillari hamda Farg'ona Davlat pedagogika institutining "Nihol" datorchi qizlar ansambillari mavjud. Bundan tashqari 1936 yil Toshkent Davlat Konservatoriyasi va 1938-yilda dastlab ko'p ovozli o'zbek xalq cholg'ulari orkestri tashkil etildi. O'zbek madaniyati tarixida birinchi bora xalq cholg'u ovozlari ko'p ovozli orkestr tuzishga erishildi va orkestr tarkibida quyidagi ijro guruhlari shakllantirildi:

1. Puflab chalinadigan damli cholg'ular guruhi: nay pikola, nay, surnay, qo'shnay va sibizg'a

2. Torli urma cholg'ular guruhi : pikola chang, prima chang, tenor chang, bas chang.

3. Chertma torli va (mezrobli) cholg'ular: prima rubob, qashqar rubob, afg'on rubob, prima dator, alt dator, tenor dator, bas dator va kontrobas dator.

4. zarbli cholg'ular guruhi: doira, nog'ora, do'l nog'ora, qayroq va qoshiq.

5. Torli kamonli cholg'ular guruhi: g'ijjak, g'ijjak alt, g'ijjak bas va g'ijjak qobuz bas.

1943-yildan e'tiboran laboratoriyadagi ustaxonasida ko'p ovozli xalq cholg'ulari orkestri asoschilaridan biri Ashod Ivanovich Petrosiyans rahbarlik qilgan u rus musiqa cholg'u usullari V.Romanchenko, A.Kevxoyans, S.Dinekolar bilan va keyinchalik Xirojiddin Muhiddinov, Abdunabi Abdug'afforov kabi mohir ustalar bilan hamkorlikda milliy sozlarimizni takomillashtirishga kirishadi va 12 bosqichli temperatsiyalangan xromatik tovush qatarga ega bo'lgan prima alt bas va kontro bas kabi qayta ishlab takomillashtirilgan datorlar oilasi vujudga keladi. 1948-yildan boshlab Toshkent Davlat konservatoriyasida dator mutaxassisligi tashkil qilinadi. I. Sulaymonova, A.Ilyasov dator mutaxassisligining birinchi bitiruvchilaridan bo'ldi. 1967-yildan dator sinfdagi mashg'ulotlarni Boqijon Raximjonov olib boradi. 1975-yildan 1983-yilgacha ushbu sinfdagi mashhur datorchi Orif Qosimov dars beradi. 1987-yilda hozirgacha ushbu mutaxassislik bo'yicha Respublika tanlovi g'olibi mohir pedagog dator cholg'usi uchun yaratgan bir necha to'plamlar mutaxasisi Ro'zi bibi Xo'jayeva saboq berib kelmoqda.

Muhokama va natijalar. Shu o'rinda takomillashgan dutorlar oilasi haqida qisqacha bilib olamiz.

1. Dutor prima-Dutor oilasidagi eng yuqori regstrga ega cholg'u bo'lib uning birinchi tori 1-oktava lyaga ikkinchi tori yuqori oktava miga sozlanadi. Diapazoni 1-oktava midan 3-oktava "lya" gacha ushbu cholg'u tronspazitsiya qilinmaydi.

2. Dutor sekunda-bu dutor 1-tori birinchi oktava rega ikkinchi tori 1-oktava miga sozlanadi. Diapazoni kichik oktava lyadan uchinchi oktava regacha ushbu cholg'u tronspazitsiya qilinmaydi.

3. Dutor alt-dutorlar oilasining o'rta registrlisi bo'lib uning birinchi tori 1-oktava lyaga ikkinchi tori 1-oktava miga sozlanadi. Diapazoni birinchi oktava midan uchinchi oktava lyagacha ushbu cholg'u tronspazitsiya qilinadi.

Ushbu cholg'u turlaridan bugungi kunda dutor prima va alt keng qo'llaniladi. Sekunda dutoridan esa asosan bolalar musiqa va san'at maktablarida keng qo'llaniladi.

Dutorda qanday tovush hosil qilinadi? o'ng qo'lning ijrodagi holati tovush sifatini belgilab beradi va shu bilan birga talaba o'zlashtirayotgan ijro mahoratini yutug'i yoki aksincha, kamchiliklariga sabab bo'ladi. Misol uchun, dutorning dastasi tugagan joydan dasta tomon yuqoriroq qismda ijro qilinsa, inson dimoqdan gapirganda bo'g'i q tovush chiqqandek dutor tovushi bo'g'iladi. Agar dutorning dastasidan keyin xarrak tomon pastroq qismida ijro qilinsa yuqori abertonga boy ingichka suniy tovush chiqadi. Yuqorida keltirilgan ikki holat ham noto'g'i hisoblanib, sifatli tovush chiqarish uchun talaba dutorning pardalari tugagan joyda ijro qilishi tavsiya qilinadi. Aynan shu joyda dutor cholg'u sifatidan kelib chiqqan holda eng sof tovushga erishish mumkin. Shu bilan bir qatorda bilakning harakatlanishidagi amplitudasi hamda torlarni barmoqlar bilan aniq chertish ham tovush sifatini belgilab beradi. Yuqorida ta'kidlanganidek, talaba dutor cholg'usida tovush hosil qilish ko'nikmalarini o'zlashtirgach, bevosita ijro uslublarini o'zlashtirib boradi. Bu ko'pchilikka ma'lum bo'lgan turli ijro usullari bo'lib, ularni belgilashda turli harfiy belgilar qo'llaniladi.

Pastga tirnab ijro etishda:

"II" - bilak zarb, chertma zarb, terma zarblarni ifodasida qo'llaniladigan belgi;

"π" - va rez, triol rez, yarim rezlar ijrosini aks ettirishdagi belgi.

Yuqoriga chertishlar:



"V" - bilak zarb, chertma zarb, terma zarblarni ifodalashdagi shartli belgi;

"v" - rez, triol rez, yarim rezlarni nota ijrosidagi ifoda belgisi.

Dutorda ijro etish usullari. Bilak zarb – o'ng qo'l barmoqlari bilan pastga yoki yuqori torlarni bilak yordamida chertishdir. Bunda o'ng qo'lning barcha barmoqlari va bilak ishtirok etib, tovush o'z navbatida to'liq, jarangdor eshitilishi kuzatiladi. O'ng qo'l harakat yo'nalishini

ifodalashda katta “Π” harfi bilan – pastga, hamda katta “V” harfi bilan yuqoriga belgilanib, zarbni ifodalashda qisqartirilib “b.z.” ishlatiladi.



Chertma zarb – bilak yordamida faqatgina ko‘rsatkich barmoq yordamida ijro etish usuli bo‘lib hisoblanadi. Bu holda tabiiyki tovush bilak zarbga nisbatan pastroq, yumshoqroq eshitiladi. Chertma zarbning ijro usuli “bilak zarb”i kabi ifodalanadi, ammo chertma zarbda faqat ko‘rsatkich barmoqning ishlatilishi sabab “ch.z.” yoki “k” belgisi notalarning tagiga yoziladi. Bu ijro uslubni qo‘llashda talabalarda asosan tovush sifati notekkisligi kuzatiladi. Bunda talaba pastga torlarni tirnagan tovush, yuqoriga chertilgan tovushga nisbatan dag‘al, qo‘polroq eshilitiladi.



Terma zarb – dutor ijrochiligidagi zarb namunalaridan biri hisoblanadi. O‘ng qo‘lning ko‘rsatkich va bosh barmoqlarini alohida-alohida pastga va yuqoriga ketma-ket ijro etish bilan to‘rt tovushdan iborat zarb amalga oshiriladi. Asarlarni ijro etishda bu kabi turli zarblarning qo‘llanilishi metro ritmning buzilmasligiga, shu bilan birga turli murakkab sinkopalashgan zarblarni ijro etishga imkon yaratadi. Terma zarb “t.z.”, “k b b k”, “j b b k” kabi harfiy belgilar orqali ifodalanadi. Terma zarbda o‘ng qo‘l barmoqlari bilan ijro etish tushuniladi. Chertishning yo‘nalishini belgilashda esa “ΠΠΠV” ramzlari orqali belgilanadi.

Teskari terma zarb – ushbu usul yuqorida aytilgan terma zarb ijro yo‘liga juda o‘xshash. Teskari terma zarb uchta tovush guruhidan iborat. Ijro paytida avval birinchi tovushi ko‘rsatkich (“k”) barmoq bilan pastga, qolgan ikki tovushi bosh va ko‘rsatkich barmoqlar bilan yuqoriga ijro etiladi.



Tremolo – tremoloning rez, yarim rez, teskari rez kabi bir necha turlari mavjud. Ko‘rsatkich barmoq yordamida uzluksiz juda tez sur‘atda bir maromda pastga-yuqoriga torlarni chertib chalish bilan amalga oshiriladi. Tremolo ijro usuli tremolo, trem so‘zlari bilan notalar ustiga belgilab ko‘rsatiladi. Tabiatan ijro jarayonida o‘ng qo‘ldagi “Π” chertish kuchi “V” ijro kuchi bilan farq qiladi albatta, lekin tremoloda pastga ijroning ajralib turishi mutlaqo joiz emas.

Ushbu usulda turli dinamika belakning bir xil kuch bilan tovushni tekis ushlagan holda hosil qilinishi kerak, sababi tremoloni tekisligi, uning sifati aynan shunga bog‘liqdir.

Shunday qilib dutor cholg‘usida shunday va boshqa ijro usullari mavjud.



Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hozirgi kunga qadar dutorlar oilasi takomillashib nafaqat bizning yurtimiz balki butun O‘rta Osiyo mamlakatlarida foydalanilmoqda. Shunday ekan biz milliy cholg‘ularimizni nafaqat o‘rta ta‘lim maktablarida balki maktabgacha ta‘lim muassasalarida milliy cholg‘ulardan foydalanib darslar tashkil qilish va ushbu darslarda bolalarning qiziqishini orttirish maqsadida qo‘shiqalar aytib, bolalarga ham o‘rgatilib borilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Shu tariqa kelajak yosh avlodga milliy cholg‘ularimizni mukammal o‘rganishiga, san‘at va madaniyatning yuksalishiga hissa qo‘shgan bo‘lar edik. Maktabgacha ta‘lim muassasalarida milliy cholg‘ularimizning o‘rgatilishi va ular asosida darslar olib borilishi yoshlarning san‘atga bo‘lgan qiziqishini orttiradi va kelajakda istedadli yoshlar yetishib chiqishiga ulkan hissa qo‘shadi. Shuning uchun faqatgina umumiy o‘rta ta‘lim maktablaridagina emas balki maktabgacha ta‘lim muassasalaridayoq yoshlarni milliy cholg‘ularimizga bo‘lgan qiziqishlarini orttirishimiz lozim va ularni shu cholg‘ularimiz bilan tanishtirib borishimiz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston respublikasi prezidentining 02.02.2022 yildagi PQ-112-sonli qarori
2. O‘. Toshmnatov “Cholg‘ushunoslik” Toshkent – 2004 y.
3. Toshpo‘latova “Ananaviy dutor ijrochiligi” Toshkent – 2004 y.

4. M. Mirzayeva "Dutor" Toshkent – 2008 y. "Maqom cholg'u ijrochiligi" Toshkent- 2024 y.
5. Xabar. <https://www.xabar.uz/uz>, Lex.Uz. <https://lex.uz/>
6. U. Yunusov "Xalq cholg'ulari ijrochilik (Dutor)" Toshkent – 2023 y.
7. Rajabov Tuxtasin Ibodovich, Madrimov. B. Kh, Nurullaev F.G Teaching bukhara children folk songs in music lessons as an actual problem. International Journal of Psychosocial Rehabilitation 6049-6056 бет Vol. 24, Issue 04. 2020 йил. ISSN: 1475-7192
8. Rajabov, Tuxtasin Ibodovich. B. Jamilova N. Safarova K. Nusratova X. Bakieva Basics of Uzbek Children's Reading. TEST Engineering & Management November-December 2019 ISSN: 0193-4120 Page No. 4207-4214 Published by: The Mattingley Publishing Co, Inc
9. Rajabov, Tuxtasin Ibodovich. Practical situation of teaching uzbek musical folklore in the continuous education system. International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) DOI: 10.9756/INTJECSE/V14I6.77 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 06 2022. 708-716- bet
10. Madrimov, Bakhram Khudoynazarovich, and Tokhtasin Ibodovich Rajabov. "Uzbek Ceremonial Folklore and its Characteristics." Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science 1.4 (2022): 53-56.

Narziyeva Munisa Sobitovna,

BuxDU San'atshunoslik fakulteti (Musiqashunoslik) yo'nalishi 2-bosqich talabasi

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA 2-4-SINFLAR ORASIDA FORTEPIANO CHOLG'USINI O'RGATISH METODIKASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada urma torlilar guruhiga kiradigan fortepiano haqida, uning yaralish tarixi oldin qanday nomlangani va hozirda qanday nom bilan yuritilishi va qanday ijro etilishi, ijro etilish turlari haqida, organ asbobi haqida bizgacha kirib kelish tarixi haqida qisqacha keltirib o'tilgan. Fortepiano qadimda qanday nomlangan va hozirga kelib qanday turlari takomillashganligi va ijro haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: musiqa, san'at, torli urma musiqa asboblari, klavesin, klavikord, klavishli musiqa asboblari, monoxord, organ, fortepiano, klavishli torli tirnama musiqa cholg'ulari.

Аннотация: В данной статье рассматривается фортепиано, относящееся к группе струнно-ударных инструментов, его история происхождения, прежние названия, современное наименование, а также особенности исполнения и виды игры. Кратко затрагивается история органа и его путь к современности. Также обсуждаются, как называлось фортепиано в древности, какие виды инструмента были усовершенствованы со временем, и особенности их исполнения.

Ключевые слова: музыка, искусство, струнно-ударные музыкальные инструменты, клavesин, клавикорд, клавишные музыкальные инструменты, монохорд, орган, фортепиано, клавишные струнные щипковые музыкальные инструменты.

Annotation: This article discusses the piano, which belongs to the group of string percussion instruments, its history of origin, its former names, its current name, and how it is played, including the different methods of performance. It also briefly touches on the history of the organ and how it has reached us. The article delves into the names the piano was called in ancient times, the evolution of its various types over time, and the nuances of its performance.

Key words: music, art, string percussion musical instruments, harpsichord, clavichord, keyboard musical instruments, monochord, organ, piano, keyboard string plucked musical instruments.

Kirish. 2025-yil 1-sentabrdan boshlab: bolalar musiqa va san'at maktablarining belgilangan o'quv dasturlarini to'liq yakunlagan, 11-sinfni tugatgan umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi shahodatnomaga ega bo'lgan bitiruvchilarga "Barkamol avlod" bolalar maktablarida to'garak rahbari sifatida ishlash huquqi beriladi. Madaniyat va san'at yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturi doirasida psixologiya va pedagogika fanlarini o'rgangan musiqa yo'nalishi bitiruvchilariga maktablarda musiqa madaniyati fanini o'qitishga ruxsat beriladi. Bunda musiqa madaniyati fani o'qituvchilariga milliy cholg'u asboblardan kamida 1 tasini ijro etish ko'nikmasiga ega bo'lish talabi qo'yiladi. Madaniyat va san'at yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining bitiruv oldi amaliyoti kelishuv asosida maktablarda tashkil etiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati fani o'qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. Quyidagilar umumiy o'rta ta'lim maktablarida (keyingi o'rinlarda - maktablar) musiqa madaniyati fanini rivojlantirishning asosiy vazifalari etib belgilansin:

- musiqa madaniyati fani o'qituvchilari uchun o'quv qo'llanmalarini ishlab chiqish;
- o'qituvchilar malakasini oshirishning yangi tartibini joriy etish;
- o'qituvchilarga malaka toifasini berish mexanizmini qayta ko'rib chiqish;

Musiqa madaniyati fani o'qituvchilarining bilim darajasi va kasbiy mahoratini aniqlash bo'yicha milliy baholash tizimini yo'lga qo'yish; madaniyat va san'at yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini maktablarga ishga qabul qilish tizimini soddalashtirish. 2025-yil

1-martdan boshlab musiqa madaniyati fani o'qituvchilari uchun nazariya va amaliyot uyg'unlashtirilgan holda malaka oshirish tizimi yo'lga qo'yiladi.

Bunda malaka oshirish ta'lim dasturining nazariy qismi A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar pedagogik mahorat markazlarida (keyingi o'rinlarda - markazlar), amaliy (ijodiy) qismi bolalar musiqa va san'at maktablarida tashkil etiladi va markazlarga ishga qabul qilinadigan musiqa madaniyati fani o'qituvchilari mehnatiga soatbay asosda ish haqi to'lanadi; Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (K. Sharipov), Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova), Madaniyat vazirligi (O. Nazarbekov), Bilim va malakalarni baholash agentligi (M. Karimov):2025/2026 o'quv yiliga qadar musiqa madaniyati fani o'qituvchilarining bilim darajasi va kasbiy mahoratini aniqlash bo'yicha milliy baholash tizimini ishlab chiqsin va amaliyotga joriy etish choralari ko'rsin; 2025/2026 o'quv yilidan boshlab madaniyat yo'nalishida kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalarida psixologiya va pedagogika fanlarini o'qitish amaliyotini joriy qilsin.

Madaniyat vazirligi (O.Nazarbekov): Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X.Umarova) bilan hamkorlikda 2025-yil 1-apreldan boshlab "Turon" maktab teatrining ijobiy tajribasi asosida maktablarda "Iqtidor" badiiy havaskorlik jamoalarini tashkil etib, jamoalar o'rtasida "Iqtidor maktab ansambli" respublika tanlovini (keyingi o'rinlarda - tanlov) o'tkazsin. Bunda tanlov har yili milliy va jahon musiqasi yo'nalishlari bo'yicha maktablarning badiiy havaskorlik jamoalari o'rtasida o'tkaziladi. Tanlovning respublika bosqichi g'oliblari xorijiy davlatlarga ta'lim sayohatiga yuboriladi. Tanlovning respublika bosqichini tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga ajratiladigan mablag'lar doirasida amalga oshiriladi. Ikki oy muddatda maktablarda darsdan tashqari tashkil etilgan "Iqtidor" badiiy havaskorlik jamoalari uchun 7 turdagi milliy musiqa cholg'ularida kuy ijro etishni o'rgatish bo'yicha qo'shimcha adabiyotlar, notalar va videodarslar ishlab chiqsin tuman (shahar)larda bolalar musiqa va san'at maktablari hamda milliy va zamonaviy cholg'u ansambllarining hisobot konsertlari budjetdan tashqari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan yo'lga qo'yilishini ta'minlasin. Har yili madaniyat va san'at yo'nalishlari bo'yicha nufuzli xalqaro va respublika tanlovlari ro'yxatini shakllantirsin hamda vazirlikning rasmiy veb-saytida e'lon qilib borsin. Bolalar musiqa va san'at maktablari maktablarning musiqa madaniyati fani o'qituvchilariga uslubiy yordam ko'rsatish bo'yicha tayanch ta'lim muassasalari sifatida belgilasin. Bunda bolalar musiqa va san'at maktablari o'qituvchilari maktablarning musiqa madaniyati fani o'qituvchilariga uslubiy yordam ko'rsatib boradi. O'qituvchilarning musiqa cholg'ularida ijro etish ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha mahorat saboqlari tashkil etiladi; o'quvchilar orasidan iqtidorli bolalarni tanlab olish, ularni madaniyat va san'at sohasidagi ta'lim tashkilotlariga maqsadli yo'naltirish uchun Madaniyat vazirligi tasarrufidagi ixtisoslashtirilgan madaniyat va san'at maktablari, bolalar musiqa va san'at maktablari tomonidan maktablarda targ'ibot va tashviqot ishlari amalga oshirilishini ta'minlasin.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X.Umarova) Madaniyat vazirligi (O.Nazarbekov) bilan birgalikda uch oy muddatda musiqa madaniyati fani o'qituvchilariga malaka toifalarini berish tartibini ishlab chiqsin.

Bunda malaka toifalarini berish 2 bosqichda amalga oshiriladi:

Birinchi bosqich - Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan o'tkaziladigan test sinovlari;

Ikkinchi bosqich - Madaniyat vazirligi tomonidan belgilangan bolalar musiqa va san'at maktablarida tashkil etiladigan amaliy (ijodiy) imtihon. Belgilansinki, mazkur qaror ijrosini ta'minlash bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish 2025-yilda O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchi sifatida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Madaniyat vazirligiga ajratilgan mablag'lar doirasida amalga oshiriladi, 2026-yildan boshlab esa Davlat byudjeti parametrlarida nazarda tutiladi. Madaniyat

vazirligi (O.Nazarbekov), Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova) manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib maktabgacha va maktab ta'limi vaziri X.U. Umarova hamda madaniyat vaziri O.A. Nazarbekov belgilansin. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish, jahon miqyosidagi ilg'or tajribalar asosida zamonaviy madaniyat va san'at muassasalari barpo etish, ularning moddiy texnik bazasini mustahkamlash, ijodkor ziyolilarni har tomonlama qo'llab quvvatlash masalalariga davlatimiz tomonidan ustuvor ahamiyat qaratib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Ta'lim Vazirligi va Moliya vazirligi 2018-2019 o'quv yillaridan boshlab O'zbekiston Davlat Konservatoriyasida madaniyat va san'at yo'nalishidagi oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari, shuningdek, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari uchun malakali musiqa pedagoglarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishga ixtisoslashtirilgan fakultet tashkil etish yuzasidan zarur choralar amalga oshirilmoqda. "Yangi O'zbekistonning asosiy ustuni-bilim, ta'lim va tarbiya bo'ladi" bu haqda O'zLiDePdan O'zbekiston Prezidentligiga nomzod Shavkat Mirziyoyev o'z saylovoldi dasturida ma'lum qildi.

Inson hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini musiqiy tovushlar izchilligi yoki majmui vositasida aks ettiruvchi san'at turi musiqadir. Inson har bir musiqadan o'zgacha taasurot oladi va turli hayolot dunyolariga g'arq bo'ladi. Musiqa insonning turli kayfiyatlari shodlik, zavqlanish, g'amginliklarini o'zida mujassamlashtiradi. Musiqa qadimgi yunoncha – "muzalar san'ati" degan ma'noni anglatadi. Uning mazmuni o'zgaruvchan ruhiy holatlarni ifodalovchi muayyan musiqiy-badiiy obrazlardan iborat. Va shuningdek turli xil musiqa yo'llari va cholg'u asboblari bor. Shulardan biri klavishli musiqa cholg'ularidir. Ular ma'lum tartibda joylashtirilgan klavishlarga barmoqlar bilan bosib chalinadigan musiqa cholg'ularidir. Tovush hosil etilishiga qarab, klavishli torli-urma, klavishli torli-tirnama, klavishli pnevmatik damli sozlar, klavishli pnevmatik tilchali, klavishli urma plastinkali cholg'ularga bo'linadi.

Maqsad. Ushbu maqolani yozishdan maqsad shundaki nafaqat musiqa va san'at sohasida balki musiqaning ayniqsa fortepiano ya'ni umuman olganda klavishli musiqa cholg'u asboblari to'g'risida ma'lumotlar, shuningdek bu oilaning qadimdan toki hozirgi davrgacha qay tartibda shakllanib va takomillashib kelganligini yanada ochiqroq bayon etish. Musiqagaga, san'atga, fortepiano chalishga qiziqadigan o'quvchi yoshlarga bayon etish. Aslini olganda musiqani bolalarga qiziqtirish maqsadida maktabgacha ta'limdan boshlab ularga musiqa san'at to'g'risida boshlang'ich bilimlarni berib borish, ularni nafaqat fortepiano chalishga balki boshqa turli xil cholg'ularni chalishga qiziqtirish uchun ularga turli xil o'yinlar orqali o'rgatish ancha yaxshiroq.

Materiallar va metodlar. Hozirgi kunda fortepiano avlodlari juda ham ko'p ulardan eng ommalashgani fortepiano va royal cholg'u asbobi bo'lib ular orasida hozirgi kunda klavishli torli urma guruhiga kiruvchi hamda kam foydalanadigan musiqa asbobi bu Klavikord hisoblanadi. U hozirgi zamonaviy pianining ajdodlaridan biri. Klavikord lotincha clavis-"kalit" va qadimgi yunoncha tor degan ma'nolarni anglatadi. U eng qadimgi klavishli asboblardan biri bo'lib, qadimgi monoxorddan olingan. Klavikordning ixtiro qilingan sanasi noma'lum. Birinchi marta "klavikord" nomi 1396-yilgi hujjatlarda tilga olingan va saqlanib qolgan eng qadimgi asbob 1543-yilda Pizalik Domenik tomonidan yasalgan bo'lib, hozir Leyptsig musiqa asboblari muzeyida saqlanadi.

Klavikkorddagi tovush tekis kallakli metall shtiflar-tangentalar yordamida chiqariladi. Klavikkordda chalish uchun xos ijro usuli bebung bo'lib, boshqa klavishli asboblarda chalib bo'lmaydigan "klavishli vibrato" turidir. Bitta tordan tovush juda past chiqadi, shu sababli tovushni kuchaytirish maqsadida har bir tovush uchun torlarni ikkilashtirish va

uchlashtirish qo'llangan, bu usul o'zgartirmasdan pianinoda qo'llanadi. Vaqt o'tishi bilan klavikord diapazoni o'zgarib turdi: dastlab u ikki yarim oktava bo'lgan, XVI-asr o'rtalaridan boshlab u to'rttaga ko'tarilgan, keyinchalik esa besh oktavaga teng bo'lgan. Ba'zan pastki oktava qisqartirilgan, ya'ni qisman diatonik bo'lgan.

Muhokama va natijalar. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan hamda shu guruhga kiradigan musiqa asboblardan biri Klavikordning hozirgi kunda ikkita turi mavjuddir :

1-mustaqil har bir klavishga alohida tor to'g'ri keluvchi to'liq torlar to'plamiga ega

2-nomustaqil tangentalar bir nechta, ko'pincha, ikki yoki uchta bo'lib klavish bitta torning turli joylariga zarb beruvchi qisqartirilgan torlar to'plamiga ega.

Nomustaqil klavikord qurilmasi torlar sonini sezilarli darajada kamaytirishga imkon beradi, ammo bunda tegishli notalarni bir vaqtning o'zida ijro etishning iloji bo'lmaydi.

Organ-musiqa asbobi. Har bir cholg'u musiqa madaniyati tarixida o'z o'rnini va ahamiyatiga ega, noyob va muhimdir ammo ularning hech birini organga solishtirib bo'lmaydi, uni faqatgina orkestr bilangina taqqoslash mumkin xolos. Organ dunyodagi eng yirik damli-klavishli murakkab tuzilmaga ega cholg'u asbobi hisoblanadi, "musiqa qiroli" deb ham ataladi. Organ paydo bo'lganidan toki bugungu kunlarga qadar har bir davrning o'ziga xos madaniy va texnik taraqqiyoti bilan birga rivojlanib, turli o'zgarishlarga uchrab, asta-sekin takomillashib kelgan Organ tovushlarining ulug'vorligi hech kimni befarq qoldirmaydi, tinglovchining ong va tafakkuriga o'zgacha ta'sir ko'rsatib uni koinot, olam va tabiat haqida mushohadalarga chorlaydi va inson qalbining tubida yashiringan hissiyotlarni uyg'otish xususiyatiga egadir. V.Stasov "Organ haqida ikki so'z" maqolasida organga to'liq tavsif beradi: "Bu cholg'u, birinchi navbatda, inson ruhining eng chuqur va kuchli intilishlarining ifodasidir". Organ yunoncha "organon" – qurol, asbob degan ma'noni anglatadi u damli klavishli musiqa cholg'u asbobidir. Turli o'lchamdagi yog'och va metal trubalar to'plamidan, pnevmatik tizim havo haydovchi qurilma va havo o'tkazgichlardan va boshqarish minbaridan tashkil topgan. Bir qancha klaviaturalari, manuallari qo'l bilan bosish uchun va pedallari oyoq bilan bosish uchun bo'ladi. XVI asrdan organ G'arbiy Yevropada avval cherkov, keyinchalik dunyoviy cholg'u asbobi sifatida keng tarqalgan. Baxning polifoniyalari turli xil marosimlarda cherkovlarda ijro etilgan. Preludia qismi vaqtida chalishni boshlangan u qism asosan kech qoluvchi odamlarni kutish uchun kelgan odamlarga chalingan so'ngra babrcha yig'ilganidan so'ng polifoniyaning asosiy qismi yana Fugasi chalingan. J. Freskobaldi, F. Kuperen, G. Pyorsell, Ya. Svelink, I.S. Bax, F. Mendelson, F. List, M. Reger, S. Frank, XX – asrda B. Britten, P. Xindemit, O. Messian, A. Onegger va boshqalarning organ uchun yaratgan asarlari mashhurdir. O'zbekistonda Organ uchun birinchi asarlarni G. Mushel yozgan asarlari Syuita 1947, Organ va violonchel uchun poema, 1948 va boshqa asarlar shular jumlasidandir. O'zbekiston Davlat Konservatoriyasida Organ sinfi mavjuddir. O'zbekiston ijrochilaridan R. Karimova, T. Levina va boshqalar tanilgan.

Klavesin-musiqa asbobi. Chembalo fransuzcha "clavecin", italyanacha "cembalo", lotincha "clavicymbalum" – klavishli simbala so'zidan olingan. U klavishli torli-tirnama musiqa cholg'usi hisoqblanadi. XVI asrdan ma'lumdir. Hozirgi fortepiano, royalning o'tmishdoshi. Klavishlar bosilishi natijasida torlari pat yoki teridan ishlangan mizroblar yordamida tirnaladi, natijada jarangdor, ammo kuchsiz, dinamikasi deyarli o'zgarmaydigan tovush hosil qilinadi. XVII-XVIII-asrlar davomida Klavesinning shakl qiyofasida hamda klaviaturalar soni o'zgargan, pay torlari sim torlari bilan almashtirilgan, diapazoni 5 oktavagacha kengaygan, vyordjinel, spinet, klavitsiterium kabi turlari vujudga kelgan. Bunday Klavesinlar uchun I.S. Bax, U. Byord, G. Gendel, D. Skarlatti, F. Koperin, J. Ramo kabi kompozitorlar yuksak badiiy asarlar yaratishgan va shuningdek Angliya, Fransiya, Italiya Klavesin maktablari yuzaga kelgan. XVIII asr oxirida Klavesin o'rnini Forte-piano egalladi. Lekin XX asr boshidan Klavesin hamda aynan uning uchun mo'ljallangan musiqaga yana qiziqish tug'ilib, u ba'zi cholg'u ansambl hamda orkestrlar masalan "Turkiston" kamer orkestri tarkibiga kiritildi.

Fortepiano-musiqqa asbobi. Pianino Organdan keying eng murakkab cholg'u asbobidir. Aslida, uning haqiqiy nomi Pianoforte bo'lib, "past va baland" degan ma'nolarni anglatadi. Bu nom pianining turli ohang va kuchdagi tovushlarni chiqarishi mumkinligidan kelib chiqadi. Pianino monoxord deb ataladigan juda oddiy asbobdan kelib chiqqan. Milodiy 1000-yil atrofida Gvido Aresso monoxord uchun harakatlanuvchi kashakni ixtiro qilib, unga klavish va torlarni qo'shgan. U yaratgan cholg'u asbobi XVI asrgacha ishlatilgan. Keyinchalik u boshqacha shakl – klavikordga aylangan. Spinnet deb nomlanadigan cholg'u asbobi yuqorida aytib o'tilganlar bilan chambarchas bog'liq. Bu cho'zinchoq shakldagi cholg'u bo'lib, uning diapazoni 4 oktavaga ega asbobdir. XVII asrning taniqli cholg'u asbobi klavesin deb nomlanadi. U klavikord va spinetdan kattaroq bo'lib, ikkita klaviaturaga ega. Shakli katta pianinoga o'xshaydi. Uning torlari kichik patlar yordamida harakatga keltirilgan. Motsart va Betxoven davriga kelib, pianino mashhur cholg'u asbobiga aylangan. Betxoven pianinodan eng ko'p ohanglar olgan birinchi bastakor bo'lgan: uning musiqasi fortepianoning pastroq, chuqurroq va kuchli tovushlarini talab qiladi.

Xulosa. Hozirgi kunga kelib fortepiano, royal ixlosmandlari yanada ko'paygan. Musiqaga qiziqish yanada ortgan, bolalarni pianino chalishga qiziqtirish uchun o'quvchi yoshlarga turli xil tizimda darslar olib borilmoqda. Hali musiqadan habari bo'lmagan bolaga musiqani o'rgatishni turli maroqli, qiziqarli usullari bor. Ayniqsa hozirgi texnologiyalar rivojlanayotgan davrga kelib ularga turli xil texnologik vositalar yordamida darslarni o'tish bolaning ancha qiziqishini oshirishga yordam beradi. O'quvchiga musiqani tushuntirar ekanmiz unga turli xil planshetlar yordamida avval ko'rsatib so'ngra darsni o'tish, turli xil kuylarni tinglatish va chalish jarayonini turli xil qiziqarli video roliklar yordamida ko'rsatish o'quvchining avvalambor musiqaga, pianinoga qiziqishini, o'rganish ishtiyoqini yanada oshirishga yordam beradi. Shuningdek Davlatimizni dunyoga tanitishga Musiqa va San'atning ahamiyati juda kattadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 15.11.2024.yilgi QP-391-songi qarori
2. Zimin P.N "Fortepianining yaratilish tarixi va uning takomillashuvi" (1968)
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)
4. Nadejda Bakayeva "Organ"(1977)
5. Yevgeniy Avramenko "Organ musiqqa asbobi"
6. D.Djamalov "Fortepiano darsligi"
7. K.Abduraxmanova L "Fortepiano_organ ijrochiligi"
8. Rajabov Tuxtasin Ibodovich, Madrimov. B. Kh, Nurullaev F.G Teaching bukhara children folk songs in music lessons as an actual problem. International Journal of Psychosocial Rehabilitation 6049-6056 бет Vol. 24, Issue 04. 2020йил. ISSN: 1475-7192
9. Rajabov, Tuxtasin Ibodovich. B.Jamilova N.Safarova K.Nusratova X.Bakieva Basics of Uzbek Children's Reading. TEST Engineering & Management November-December 2019 ISSN:0193-4120 Page No.4207-4214 Published by:The Mattingley Publishing Co,Inc
10. Rajabov, Tuxtasin Ibodovich. Practical situation of teaching uzbek musical folklore in the continuous education system. International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) DOI:10.9756/INTJECSE/V14I6.77 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 06 2022. 708-716- bet
11. Madrimov, Bakhram Khudoynazarovich, and Tokhtasin Ibodovich Rajabov. "Uzbek Ceremonial Folklore and its Characteristics." Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science 1.4 (2022): 53-56.

G'aybullaev Shonazar Mirboboyevich,

Buxoro davlat universiteti Sirtqi va masofaviy ta'lim bo'lim boshlig'i

MAKTABNI INNOVATSION BOSHQARISH TIZIMI

Annotasiya: Mamlakatimizda yangi yo'nalishdagi maktablar ochilishi bilan ularni ta'lim jarayonini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish va boshqarish talab etiladi. Maqolada innovatsion maktablarni loyihaga yoki tadqiqot dasturiga muvofiq shakllantirish yo'nalishlari, bu yo'nalishlarni o'qituvchilar jamoasi tomonidan tan olingan ustuvor ta'lim vazifalariga nisbatan aniq belgilash masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: maktablar, innovatsiya, loyiha, ta'lim loyihasi, mahalliy tadqiqot, ilmiy tadqiqot ishi, boshqarish tizimi.

Аннотация: В нашей стране с открытием новых направлений школ возникает необходимость организации и управления учебным процессом на основе инновационных педагогических технологий. В статье освещаются направления формирования инновационных школ в соответствии с проектом или исследовательской программой, а также вопросы четкого определения этих направлений в отношении приоритетных образовательных задач, признанных коллективом преподавателей.

Ключевые слова: школы, инновации, проект, образовательный проект, местное исследование, научная работа, система управления.

Motivatsion yetilmaganlik, o'zini noxolis baholash, hissiy beqarorlik va yetilmaganlik, nevrologik belgilar bilan og'irlashish ko'pincha emotsional buzilishlarning paydo bo'lishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida xulq - atvorning buzilishiga aylanadi.

Shunday qilib, xulq - atvorida buzilishlar bo'lgan bolalar toifasi va shaxsning patologik rivojlanish mexanizmlarini batafsil o'rganish, hissiy buzilishlarning oldini olish va tuzatish usullarini ishlab chiqish, nopatologik xulq - atvor buzilishlarini tuzatish, shuningdek, maktabgacha va kichik maktab yoshidagi, ayniqsa, xavf guruhidagi bolalarda xulq - atvor og'ishlarining patologik shakllari rivojlanishining oldini olish usullarini ishlab chiqish ilmiy zarurat hisoblanmoqda[6].

Tahlil va natijalar. Olimlar, pedagoglar, psixologlar, sotsiologlar, shifokorlar, yuristlar tomonidan og'uvchi xulq - atvorni har tomonlama va ko'p qirrali o'rganish shuni ko'rsatadiki, u yoki bu zararli odatning paydo bo'lishini va umuman og'uvchi xulq-atvorni bashorat qilish mumkin. Og'ish xulq - atvorning tabiati bir xil emas, deviant xulq - atvor, ya'ni jamiyatda qabul qilingan meyorlardan chetga chiqadigan xulq - atvor; delinkvent- jinoiy, kriminal; addiktiv - mast qiluvchi (narkotik) moddalarni iste'mol qilishga intilish bilan tavsiflanadigan xulq - atvor; anomal - miya patologiyasining mavjudligi bilan tavsiflanadigan xulq - atvor farqlanadi[3].

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashning asosiy yo'nalishlarini belgilash juda muhimdir. Buning uchun biz maxsus diagnostika metodikalari majmuasidan foydalandik. Olingan ma'lumotlar bola rivojlanishining individual ta'lim yo'nalishini aniqlash imkonini berdi: deviantlikning oldini olish, bolaning xulq - atvorini tuzatish, ijtimoiy - madaniy faoliyat vositalari orqali ijodiy o'zini namoyon qilishni ta'minlash. Diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromi bo'lgan bolalar ko'payib borayotgan boshlang'ich maktabda ish mazmunini qanday iashkil etish mumkinligini aniqlashtrishi muhim ahamiyatga ega[5].

“Faol” so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, “harakatchan, haqiqiy” degan ma'noni anglatadi. “Giper” so'zi yunon tilidan olingan bo'lib, “ust, yuqoridan” degan ma'noni anglatadi, biron narsaning meyordan oshganligini bildiradi. Giperfaollik asosida, odatda, minimal miya disfunktsiyasi (MMD) yotadi.

Tadqiqotlardagi ma'lumotlarga ko'ra, maxsus maktabda o'qiydigan bolalarning bir sinfda 12 dan 24% gachasi turli xil diqqat buzilishlariga ega. Namoyon bo'lish cho'qqilari ruhiy - nutqiy rivojlanish cho'qqilariga to'g'ri keladi. 1 - 2 yoshda nutq ko'nikmalari shakllanadi, 3 yoshda bolada so'z boyligi ortadi, 6 - 7 yoshda o'qish va yozish ko'nikmalari shakllanadi. O'smirlik davriga kelib, odatda, yuqori harakat faolligi yo'qoladi, impulsiv(ta'sirchan)lik va diqqat yetishmovchiligi esa saqlanib qoladi.

Giperaktiv bolalarning xulq - atvori bezovta bolalarning xulq - atvoriga o'xshaydi. Shuning uchun uzoq muddatli kuzatuv (6 oy davomida) o'tkazish, tashxis qo'yish, ota - onalar, pedagoglar bilan so'rovnoma o'tkazish kerak. Giperfaollik tibbiy tashxis bo'lib, uni faqat mutaxassis qo'yishi mumkin.

Psixologlar tashxis qo'yishning professional usuli sifatida Tuluz-Pyeron testidan foydalanadilar, bu bolalarni aniq MMD yo'qlarga va keyingi tekshiruvga tavsiya etilganlarga ajratishning adekvat, tezkor va oddiy usulidir.

Giperfaol bola bilan ishlashda “tez yordam”:

1. Bolani uning inijliklaridan chalg'iting.
2. Tanlovni taklif qilish (ayni paytda mumkin bo'lgan boshqa faoliyat turi).

3. Kutilmagan savol berish.
 4. Bola uchun kutilmagan tarzda munosabat bildirish (hazillashish, bolaning harakatlarini takrorlash).
 5. Biron narsani qat'iy ravishda ta'qiqlamaslik.
 6. Buyruq berish emas, iltimos qilish.
 7. So'rovni ko'p marta, avtomatik ravishda takrorlash.
 8. Injiqlik paytida ko'zguga yaqinlashtiring.
 9. Xonada yolg'iz qoldirish.
 10. Undan kechirim so'rashni talab qilmaslik.
 11. Pand - nasihat o'qimaslik.
- Giperfaol bola bilan profilaktik ishlar:
1. O'yin, sayr qilish vaqti to'g'risida bola bilan oldindan kelishib olish.
 2. Vaqt tugashi haqida kattalar emas, balki oldindan o'rnatilgan budilnik xabar beradi (jahldorlikni kamaytiradi).
 3. Bola bilan birgalikda yaxshi va yomon xulq - atvor uchun rag'batlantirish yoki jazolash tizimini ishlab chiqish.
 4. Xulq - atvor qoidalari to'plamini ishlab chiqish va bola uchun qulay joyga joylashtirish.
 5. Bolaning bu qoidalarini ovozini chiqarib aytishini so'rash.
 6. Mashg'ulot boshlanishidan oldin bola topshiriqni bajarishda o'ziga o'zi tilagini aytishi mumkin.

Xulosa va tavsiyalar. Metodologik jihatdan, bizning fikrimizcha, pedagogikada hali nazariy jihatdan to'liq ishlab chiqilmagan poliparadigmalar (voqelikni turli nuqtai nazardan ko'rib chiqish imkoniyati va unda yagona sotsiologik nazariya mavjud emasligi) yondashuv istiqbolli hisoblanadi. Poliparadigmalar yondashuv muammosi kompleks xarakterga ega bo'lib, uning yechimi ta'lim falsafasi, pedagogika, sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, madaniyatshunoslik, informatika va boshqa ilmiy fanlar sohasidagi tadqiqotlarga tayanishni talab qiladi. Shuning uchun dissertatsiyamiz mavzusini ochib berishda ijtimoiy- madaniy faoliyat vositasida tarbiyaning proyektiv strategiyalarini paradigmalar tahlil qilish prinsiplar ahamiyatga ega bo'lib, u maqsadlar iyerarxiyasini, ustuvor g'oyalarni belgilaydi, mavjud paradigmalarining istiqbollarini, ularning o'zaro harakati va o'zaro ta'sirini baholaydi. Yangi ta'lim paradigmasini ishlab chiqishning ijtimoiy - madaniy shart - sharoitlari tizimli sivilizatsiya inqirozi, ijtimoiy - madaniy transformatsiyalar, axborotlashgan jamiyatning shakllanishi muammolari bilan birgalikda ko'rib chiqiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Komilova N. "Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi" Toshkent. 2014. 91-102 b.
2. M.Atadjanov, D.A.Saliev. Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi. O'quv qo'llanma. Qo'qon – Tafakkur avlodi. 2020 yil. – 55 – 58 b.
3. Olimov.L, Nazarov.A. Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent. – Tafakkur avlodi. 2020 yil. – 16 b.
4. Soatov A.J. Bo'lajak pedagog-psixologlarda psixologik maslahat berish ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyasi. O'quv qo'llanma. - Qarshi: Fan va ta'lim. 2022. - 128-137 b.
5. Urinova L.Sh. Diqqatni jamlash va uning barqarorligini rivojlantirish-psixologik muammo sifatida. "Bola va zamon". O'zbekiston" T: 2022/2-s. 42-44 b.
6. Уринова Л.Ш. Роль внимания в процессе восприятия. Modern scientific challenges and trends. Warsaw. 24.05.2023. 74-77-b.

*Xodjayev Sardor Bekbergenovich,
UrDU mustaqil tadqiqotchisi*

TALABALARDA IJTIMOY QADRIYATLAR ASOSIDA VATANPARVARLIKNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMI

Annotatsiya: Milliy qadriyatlarni yoshlarga singdirish va ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bu borada talabalarning ijtimoiy qadriyatlarni anglash jarayonida faol ishtirok etishi va milliy o'zlikni shakllantirishiga alohida e'tibor qaratish zarur. Ushbu maqolada ijtimoiy qadriyatlar va vatanparvarlikning nazariy asoslari, ularni rivojlantirish usullari hamda ilmiy adabiyotlarning tahlili va metodologiyasi keltiriladi.

Kalit so'zlar: vatanparvarlik, identifikatsiya, hissiy motivatsiya, kognitiv mexanizmlar, empatiya, altruizm.

Annotation: Fostering national values in youth and cultivating a spirit of patriotism are among the key priorities of state policy. In this regard, special attention must be given to ensuring students actively participate in the process of understanding social values and shaping their national identity. This article discusses the theoretical foundations of social values and patriotism, methods for their development, and provides an analysis and methodology based on scientific literature.

Key words: patriotism, identification, emotional motivation, cognitive mechanisms, empathy, altruism.

Аннотация: Воспитание молодежи в духе патриотизма и привитие им национальных ценностей являются приоритетными направлениями государственной политики. В этой связи необходимо уделить особое внимание активному участию студентов в процессе осознания социальных ценностей и формировании национальной идентичности. В данной статье рассматриваются теоретические основы социальных ценностей и патриотизма, методы их развития, а также анализ и методология научной литературы.

Ключевые слова: патриотизм, идентификация, эмоциональная мотивация, когнитивные механизмы, эмпатия, альтруизм.

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida yoshlarning milliy o'zlikni anglash, ijtimoiy mas'uliyatni his qilish va Vatan manfaatlariga sodiq bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalik davri shaxsning intellektual va ma'naviy rivojlanishida asosiy bosqichlardan biri hisoblanadi. Talabalik yoshi inson hayotida muhim bosqich bo'lib, shaxsiy va intellektual shakllanish davridir. Ushbu davrda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish talabaning faqat individual rivojlanishiga emas, balki jamiyatning kelajagi va mustahkamligiga ham ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha uzluksiz olib boriladigan ishlar biz uchun dolzarb ahamiyatga egadir. Vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma'naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi", deya bu jarayonga yuksak baho bergan edi [1].

Metodlar va o'rganilish darajasi. Vatanparvarlik shaxsning o'z millati, madaniyati va jamiyatiga bo'lgan sevgi va sadoqatidan kelib chiqadigan hissiy va intellektual jarayondir. Vatanparvarlik - (yunon tilidan patris- vatan) - axloqiy-siyosiy tamoyil, ijtimoiy tuyg'u, uning mazmuni vatanga muhabbat, uning o'tmishi va buguni bilan faxrlanish, o'z manfaatlarini mamlakat manfaatlariga bo'ysundirishga tayyorlik, xalq manfaatlarini himoya qilishga intilishdir.[2] Vatanparvarlikning psixologik mexanizmlari insonning shaxsiy hissiyotlari, ijtimoiy tajribalari va madaniy qadriyatlari bilan bog'liq murakkab jarayondir. Quyidagi omillar bu mexanizmlarni shakllantiradi:

1. Identifikatsiya (o'zlikni aniqlash):

Inson o'zini bir millat yoki jamiyat a'zosi sifatida his qilishi, o'sha jamiyatning qadriyatlari va maqsadlarini o'zinkidek qabul qilishiga olib keladi. Masalan:

- Milliy tarix va madaniyatni o'rganish orqali o'zlikni mustahkamlash.
- Vatan ramzlariga (bayroq, madhiyalar) ijobiy munosabat shakllanishi.

2. Hissiy motivatsiya:

Vatanparvarlik hissi ko'pincha insonning ijobiy hissiyotlariga asoslanadi:

- G'urur va iftixor hissi (milliy yutuqlardan ilhom olish).
- Xavf-xatar paytida vatan himoyasiga intilish.

3. Ijtimoiy ta'sir:

Jamiyat va atrof-muhit insonning vatanparvarlik his-tuyg'ularini shakllantiradi:

- Oiladagi tarbiya va ota-onaning rol modeli.
- Ta'lim va targ'ibot vositalari (maktab, ommaviy axborot vositalari orqali milliy qadriyatlarni o'rgatish).

4. Normativ qabul qilish:

Vatanparvarlik axloqiy majburiyat sifatida qaraladi va shaxs o'zini shu normaga moslashga majburlaydi. Bu jarayon jamiyatdagi qadriyatlar asosida shakllanadi.

5. Kognitiv mexanizmlar:

- Vatanparvarlikning ma'nosi va ahamiyatini tushunish.
- Shaxs o'zining va jamiyatning umumiy manfaati uchun harakat qilishni anglaydi.

6. Motivatsion mexanizmlar:

- Shaxsning o'zini o'zi rivojlantirish va jamiyatga hissa qo'shish istagi.
- Vatan himoyasi yoki farovonligi uchun javobgarlik hissi.

7. Empatiya va altruizm:

Vatanparvarlik boshqalar bilan hamdardlik, o'z manfaatidan voz kechish orqali vatan va jamiyat manfaati uchun harakat qilishga asoslanadi.

8. Madaniy qadriyatlar va an'analar:

- Urf-odatlar va qadriyatlarni davom ettirish orqali milliy o'zlikni saqlash.
- Ota-bobolar merosiga hurmat va uni kelajak avlodga yetkazish.

Yoshlarni g'oyaviy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayoni ko'plab nazariy metodologik asoslarga tayanadi. Ushbu asoslar yosh avlodni milliy g'oya va qadriyatlarga hurmat bilan qarashga, Vatan taqdiriga daxldorlik hislarini shakllantirishga, shuningdek, ular orasida ijtimoiy mas'uliyat va milliy iftixor tuyg'ularini rivojlantirishga yordam beradi. Bir qator olimlar tarafidan ushbu yo'nalishda quydagi ishlar olib borilgan jumladan Lev Vigotskiy (1983): "Insonning rivojlanishi uchun ijtimoiy muhit muhim rol o'ynaydi, chunki bilim va ko'nikmalar jamiyat orqali shakllanadi"[3]. Ushbu yondashuv milliy qadriyatlarni yoshlarga singdirishda ijtimoiy muhitning asosiy omil ekanini ko'rsatadi.

E.Fromm (1941): "Shaxs va jamiyat o'rtasidagi muvozanat ijtimoiy qadriyatlarni qabul qilish orqali mustahkamlanadi." [4] Bu fikr talabalarda ijtimoiy qadriyatlar orqali milliy ongini shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi. Ijtimoiy qadriyatlarni qabul qilish – bu shaxsning o'zini jamiyatning bir qismi sifatida tan olishi va unga moslashishi jarayonidir. Bu jarayon shaxsga ijtimoiy xavfsizlik hissi beradi va uning o'zini anglashiga ko'maklashadi. Agar bu muvozanat buzilsa, jamiyatda begonalashuv va ijtimoiy krizis yuzaga keladi.

J.Dewey (1938): "Ta'limning asosiy vazifasi – ijtimoiy tajribani keyingi avlodga yetkazish va ularning ijtimoiy moslashuvchanligini oshirishdir. [5] Ijtimoiy moslashuvchanlik aynan vatanparvarlik hissini yoshlarda oshirish orqali shakllanadi va rivojlanadi. Ta'lim faqat bilim berish emas, balki shaxsning ijtimoiy moslashuvchanligini oshirish uchun zarur vosita hisoblanadi. Bu yerda Deweyning fikricha, ta'lim yoshlarni faqat nazariy bilimlar bilan emas, balki amaliy tajriba bilan boyitishi kerak. Masalan, tarix darslarida milliy g'oya va qadriyatlarni o'rgatish, yoshlarni jamiyat oldidagi mas'uliyatini anglashga yordam beradi. Vatanparvarlik shaxsning o'z vataniga bo'lgan muhabbati, jamiyat uchun xizmat qilishga bo'lgan xohishidan

kelib chiqadi. Yoshlar milliy qadriyatlar va jamiyat tajribalarini o'zlashtirgan sari, ular ijtimoiy hayotda faolroq ishtirok etadi va jamiyatga moslashadi.

A. Abdurahmonov (2022): "Yoshlar ongida milliy qadriyatlarni shakllantirish ularni kelajakda yetuk shaxs va mas'uliyatli fuqaroga aylantirishning asosiy vositasidir." [6] Milliy qadriyatlar yoshlarning o'z tarixiy ildizlarini anglashiga yordam beradi. Bu ularga nafaqat milliy o'zlikni his qilishni, balki jamiyatdagi rolini tushunishni ham ta'minlaydi.

- Amaliy yondashuv: Ta'lim jarayonida qadriyatlarni amaliyotga tatbiq qilish, masalan, milliy bayramlar, tarixiy voqealar yodgorliklarini ziyorat qilish orqali yoshlar ongida o'zlik hissini uyg'otish mumkin.

- Mas'uliyatli fuqarolik tarbiyasi: Milliy qadriyatlarni o'zlashtirgan yoshlar kelajakda jamiyatdagi har qanday ijtimoiy vaziyatga mas'uliyat bilan yondashadi. Bu esa ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi. Berilgan uchta yondashuv shuni ko'rsatadiki, shaxs va jamiyat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashda ta'limning o'rni muhim bo'lib, milliy qadriyatlar bu jarayonning markaziy qismidir. Deweyning ta'limga oid g'oyalari Frommning shaxs va jamiyat o'rtasidagi muvozanat haqidagi qarashlari bilan uzviy bog'langan. Abdurahmonov esa milliy qadriyatlarni yoshlar tarbiyasida asosiy vosita sifatida ko'rsatadi.

Shaxsning ijtimoiy moslashuvi va milliy ongning shakllanishi birinchi navbatda ijtimoiy qadriyatlar va vatanparvarlikka asoslanadi. Shu sababli, ta'lim jarayonida nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy faoliyatlarni yo'lga qo'yish, pedagoglarning malakasini oshirish va milliy qadriyatlarni singdirish orqali yoshlarni mas'uliyatli, yetuk fuqarolarga aylantirish mumkin.

Tadqiqot natijalari. Adabiyotlar tahlili va amaliy yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirishda bizningcha quyidagi omillarga e'tibor qaratish lozim:

1. Ta'lim tizimi: Talabalarni milliy qadriyatlar bilan tanishtirishda darsliklarning mazmunini kengaytirish zarur. Milliy g'oya va vatanparvarlik mavzularini barcha fanlarda integratsiya qilish mumkin.

2. Pedagoglarning malakasi: O'qituvchilar milliy qadriyatlarni o'quvchilarga singdirish bo'yicha yuqori tayyorgarlikka ega bo'lishi lozim.

3. Amaliy natijalar: Talabalarining jamiyatdagi faol ishtiroki ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda katta rol o'ynaydi.



Xulosalar. Ijtimoiy qadriyatlar asosida vatanparvarlikni rivojlantirish jarayoni murakkab, lekin dolzarb masalalardan biridir. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun quyidagilarni taklif etamiz:

1. Ta'lim jarayonida milliy qadriyatlarni keng targ'ib qilish.
2. Talabalarining ijtimoiy faoliyatga jalb etilishini kuchaytirish.
3. Pedagoglar malakasini oshirish dasturlarini tashkil etish.

4. Innovatsion texnologiyalar orqali milliy qadriyatlarni singdirish.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir // Xalq so,,zi. 247 (6741)-soni. – 2017. 7 dekabr.
2. Malinkin A.N. Vatanparvarlik tushunchasi: bilimlar sotsiologiyasi bo'yicha // Sotsiologik jurnal. – 1999 yil. - B. 87 117. 13.
3. Vigotskiy L. S., Psixologik tadqiqotlar, Moskva, 1983, 76-bet.
4. Fromm E., Escape from Freedom, New York, 1941, 145-bet.
5. Dewey J., Experience and Education, New York, 1938, 23-bet).
6. O'zbek oilasida farzandlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning metodlari haqida, Toshkent, 2022, 54-bet

*Xolboyeva Shahnoza Murtozayevna,
Buxoro innovatsiyalar universiteti 2 - bosqich magistranti*

AXLOQIY TARBIYANING PEDAGOGIK ASOSLARI VA ULARNI TA'LIM JARAYONIGA TATBIQ ETISH

Annotatsiya: Mazkur maqola ta'lim jarayonida axloqiy tarbiyaning pedagogik asoslarini o'rganishga va ularni amaliyotga tatbiq etish yo'llarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Axloqiy tarbiyaning nazariy asoslari, milliy va umumbashariy qadriyatlar, shaxs kamoloti jarayonidagi roli hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish usullari yoritiladi. Maktab va oila hamkorligi, shuningdek, o'qituvchi va tarbiyachilarning malakasini oshirish masalalari ham ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda axloqiy tarbiyaning samaradorligini oshirish uchun innovatsion pedagogik yondashuvlar va metodlardan foydalanishning ahamiyati ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: axloqiy tarbiya, pedagogik asoslar, ta'lim jarayoni, tarbiyaviy metodlar, qadriyatlar, shaxs kamoloti, ta'lim texnologiyalari.

Annotation: This article is dedicated to studying the pedagogical foundations of moral education in the educational process and analyzing ways to implement them in practice. The theoretical foundations of moral education, national and universal values, the role of moral education in the process of personal development, and the use of modern educational technologies are highlighted. Collaboration between schools and families, as well as the issues of improving the qualifications of teachers and educators, are also addressed. The research emphasizes the importance of using innovative pedagogical approaches and methods to enhance the effectiveness of moral education.

Key words: moral education, pedagogical foundations, educational process, educational methods, values, personal development, educational technologies.

Аннотация: Данная статья посвящена изучению педагогических основ нравственного воспитания в образовательном процессе и анализу путей их практического применения. Освещаются теоретические основы нравственного воспитания, национальные и общечеловеческие ценности, роль нравственного воспитания в процессе личностного развития, а также использование современных образовательных технологий. Рассматривается сотрудничество школы и семьи, а также вопросы повышения квалификации учителей и воспитателей. В исследовании подчеркивается важность использования инновационных педагогических подходов и методов для повышения эффективности нравственного воспитания.

Ключевые слова: нравственное воспитание, педагогические основы, образовательный процесс, методы воспитания, ценности, личностное развитие, образовательные технологии.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimi jahon miqyosida yangicha yondashuvlar va o'quv jarayonini takomillashtirishga qaratilgan strategiyalar bilan boyitilmoqda. Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadlaridan biri shaxsning har tomonlama kamol topishini ta'minlashdir. Shu nuqtayi nazardan, axloqiy tarbiya inson kamoloti va jamiyat rivojlanishi uchun muhim vositalardan biri sifatida e'tirof etiladi. Milliy va umumbashariy qadriyatlar, o'quvchilarning shaxsiy axloqiy sifatlarini shakllantirish hamda ularni ta'lim jarayoniga samarali tatbiq etish masalasi dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi.

Axloqiy tarbiya pedagogikaning eng muhim bo'limlaridan biri sifatida insonning axloqiy ongini shakllantirish, jamiyatda ijobiy xulq-atvorni rivojlantirish va shaxsiy mas'uliyatni oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, bu jarayon nafaqat o'quvchi shaxsini tarbiyalashga, balki butun jamiyatning madaniy va axloqiy darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi. Axloqiy tarbiyaning ta'lim jarayonidagi o'rni beqiyos bo'lib, u shaxsga nafaqat bilim berish, balki uni to'g'ri xulq-atvorga yo'naltirishda ham katta ahamiyatga ega.

Hozirgi davrda globallashtirish jarayonlari insoniyat oldiga yangi talablar qo'yimoqda. Axloqiy tarbiya bu jarayonda shaxsni ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy muhitga moslashtirishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, yosh avlodni mustaqil fikrlashga, o'z xatti-harakatlari uchun mas'uliyatni his qilishga, boshqa odamlarga hurmat bilan munosabatda bo'lishga o'rgatish har bir pedagogning asosiy vazifasidir. Shu boisdan, ta'lim jarayonida axloqiy tarbiya samaradorligini oshirish yo'llarini o'rganish va uni takomillashtirish hozirgi kunda ilmiy-amaliy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Axloqiy tarbiya milliy qadriyatlar, an'analar va urf-odatlar bilan bevosita bog'liqdir. Har bir xalqning o'ziga xos tarbiyaviy tizimi mavjud bo'lib, bu tizim orqali yosh avlodga axloqiy me'yorlar singdiriladi. O'zbekiston ta'lim tizimida ham milliy qadriyatlar va umumiy insoniy tamoyillarga asoslangan axloqiy tarbiyani shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Prezidentimizning yoshlarga oid davlat siyosati doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar bu borada ulkan imkoniyatlarni ochib bermoqda. Ta'lim muassasalarida o'qituvchi va tarbiyachilar tomonidan axloqiy tarbiyaga qaratilgan darslar, tadbirlar va maxsus dasturlar bu jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi.

Pedagogik jarayonda axloqiy tarbiya samaradorligini oshirish uchun innovatsion texnologiyalar va metodlardan foydalanish lozim. Jumladan, interaktiv o'yinlar, muammoli ta'lim metodlari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari orqali o'quvchilarni o'z fikrini mustaqil ifoda etishga o'rgatish, ularda axloqiy tushunchalarni mustahkamlash imkonini beradi. Ta'limda bu kabi texnologiyalarni joriy etish yosh avlodni faqat bilimli emas, balki yuqori axloqiy me'yorlarga ega shaxs sifatida tarbiyalashga imkon yaratadi.

Shuningdek, axloqiy tarbiyani amalga oshirishda oila va maktab o'rtasidagi hamkorlik muhim o'rin tutadi. Oila – bu insonning birinchi tarbiyachisi bo'lib, unda bolalarning dastlabki axloqiy ko'nikmalari shakllanadi. Maktab esa bu jarayonni davom ettiradi va takomillashtiradi. Shu boisdan, o'qituvchilar va ota-onalar o'rtasidagi yaqin aloqalar o'quvchilar axloqiy tarbiyasini yaxshilashda samarali natijalarga olib keladi[4].

Mazkur maqolada ta'lim jarayonida axloqiy tarbiyaning pedagogik asoslari va ularni amaliyotga tatbiq etish yo'llari ko'rib chiqiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – axloqiy tarbiyani samarali tashkil etish uchun nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir. Shu maqsadda axloqiy tarbiya konsepsiyasi, uning pedagogik tamoyillari va metodologik asoslari, shuningdek, zamonaviy ta'lim texnologiyalarining ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, oila va maktab o'rtasidagi hamkorlikning axloqiy tarbiyani rivojlantirishdagi o'rni ham alohida yoritiladi.

Tadqiqot natijalari ta'lim muassasalarida axloqiy tarbiya jarayonini yanada takomillashtirishga qaratilgan metodik ko'rsatmalarni ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu maqola pedagoglar, tarbiyachilar, ota-onalar va ta'lim tizimining boshqa vakillari uchun foydali bo'lishiga ishonamiz. Shuningdek, u zamonaviy ta'limni rivojlantirishda muhim omil bo'lib, axloqiy tarbiya sohasida yangi tadqiqotlar olib borishga turtki beradi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Axloqiy tarbiya masalasi qadimdan pedagogika fanining diqqat markazida bo'lib kelgan. Ushbu mavzu bo'yicha bir qator buyuk allomalar, faylasuflar va pedagoglar tomonidan asarlar yaratilgan. Masalan, Sharqning buyuk mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy va Ahmad Yassaviy o'z asarlarida axloqiy tarbiyaning ahamiyati va unga erishish yo'llarini bayon etganlar. Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida axloqiy fazilatlar inson va jamiyat hayotining ajralmas qismi ekanligini ta'kidlagan[2]. Beruniy esa ta'lim va tarbiya jarayonida insonning ma'naviy kamolotini yuksaltirishga e'tibor qaratgan. Alisher Navoiy o'zining "Xamsa" asarida axloqiy me'yorlarni shaxsning ichki va tashqi go'zalligini ta'minlovchi muhim omil sifatida ko'rsatgan[1].

G'arb pedagogikasida ham axloqiy tarbiya masalalari keng o'rganilgan. Jumladan, Jan-Jak Russo bolalar tabiiy tarbiya asosida o'sishi kerakligini ta'kidlagan bo'lsa, Immanuel Kant axloqiy tamoyillarni insonning aqliy rivojlanishi bilan uyg'unlikda olib borish g'oyasini ilgari

surgan. Lev Tolstoy esa shaxsning axloqiy tarbiyasini ma'rifiy faoliyat orqali shakllantirishga katta e'tibor qaratgan. Jon Dyui esa axloqiy tarbiyani ijtimoiy tajriba va muammoli vaziyatlar orqali o'rgatishni taklif qilgan[3].

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, milliy ta'lim tizimini isloh qilish jarayonida axloqiy tarbiya masalalariga katta e'tibor berildi. Prezidentimizning yoshlarga oid davlat siyosati doirasida axloqiy tarbiyaning milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida rivojlantirilishi ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Mamlakatimizda ta'limning barcha bosqichlarida axloqiy tarbiyani amalga oshirish bo'yicha dasturlar va strategiyalar ishlab chiqilgan. Xususan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida axloqiy tarbiya darslari, maxsus tadbirlar va treninglar tashkil etilmoqda.

Shu bilan birga, zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda axloqiy tarbiya samaradorligini oshirish yo'llari o'rganilmoqda. Jumladan, ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash, oila va maktab hamkorligini kuchaytirish, o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish kabi masalalar tadqiqotchilar tomonidan faol muhokama qilinmoqda. Axloqiy tarbiya bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar, xususan, ta'limning interaktiv metodlarini qo'llash orqali o'quvchilarda axloqiy fazilatlarini shakllantirish muhimligini tasdiqlaydi[5].

Axloqiy tarbiya bo'yicha xalqaro tajriba ham e'tiborga loyiqdir. Masalan, Yaponiya ta'lim tizimida o'quvchilarga axloqiy me'yorlarni chuqur singdirish maqsadida darslar va treninglar tashkil etiladi. Finlyandiyada ta'lim jarayonida ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish va jamiyat oldidagi burchni anglashga qaratilgan dasturlar amalga oshiriladi. Janubiy Koreyada esa axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish maqsadida ota-onalar va maktab hamkorligi kuchaytiriladi[6].

Mazkur maqolada axloqiy tarbiya masalasining tarixiy, nazariy va amaliy jihatlarini o'rganilgan. Tadqiqot natijalari axloqiy tarbiyaning ta'lim tizimidagi o'rni va ahamiyatini chuqurroq anglashga imkon beradi va uni yanada rivojlantirish uchun asos yaratadi.

Natijalar:

1. Axloqiy tarbiyaning mazmuni va ahamiyati aniqlanishi:

- o Axloqiy tarbiya shaxsning ijtimoiy-madaniy muhitga moslashishi, axloqiy qadriyatlarni o'zlashtirishi va ularga amal qilishni ta'minlaydi.
- o Bu jarayon bolalarda yaxshi xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirish va ijtimoiy me'yorlarga amal qilishni o'rgatishda muhim o'rin tutadi.

2. Pedagogik asoslar belgilanishi:

- o Axloqiy tarbiyaning samaradorligi uchun o'qituvchilarning yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi zarur.
- o Tarbiya jarayonida o'quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlari inobatga olinishi kerak.

3. Ta'lim jarayonida tatbiq etish strategiyalari:

- o Dars va darsdan tashqari tadbirlar orqali axloqiy tarbiya berishning integratsiyalashgan yondashuvi qo'llanildi.
- o Muammoli vaziyatlar yaratish orqali o'quvchilarda tanqidiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari rivojlantirildi.

4. Amaliyot natijalari:

- o Axloqiy tarbiya jarayonida innovatsion metodlar qo'llanilganda o'quvchilarning o'zaro hurmat, jamoaviylik va mas'uliyat tuyg'usi rivojlangani kuzatildi.
- o Darslarda axloqiy masalalarga oid muhokama va rolly o'yinlar natijasida bolalarda o'zaro tushunish va empatiya darajasi oshdi.

Tahlil:

1. Pedagogik yondashuvlar samaradorligi:

- o Traditsion va innovatsion metodlarning uyg'unligi ta'lim jarayonida axloqiy tarbiyaning samaradorligini oshiradi.

o Faoliyatga asoslangan ta'lim (PBL – problem-based learning) axloqiy masalalarni amaliy hayotga tatbiq qilishda eng samarali usul ekanligi aniqlandi.

2. Yosh xususiyatlariga moslashuv:

o Kichik yoshdagi o'quvchilar uchun o'yin va qiziqarli hikoyalar orqali tarbiyaviy material yetkazish samarali bo'lsa, katta yoshdagi o'quvchilar bilan falsafiy va axloqiy muhokamalar ko'proq natija berdi.

o Har bir yosh guruhining ehtiyojlarini hisobga olish orqali jarayon ko'proq natijadorlikka erishdi.

3. Axloqiy qadriyatlarning ta'siri:

o Milliy va umumbashariy qadriyatlarni uyg'unlashtirgan holda axloqiy tarbiya berish o'quvchilarning madaniy va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynadi.

o Shaxsiy javobgarlik va mas'uliyat hissi shakllangan o'quvchilar ta'limda yuqori natijalarni ko'rsatdi.

4. Tatbiqdagi muammolar:

o Ba'zi hollarda ota-onalar va maktab o'rtasidagi hamkorlikning yetarli emasligi axloqiy tarbiyani tatbiq etishda qiyinchiliklar keltirib chiqardi.

o O'qituvchilarning yetarli malaka va vositalar bilan ta'minlanmasligi axloqiy tarbiya jarayonida cheklovlarga olib kelgan.

Axloqiy tarbiya ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, uning pedagogik asoslarini to'g'ri belgilash va o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos tarzda tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Innovatsion yondashuvlar, oila va maktabning hamkorligi orqali bu jarayonni yanada samarali qilish mumkin. Shu bilan birga, milliy va umumbashariy qadriyatlarni uyg'unlashtirish ta'limning axloqiy yo'nalishini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Ushbu jadval axloqiy tarbiyaning pedagogik asoslari va ularning ta'lim jarayoniga tatbiq etilishi haqidagi umumiy ma'lumotlar

Asosiy Yo'nalishlar	Tavsif	Natija
Axloqiy tarbiyaning mazmuni va ahamiyati	Axloqiy tarbiya shaxsning ijtimoiy-madaniy muhitga moslashishini va axloqiy qadriyatlarni o'zlashtirishni ta'minlaydi.	Shaxsiy xulq-atvor va ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtirish.
Pedagogik asoslar	O'qituvchilarning bilim va ko'nikmalari, yosh xususiyatlarini hisobga olish muhim.	Axloqiy tarbiyaning samaradorligi oshadi.
Ta'lim jarayonida tatbiq etish strategiyalari	Dars va darsdan tashqari tadbirlar, rolli o'yinlar va muammoli vaziyatlardan foydalaniladi.	O'quvchilarning empatiya va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari rivojlanadi.
Amaliyot natijalari	O'quvchilarda hurmat, jamoaviylik, mas'uliyat va empatiya rivojlandi.	Milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unlashadi.
Tatbiqdagi muammolar	Ota-onalar bilan hamkorlik va o'qituvchilarning malakasiga bog'liq muammolar mavjud.	Ta'lim jarayonining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

1. Axloqiy tarbiyaning mazmuni va ahamiyati:

o Tavsif: Jadvaldan ko'rinib turibdiki, axloqiy tarbiya shaxsni ijtimoiy-madaniy muhitga moslashtirish va axloqiy qadriyatlarni singdirish vazifasini bajaradi.

o Natija: Bu yo'nalish o'quvchilarda shaxsiy xulq-atvorni shakllantirishga yordam beradi, ularning ijtimoiy me'yorlarga moslashishini ta'minlaydi.

o **Tahlil:** Ushbu jarayon bolalarning ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli ishtirok etishi uchun muhim. Ammo, bunda madaniy xilma-xillik va milliy qadriyatlarni hisobga olish muhim.

2. Pedagogik asoslar:

- Tavsif: O'qituvchilarning bilim va malakalari axloqiy tarbiyaning muvaffaqiyatida hal qiluvchi omil sifatida ko'rsatilgan.
- Natija: To'g'ri pedagogik yondashuvlar orqali tarbiya jarayoni samaradorligi oshadi.
- **Tahlil:** Pedagoglar uchun doimiy malaka oshirish dasturlarini yo'lga qo'yish va yosh xususiyatlarini inobatga olish axloqiy tarbiyaning yanada sifatli bo'lishiga olib keladi.

3. Ta'lim jarayonida tatbiq etish strategiyalari:

- Tavsif: Dars va darsdan tashqari faoliyatlarda axloqiy mavzularni muhokama qilish, rolli o'yinlar va muammoli vaziyatlar orqali tarbiya amalga oshiriladi.
- Natija: O'quvchilarning empatiya va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari rivojlanadi.
- **Tahlil:** Ushbu strategiya o'quvchilarni real hayotiy vaziyatlarga tayyorlashda samarali. Rolli o'yinlar va muammoli vaziyatlar ularning amaliy ko'nikmalarini kuchaytiradi.

4. Amaliyot natijalari:

- Tavsif: Tarbiya jarayonida hurmat, jamoaviylik, mas'uliyat va empatiya kabi ijobiy xislatlar rivojlanadi.
- Natija: Milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unlashadi.
- **Tahlil:** Bu natija milliy qadriyatlarni saqlab qolgan holda, global axloqiy me'yorlarni ham qabul qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, jamiyatda o'zaro tushunishni mustahkamlaydi.

5. Tatbiqdagi muammolar:

- Tavsif: Ota-onalar bilan yetarli hamkorlikning yo'qligi va o'qituvchilarning malakasiga bog'liq muammolar mavjud.
- Natija: Bu muammolar ta'lim jarayonining samaradorligini pasaytirishi mumkin.
- **Tahlil:** Axloqiy tarbiya jarayonining muvaffaqiyatini oshirish uchun ota-onalar va o'qituvchilar o'rtasida faol hamkorlikni yo'lga qo'yish, shuningdek, pedagoglarni malaka oshirish dasturlari bilan qo'llab-quvvatlash zarur.

6. Axloqiy tarbiyaning ta'lim jarayonidagi samaradorligi quyidagi jadval orqali aks ettirilgan.

Ko'rsatkichlar	An'anaviy yondashuv (%)	Innovatsion yondashuv (%)
Axloqiy xulq-atvorni shakllantirish	55	85
Qadriyatlarni o'zlashtirish	60	90
Mustaqil fikrlash qobiliyati	50	80
Jamoaviy ishlash qobiliyati	65	88

Jadval axloqiy tarbiya jarayonida pedagogik asoslarning ahamiyatini va strategik yondashuvlarning muhimligini ochib beradi. Axloqiy tarbiya samaradorligini oshirish uchun:

- O'qituvchilarni malaka oshirishga yo'naltirish,
- Ta'limda milliy va umumbashariy qadriyatlarni uyg'unlashtirish,
- Oila va maktab hamkorligini mustahkamlash kerak.

Shuningdek, innovatsion metodlar va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni keng qo'llash axloqiy tarbiyadagi muammolarni hal etishga yordam beradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, axloqiy tarbiya shaxs kamolotining ajralmas qismi sifatida jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash, milliy va umumbashariy qadriyatlarni uyg'unlashtirish hamda oila va maktab hamkorligini kuchaytirish axloqiy tarbiya samaradorligini oshirishning asosiy omillaridir. Shuningdek, xalqaro tajribalardan foydalangan holda ta'lim tizimini boyitish orqali o'quvchilarda axloqiy xulq-atvor va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish mumkinligi tasdiqlandi.

Mazkur tadqiqot natijalari axloqiy tarbiya jarayonini takomillashtirish uchun yangi yondashuv va strategiyalar ishlab chiqish zaruratini ko'rsatdi. Shu sababli, axloqiy tarbiya sohasida olib boriladigan tadqiqotlar davom ettirilib, pedagogik va amaliy usullar yanada takomillashtirilishi lozim.

Tavsiyalar.

1. **Ta'limda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish:** Axloqiy tarbiya jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari va interaktiv usullardan keng foydalanish o'quvchilarda axloqiy fazilatlarni samarali shakllantirishga yordam beradi.

2. **Milliy va umumbashariy qadriyatlarni uyg'unlashtirish:** Ta'lim dasturlarini milliy qadriyatlar va umumbashariy tamoyillar asosida boyitish, oila va maktab hamkorligini mustahkamlash orqali yosh avlodning ma'naviy rivojlanishini ta'minlash kerak.

3. **Xalqaro tajribalarni moslashtirish:** Rivojlangan davlatlarning axloqiy tarbiya sohasidagi ilg'or tajribalarini mahalliy sharoitlarga moslashtirish orqali ta'lim tizimining sifatini oshirish va o'quvchilarning ijtimoiy mas'uliyatini kuchaytirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Forobiy, A. N. (2020). *Fozil odamlar shahri*. Toshkent: Ma'naviyat.
2. Beruniy, A. R. (2019). *Qadimiy xalqlar tarixi*. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
3. Navoiy, A. (2018). *Xamsa*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot.
4. Yaponiyaning ta'lim tajribasi: Axloqiy tarbiya darslari. (2021). *Xalq ta'limi* jurnali, 4(1), 23-30.
5. Finlyandiya ta'lim tizimi: Qadriyatlar uyg'unligi. (2020). *Pedagogika va innovatsiya* jurnali, 3(2), 15-22.
6. Janubiy Koreya ta'lim modeli. (2019). *Zamonaviy ta'lim texnologiyalari* jurnali, 5(3), 40-48.

Mambetkadirov Gayratbay Amanbayevich,
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrası mudiri,
San'atshunoslik fanlari falsafa doktori (PhD),
E-mail: gmambetkadirov@mail.ru

YANGI PEDTEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASVIRIY SAN'AT DARSLARINI OLIB BORISH USHLUBLARI

Annotatsiya: Mazkur maqola yangi pedagogik texnologiyalar asosida tasviriy san'at darslarini olib borish uslublarini o'rganishga bag'ishlanadi. U tasviriy san'at ta'limi sohasida innovatsion yondashuvlarning ahamiyatini va ularning ta'lim jarayoniga qanday samarali ta'sir ko'rsatishini tahlil qiladi. Maqolada tasviriy san'atni o'qitishda qo'llaniladigan yangi texnologiyalar, shu jumladan raqamli vositalar, interaktiv platformalar, multimedia va boshqa innovatsion metodlar haqida ma'lumotlar beriladi. Shuningdek, darslarda shaxsiy yondashuvlar va individual kreativlikni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik uslublar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Yangi pedagogik texnologiyalar, tasviriy san'at, dars uslublari, innovatsion metodlar, multimedia vositalari, raqamli texnologiyalar, kreativlikni rivojlantirish, pedagogik yondashuvlar, interaktiv ta'lim, san'at ta'limi, ta'lim jarayoni, shaxsiy yondashuv.

Аннотация: Данная статья посвящена изучению методов проведения уроков по изобразительному искусству на основе новых педагогических технологий. В статье анализируется значимость инновационных подходов в области изобразительного искусства и их влияние на образовательный процесс. Рассматриваются новые технологии, применяемые в обучении изобразительному искусству, включая цифровые инструменты, интерактивные платформы, мультимедийные и другие инновационные методы. Также обсуждаются педагогические методы, направленные на развитие индивидуального подхода и творческого потенциала в учебном процессе.

Ключевые слова: новые педагогические технологии, изобразительное искусство, методы проведения уроков, инновационные методы, мультимедийные инструменты, цифровые технологии, развитие творчества, педагогические подходы, интерактивное обучение, художественное образование, образовательный процесс, индивидуальный подход.

Annotation: This article is dedicated to studying the methods of conducting visual arts lessons based on new pedagogical technologies. It analyzes the significance of innovative approaches in the field of visual arts and their impact on the educational process. The article discusses new technologies used in teaching visual arts, including digital tools, interactive platforms, multimedia, and other innovative methods. Additionally, it explores pedagogical methods aimed at developing personalized approaches and fostering creativity in the learning process.

Key words: New pedagogical technologies, visual arts, lesson methods, innovative methods, multimedia tools, digital technologies, creativity development, pedagogical approaches, interactive learning, art education, educational process, personalized approach.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash, o'quvchilarning kreativ va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim o'rin tutmoqda. Ayniqsa, tasviriy san'at darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, o'quvchilarning san'atga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularning estetik tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi. Tasviriy san'at o'qitishda innovatsion yondashuvlar va yangi metodlarni qo'llash, nafaqat darslarning samaradorligini oshiradi, balki o'quvchilarga yangi texnologiyalarni o'rganish va ularni san'at asarlarini yaratishda qo'llash imkoniyatini ham beradi.

Tasviriy san'at ta'limi an'anaviy uslublar bilan birga, yangi pedagogik texnologiyalarni o'z ichiga olgan metodologiyalarni ishlab chiqishni talab etadi. Raqamli vositalar, interaktiv ta'lim platformalari va multimedia materiallari, o'quvchilarga nafaqat san'atni o'rganish, balki o'z fikrlarini tasviriy ifodalashda erkinlik va kreativlikni oshirish imkoniyatini yaratadi. Bu texnologiyalar yordamida o'qituvchilar tasviriy san'atni nafaqat klassik uslubda, balki zamonaviy pedagogik va didaktik yondashuvlar orqali o'rgatish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Maqolada, tasviriy san'at darslarida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashning afzalliklari, ularning dars jarayoniga qo'shgan hisssasi, shuningdek, o'quvchilarning tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishini oshirishdagi o'rni batafsil tahlil qilinadi. Innovatsion uslublar va texnologiyalar yordamida darslarni o'tkazish, o'quvchilarning ijodiy faoliyatini yuksaltirish va ularni kelajakda san'at sohasida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishlariga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili. Tasviriy san'at darslarida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash bilan bog'liq adabiyotlar tahlili ko'plab psixologik, pedagogik va metodik yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Bu tahlil, asosan, tasviriy san'at ta'limini innovatsion metodlar yordamida takomillashtirish, dars jarayonini samarali tashkil etish, va o'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga asoslanadi.

Yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashning tasviriy san'at ta'limidagi ahamiyatini ko'rib chiqadigan bir nechta ilmiy ishlarda, raqamli vositalar, interaktiv dasturlar, multimedia platformalarining pedagogik maqsadlar uchun samarali ishlatilishi ta'kidlanadi. Shuningdek, pedagogik texnologiyalarni integratsiyalash masalalari ham o'rganilgan. Xususan, M. V. Zhdanova (2015) o'zining "Pedagogik texnologiyalar va ta'lim jarayonining innovatsion metodlari" asarida yangi texnologiyalarni san'at darslarida qo'llashni muhim pedagogik vosita sifatida baholaydi. U shuningdek, multimedia vositalarini qo'llash orqali darsni yanada jozibador qilish va o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish mumkinligini ta'kidlaydi.

Raqamli texnologiyalar, xususan, kompyuter grafikasi va raqamli san'at dasturlarining tasviriy san'at ta'limiga qo'shgan hisssasi haqida olib borilgan tadqiqotlar ko'plab manbalarda muhokama qilinadi. A.A.Cherepanov (2018) raqamli san'at va uning o'quvchilarda vizual kommunikatsiya ko'nikmalarini shakllantirishdagi rolini o'rgangan. Uning fikricha, raqamli texnologiyalar yordamida tasviriy san'atni o'rgatish o'quvchilarni zamonaviy tasviriy san'at bilan tanishtirish, shuningdek, ularning kreativlik va texnik mahoratlarini oshirishda samarali vosita bo'ladi.

Interaktiv metodlar va ularning ta'limdagi o'rni haqida olib borilgan ishlarda, o'quvchilarning o'z fikrlarini erkin ifodalashiga, ijodiy yondashuvlarni rivojlantirishga imkon beruvchi metodlar o'rganilgan. I.F.Shadrikov (2016) o'zining "Pedagogik texnologiyalar va interaktiv ta'lim metodlari" asarida interaktiv o'quv uslublarining san'at darslarida qo'llanilishini keng yoritib, bu metodlarning o'quvchilarda kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi o'rnini ta'kidlaydi. U o'quvchilarning san'at asarlarini yaratishda mustaqil fikrlash va yangi g'oyalarni yaratish orqali o'z imkoniyatlarini amalga oshirishi zarurligini ko'rsatadi.

Tasviriy san'at ta'limida kreativlikni rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar ham keng tarqalgan. Xususan, J.P.Guilford (1950) kreativ fikrlashni o'rganish bo'yicha olib borgan ishlarida, o'quvchilarda ijodiy tafakkur va yangi g'oyalarni yaratish qobiliyatini rivojlantirishning ta'lim jarayonidagi o'rni haqida fikr yuritgan. U kreativlikni o'rgatishda ta'lim metodlarining moslashuvchanligi va o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi.

Yangi pedagogik yondashuvlar, xususan, individual yondashuvlar tasviriy san'at darslarida o'quvchilarning kreativligini va tasviriy faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. P. M. Freire (1970) o'zining "O'qituvchining pedagogik metodlari" asarida o'quvchilarning o'z fikrlarini erkin ifodalashlari, o'qituvchi bilan hamkorlikda ijodiy jarayonni

boshqarishlari zarurligini bildirgan. Bu yondashuv o'quvchilarga o'z ijodiy salohiyatini maksimal darajada namoyon qilish imkoniyatini yaratadi.

Muhokama. Tasviriy san'at darslarida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, san'atga bo'lgan qiziqishni oshirish va umumiy ta'lim sifatini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada keltirilgan tadqiqotlar va metodik yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, yangi texnologiyalar tasviriy san'at ta'limining sifatini va samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashning asosiy afzalligi, bu texnologiyalar o'quvchilarga o'zlarining kreativ salohiyatlarini erkin ifodalash imkoniyatini yaratadi. Raqamli san'at dasturlari va multimedia vositalaridan foydalanish nafaqat darslarni qiziqarli va jozibali qiladi, balki o'quvchilarda yangi fikrlash va yaratish jarayonlarini qo'zg'atadi. Shuningdek, bu texnologiyalar yordamida o'quvchilar o'z g'oyalarini yaratishda yangi usullarni o'rganadilar va shu orqali tasviriy san'atning turli janrlariga oid bilimlarni chuqurlashtiradilar.

Interaktiv metodlar ham dars jarayonini yangilashda muhim ahamiyatga ega. Darslarda interaktiv platformalar va onlayn vositalardan foydalanish, o'quvchilarga o'z-o'zini ifodalashda, o'zaro fikr almashishda va taqdimotlarda faol ishtirok etishga imkon beradi. Bunday yondashuv o'quvchilarda nafaqat texnik mahoratlarni, balki mustaqil fikrlash va ijodiy qarorlar qabul qilish qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Biroq, yangi texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etishning ba'zi qiyinchiliklari ham mavjud. Bunday texnologiyalarni samarali qo'llash uchun o'qituvchilar tegishli malakaga ega bo'lishi zarur, chunki texnologik vositalarni noto'g'ri ishlatish o'quvchilarning diqqatini jamlashga xalaqit berishi yoki darsning samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shuningdek, barcha o'quvchilarda texnologiyalarni ishlatish uchun kerakli qurilmalar yoki internetga kirish imkoniyatining bo'lmashligi muammo tug'dirishi mumkin. Shu bois, o'qituvchilar yangi texnologiyalarni integratsiya qilishda ularning ta'lim muhitiga mosligini va o'quvchilarning ehtiyojlarini inobatga olishlari zarur.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash nafaqat san'at darslari, balki ta'limning boshqa sohalarida ham keng tarqalmoqda. Biroq, tasviriy san'atda bu texnologiyalarning alohida o'rni bor, chunki san'at o'quvchilarning tasavvurini kengaytiradi, ularning estetik didini rivojlantiradi va ijodiy jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, yangi texnologiyalar tasviriy san'at darslarida ijodiy jarayonlarni boyitadi va o'quvchilarda san'atga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi.

Yangi pedagogik texnologiyalar tasviriy san'at darslarida ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Bu texnologiyalarni qo'llash dars jarayonini samarali qilish bilan birga, o'quvchilarning kreativ yondashuvlarini shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda ta'limda qo'llanilayotgan innovatsion metodlar, ayniqsa, tasviriy san'at darslarida o'quvchilarga o'z ifodalarini yangi va zamonaviy shakllarda namoyon qilish imkoniyatini beradi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, jumladan, 3D modellash, virtual haqiqat (VR) va ko'p funksiyali raqamli dasturlar, tasviriy san'atni o'rganishda o'quvchilarga yanada kengroq tasavvur va imkoniyatlar yaratadi.

Bundan tashqari, interaktiv ta'lim platformalari va raqamli vositalar yordamida o'quvchilar san'at asarlarini yaratishda bir nechta turli texnikalarni birlashtirishga imkon topadilar. Masalan, digital san'at dasturlari o'quvchilarga rasmlarni raqamli formatda yaratish imkoniyatini beribgina qolmay, balki o'quvchilarni o'z asarlariga mutaxassislar tomonidan tahlil qilish va ularning asarlarini keng auditoriyaga taqdim etish imkoniyatini ham yaratadi. Bu nafaqat san'atning texnik jihatlarini, balki uning ijtimoiy va estetik ahamiyatini tushunishga yordam beradi.

Shu bilan birga, yangi texnologiyalar nafaqat san'atning o'ziga xos ko'rinishlarini o'rganish, balki o'quvchilarda ko'proq sinf ichidagi hamkorlikni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Masalan, onlayn ko'rgazmalar va san'at forumlari tashkil etish orqali o'quvchilar o'z ishlarini boshqalar bilan solishtirib ko'rishlari, boshqa o'quvchilarning fikrlarini olishlari va

yangi g'oyalar bilan tanishishlari mumkin. Bu jarayon o'quvchilarda tanqidiy fikrlash va ijtimoiy interaktivlikni kuchaytiradi.

Bundan tashqari, tasviriy san'at o'qitishning yangi texnologiyalari, o'quvchilarga o'zaro raqobatga nisbatan ko'proq hamkorlikda ishlashni ta'minlaydi. O'quvchilarning san'atga bo'lgan individual qiziqishlari va iste'dodlari yuzaga chiqadi, shuningdek, texnologik vositalar orqali ularning ijodiy salohiyatini yanada mustahkamlash imkoniyati mavjud bo'ladi. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning o'zini ifodalashni va boshqalarga o'z fikrlarini tushuntirishni o'rganishiga yordam beradi.

Yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashda kutilgan muammolar:

Biroq, yangi texnologiyalarni qo'llashda bir qator muammolar va qiyinchiliklar ham yuzaga kelishi mumkin. Eng katta muammolardan biri bu texnologiyalarga kirish imkoniyatining cheklanganligi. Ko'plab hududlarda, ayniqsa, kichik shaharlar yoki qishloq joylarida, o'quvchilar uchun zarur bo'lgan texnik vositalar va internetga ulanishda cheklovlar mavjud. Bu esa, o'z navbatida, innovatsion texnologiyalarning o'quv jarayonida samarali qo'llanilishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Ключевые слова: биоинформатика, инновационные технологии, методы обучения, генетический анализ, компьютерное моделирование, большие данные, фармацевтика, протеомика.

Abstract. This research paper discusses the role and significance of bioinformatics in the field of biology and computer science and how bioinformatics is taught using innovative technologies. Bioinformatics has become widespread as a scientific field based on the use of computer technologies and statistical methods in the analysis of biological data and their systematic storage. This science is important for achieving cutting-edge advances in genomics, proteomics, medicine and pharmaceuticals. The article describes the features of bioinformatics, the revolutionary changes it has brought to biological and medical research, and the uses of this science for purposes. diagnose diseases and show genetic changes.

Key words: bioinformatics, innovative technologies, teaching methods, genetic analysis, computer modeling, big data, pharmaceuticals, proteomics.

Kirish. Bioinformatika fani zamonaviy fanlar sirasiga kiritilgan katta hajmdagi fanlararo bog'langan fan bo'lib, bioinformatikaning o'ziga xos xususiyatlari, uning biologik va tibbiy tadqiqotlar uchun olib kelgan inqilobiy o'zgarishlar, shuningdek, bu fan yordamida kasalliklar va genetik o'zgarishlarni o'rganishdagi yutuqlar ko'rsatilgan. Bioinformatikaning ta'limda qo'llanilishi innovatsion texnologiyalar orqali kuchaytirilishi zarurligi ta'kidlanadi. Maqolada zamonaviy kompyuter texnologiyalari, simulyatsiyalar, katta ma'lumotlar (big data) va onlayn platformalar orqali bioinformatika fanini samarali o'qitish usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, bioinformatika o'qitishida interaktiv va praktika asosidagi yondoshuvlar, virtual laboratoriyalar va real vaqtda ma'lumot tahlil qilish imkoniyatlari kiritilishi kerakligi ta'kidlanadi. Bu

texnologiyalar yordamida talabalar, nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy tajribani ham egallashlari mumkin, bu esa bioinformatika sohasidagi ilg'or metodlarni yanada samarali o'zlashtirishga yordam beradi. Maqola bioinformatika ta'limining jahon miqyosida rivojlanishini, ilmiy va texnologik jarayonlarga mos ravishda yangi metodlarni ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi. Innovatsion texnologiyalar yordamida bioinformatika ta'limining samaradorligini oshirish, yangi bilimlarni yaratish va biologik tizimlarni chuqurroq tushunishga erishish mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Bioinformatika - biologik ma'lumotlarni tahlil qilish va undan yangi bilimlarni olishda kompyuter texnologiyalari va statistik metodlarni qo'llashni o'rgatuvchi ilmiy soha sifatida tobora keng tarqalmoqda. Ushbu adabiyotlar tahlili, bioinformatika fanining o'ziga xos xususiyatlarini va uning innovatsion texnologiyalar yordamida qanday o'qitilishini tushunishga yordam beradi.

Bioinformatikaning ilmiy ahamiyati va uning biologiya, tibbiyot va farmatsevtika sohalaridagi roli keng o'rganilgan. Ko'plab tadqiqotlar bioinformatikaning biologik ma'lumotlar tahlilida, ayniqsa genomik tadqiqotlar, proteomika va metabolomika sohalarida qanday ishlatilishini ko'rsatadi. Masalan, Altschul et al. (1990) tomonidan yaratilgan BLAST algoritmi biologik ma'lumotlarni tahlil qilishda inqilobiy yutuq bo'ldi, chunki u genetik ketma-ketliklarni tez va samarali solishtirish imkonini berdi [1]. Hunter (2003) va Kaufman (2010) kabi olimlar bioinformatikaning farmatsevtik tadqiqotlar va dori ishlab chiqish jarayonidagi rolini o'rganishgan, ularning izlanishlari bioinformatikaning yangi dori modellarini yaratishda qanday yordam berishini ko'rsatadi. Shuningdek, bioinformatika tibbiyotda kasalliklarning genetik sabablarini aniqlashda va ularni davolashda ham katta ahamiyat kasb etadi. Collins et al. (2003) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar inson genomining to'liq tahlilini yakunladi, bu esa genomik tahlilning tibbiy amaliyotga qo'llanilishini yanada rivojlantirdi [2].

Bioinformatika fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash pedagogik jarayonni sezilarli darajada samarali qilishga yordam beradi. Turing (1950) va Von Neumann (1958) kabi ilm-fan namoyandalari kompyuter texnologiyalarining rivojlanishini biologiya va tibbiyotga qo'llashda katta muhim rol o'ynashini ko'rsatganlar. Zamonaviy innovatsion texnologiyalar yordamida bioinformatika ta'limi amaliy jihatdan yaxshilanmoqda. O'quvchilarga interaktiv dasturlar, onlayn kurslar, virtual laboratoriyalar va tahlil qilish uchun katta ma'lumotlar (big data) imkoniyatlari taqdim etiladi [3]. Mayer (2019) o'z tadqiqotida bioinformatika o'qitishining interaktiv metodlari, jumladan, onlayn platformalar va simulyatsiyalarning samaradorligini ta'kidlagan. Innovatsion texnologiyalar, xususan, Hadoop va Spark kabi katta ma'lumotlarni qayta ishlash tizimlari, bioinformatika ta'limini o'rgatish jarayonida talabalarni haqiqiy ma'lumotlar bilan ishlashga undaydi va ularni zamonaviy metodlarni qo'llashga o'rgatadi [4].

Adabiyotlarda bioinformatika ta'limining metodikasi borasida turli yondoshuvlar mavjud. Sarkar (2012) va Tian et al. (2015) o'z tadqiqotlarida bioinformatika o'qitishida vizualizatsiya va interaktiv dasturlarni qo'llashning samaradorligini ko'rsatganlar. Masalan, RStudio, Jupyter Notebooks, va Galaxy kabi platformalar talabalarga genetik va proteomik ma'lumotlarni tahlil qilish imkonini beradi [5]. Shuningdek, bioinformatika ta'limini amaliyotga o'rganishning muhim qismi sifatida virtual laboratoriyalar va masofaviy ta'lim tizimlaridan foydalanish mumkinligi haqida ham adabiyotlarda ta'kidlanadi. Garcia et al. (2017) tomonidan olib borilgan tadqiqotda, bioinformatika fanini masofaviy ta'lim platformalari orqali o'rgatishning samaradorligi tahlil qilinib, bu usulning o'quvchilarga keng imkoniyatlar yaratishini ko'rsatdi [6].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bioinformatika fanining rivojlanishi va ta'limning innovatsion texnologiyalar asosida o'qitilishi istiqbolli juda katta. Yangi algoritmlar va texnologiyalar yordamida biologik tizimlarni o'rganish va ularni tahlil qilish imkoniyatlari kengaymoqda. Bourne et al. (2017) va Matsui et al. (2020) [7] o'zlarining tadqiqotlarida

bioinformatika ta'limini yangi texnologiyalar yordamida jahon miqyosida rivojlantirish zarurligini ta'kidlaganlar.

Eksperimental tadqiqot metodologiyasi. Bioinformatika, biologik ma'lumotlarni tahlil qilishda kompyuter texnologiyalari va statistik metodlardan foydalanadigan zamonaviy ilmiy soha bo'lib, biologiya va informatika o'rtasidagi integratsiyalashgan aloqalarni o'rganishga qaratilgan. Uning ahamiyati nafaqat biologik tizimlarni tushunishda, balki yangi davolash usullarini ishlab chiqishda va genetik kasalliklarni aniqlashda ham juda muhimdir. Bioinformatika sohasidagi innovatsiyalar, xususan, yirik ma'lumotlarni tahlil qilish texnologiyalari, yangi algoritmlar va simulyatsiya metodlari, sohaning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Bu mavzuda eksperimenta tadqiqot metodologiyasi va metodlarni o'rganish, bioinformatika ta'limining innovatsion texnologiyalar asosida qanday amalga oshirilishi kerakligi haqida quyidagi yondoshuvlarni ko'rib chiqish mumkin.

Bioinformatika fanini o'qitish va tadqiq qilishda eksperimenta metodologiya muhim o'rin tutadi. Tadqiqot metodologiyasi bir nechta asosiy bosqichlardan iborat bo'lib, ular quyidagicha ajratilishi mumkin:

a. Ma'lumotlarni yig'ish va tayyorlash:

Bioinformatika tadqiqotlarida dastlabki ma'lumot yig'ish va tayyorlash juda muhim bosqichdir. Biologik tizimlardan olingan ma'lumotlar (masalan, genomik, proteomik yoki metabolomik ma'lumotlar) ko'p holatlarda to'liq emas, shuning uchun ularni tozalash va to'g'ri formatga keltirish talab qilinadi. Ushbu jarayonlar uchun Python, R kabi dasturlash tillaridan foydalaniladi, shuningdek, bioinformatika ma'lumot bazalaridan (GenBank, UniProt) foydalanish metodlari qo'llaniladi.

b. Simulyatsiya va modellashtirish:

Bioinformatikada biologik jarayonlarni o'rganish uchun simulyatsiya va modellashtirish metodlari ishlatiladi. Bu metodlar murakkab biologik tizimlarni, masalan, genetik tarmoq yoki proteinlar orasidagi o'zaro ta'sirlarni model qilish imkonini beradi. Innovatsion texnologiyalar yordamida bu jarayonlar yanada soddalashtiriladi va tezlashtiriladi, masalan, *Molecular Dynamics* simulyatsiyalari, *Monte Carlo* usullari yoki molekulyar model yaratish kabi usullar qo'llaniladi.

c. Algoritmlar va matematik modellardan foydalanish:

Bioinformatika fanida ko'plab statistik va matematik modellar ishlatiladi. Ma'lumotlarni tahlil qilishda algoritmlar, masalan, genetik algoritmlar, klassifikatsiya va klasterlash algoritmlari, mukammal algoritmlar (dynamic programming, hidden Markov models) qo'llaniladi. Innovatsion texnologiyalar asosida bu metodlar o'quvchilarga algoritmlar va metodlar asosida biologik tizimlarni yaxshiroq tushunishga imkon beradi.

Natijalar va tahlil. Ma'lumotlar va modellarni yig'ishdan keyin, natijalar statistik usullar yordamida tahlil qilinadi. yirik ma'lumotlar (big data) bilan ishlashda, masalan, genetik ketma-ketliklar tahlilida, maxsus kompyuter dasturlari va platformalar (galaxy, bioconductor, hadoop) yordamida katta hajmdagi ma'lumotlarni samarali tahlil qilish imkoniyati mavjud. Bioinformatika fanining o'qitilishida innovatsion texnologiyalarning o'rni beqiyosdir. Quyidagi texnologiyalar eksperimenta tadqiqot metodologiyasida keng qo'llanilmoqda:

a. Katta ma'lumotlar (Big Data):

Bioinformatika sohasida katta ma'lumotlar (big data) o'rganishning samarali metodlari rivojlanmoqda. Bunday ma'lumotlar turli biologik tizimlar, genetik ma'lumotlar, kasalliklar va ularning genetik asoslarini o'rganishda ishlatiladi. Ma'lumotlar tahlili va vizualizatsiya uchun zamonaviy platformalar va kutubxonalar, masalan, *Apache Hadoop*, *Spark*, va *TensorFlow* keng qo'llaniladi. Bu texnologiyalar orqali genetik va proteomik ma'lumotlarni tahlil qilish yanada samarali bo'ladi.

b. Simulyatsiyalar va Kompyuter modellari:

Kompyuter simulyatsiyalari va modellashtirish metodlari bioinformatika tadqiqotlarining ajralmas qismidir. Masalan, *Monte Carlo* simulyatsiyasi yoki molekulyar dinamika

simulyatsiyalari yordamida murakkab biologik tizimlar va molekulyar o'zgarishlar model qilinadi. Bu esa genetik mutatsiyalar, proteinlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar yoki boshqa biologik jarayonlarning xulq-atvorini o'rganishda muhim vosita hisoblanadi.

c. Masofaviy ta'lim platformalari:

Bioinformatika fanini o'qitishda masofaviy ta'lim va interaktiv platformalar, masalan, *Coursera*, *edX*, *Bioinformatics.org*, talabalar uchun qulay sharoitlar yaratadi. Ular o'zlarining nazariy bilimlarini amaliyotga tadbiiq etish, tahlil qilish va real biologik ma'lumotlar bilan ishlash imkoniyatlarini taqdim etadi.

d. Virtual laboratoriyalar:

Virtual laboratoriyalar talabalar uchun biologik ma'lumotlarni tahlil qilish va simulyatsiyalarni o'rganish imkoniyatlarini taqdim etadi. Bunday laboratoriyalar yordamida o'quvchilar o'z bilimlarini amalda sinab ko'rishlari va real dunyo muammolarini hal qilishda ishtirok etishlari mumkin. *Galaxy* va *KBase* kabi vositalar virtual laboratoriyalarni yaratishda ishlatiladi.

Eksperimenta tadqiqotlar, innovatsion texnologiyalar yordamida o'rgatilgan bioinformatika metodlari o'quvchilarga nafaqat teoriyaga, balki amaliyotga ham asoslangan bilimlarni beradi. Yirik ma'lumotlarni tahlil qilish va murakkab biologik tizimlarni model qilish orqali talabalar o'z bilimlarini yanada chuqurlashtiradilar. Bu esa bioinformatika fanining o'quv jarayonidagi samaradorligini oshiradi va talabalarga real dunyo vazifalarini yechish imkoniyatini yaratadi. Bioinformatika fanining innovatsion texnologiyalar yordamida o'qitilishi nafaqat talabalarga yangi bilimlarni o'zlashtirish, balki amaliy ko'nikmalarni egallashga ham yordam beradi. Eksperimental tadqiqot metodologiyasi, o'z navbatida, zamonaviy texnologiyalar va yondoshuvlar asosida biologik ma'lumotlarni o'rganish, tahlil qilish va sinovdan o'tkazishda muhim rol o'ynaydi. Bu esa bioinformatikaning ta'limda muvaffaqiyatli rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Bioinformatika fani biologiya va informatika o'rtasidagi ko'prikn yaratgan zamonaviy ilmiy soha bo'lib, biologik ma'lumotlarni tahlil qilish va yangi bilimlarni olishda asosiy o'rin tutadi. Uning ahamiyati faqat ilmiy tadqiqotlar bilan cheklanmay, tibbiyot va farmatsevtika sohaslarida yangi davolash usullarini yaratishda ham katta rol o'ynaydi. Shu bilan birga, bioinformatika sohasidagi innovatsion texnologiyalar, masalan, katta ma'lumotlar (big data), simulyatsiya va modellash, algoritmlar va kompyuter tahlili kabi metodlar, fanning rivojlanishiga va ta'limning samaradorligini oshirishga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Bioinformatika biologik ma'lumotlarni samarali tahlil qilish va biologik tizimlarning urakkabligini tushunishga yordam beradi. Bu fanning genetik tadqiqotlar, kasalliklar sabablarini aniqlash va yangi dori vositalarini ishlab chiqishda asosiy o'rin tutishi ilmiy tadqiqotlarning samaradorligini oshiradi. U genomika, proteomika va metabolomika kabi sohalarda muhim rivojlanishlarga erishishga imkon yaratadi, bu esa biologik va tibbiy sohalarda yangi ilmiy kashfiyotlarni amalga oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Matsumoto, T., & Kawano, R. (2018). *Big Data and Bioinformatics: New Approaches in Research and Education*. *Frontiers in Genetics*, 9, 428.
2. Collins, F.S., & Venter, J.C. (2003). *Genome sequencing: The 21st century begins*. *Nature*, 422(6934), 835-847.
3. Turing, A.M. (1990). *Computing Machinery and Intelligence*. *Mind*, 59(236), 433-460.
4. Mayer, R. (2019). *Teaching Bioinformatics with Interactive Tools*. *Journal of Biological Education*, 53(2), 177-184.
5. Tian, Y., Zhang, Y., & Zhang, M. (2015). *Development of Bioinformatics Education: Trends and Innovations*. *BMC Bioinformatics*, 16(5), 101-110.
6. Garcia, A., & Schulz, M. (2017). *Virtual Laboratories in Bioinformatics Education*:

An Innovative Approach. Journal of Science Education and Technology, 26(4), 412-419.

7. Matsui, T., & Yamaguchi, T. (2020). *Applications of Artificial Intelligence in Bioinformatics Education*. Bioinformatics Advances, 1(3), 1-9.

Munirov Nurali Alisherovich,

Buxoro davlat universiteti,

“Sport nazariyasi va metodikasi kafedrasi” dotsenti

HARBIY XIZMATCHILARNING JISMONIY VA RUHIY TAYYORGARLIGIDA QO‘L JANGI SPORT TURINING AHAMIYATI

Annotatsiya: Mazkur maqolada qo‘l jangi sport turining jismoniy va ruhiy tayyorgarlikni shakllantirishdagi ahamiyati, uning harbiy xizmatchilar uchun professional tayyorgarlikning ajralmas qismi sifatidagi o‘rni tahlil qilingan. Qo‘l jangi mashg‘ulotlarining jismoniy kuch va chidamlilikni oshirish, shuningdek, strategik fikrlash va stressni boshqarish qobiliyatini rivojlantirishdagi roli ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Qo‘l jangi, harbiy tayyorgarlik, jismoniy kuch, ruhiy barqarorlik, strategik fikrlash, sport.

Аннотация: В данной статье проанализирована роль спортивного единоборства в формировании физической и психологической подготовки, а также его значение как неотъемлемой части профессиональной подготовки военнослужащих. Раскрыта роль занятий единоборствами в развитии физической силы и выносливости, а также в улучшении стратегического мышления и способности управлять стрессом.

Ключевые слова: спортивное единоборство, военная подготовка, физическая сила, психологическая устойчивость, стратегическое мышление, спорт.

Abstract: This article analyzes the role of martial arts in shaping physical and psychological training and its significance as an integral part of professional preparation for military personnel. The article highlights the impact of martial arts training on enhancing physical strength and endurance, as well as improving strategic thinking and stress management skills.

Key words: martial arts, military training, physical strength, psychological resilience, strategic thinking, sports.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan mamlakatda qo‘l jangi sport turini yanada rivojlantirish va uning ommalashuviga hissa qo‘shishga qaratilgan bir qator muhim chora-tadbirlar belgilandi. Bu qarorning asosiy maqsadi – aholi, ayniqsa, yoshlar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari o‘rtasida qo‘l jangiga qiziqishni kuchaytirish, sohaga zarur moddiy-texnik bazani yaratish hamda trenerlar va mutaxassislar tayyorlashni takomillashtirishdir [1].

Qo‘l jangi nafaqat jismoniy kuch va chidamlilikni oshirish, balki yoshlarni harbiy va jismoniy tarbiyalashda, ularning ruhiy barqarorligini mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi. Ushbu sport turi mamlakatdagi huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari va harbiy xizmatchilar uchun jismoniy tayyorgarlikning muhim qismi sifatida kiritiladi.

Mazkur chora-tadbirlar orqali qo‘l jangi sport turining respublikadagi obro‘si yanada yuksalishi va unga bo‘lgan qiziqishning oshib borishi kutilmoqda. Shu bilan birga, xalqaro turnirlarda O‘zbekiston sportchilarining ishtiroki mamlakatning sport salohiyatini jahon miqyosida namoyon etishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. A.A.Borisov va D.V.Salkova jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha o‘quv-mashg‘ulot jarayonini takomillashtirish, eksperimental dastur asosida harbiy xizmatchilarni xizmat va jangovar vazifalarni bajarishga psixofizik tayyorgarligini shakllantirishga doir ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar [2].

V.G.Volkov, R.N.Volodin, V.M.Skudnov, K.V.Pozdnyakovlar “Qo‘l jangi” nomli o‘quv qo‘llanmada harbiy faoliyat xususiyatlari, qo‘l jangi harbiy maqsadlarda qanday qo‘llanilishi, uning amaliyotdagi ahamiyati va taktik jihatlari, jismoniy tayyorgarlik orqali

professional sifatlarni rivojlantirish, qo'l jangi orqali professional sifatlarni shakllantirish, qo'l jangi usullari tasnifi, qo'l jangi mashg'ulotlarini tashkil etish xususiyatlarini ochib bergan [3].

S.M. Ashkinazi, R.M.Shipilov, B.V.Kuznetsov davlat yong'in xavfsizligi xizmatining ta'lim muassasalari xodimlarining jismoniy tayyorgarlik jarayonini takomillashtirish yo'llarini tadqiq etib, haftada jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish sonini oshirish xodimlarning jismoniy tayyorgarligini yaxshilashga ko'maklashishi mumkinligi taxmin qilinadi [4].

A.G.Mirzakulov ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibining bugungi kundagi jismoniy holati va undagi muammolar, ya'ni yuksak ma'naviy-axloqiy tamoyillarga ega, munosib huquqiy jangovar va jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lgan shaxslarni tarbiyalashga doir tadqiqotni amalga oshirgan [5].

Muhokama va natijalar. Qo'l jangi qadimdan insonning o'zini himoya qilish, omon qolish va raqibni engish vositalaridan biri bo'lib kelgan. Bu turdagi jang san'ati turli madaniyatlarda va tarixiy davrlarda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. Masalan, qadimgi Yunon davrida pankration juda mashhur bo'lib, bu erkin kurash va boksning uyg'unlashgan ko'rinishi edi. Pankration nafaqat sport, balki jang usuli sifatida ham qo'llanilgan. Ispaniyada pichoq bilan jang qilish an'anaviy holat bo'lib, jang san'ati madaniyatining bir qismiga aylangan. Qadimgi Rimda esa gladiator janglari nafaqat kurash, balki tomoshabop sahna bo'lgan. Bu janglarda qatnashgan gladiatorlar o'zining mahoratlari, jasorati va chidamliligi bilan nom qozongan. Shu bilan birga, Rossiyada va boshqa slavyan xalqlarida mushtlashuvlar juda qadimiy an'analardan biri hisoblanadi. Mushtlashuvlar yosh avlodni kuchli, jasur va intizomli qilib tarbiyalashning muhim qismi sifatida ko'rilgan. Ularda nafaqat jismoniy kuch, balki o'zini qo'lga olish va taktik fikrlash qobiliyati ham sinovdan o'tgan.

Bugungi kunda qo'l jangi harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligi va yaqin jangda amaliyotga tayyorligining muhim qismi sifatida hisoblanadi. Zamonaviy qo'l jangi nafaqat qurolsiz kurash, balki qurol bilan amalga oshiriladigan turli jang uslublarini ham o'z ichiga oladi. Unda himoya, hujum, hujumdan chetlanish va raqibning harakatlarini neytrallashtirish kabi usullar qo'llaniladi.

Qo'l jangiga o'rgatish nafaqat jismoniy kuch va chapdastlikni rivojlantirish, balki ruhiy tayyorgarlikni oshirishga ham qaratilgan. Chunki yaqin jangda muvaffaqiyat ko'p jihatdan xizmatchining emotsional barqarorligi, tashabbus ko'rsata olish qobiliyati va stress holatlarda tezkor qaror qabul qilish mahoratiga bog'liq. Shuning uchun qo'l jangi bo'yicha mashg'ulotlar harbiy tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismi sifatida amalga oshiriladi.

Qo'l jangi bo'yicha mashg'ulotlar harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligini kuchaytirishga, jangda jismoniy ustunlikka erishishga va o'zini himoya qilish qobiliyatini oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari, bu turdagi mashg'ulotlar harbiy intizomni mustahkamlaydi va jamoaviy ishonchni oshiradi. Urushlar va qurolli to'qnashuvlar tajribasi shundan dalolat beradiki, yaqin jangda muvaffaqiyat qozongan xizmatchi nafaqat jismoniy tayyorgarlik, balki o'z irodasini dushmanga yuklab, tashabbusni qo'lga olib bilish qobiliyati bilan ajralib turadi.

Rossiya Qurolli Kuchlarida qo'l jangi barcha turdagi qo'shinlar uchun jismoniy tayyorgarlikning majburiy bo'limi sifatida tavsiya etiladi. Bu tayyorgarlik xizmatchilarni nafaqat harbiy harakatlarga, balki umumiy jismoniy va ruhiy chidamlilikni oshirishga yo'naltirilgan. Qo'l jangiga o'rgatish jarayonida xizmatchilar turli texnika va taktikalarni o'rganadilar, bu esa ularning professional tayyorgarligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Qo'l jangi nafaqat qadimgi an'analarning davomi, balki zamonaviy harbiy tayyorgarlikning ajralmas qismi bo'lib, u xizmatchilarning kuch-quvvati, ma'naviy irodasi va jang qilish mahoratini mustahkamlaydi.

Hozirgi zamonaviy harbiy doktrinalarda asosiy urg'u uzoq masofadan dushmanga ta'sir o'tkazish imkoniyatlariga qaratiladi. Ommaviy bombardimonlar, uzoq masofali artilleriya va raketa zarbalari kabi metodlar AQSh va ko'plab Yevropa davlatlari harbiy strategiyalarining

muhim qismini tashkil etadi. Bu zamonaviy urush sharoitida qo'l jangi kabi yaqin masofadagi jang turlarining ahamiyatiga nisbatan savol tug'ilishiga sabab bo'ladi.

Shu bilan birga, harbiy xizmatchilar uchun qo'l jangi ko'nikmalarini egallash muhim ahamiyat kasb etadi, chunki har qanday sharoitda, jumladan, hayot xavfi bo'lgan vaziyatlarda ham yaqin masofada o'zini himoya qilish yoki dushmani tezkorlik bilan zararsizlantirish zarurati yuzaga kelishi mumkin. Bu holatlarda qo'l jangi ko'nikmalari harbiy xizmatchilar uchun professional tayyorgarlikning muhim qismi bo'lib xizmat qiladi.

Harbiy xizmatchilarni qo'l jangiga tayyorlash jarayoni nafaqat jismoniy ko'nikmalarni, balki ruhiy barqarorlikni ham shakllantirishga qaratilgan. S.M. Ashkinazi ta'kidlaganidek, dushmanga qarshi harakat vaziyatini psixologik jihatdan modellashtirish xizmatchilarning emotsional barqarorligini oshiradi, jasorat va qat'iyatni rivojlantiradi.

Bunday tayyorgarlik:

Jasorat: xizmatchilarda xavfli vaziyatlarda harakat qilishga ichki kuch va qat'iyat paydo qiladi.

Matonat: turli vaziyatlarda stressga bardosh berish qobiliyatini shakllantiradi.

G'alabaga intilish: birinchi bo'lib hujum qilish va mag'lubiyatsiz harakat qilish qobiliyatini oshiradi.

O'z kuchlariga ishonch: harbiy xizmatchilarda o'z qobiliyatiga ishonch paydo qiladi, bu esa har qanday murakkab holatda muhimdir.

Barcha yagona kurashlar kabi, qo'l jangi ham harbiy yoki jangovar faoliyatning qadimiy turlaridan biri bo'lib, harbiy xizmatchilarning jismoniy va ma'naviy tayyorgarligini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. U shaxsning o'ziga xos qiyofasini shakllantirish, o'zini nazorat qilish va agressiv ta'sirlarga qarshi kurashish qobiliyatini kuchaytiradi. Shu sababli qo'l jangi nafaqat harbiy sport turi, balki harbiy tayyorgarlikning muhim qismi sifatida qaraladi.

Hayotga xatarli holatlarni modellashtirish: xizmatchilarni hududiy sharoitlarda va murakkab jang vaziyatlarida o'zini tutishga o'rgatadi.

Ruhiy tayyorgarlikni kuchaytirish: stressga chidamlilik va emotsiyalarni nazorat qilish qobiliyatini oshiradi.

Fizik holatni yaxshilash: xizmatchilarning chidamlilik, kuch va tezkorlik darajasini yaxshilaydi.

Harbiy xizmatchilarni qo'l jangiga tayyorlash jarayonini samarali tashkil etish uchun maxsus o'quv dasturlar va pedagogik yondashuvlar qo'llanilishi kerak. Harbiy ta'lim muassasalarida kursantlarga qo'l jangi bo'yicha mashg'ulotlarni joriy etish orqali ularning nafaqat jismoniy tayyorgarligi, balki muhim professional sifatleri shakllantiriladi.

Bu jarayon quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Professional ko'nikmalarni takomillashtirish: harbiy xizmatchilarda qo'l jangiga oid amaliyotni mukammallashtirish.

Harbiy pedagogika usullarini qo'llash: mashg'ulotlarda to'g'ridan-to'g'ri jang vaziyatlarini modellashtirish orqali harbiy xizmatchilarni tayyorlash.

Tizimli mashg'ulotlar o'tkazish: jismoniy tayyorgarlikni muntazamlilik asosida tashkil qilish.

Zamonaviy urush sharoitida qo'l jangi hali ham katta ahamiyatga ega. Bu, ayniqsa, yaqin masofadagi to'qnashuvlarda, jang maydonlaridagi maxsus operatsiyalarda va dushman hududlarida yashirin harakatlar paytida namoyon bo'ladi.

Qo'l jangi bo'yicha malakali tayyorgarlik xizmatchilarning murakkab va xavfli vaziyatlarda muvaffaqiyatli harakat qilish qobiliyatini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Shuning uchun harbiy qo'l jangi ko'nikmalarini rivojlantirish nafaqat shaxsiy, balki strategik ahamiyatga ega.

Faoliyat insonning ijtimoiy hayotidagi eng asosiy jarayonlardan biri bo'lib, u insonning atrof-muhitga bo'lgan faol munosabati va uni o'zgartirishga qaratilgan maqsadli harakatlarini

ifodalaydi. Faoliyatning mazmuni insonning ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy ehtiyojlari hamda qiziqishlari doirasida rivojlanadi. Har qanday faoliyat to'rtta asosiy tarkibiy qismni o'z ichiga oladi:

Maqsad - insonning faoliyatiga yo'nalish beradigan asosiy omil. Maqsad ongli ravishda tanlab olinadi va insonning motivlari, ideallari va qadriyatlari bilan chambarchas bog'liq.

Vositalar - faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan usullar, instrumentlar va resurslar.

Natija - faoliyat jarayonida qo'lga kiritiladigan mahsul yoki xizmat.

Jarayon - faoliyatning dinamik qismini tashkil etadigan harakatlar tizimi.

Faoliyat turlari turli jihatlaridan tasniflanadi:

Moddiy (amaliy) faoliyat - insonning moddiy dunyoni o'zgartirishga qaratilgan harakatlari. Bunda moddiy ishlab chiqarish, mehnat va texnologiyalar asosiy o'rin tutadi.

Ma'naviy (teoriyaviy) faoliyat - insonning bilim, ma'rifat, madaniyat va ijodiy jarayonlarga qaratilgan faoliyati.

Ijtimoiy faoliyat - insonning jamiyat bilan o'zaro munosabatlari va ijtimoiy jarayonlardagi ishtiroki.

Faoliyat ijtimoiy rivojlanishdagi ijodiy ahamiyatiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

Reproduktiv faoliyat - mavjud bo'lgan bilim va vositalardan foydalangan holda ma'lum natijalarga erishish jarayoni.

Produktiv yoki ijodiy faoliyat - yangi g'oyalar, maqsadlar va vositalarni ishlab chiqish jarayoni. Bu turdagi faoliyat yangiliklar yaratish va ijodkorlik bilan bog'liq.

Faoliyat turlari ierarxiyasida muhim o'rinni harbiy faoliyat egallaydi. Bu faoliyat jamiyatning xavfsizligi va barqarorligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Harbiy faoliyat, o'z navbatida, ikki asosiy turga bo'linadi:

Tinch davrdagi harbiy faoliyat - qurolli kuchlarning tayyorgarligini ta'minlash, jangovar mashqlar o'tkazish va mudofaa imkoniyatlarini mustahkamlash.

Harbiy davrdagi jangovar faoliyat - dushmanga qarshi qurolli harakatlar, hududiy yaxlitlik va suverenitetni himoya qilishga qaratilgan vazifalar.

Harbiy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, unda o'yin elementlari mavjud. Uynning ayyorlik, kutilmaganlik va aldov kabi xususiyatlari jangovar harakatlarda strategiya va taktika shaklida namoyon bo'ladi. Bugungi yadro-kosmik davrda ham bu xususiyatlar o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Harbiy faoliyat jamiyatda muhim ijtimoiy ahamiyatga ega. U nafaqat davlatning xavfsizligini ta'minlaydi, balki jamiyat a'zolarining fidoyilik, mardlik va vatanparvarlik kabi qadriyatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bois harbiy xizmatchilarning tayyorgarligi nafaqat jismoniy va texnik ko'nikmalarni, balki ruhiy barqarorlik va professional sifatlarni ham o'z ichiga oladi.

Harbiy faoliyatning samaradorligi uning yaxlit rejalashtirilganligi, maqsadli tashkil etilishi va doimiy ravishda rivojlantirib borilishi bilan ta'minlanadi.

Jangovar faoliyat – bu harbiy xizmatchilarning jang shart-sharoitlarida o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga erishishga qaratilgan faoliyati bo'lib, uning asosiy xususiyati xavfli, kutilmagan va kuchli ta'sirlarga to'la muhitda kechishi hisoblanadi. Bunday sharoitlarda har bir harakat maqsadli, rejali va yaxshi o'ylangan bo'lishi talab etiladi. Jangovar faoliyat nafaqat jismoniy tayyorgarlikni, balki ruhiy barqarorlikni ham talab qiladi.

Jangda maqsadlarga erishish uchun harbiy xizmatchilar vaziyatni to'g'ri baholashlari, uning ehtimoliy o'zgarishlarini oldindan taxmin qilishlari va uning salbiy ta'sirlarini yengib o'tishlari kerak. Harbiy xizmatchilar o'z bilimlari, ko'nikmalari va qobiliyatlarini maksimal darajada ishga solib, jangovar jarayonni ijodiy tarzda boshqarishlari muhimdir. Bundan tashqari, vaziyatdagi har qanday o'zgarishga tez va samarali moslashish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Har qanday faoliyat kabi, jangovar faoliyat ham insondan moslashuv mexanizmlarini ishga tushirishni talab qiladi. Lekin jangovar vaziyatda inson hayoti doimiy xavf ostida bo'lganligi uchun to'liq moslashishning iloji yo'q. Moslashuv salohiyati shaxsning ruhiy barqarorligi, irodaviy sifatlari va stressga chidamliligiga bog'liq bo'lib, bu xususiyatlar harbiy tayyorgarlik jarayonida qo'mondonlar tomonidan maxsus shakllantiriladi.

Harbiy xizmatchilarning jangovar faoliyatda muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun quyidagi shaxsiy sifatlarni shakllantirish muhim:

Emotsional-irodaviy barqarorlik – bu jang vaziyatlarida o'z his-tuyg'ularini nazorat qilish qobiliyatidir;

Stressga chidamlilik – ekstremal sharoitlarda ruhiy barqarorlikni saqlab qolish;

Axloqiy-odobiy me'yorlarga moslashuvchanlik – xavfli vaziyatlarda ham insonparvarlik va burchga sodiqlikni saqlab qolish.

Texnologiyalar rivojlanishi bilan janglarning xarakteri murakkablashdi. Yangi qurol-yarog' turlari va zamonaviy jang strategiyalari harbiy xizmatchilarning tayyorgarligiga yuqori talablarni qo'ymoqda. Jangovar faoliyat nafaqat texnika va qurol-yarog'dan foydalanishni, balki psixologik jihatdan tayyorgarlikni ham talab qiladi.

Jangovar faoliyatning mohiyati va uning inson psixikasiga ta'sirini o'rganish harbiy nazariya va amaliyot uchun muhimdir. Bu ruhiy barqarorlikni ta'minlash, qo'rquv va ishonchsizlikni engib o'tish hamda harbiy xizmatchilarni jangga tayyorlashning eng samarali usullarini topish imkonini beradi. Jangovar tayyorgarlikda ruhiy modellardan foydalanish jangchilarning qiyin sharoitlarda yuqori natijalarga erishishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Jangovar faoliyat – bu insondan yuksak jismoniy, ruhiy va axloqiy sifatlarni talab qiladigan murakkab jarayondir. Bunda qo'mondonlar va harbiy mutaxassislar tomonidan harbiy xizmatchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi shart. Zamonaviy jang sharoitlariga tayyorgarlik va ularni aniq tahlil qilish harbiy xizmatchilarning samaradorligi va ishonchliligini oshirishga yordam beradi.

Harbiy-professional faoliyatning oddiy, tinch sharoitda amalga oshirilishi ko'plab yoshlar uchun kutilmagan, lekin zarur bir jarayonni o'z ichiga oladi. Birinchi qarashda, bu faoliyat odatda sivil hayotga o'xshash bo'lishi mumkin, lekin uning o'ziga xosligi va murakkabligi hamda yuksak tayyorgarlikni talab qilishi tufayli u bir qadar farq qiladi.

Yoshlikda harbiy xizmatga chaqirilgan yoki kontrakt asosida xizmatni boshlashni xohlagan odam, albatta, o'zining ilgari o'rganib qolgan xulq-atvor odatlaridan, ijtimoiy rollaridan va kundalik turmush tarzidan voz kechishi zarur bo'ladi. Bunday o'zgarishlar faqat shaxsiy qarorlar yoki ixtiyoriy tanlovlar bilan bog'liq emas. Harbiy xizmatning o'ziga xos shartlari, me'yorlari va tartiblari shaxsiy erkinlikni sezilarli darajada cheklaydi. Harbiy boshqaruv tizimi doirasida yagona boshqaruv prinsipining amalga oshirilishi, ya'ni komandirga to'liq bo'ysunish, nafaqat kasbiy, balki psixologik jihatdan ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bu, yosh harbiy xizmatchi uchun o'z xohish-irodasini nazorat qilish va komandirning qarorlariga bo'ysunish orqali jamoada o'z o'rnini topishga harakat qilishni anglatadi. Shaxsiy erkinlikning cheklanishi, shuningdek, harbiy xizmatchining kundalik rejalari, turmush tarzini tartibga solishda ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, harbiy xizmatni o'tayotgan yosh xizmatchilar doimo tayyor turishlari va har qanday sharoitda o'z kasbiy maqsadlarini bajarishga tayyor bo'lishlari kerak. Bu sharoitlar hatto xavfli va murakkab vaziyatlarda, hayot uchun jiddiy xavf tug'diradigan holatlarda ham o'z kasbiy majburiyatlarini bajarishga intilish va o'rgatgan bilimlar asosida tezkor qarorlar qabul qilishni talab qiladi. Bunday sharoitlarda harbiy xizmatchilarning psixologik barqarorligi va stressni boshqarish qobiliyati juda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Buning uchun ular jismoniy va ruhiy holatda bo'lishi, shuningdek, hayot va xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan ko'plab strategiyalarni o'zlashtirishi zarur.

Harbiy-professional faoliyatning tinch vaqtidagi vazifalaridan biri, bu jangovar harakatlar uchun tayyorgarlikni o'z ichiga oladi. Bu, o'z navbatida, harbiy texnika, qurol-yarog', jangovar

taktikalar va strategiyalarni mukammal o'rganishni, o'zlashtirishni va har qanday noxush sharoitlarda samarali qo'llashni anglatadi. Zamonaviysaviy harbiy texnikaning rivojlanishi, yangi turdagi qurollar va usullarni o'rganish, jangovar sharoitlarda ulardan qanday foydalangan holda muvaffaqiyatga erishish haqida bilimlarni olish yosh harbiylarni yanada murakkab tayyorgarlikka olib keladi.

Psixologik zo'riqishlar va stress o'zgarishlari, shuningdek, yosh harbiylarning ijtimoiy aloqalariga ta'sir qiladi. Oila va do'stlar bilan bo'lgan aloqalarning uzilishi, yangi jamoaga moslashish, yangi hayot sharoitlariga o'rganish, o'tmishdagi istaklardan voz kechish va yangilarini qabul qilish - bularning barchasi psixologik zo'riqishni kuchaytiradi. Harbiy xizmatchining yangi jamoada o'z o'rnini topishi, boshqa harbiy xizmatchilar bilan muvofiqlashish va kollektiv ishni tashkil etish ko'plab ijtimoiy va psixologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Shuningdek, harbiy xizmatning tashqi sharoitlariga moslashish ham qiyinchilik tug'diradi. Yoshlikda bo'lgan harbiy xizmatchi, o'zining oldingi hayotiga nisbatan bir qator o'zgarishlarga duch keladi. Kun tartibi, ovqatlanish, jismoniy mashqlar va shaxsiy vaqtni taqsimlashda yangi tartiblar kiritiladi. Bu, o'z navbatida, organizmning energiya sarfini va almashinuv jarayonlarini qayta qurishga olib keladi. Yangi hayot sharoitlariga moslashish vaqtida odamning fizik va ruhiy kuchlari bir necha bor ortadi va jismoniy tayyorgarlikni oshirish uchun qo'shimcha vaqt sarflanadi.

Shunday qilib, harbiy xizmatga chaqirilish yoki kontrakt asosida xizmatga kirish, yoshlarga o'z hayotining tubdan o'zgarishiga tayyor bo'lishni talab qiladi. Bu faqat tashqi sharoitlar va yangi jamoaga moslashish bilan bog'liq emas, balki o'z ichki kuchi va o'zgarishga bo'lgan tayyorligi ham muhim ahamiyatga ega. Harbiy-professional faoliyatning bunday murakkabligi va og'irliklari, barcha harbiy xizmatchilarni yuqori darajada jismoniy va ruhiy tayyorgarlikka, o'zgarishlarga moslashishga va yangi vazifalarga tayyor bo'lishga undaydi.

Harbiy faoliyatning mazmuni va uning mohiyati har doim o'zgaruvchan va yuqori darajadagi murakkablikni talab qiladigan jarayonlarni o'z ichiga olgan. Harbiy xizmat nafaqat jangovar faoliyatni, balki doimiy tayyorgarlik, muntazam va tezkor qarorlar qabul qilish, yuqori darajadagi professionallik va shaxsiy iroda talab etadi. Urushning mohiyati - bu siyosatning boshqa vositalar bilan davom etishi bo'lib, harbiy faoliyat uning eng samarali, eng intensiv va ba'zan eng og'ir shaklida yuzaga keladi. Jangovar faoliyat harbiy xizmatchilarning o'z vazifalarini bajarishda eng yuqori darajadagi jismoniy, psixologik va ruhiy kuchlarni talab etadi. Bu kurash nafaqat jangda, balki harbiy xizmatchilarning doimiy tayyorgarligida ham aks etadi.

Hozirgi vaqtda texnologiyalar va axborot tizimlarining tezkor rivojlanishi harbiy faoliyatning yangi shakllarini yaratdi. Harbiy texnikaning rivojlanishi, jangovar vositalarning masofadan boshqarilishi, axborotning tezkor va aniq qayta ishlanishi jarayonlarini, harbiy qarorlarning tez va xatolarsiz qabul qilinishini ta'minlash zaruratini keltirib chiqardi. Bugungi kunda harbiy xizmatchilarning diqqatini uzoq vaqt davomida to'liq ushlab turish, vaziyatni tezda tahlil qilish va zarur qarorlar qabul qilishning ahamiyati oshdi. Dushmanni aniqlash va unga qarshi zarba berish jarayonlari tezlashdi, shuning uchun harbiy xizmatchilar bir necha soniya ichida o'zlarini ta'minlash va dushmanga qarshi harakat qilishga tayyor bo'lishlari kerak.

Shuningdek, harbiy faoliyatning yangi shakllari o'ziga xos psixologik stressni, doimiy xavfni va jismoniy yuklamalarni o'z ichiga oladi. Harbiy xizmatchilar o'zlari bilan bevosita jangovar ta'sir o'tkazish joyida bo'lishlari kerak, bu esa ularni o'z hayotlarini xavf ostiga qo'yishga va shaxsiy tirikchilikni himoya qilish uchun birinchi zarba olishga majbur qiladi. Bu xavf nafaqat dushman tomonidan qilingan hujumlar, balki qurolli texnikadan kelib chiqqan xavf, o'zlarining noto'g'ri harakatlari yoki tizimdagi xatolar tufayli ham yuzaga kelishi mumkin. Harbiy xizmatchilar o'z pozitsiyalarida eng yaxshi qarorlarni qabul qilishda

qat'iyatlilik, jasorat, ruhiy barqarorlik, va qo'rquvni yengib o'tish kabi psixologik jihatdan mustahkam bo'lishlari kerak.

Shu sababli, harbiy xizmatchilarning professionallik darajasini baholashda faqat jismoniy tayyorgarlik, balki ularning psixologik barqarorligi, tezkorlik va aniqlikni saqlash, xatolarsiz harakat qilish, qarorlarni va harakatlarni strategik ravishda amalga oshirish kabi ko'nikmalar ham muhim hisoblanadi. Harbiy xizmatchilarning professional sifatlari shakllanganligini baholashda quyidagi asosiy ko'rsatkichlar, ya'ni barqarorlik, tezkorlik, xatolarsiz harakatlar, sifatli ish faoliyatini amalga oshirish va samaradorlik ko'rsatkichlari eng muhim rol o'ynaydi. Bu ko'rsatkichlar nafaqat harbiy xizmatchilarning jangovar faoliyatdagi muvaffaqiyatlarini, balki ular qanday qilib umumiy jangovar tayyorgarlikni shakllantirishlarini va qanday qilib xavfli vaziyatlarda optimal qarorlarni qabul qilishlarini ko'rsatadi.

Harbiy professionalismning mazmuni va tuzilishi bir qator omillarga bog'liq. Kim va qanday qilib ta'sir ko'rsatadi, qanday sharoitlar va ehtiyojlar shakllanishi, qanday maqsadlar ko'zlanishi va qanday harbiy strategiyalar amalga oshirilishi kabi masalalar, harbiy xizmatchilarning professionallik darajasini belgilovchi muhim omillardir. Harbiy xizmatchilar, shuningdek, o'z ishlarini qanday qilib mukammal darajada bajarishni bilib, yuqori darajada tayyorgarlikni amalga oshiradilar. Bu nafaqat jangovar texnikani o'rganish, balki o'zaro ishlash va qo'shma kuchlarga ta'sir o'tkazish, xavfli holatlar va favqulodda vaziyatlarga tayyor turish kabi ko'nikmalarni ham o'z ichiga oladi.

Harbiy faoliyatda talab etiladigan yuqori darajadagi professionalism nafaqat janglarda muvaffaqiyatga erishishga, balki har bir harbiy xizmatchining o'z vazifalarini muvaffaqiyatli va samarali bajarishiga ham katta hissa qo'shadi. Bunday tayyorgarlik va psixologik mustahkamlik nafaqat jangovar sharoitlarda, balki tinch vaqtlarda ham muvaffaqiyatli xizmatni ta'minlashning asosi hisoblanadi.

Xulosa: Qo'l jangi nafaqat qadimgi an'analarning davomi, balki zamonaviy harbiy tayyorgarlikning ajralmas qismi sifatida jismoniy va ruhiy ko'nikmalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Uning harbiy xizmatchilar tayyorgarligidagi ahamiyati, strategik mavqei va ta'siri yanada chuqurroq o'rganishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-iyundagi "Qo'l jangi sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-287-son qarori
2. Борисов А. А. Салькова Д. В. Формирование психофизической готовности курсантов военных вузов к выполнению служебных и боевых задач средствами физической подготовки // Военный инженер. 2019. № 7. С. 18.
3. Волков В.Г., Володин Р.Н., Скуднов В.М., Поздняков К.В. Рукопашный бой: учеб. пособие/. – Пенза : Изд-во ПГУ, 2022. – 122 с.
4. Ашкинази С. М., Шипилов Р. М., Кузнецов Б. В. К вопросу о совершенствовании процесса физической подготовки сотрудников образовательных учреждений государственной противопожарной службы МЧС России // Ученые записки университета им. П.Ф. Лесгафта. – 2016. – №. 1 (131). – С. 18-22.
5. Мирзакулов А. Г. Ички ишлар органлари шахсий таркибининг жисмоний тайёргарлиги ҳолати ва муаммолари // Ijodkor o'qituvchi. – 2022. – Т. 2. – №. 23. – С. 99-105.
6. Alisherovich M. N. Theory and methodology of types of wrestling // Вестник науки и образования. – 2021. – №. 15-3 (118). – С. 54-57.
7. Munirov N. A. Sportda qobiliyat va iqtidorni rivojlantirishda muhim faktorlar // Journal of Innovation in Educational and Social Research. – 2024. – Т. 2. – №. 11. – С. 20-25.

*Ro'ziyev Muxtor Qayumovich,
Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*

TA'LIM JARAYONI DAVRIYLIGINI TADQIQ QILISH ASOSLARI

Annotasiya: Bu maqolada ta'lim jarayoni davrlari to'g'risida so'z boradi. Ta'lim jarayoni davrlari pedagogikada muhim ahamiyatga ega. Ta'lim jarayoni davrlarini tashkil qilishda pedagog-olimlarning fikrlari to'g'risida ham maqolada fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim jarayoni, didaktik hodisa, ta'lim jarayoni davrlari, an'anaviy konsepsiya, zamonaviy konsepsiya, o'qitish faoliyati, o'qish faoliyati.

Аннотация: В данной статье говорится о циклы процесса обучения. Циклы процесса обучения имеют большое значения в педагогике. А также в этой статье приводится анализ трудов ученых-педагогов об организации циклов процесса обучения.

Ключевые слова: процесс обучения, дидактическая явления, циклы процесса обучения, традиционная концепция, современная концепция, обучающая деятельность, образовательная деятельность.

Abstract: This article discusses the phases of the educational process. The phases of the educational process hold significant importance in pedagogy. The article also reflects on the views of pedagogical scholars regarding the organization of the phases of the educational process.

Key words: Educational process, didactic phenomenon, phases of the educational process, traditional concept, modern concept, teaching activity, learning activity.

Kirish. Ta'lim jarayoni davriyligini tadqiq qilish dolzarbligi ta'lim tizimlarining rivojlanishiga, innovatsion metod va texnologiyalarni qo'llashga, hamda ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga bog'liqdir. Ushbu mavzu ta'lim jarayonida yuz beradigan o'zgarishlarni tahlil qilish va ularga mos ravishda ta'lim metodlarini takomillashtirishga yordam beradi. O'zbekistonda ta'lim tizimi keng o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda, va ta'lim jarayoni davriyligi bu o'zgarishlarga moslashish uchun muhim omil hisoblanadi. Yangi pedagogik yondashuvlar, metodikalar, va raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqmoqda, bu esa ta'limning sifatini oshirishga yordam beradi.

Tadqiqot, shuningdek, ta'lim jarayonining qaysi davrlarida o'zgarishlar ko'proq ro'y berishini, qanday faktorlar ta'lim tizimiga ta'sir qilishini o'rganishga imkon beradi. Bu esa ta'lim tizimlarini samarali tashkil etishga va ta'lim resurslarini yanada yaxshiroq taqsimlashga yordam beradi. Bundan tashqari, ta'lim jarayonining davriyligi o'quvchilarning muvaffaqiyatlari, pedagogik yondashuvlar va natijalarni baholashda ham muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim jarayonida shunday vazifani, birinchi navbatda, didaktika fani bajarishi zarur. U ta'lim mazmunini yangilash va takomillashtirish, davlat ta'lim standartlarini bolalarning to'liq o'zlashtirishlariga erishish vositalari, tamoyillarini izlash, o'quv-tarbiya jarayonini kompleks o'rganish, ta'limning zamonaviy vositalari, tashkiliy shakllarini asoslash, bolalarda bilim va bilishga ehtiyojlarini tarbiyalash kabi muammolar bilan shug'ullanishi darkor. Bu muammolarning barchasi ta'lim jarayonida amalga oshiriladi. Ta'lim jarayoni didaktika sohasida o'tkaziladigan tadqiqotlar, sinab ko'riladigan vosita, prinsip, tashkiliy shakllar uchun manba sanaladi.

Adabiyotlar tahlili. Y.A.Komenskiy ta'lim jarayonining uzluksizligi va bosqichma-bosqich rivojlanishini ta'kidlagan. U o'zining "Didaktika buyuk" asarida ta'lim jarayonining bosqichlarini belgilab bergan va ta'limning tabiiy davriyligi haqida asosli g'oyalar ilgari surgan. L.Vigotskiy ta'lim jarayonida bolaning psixologik rivojlanish bosqichlariga katta e'tibor qaratgan. Uning "Yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi ta'lim jarayonining davriyligini tashkil qilishda asosiy tamoyillardan biri hisoblanadi.

Piajye o'zining kognitiv rivojlanish nazariyasida ta'lim jarayonida bola rivojlanishining bosqichlarini batafsil tahlil qilgan. U ta'lim jarayonida yosh xususiyatlariga mos bosqichlarni ajratib ko'rsatgan.

A.L.Leontev faoliyat nazariyasini ishlab chiqqan va ta'lim jarayonining davriy xususiyatlarini amaliy faoliyatga bog'liq holda o'rgangan. U o'quv faoliyati va uning bosqichlarini tadqiq qilgan.

K.Zaripov, O.Roziqov, B.Adizov, Sh.Olimov va boshqa O'zbekistonlik pedagoglar ham ta'lim jarayonining davriyligi va uning rivojlanishiga oid tadqiqotlarni amalga oshirgan. Jon Dyui ta'limni ijtimoiy jarayon sifatida ko'rib chiqib, uni o'quvchilarning tajribasi va ehtiyojlariga asoslangan bosqichlarga bo'lib o'rganishni ilgari surgan. Benjamin Blumning ta'lim maqsadlarini taksonomiyasi (Bloom's Taxonomy) ta'lim jarayonini bosqichlarga ajratish va maqsadlarni aniqlash uchun keng qo'llaniladi.

Muhokama va natijalar. Hozirgi paytda didaktika sohasida faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislarning ayrimlari ta'limni o'qitish faoliyati tizimi shaklida tavsif qilishsa, ba'zi birlari ta'limni ikki sub'ekt-o'qitish va o'qish faoliyatlarining o'zaro ta'siridan shakllanadigan shirkat, shu bilan birga, hosila faoliyat sifatida sharhlaydi. Didaktika fanida ta'limni o'qitish metodlari tizimi shaklida, bolalarning bilim, ko'nikma, malakalarni egallashlari ma'nosida qarashlar ham mavjud.

Davriylik tabiat, jamiyat va ong hodisalarida amal qiladigan umumiy qonuniyatdir. U jarayonlarning uzluksiz takrorlanishini ta'minlash bilan birga, ularning rivojlanishiga ham ko'maklashadi. Masalan, fasllar almashinuvi tabiatda davriylik qonuniyatiga asoslanib, qishdan keyin bahor, bahordan keyin esa yoz keladi. Bu davriylik qonuniyati, shuningdek, insoniyatning har bir faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Maktabdagi ta'lim jarayoni ham o'zining maxsus davrlariga ega bo'lib, har bir bosqichda o'qitishning maqsad va vazifalari, usul va shakllari o'zgarib turadi. Ammo, bu masalaga alohida e'tibor berilgan bo'lsa-da, ta'lim jarayonining davriyligi haligacha didaktikada mustahkam tahlil qilinmagan va mustaqil, chuqur ilmiy tadqiqotlar predmeti sifatida aniqlanmagan.

Psixologik va didaktik tadqiqotlarda "davriy boshqaruv", "didaktik davr", "o'qitish davri" kabi atamalar ko'p ishlatiladi. Bularning har biri o'qitish jarayonining muayyan bosqichi yoki fazasini anglatadi. Lekin bu atamalarning mazmunlari va ularning o'zaro aloqasi, shuningdek, har birini o'ziga xos va chuqurroq tushunish uchun kerakli bo'lgan tahlillar, umuman, to'liq va aniq tasdiqlangan emas. Bu atamalarni aniqlash va ularning mazmunlarini kengaytirish, ta'lim jarayonining rivojlanishini tushunish va tartibga solishda muhim rol o'ynaydi. Shunga ko'ra, ushbu atamalarning har biriga alohida ilmiy va didaktik tahlillar o'tkazish talab etiladi, bu esa o'z navbatida ta'lim nazariyasi va amalining rivojiga katta hissa qo'sha oladi.

M.A.Danilov "ta'lim jarayoni logikasi", "ta'lim jarayonining harakatlantiruvchi kuchlari", "ta'lim jarayoni zvenolari" kabi bir qator atamalarni ilmga kiritgan. Uning ta'kidlashicha, "ta'lim jarayoni logikasi" - bu o'quv predmeti mazmuni va uni o'zlashtirish psixologiyasining o'zaro integratsiyasidan tashkil topadi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarga beriladigan topshiriqlar, muammolar, mustaqil ishlar va intellektual yoki amaliy vazifalar, ularning murakkabligi va qiyinchiligi orqali o'quvchilarning ongida bilish ziddiyatlarini paydo qiladi. Bu qiyinchiliklarni his qilish va ularni bartaraf etishga intilish, o'quvchilarni mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va tafakkurni rivojlantirishga yordam beradi. Har qanday ta'lim jarayonidagi ziddiyatlar rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchidir. Ta'lim zvenosi esa, ta'lim jarayonining harakatdagi tarkibiy qismi bo'lib, uning alohida bo'lagi sifatida, ta'limning spiralsimon xarakterini aks ettiradi.

Ta'lim jarayoniga oid turli qarashlar orasida o'ralashib qolmaslik, pedagogik izlanishni tadqiqot predmetiga yo'naltirish maqsadida ta'lim jarayoniga oid yondashishimizni belgilaymiz[1], didaktik hodisalar tizimida ta'lim jarayoni davrlarining mohiyatini tavsiflaymiz[2], ta'lim jarayoni davrlarini ajratish mezonlarini[3] aniqlaymiz. Tadqiqotni shu tartibda o'tkazish umumiydan-tadqiqot ob'yektidan xususiyga-tadqiqot predmetiga tomon

siljishini osonlashtiradi. Zero, tadqiqot predmetini-ta'limning davriy harakatini atroflicha anglash ta'lim jarayoni mohiyatini mukammal o'rganishimizga ko'p jihatdan bog'liq. Negaki, "yaxlit tasavvur etilgan tadqiqot predmeti sub'ekt va ob'yekt o'rtasida biriktiruvchi- hakam vazifasini o'taydi. Tadqiqot predmeti doirasida sub'ekt-tadqiqotchi ob'ekt-o'rganiladigan soha bilan muloqot qila oladi".

Konsepsiya lotincha "sonceptio" so'zidan olingan bo'lib, o'zbekcha "fikir", "fikrlash", "tushuncha", "tushunish", "tushunish tizimi", "tushuntirish", "g'oya", "qarash" ma'nolarini anglatadi. Shundan kelib chiqilsa, tabiat, jamiyat, ong hodisalarini tushunish va sharhlashda rioya qilinadigan qarash, g'oyalar majmui konsepsiya deb ataladi [4]. Keltirilgan ta'rifni-definitsiyani ta'lim jarayoniga ham ko'chirish mumkin: didaktik konsepsiya-bu ta'lim jarayoni mohiyatini tushunish va tushuntirish-izohlashda (o'z nuqtai nazarini himoya qilishda) rioya qilinadigan qarashlar, g'oyalar tizimidir.

Didaktik konsepsiyalar ikki jihatdan ahamiyatga ega: ilmiy qimmat – didaktik hodisalarni o'rganish, tadqiq qilish jarayonlarida tanlangan konsepsiya bo'yicha izlanishni o'tkazish. Tadqiqotchi shu yo'l bilan o'zi tanlagan nuqtai nazar-konsepsiya doirasida faoliyat ko'rsatadi, uni yangi fakt, qonuniyat, tamoyillar bilan boyitadi; amaliy qimmat-o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish, boshqarish va nazorat qilishda u yoki bu g'oyaga rioya qilib, ta'limni tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish.

Ta'lim jarayoni to'g'risidagi qarashlarni shartli ravishda an'anaviy qarash, zamonaviy qarash tarzida ikki guruhga ajratish mumkin.

Ta'lim jarayonining an'anaviy konsepsiyasi va unga oid pedagogik amaliyot bolani, uning o'quv-biluv faoliyatini ta'limning predmeti-ob'yekti sifatida tasavvur etishga asoslangan. An'anaviy ta'lim nazariyasi va unga oid pedagogik amaliyot o'quvchilar xotirasiga mo'ljallangan bo'lib, unda ta'lim maqsadlarini amalga oshirishda bolalar faolligi ma'lum ma'noda to'lig'icha tan olinmaydi. Bunday qarash didaktika fanining asoschisi Ya.A.Komenskiydan tortib, hozirga qadar davom etib kelmoqda. O'quvchiga, uning faoliyatiga toza doska-tabula rasa, xomashyo sifatida qarash butun dunyo mamlakatlari pedagogikasi, pedagogik amaliyotiga shunchalik singib ketganki, hatto zamonaviy pedagogik texnologiya namoyandalari, ilg'or o'qituvchilar ham shu g'oya doirasidan chiqib ketisha olmayapti.

Ta'lim jarayonining zamonaviy konsepsiyasi va unga oid pedagogik amaliyotda o'quvchiga, uning o'quv-biluv faoliyatiga ta'limning sub'yektlaridan biri sifatida qarash demakdir. Bu qarash o'tgan asrning 70-yillarida Yu.K.Babanskiy tadqiqotlarida ko'zga tashlangan edi. U ta'lim jarayoni mohiyatini tavsiflashda o'qitish va o'qish faoliyatlarining o'zaro ta'siridan kelib chiqqan edi. Yu.K.Babanskiyning ilmiy-pedagogik tadqiqotlarida o'qitish va o'qish faoliyatlarining o'zaro ta'siri o'rganilib, ta'lim jarayoni tarkibiy qismlari, o'quv-tarbiya jarayoni bosqichlari, ta'limni optimallashtirish muammolari o'rganildi.

"Ta'lim jarayoni,-deb yozgan edi Yu.K.Babanskiy, - o'qitish va o'qishning oddiy yig'indisi bo'lmay, aksincha, ta'lim vazifalarini amalga oshirishdagi butunlay yangi, yaxlit hodisadir". Mutaxassislar ta'lim jarayonini atroflicha o'rganish uchun uning tarkibini tahlil qilishadi, akt, bosqichlarini ta'limning qadamlari shaklida qayd etishadi. "Har bir qadam miniatyuradagi ta'limdir". Yu.K.Babanskiy ta'lim jarayoni mohiyati to'g'risidagi o'z qarashlarini quyidagicha davom ettiradi: "Jarayonning qadami deganda biz ta'lim bosqichining ma'lum vaqtda boshlanishi va yakunlanish sikli-davrini anglaymiz".

Ta'limning har bir qadamida o'qituvchi va o'quvchining o'zaro ta'siri boshqarilib, ma'lum didaktik vazifa hal qilinadi. Ta'lim akti yoki bosqichi uning birgina tipik "universal qadamidir". Ta'limning "universal qadami" tushunchasini nazarda tutib, Yu.K.Babanskiy ta'lim jarayonining tubandagi oltita bosqichini ajratgan:

- 1) ta'limning maqsadi, vazifasini o'rganish;
- 2) ma'lumot mazmunini sinf o'quvchilari real o'qish imkoniyatlariga mo'ljallab tahlil qilish;

3) ta'lim vositalarini rejalashtirish, ta'lim metodlari, tashkiliy shakllarini optimal shakllantirish;

4) o'qituvchi va o'quvchining o'zaro ta'sirini tashkil etish;

5) joriy nazorat;

6) ta'limning ma'lum bosqichida erishilgan natijalarini tahlil qilish .

Ular orasida 4-zveno markaziy o'rinni egallaydi .Shunday qilib, Yu.K.Babanskiy ta'lim jarayoni mohiyatini bayon qilishda katta tizim-"ijtimoiy vazifa va ta'lim jarayoni" bog'lanishidan kelib chiqqan. Fikrimizcha, Yu.K.Babanskiy ajratgan zvenolarning 1-3-si ta'limni rejalashtirish, 4-6-si esa bevosita ta'lim jarayoni bilan daxldor hodisalardir.

O'tgan asrning 70-yillariga kelib, ta'limni ikki sub'ektning-o'qitish va o'qishning o'zaro ta'siri sifatida qarash odat tusini ola boshladi. Bu g'oya, bizning kuzatishimizcha, dastavval V.V.Kraevskiyning ilmiy izlanishlarida asoslandi. Uning ta'kidlashicha, "ta'lim" kategoriyasini quyidagi darajalarda tasavvur etish mumkin. Ta'lim:

-umumiy pedagogika darajasida ijtimoiy tajribani yosh avlodga berishning alohida nuqtai nazari;

-didaktika darajasida ma'lumot mazmunini o'rgatish faoliyatida o'qitish va o'qishning birligi, o'zaro ta'siri;

-metodika darajasida o'quv predmeti materiallarida o'qitish va o'qish faoliyatlarini amalga oshirish majmui;

-psixologiya darajasida o'qituvchi va o'quvchi o'zaro ta'sirning majmui bo'lib, uning natijasida bolalarning psixikasi, intellekti rivojlanadi .

Shunday qilib, V.V.Kraevskiyning didaktik qarashlarida ta'lim o'qitish va o'qish faoliyatlari o'zaro ta'siridan shakllanadigan, ikki sub'ekt-o'qitish va o'qish faoliyatlarining bir-biri bilan uyg'unlashuvida amal qiladigan ijtimoiy institut shaklida izohlana boshlanadi.

Yu.K.Babanskiy, V.V.Kraevskiy didaktik qarashlarida asoslangan konsepsiya prof.O.R.Roziqov izlanishlarida davom ettirdi. U, avvalo, ta'limni jarayon sifatida sharhlar ekan, "jarayon" tushunchasining o'zini aniqlaydi: inson tafakkurining o'rganilayotgan ob'ekt bilan duch kelishi jarayon deb belgilanadi. Ta'limni "makon va zamon kontekstida tasavvur etib "ta'lim jarayoni" tushunchasi ishlatiladi. Ta'lim jarayonining zuhur etishi va amal qilishi ikki daxldor faoliyatning ishtirokini mutlaqo taqozo qiladi"

Ta'lim jarayoni tarkiban uchta: o'qitish faoliyati; o'qish faoliyati; bolalarning yoshi, real o'qish imkoniyatlariga mos o'quv materiallari kabi doimiy bog'lanishlardan iborat.Shular asosida ta'lim jarayoni davrlari tashkil qilinadi . Pedagogik texnologiyada ta'limning davriyligi markaziy muammolardan biri hisoblanadi. Ta'limning davrlarini o'rganish, ularni ajratish mezonlarini aniqlash, bir davrni keyingisidan farqlash yo'llarini ishlab chiqish, shubhasiz, o'quv ishlari davrlarini qat'iy chegaralash qator yutuqlarga olib keladi: har bir davr uchun yaroqli ta'lim vositalarini tanlash imkoniyatlari kengayadi; davrdan davrga o'tgan sari bolalar o'zlashtirishi o'rtasidagi vorislik- o'zlashtirilgan va endi o'zlashtiriladigan bilimlar o'rtasidagi aloqadorlik ta'minlanadi; u yoki bu o'quv materialini to'liq o'zlashtirish uchun zaruriy takrorlash chegarasi aniqlanadi; ta'limning optimal kechishi-harakati uchun shart-sharoit yaratiladi.

O'qish va o'qish maqsadlarining ta'lim akt, bosqichlarida o'zaro tutashgan ko'rinishlardan, o'qitish vositasi va o'qish vositasining bir-biri bilan muvofiqlashishidan, didaktik hodisalarning amal qilish yo'li bilan erishilgan natijalardan kelib chiqib ta'lim jarayoni davrlarini farqlash mumkin.

Ta'lim jarayonining davriyligiga doir tushuncha, ta'limning muayyan bosqichlarda, muayyan maqsadlarga erishish uchun tashkil etilishi va amalga oshirilishiga oiddir. Bu, o'z navbatida, o'qituvchining o'quvchilarga bilim va ko'nikmalarni berish, ularni o'sish va rivojlanish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish jarayonini ifodalaydi. Davriylik ta'lim jarayonining bir tizimdagi katta bosqichlari, ularning o'zaro aloqasi va amalga oshirilishini nazarda tutadi.

Davriylik pedagogik jarayonni sifatli va aniq tashkil etish uchun muhimdir. U o'quvchilarning belgilangan bosqichlarga yetkazilishini, har bir bosqichning maqsadga muvofiqligini, bilim va ko'nikmalarning rivojlanishini ta'minlaydi. Bu davrlar o'z navbatida vaqt, o'quv mavzui va talablarga moslashgan tartibda amalga oshiriladi.

Xulosa. Ta'lim jarayoni davriligini tadqiq qilish, pedagogika sohasidagi muammolarni hal qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotda ta'lim jarayonining bosqichlarga bo'linishi va ularning tashkil etilishidagi kontseptual yondashuvlar tahlil qilingan. Ma'lum bo'lishicha, ta'lim jarayonidagi har bir davr pedagogik jarayonning aniq maqsadlari, usullari va shakllariga asoslanib, o'quvchilarning psixologiyasi va ishlash faoliyatiga moslashtirilgan.

Yu.K.Babanskiy va V.V.Kraevskiyning tadqiqotlarida ta'lim jarayonining ikki sub'ekt – o'qitish va o'qish faoliyatlari o'zaro ta'siri asosida tashkil etilgani ko'rsatilgan. Shunga muvofiq, ta'lim jarayonini aniqlash va tahlil qilish uchun ta'limning har bir davrining o'zgacha xususiyatlari va vazifalarini belgilash muhimdir.

Shuningdek, ta'lim jarayonining zamonaviy kontseptsiyasi va metodikasi o'quvchi va o'qituvchining o'zaro ta'sirini nazarda tutadi. Ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun, davrlarning ichidagi tafovutlarni aniqlash va har bir davrning maqsadlarini belgilash muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot davomida ta'lim jarayonining davrililigini to'liq va aniq tushunish, ta'lim tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Казанский Н.Т., Назарова Т.С. Дидактика (начальные классы). -М.: Просвещение, 1987. –с. 190
2. Бабанский Ю.К. Проблемы повышения эффективности педагогических исследований. – М.: Педагогика, 1982. -192 б.
3. Розиков ва бошқалар. Таълим технологияси. –Т.: Ўқитувчи, 1999. – 71 б
4. Рўзиев М. Таълим жараёни даврларида ўқувчилар ўзлаштиришини бошқариш. – Тошкент. “Узлуксиз таълим” ж. 2005. 6-сон. -55-60-бетлар.
5. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Тошкент, “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2003. -23 б.
6. Рузиев М. К. Значение кружков в обучении русскому языку учащихся дошкольного образования //Экономика и социум. – 2024. – №. 2-2 (117). – С. 614-617.
7. Рузиев М. К. Таълим жараёнида янги педагогик технологиялардан фойдаланишнинг психологик имкониятлари //Psixologiya Учредители: Бухарский государственный университет. – №. S2. – С. 50-52.
8. Жураев Б. Т. Деятельность педагога по гуманизации учебно-воспитательного процесса //Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в.: материалы междунар. науч.-творч. форума. – 2017. – Т. 31.
9. Davronov I. E., Jurayev B. T. Pedagogika va psixologiya fanlarini o'qitish metodikasi //B.: Durdona. – 2019.

Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi,
Oriental universiteti Uzluksiz ta'lim
pedagogikasi kafedrası v.b., dotsenti
muqaddasfarangiz91@gmail.com

SPELLING AND SPELLING LITERACY IN PRIMARY GRADES

Abstract: This article develops proposals and recommendations for improving spelling literacy in native language lessons for future primary school teachers. The teacher should pay more attention to the application of theoretical knowledge, regardless of the topic that students study. We teach each pure topic in the program, accustom them to it, and with the help of those works, we form their confidence and develop their minds. Since the grammatical concept given to the child is mainly abstract, it is necessary that the lesson be demonstrative. In particular, the use of technical tools, pictures, tables, and card files in accordance with the purpose of the lesson is one of the main conditions for the effective conduct of the lesson.

Key words: word combinations, spelling, adjective, verb, phonetic, morphological, orthographic, primary school, skill, lexical-grammatical, sentence.

Аннотация: В данной статье разработаны предложения и рекомендации по повышению орфографической грамотности на уроках родного языка будущих учителей начальных классов. Преподавателю следует уделять больше внимания применению теоретических знаний по любому предмету, который изучают ученики. В рамках программы мы обучаем каждому чистому предмету, привыкаем к нему, укрепляем уверенность и развиваем сознание с помощью этих занятий. Поскольку грамматическое понятие, данное ребенку, по большей части абстрактно, то урок должен быть демонстративным. В частности, использование технических средств, рисунков, таблиц, карточек в соответствии с целью урока является одним из главных условий эффективного прохождения урока.

Ключевые слова: словарный запас, орфография, прилагательное, глагол, фонетический, морфологический, орфографический, начальный класс, навык, лексико-грамматический, предложение.

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ona tili darslarida imlo savodxonligini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqish. O'qituvchi o'quvchilar qaysi mavzuni o'rganmasin, nazariy bilimlarini qo'llashga ko'proq e'tibor qaratishi kerak. Dastur hajmida har bir sof mavzuni o'rgatib, unga ko'niktirib, o'sha ishlar yordamida ishonchini shakllantirib, ongini rivojlantiramiz. Bolaga berilgan grammatik tushuncha asosan mavhum bo'lgani uchun darsning ko'rgazmali bo'lishi shart hisoblanadi. Jumladan, dars maqsadiga muvofiq texnik qurollar, rasmlar, jadvallar, kartotekalardan foydalanish darsning samarali o'tishining asosiy shartlaridan biridir.

Kalit so'zlari: so'z birikmalari, imlo, sifat, fe'l, fonetik, morfologik, orfografik, boshlang'ich sinf, ko'nikma, leksik-grammatik, gap.

Kirish. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida umumiy o'rta ta'lim sifatini takomillashtirish, yosh avlodning ijodkorlik va intellektual potensialini qo'llab-quvvatlash va amalga oshirish hamda ruhiy va aqliy jihatdan rivojlangan, erkin fikrlovchi, vatanga sodiq, mustahkam hayotiy dunyo-qarashga ega yoshlarni tarbiyalashda ona tili o'qitishni takomillashtirish ham nazarda tutilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. So'nggi yillarda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ona tili o'qitish metodikasi xususan, og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish, imlo savodxonligi bo'yicha bir qancha ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borildi. Jumladan, respublikamizda boshlang'ich sinf ona tili o'qitish metodikasi bo'yicha T.G'afforova, A.Umarov, R.Joldasov, S.Jarsonov, H.Baqieva, E.Berdimuratov, N.A.Urumbaev, N.Bekniyazova, A.Nauruzbaeva, S.Tajbenova, A.Sultanova, M.Asqarova A.Najimovalarning

ilmiy ishlarida hamda rivojlangan chet davlatlarning tilshunoslikka, til o'qitish metodikasiga oid ilg'or tajribalari aks etgan fan va zamonaviy axborot texnologiyalari asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tayanch va fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari dolzarb muammo sifatida tadqiq qilingan.

- **Tadqiqot metodologiyasi.** Pedagogik kuzatuv, ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, savolnoma, suhbat, umumlashtirish, tajriba-sinov, matematik statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

- **Tahlil v natijalar.** Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini fonetik, morfologik, stilistik, punktuatsion va husnixatga oid grammatik tushunchalar, ijodiy mashqlar yordamida imloviy savodxonlikni rivojlantirish metodikasi ona tili ta'limi jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.

Imloni o'qitish deganda o'quvchilarda imlo qobiliyatlari va ko'nikmalarini shakllantirish tushuniladi.

Pedagogik psixologiya, umumiy didaktika va individual metodikalarda o'quvchilarga bilim berishda qobiliyat va ko'nikmalarini shakllantirish mashqlariga katta ahamiyat beradi.

P.V. Kopninning fikriga ko'ra, bu insonning bilim va nazariy materiallarni o'zlashtirish orqali hosil bo'lgan fikrlari to'plami.

Qobiliyat – bu olingan bilimlarni amaliyotda qo'llay olish bo'lsa, ko'nikma – o'sha qobiliyatni avtomatlashtirilgan tarzda qo'llay olishdir.

O'qish jarayonida o'quvchilar quyidagi bir-biri bilan bog'langan bosqichlar orqali bilim, ko'nikma va qobiliyatlarga ega bo'ladilar.

I-bosqich. Bu bilim, qobiliyat va ko'nikmalarni egallash va qabul qilishdan boshlanadi. Qabul qilish bitta maqsadga qaratilgan, bitta maqsad bilan amalga oshiriladi. Shuning uchun o'quvchilarga mavzu, darsning maqsadi, kelgusidagi vazifalar tushuntiriladi. Ular nazariy, amaliy va psixologik jihatdan tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishga har tomonlama tayyor. O'quvchilar o'quv materiallari bilan tanishadilar, obyektlar va hodisalarni kuzatadilar, tajribalar o'tkazadilar va hokazo.

O'quvchilarning bilim olishda qatnashadigan sezgi organlarining imkoniyatlari turlicha. Olimlarning aniqlashicha, bizni o'rab turgan narsa va hodisalar haqidagi ma'lumotlarning 90 foizi ko'rish, 9 foizi eshitish, 10 foizi boshqa sezgi organlari orqali o'zlashtiriladi.

Bu fikrni "Yuz marta eshitgandan, bir marta ko'rgan afzal" degan xalq hikmati tasdiqlaydi.

Sezgi orqali bilish imkoniyati cheklangan bo'ladi. Narsa va hodisalarni idrok etish orqali ularning mazmuni, o'zaro bog'liqligi va qonuniyatlarini ochib bera olmaymiz.

Idrok etish narsa va hodisalarning ma'nosi, o'zaro bog'liqligi va qonuniyatlarini anglash va tushunishni anglatadi. O'qigan boshqa, har bir o'zlashtirilgan narsaning ma'nosini tushungan boshqa.

O'quvchi materialni o'qigan bo'lishi mumkin, lekin uning ma'nosini tushunmagan bo'lishi mumkin. Buning uchun o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va qobiliyatlar bevosita o'quvchilar ishtirokida tanlanadi, tuziladi, solishtiriladi, asosiy fikrlar topiladi, yangi tushunchalar aniqlanadi.

II - bosqich. Ta'lim jarayonida o'zlashtirish va tushunishga katta e'tibor beriladi. Chunki sezish va idrok etish bilan barcha narsani bilish qiyin. O'zlashtirish, tushunish va fikrlash orqali biz narsa va hodisalarning ma'nosini chuqur, to'liq va to'g'ri aniqlash imkoniyatiga ega bo'lamiz. Tushunilgan materiallar juda oson yodlanadi va saqlanadi.

Ushbu bosqichning asosiy vazifasi o'quvchilarning o'rganilgan bilim, ko'nikma va qobiliyatlarni yodda saqlashi va ularni mustahkam o'zlashtirishga erishishidan iborat. Buning uchun barcha turdagi og'zaki va yozma mashqlar bajariladi, darsda o'quvchilar tomonidan o'ylab topilgan misollar, masalalar, testlar yechiladi, amaliy va tuzatish ishlari bajariladi, mustaqil topshiriqlar bajariladi.

Tushunchalar, teorema va qoidalar takrorlanadi, ularning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi va amaliyotda qo'llanilishiga e'tibor kuchaytiriladi.

O'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirmasdan va tushunmasdan turib yodlab olishlarini oldini oladi.

O'quvchilar xotirasini faollashtirish uchun qo'shimchalar, matnlar, maqollar, topishmoqlar, teoremlar, qoidalar yodlanadi.

III-bosqichning asosiy belgisi nazariy bilim, ko'nikma va qobiliyatlar o'quvchilar tomonidan mashqlarni bajarish paytida qo'llaniladi.

Zamonaviy metodikada imlo savodxonligining birligi – bu orfogramma, ya'ni bolaning yozgan narsasini tekshirish qobiliyatidir. So'z va matnlarda orfogrammani topish birinchi sinfdan boshlanadi.

Orfografiyani tekshirishning maqsadi orfogrammani ko'rish va fahmlash qobiliyatini aniqlashdir. Ushbu operatsiyani bajarish uchun o'quvchi grammatik va orfografik qoidalar bo'yicha aniq bilimlarni ko'rib chiqishga tayyor bo'lishi uchun katta xotiraga ega bo'lishi kerak.

Orfogrammani fahmlash va solishtirish jarayoni tez bo'lishi kerak. Negaki o'quvchi o'z diqqatini yozuvdan boshqa yoqqa burmasligi kerak.

Grafika va orfografiyani egallash savodli yozishni shakllantirishning zarur shartidir. Imloga o'qitish deganda o'quvchida imlo ko'nikma va qobiliyatlarining paydo bo'lishi tushuniladi.

Metodist M.R.Lvov imlo ko'nikmalari paydo bo'lishining quyidagi omillarini ajratadi:

- 1) motivatsion bosqich: fikrni yozma ifodalash zarurligi;
- 2) hayotiy vaziyat so'zlarini tekshirish zaruratining paydo bo'lishi;
- 3) masalani yechish yo'lini izlash: grammatik asoslash, qoidalarga tayanish, algoritmi tushuntirish;

- 4) ushbu yechim uchun algoritmi yaratish (loyiha, operatsiyalar tartibi), algoritmi bosqichlari bo'yicha o'rtacha tekshirish ("bosqichlar bo'yicha") (operativ, ijro etuvchi nazorat);

- 5) harakatni qoida bo'yicha bir necha marta takrorlash (harakatni barcha turdagi o'zgartirilgan sharoit va variantlarda bajarish) asta-sekin qiyinchilikni oshirish orqali;

- 6) avtomatlashtirilgan elementlarning paydo bo'lishi, treninglar orqali avtomatlashtirishning tezlashishi;

- 7) yuqori yoki past avtomatlashish darajasining paydo bo'lishiga erishish, o'z-o'zini tekshirish, o'z-o'zini nazorat qilish va xatolarni qayd qilishni kuchaytirish;

- 8) barcha hayotiy vaziyatlarda erkin avtomatlashtirilgan yozuvga erishish, bor e'tibor yozib olingan obyektning mazmuniga qaratiladi.

Shu tariqa, imlo qobiliyati avtomatlashtirilgan harakatga, ya'ni ko'nikmaga aylanadi.

Rus olimi M.R.Lvovning imloviy qobiliyat bosqichlari M.S.Soloveychikning motivatsion bosqichidan ajratilgan. Mualliflarning ta'kidlashicha, "Orfografiyani qabul qilish qiyin va ko'p bolalar uchun qiyinchilik tug'diradi". Shuning uchun orfografiyani o'rgatishda ko'plab usullardan foydalanishni tavsiya etadi.

Xulosa qilib aytganda, imlo ko'nikmalarini egallash uchun boshlang'ich sinf o'quvchisi orfogrammalarni topa olishi, qoidalardan foydalanishi, imloni tekshira olishi kerak.

Imlo ko'nikmalarining paydo bo'lishi savod oshish davridan boshlanadi. Bu vaqtda o'quvchilar nutq so'zlardan, so'z esa bo'g'in va tovushlardan iborat ekanligini tushunadilar va qabul qiladilar. Bunday paytlarda bo'g'in va tovushlarni ajrata olish juda muhimdir.

Boshlang'ich sinflarda ona tilidagi fikr va mazmunni so'z va gaplar shaklida ifodalashga alohida e'tibor beriladi. Buning sababi, nutq va so'z tuzilishi mazmun bilan bog'liq. Mantiqiy mashqlar jarayonida o'quvchilar imlo savodxonligiga oid ma'lumotlarni amalda atamalarsiz o'zlashtiradilar, bog'lovchi nutqqa oid tushunchalarni solishtirish va taqlid qilish ko'nikmasiga

ega bo'ladilar. Natijada ijtimoiy hayotdagi roli tegishli bilimlar, imlo va stilistik tushunchalar yordamida shakllanadi.

Shunda ona tili metodikasining ilmiy asosi grammatika ekanligi oydinlashadi. Shuning uchun imlo savodxonligiga ta'rif berilar ekan, "Orfografiya – so'zlarning badiiy adabiyotga oid ma'nosini mantiqiy jihatdan bir xil shaklda yozish" deyilishi maqsadga muvofiq. To'g'ri yozish nafaqat ta'lim uchun, balki ijtimoiy nuqtai nazardan ham muhim ahamiyatga ega. Dastlab, savodli yozilgan matn bosma shaklda yozilgan matn kabi o'qishni osonlashtiradi, to'g'ri, tez va tushunarli o'qishni ta'minlaydi. Savodsiz matnni o'qish uchun ko'p vaqt va kuch talab etiladi.

O'quvchilarni savodli yozishga, intonatsiya belgilaridan to'g'ri foydalanishga o'rgatish boshlang'ich sinflar ona tili ta'limida o'qituvchidan nazariy bilimlarni chuqur egallashni talab qiladi. Chunki nazariy bilimlarni o'zlashtirmasdan turib, til qurilishi haqida fikr yuritib bo'lmaydi. Ma'lumki, nutqda to'g'ri yozish har doim ham og'zaki talaffuzga mos kelmaydi. Shuning uchun yozishda xatolikka yo'l qo'ymaslik uchun so'zning har bir morfema qismini qanday, qachon va qayerda yozishni bilish talab etiladi.

Bundan ma'lum bo'ladiki, grammatika so'z bo'laklarini to'g'ri yozishning asosi hisoblanadi. Shuning uchun orfografiya grammatik va mantiqiy fikrlash bilan chambarchas bog'liq. Boshqacha qilib aytganda, orfografiyani o'zlashtirish grammatikani o'zlashtirish demakdir. Masalan, "bog'ga" so'zini "boqqa" shaklida, "ishdan" so'zini esa "ishtan" shaklida yozmaslik grammatik qoidalar bilan belgilanadi.

O'zbek tilining orfografiyasini o'zlashtirishda alohida qiyinchiliklar mavjud. Bu qiyinchiliklarning sabablari nimada va nega imloni moslashtirish jarayoni uzoq davom etmoqda? Buning sabablaridan biri sifatida yaxshi yozish tamoyillarining xilma-xilligini ko'rsatish mumkin. So'zlarning to'g'ri yozilishining asosiy mezonlari ularning talaffuzi va yozilishini bir-biriga yaqinlashtirishdir. Talaffuz va yozish o'rtasidagi nomuvofiqlik tufayli so'zlarni yozishda imlo tamoyillaridan foydalaniladi. O'zbek tilida so'zlarni to'g'ri yozishda qo'llaniladigan tamoyillar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Fonetik tamoyil – so'zlarni talaffuziga ko'ra, ya'ni talaffuziga asoslanib yozish. Bu tamoyilga ko'ra so'zlar va so'z tarkibidagi affiksalar qanday talaffuz qilinsa, xuddi o'shanday yoziladi. Masalan, 1) *ong* so'ziga *-la* affiksini yoki *son* so'ziga *-a* affiksini qo'shish bilan yasalgan so'zlar *ongla* yoki *sona* tarzida emas, *angla*, *sana* tarzida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi; 2) oxiri *a* unlisi bilan tugagan so'zlarga *v* yoki *q* undoshi bilan boshlanadigan affiksalar qo'shilganda, *a* unlisi *o* tarzida aytiladi va shunday yoziladi: *tanlov* (*tanla+v*), *ishlovchi* (*ishla+vchi*), *taroq* (*tara+q*), *qaynoq* (*qayna+q*), *sayroqi* (*sayra+qi*); 3) oxiri *i* unlisi bilan tugagan so'zlarga *v* undoshi bilan boshlanadigan affiksalar qo'shilganda, *i* unlisi *u* tarzida aytiladi va shunday yoziladi: *o'quv* (*o'qi+v*), *to'quvchi* (*to'qi+vchi*); 4) *q* yoki *k* undoshi bilan tugagan so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, *q* undoshi *g'* tarzida, *k* undoshi *g* tarzida aytiladi va shunday yoziladi: *qishlog'i* (*qishloq+i*), *etagi* (*etak+i*); 5) *o'g'il*, *og'iz*, *singil*, *burun*, *zahar*, *shahar* kabi so'zlarga egalik affiksarlari qo'shilganda, ikkinchi bo'g'indagi *a, i, u* unililari talaffuzda ham, yozuvda ham tushib qoladi: *o'g'li*, *burni*, *shahri* kabi.

Ko'rinadiki, orfografiyaning fonetik tamoyili yozuvni jonli talaffuzga yaqinlashtiriladi.

2. Tarixiy-an'anaviy tamoyil. Bu tamoyilga ko'ra, boshqa tillardan (masalan, arab, rus yoki rus tili orqali boshqa tillardan) o'zlashgan so'zlar hozir ham o'tmishdagi shakliga muvofiq yoziladi. Masalan: 1) *muomala*, *muhokama*, *munosabat* kabi so'zlar arab tilidan o'zlashgan bo'lib, ularning uchinchi bo'g'indagi *a* unlisi *i* tarzida aytiladi, ammo yozuvda tarixiy-an'anaviy shaklini saqlaydi; 2) rus tilidagi *shyot*, *shyotka* so'zlari o'zbek tiliga *cho't*, *chotka* tarzida o'zlashtirilgan. Bu so'zlarning manba tilda asli qanday yozilishi ma'lum bo'lsa ham, an'anaga muvofiq *cho't*, *chotka* tarzida yoziladi.

3. Morfologik tamoyil – bu tamoyilga ko'ra, so'zlar va ularning tarkibiy qismlari talaffuz qilinishiga qarab emas, asliga muvofiq yoziladi. Masalan: 1) *maktab*, *kitob*, *borib*, *kelib*, *yuzlab*, *kuylab*, *ozod*, *obod* kabi so'zlarning oxiridagi *b* va *d* undoshlari *p* va *t* tarzida aytilsa ham, asliga muvofiq *b* va *d* yoziladi; 2) *bog'bon*, *kaptarboz* kabi so'zlar tarkibidagi yasovchilardan *b* undoshi *v*

tarzida aytilsa-da, asliga muvofiq **b** yoziladi; 3) *shanba, manba, sunbul* kabi soʻzlar tarkibidagi **n** undoshi **m** tarzida aytilsa ham, asliga muvofiq **n** yoziladi; 4) *doʻst, past, sust, farzand, xursand* kabi soʻzlarda yonma-yon kelgan undoshlarning oxirigisi talaffuz qilinmaydi, ammo yozuvda saqlanadi.

Morfologik tamoyil orfografiyaning yetakchi tamoyili sanaladi soʻzlarning orfografiyasi va yozilishi bir turkumdagi soʻz yasash shakllariga asoslanadi. Yaʼni, soʻzning oʻzagi va unga qoʻshilgan qoʻshimchaning maʼnosi bir xil boʻlib, bir xil yozilishi kerak.

4. Differensial tamoyil – bu tamoyilga koʻra, shakli yoki talaffuzi bir xil boʻlgan soʻzlar yozuvda turli shartli belgilar vositasida (yoki baʼzan maʼnoga koʻra) farqlanadi. Masalan: 1) urgʻu vositasida farqlash: *atlas* – mato, *átlas* – geografik atlas, – ot, *fizik* – sifat (fizik hodisalar); 2) unlining qisqa yoki choʻziqligini farqlash: *sheʼr* – *sher*, *taʼna* – *tana*, *daʼvo* – *davo* (*sheʼr*, *taʼna*, *daʼvo* soʻzlaridagi **a** unlisining choʻziqligi ayirish (tutuq) belgisi orqali koʻrsatilgan); 3) boshqa-boshqa tovush ifodalovchi harflar vositasida farqlash: *shoh* – podshoh, *shox* – daraxtning shoxi, *urush* – jang, *urish* – qoʻl bilan urmoq.

5. Shamoyillik tamoyili – bu tamoyilga koʻra, boshqa tillardan (masalan, arab, rus yoki rus tili orqali boshqa tillardan) kirgan soʻzlar oʻzi mansub boʻlgan tildagi shaklini oʻzbek imlosida ham saqlagan holda yoziladi. 1) *ocherk, tonna, kosmos, pochta* kabi soʻzlarning urgʻuli boʻgʻinidagi **o** unlisi oʻzbekcha **oʻ** tarzida aytilsa ham, rus tilidagi shakliga mos ravishda **o** yoziladi. 2) *samolyot, kometa, morfema, direktor, traktor* kabi soʻzlarning urgʻusiz boʻgʻinidagi **o** unlisi **a** yoki **i** tarzida aytilsa ham, rus tilidagi shakliga muvofiq ravishda **o** tarzida yoziladi; 3) *televizor, telefon, gerbariy* kabi ruscha-baynalminal soʻzlarning urgʻusiz boʻgʻinlarida kelgan **e** unlisi **i** tarzida talaffuz qilinadi, lekin rus tilidagi shakliga mos ravishda **e** saqlanadi.

Boshqa tillarda shartli tamoyilda koʻrsatiladi. U ism va familiyalarni, joy, daryo, tashkilotlar va hokazolar nomlarining bosh harf bilan yozilishini oʻz ichiga oladi.

Bu oʻzbek tilida morfologik tamoyilga kiritiladi. Bizningcha, bosh harflar bilan yoziladigan soʻzlardan bosh harflarni ajratgan maʼqul.

Agar har bir oʻquvchining oʻziga xos talaffuzini hisobga oladigan boʻlsak, imlo savodxonligini shakllantirish jarayoni murakkab va uzoq davom etadigan jarayon ekanligini anglash qiyin emas.

Oʻquvchilarning imlo savodxonligiga erishishda quyidagi pedagogik-psixologik omillar ham muhim rol oʻynaydi.

1. Eshitish qobiliyati.
2. Koʻrish analizatori.
3. Qoʻl-harakati xotirasi, motorikasi.
4. Morfologik fikrning rivojlanishi.

Bu omillar oʻquvchilar bilan individual ishlash jarayonida aniqlanadi.

Eshitish qobiliyati koʻpincha savodli yozishni taʼminlamaydi, lekin yozish jarayonida ikkilanishlarni yuzaga keltiradi.

Agar soʻzlar aytilishiga koʻra yozdirilsa, unumli natija bermaydi. Imloni eshitish orqali yozish, birinchidan, uzoq taʼsir qoldirmaydi, soʻzlarning imlo talaffuzi darhol unutiladi. Ikkinchidan, oʻquvchilar koʻpincha eshitish paytida hayajonli holatda boʻladilar va turli soʻzlarni eshitmasliklari mumkin. Shuning uchun talaffuz orqali yozishga berilib ketmaslik kerak.

Boshlangʻich sinflarda imlo ilmiy tajribalarini shakllantirish ona tili taʼlimiga oid nizom va qoidalaridan foydalanish bilan bogʻliq ongli jarayon hisoblanadi. “Eʼtirof etish kerak, – deydi D.N.Bogoyavlenskiy, – imloni oʻzlashtirish onglilik tamoyiliga asoslanadi, imloni oʻrgatishda oʻquvchilarning grammatik bilimlariga tayaniladi, taʼlim esa imlo qoidalari va barcha turdagi soʻzlarni oʻrgatish asosida amalga oshiriladi». Buning asosiy mazmuni imlo hodisalarini onglilik usulida koʻrsatish va variantli didaktik materiallarning imlo tahlili asosida yetkazishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.

1. Smith, J. (2015). The Importance of Spelling Literacy in Early Education. London: Education Press.

2. Brown, T. & Green, L. (2018). Teaching Spelling in Primary Schools: Strategies and Approaches. New York: Academic Books.
3. Harris, M. (2017). Effective Spelling Instruction in the Classroom. Journal of Educational Research, 32(4), 45-56.
4. Davis, P., & Clark, R. (2019). Spelling Development and Literacy in Primary Education. Oxford: Oxford University Press.
5. Walker, S. (2020). The Role of Phonics in Spelling and Literacy. Cambridge: Cambridge University Press.
6. Johnson, L. & Roberts, A. (2021). A Study of Spelling Strategies in Primary Grades. Educational Psychology Review, 12(2), 88-102.

Ashurova Marhabo Sayfulloyevna,
BITU dotsenti pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)
ashurova.marhabo84@buxdu.uz

BUXORO JADIDLARI ASARLARIDA MILLIY TARBIYA VOSITALARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadidlarning yangi usul maktablari o'z maqsadiga asta-sekin erisha boshlagan, yoshlarni o'z atrofiga chorlay olgan. Buxoro jadidlari milliy istiqlool uchun kurash, ta'lim tizimini isloh qilish, eng qobiliyatli talabalarni dunyoning rivojlangan mamlakatlariga o'qishga yuborish, chet el texnologiyalarini yurtimizda joriy qilish, xorij raqobatiga bardosh beradigan tijoratni yo'lga qo'yish kabi dolzarb masalalarni ko'tarib chiqqan.

Kalit so'z va iboralar: milliy tarbiya, tarbiya, ta'lim jarayoni, jadidchilik, madrasa, oliy maktab, usuli savtiya maktabi, Yosh buxoroliklar tashkiloti.

Аннотация: Из этого следует, что новые методические школы джадидов постепенно стали достигать своей цели, могли приглашать молодежь в свое окружение. Бухарские джадиды подняли такие актуальные вопросы, как борьба за национальную независимость, реформирование системы образования, отправка наиболее способных студентов на учебу в развитые страны мира, внедрение зарубежных технологий в нашей стране, налаживание торговли, способной выдержать иностранную конкуренцию.

Ключевые слова и фразы: национальное воспитание, воспитание, образовательный процесс, джадидизм, медресе, Высшая школа, методическая школа, организация молодых бухарцев.

Annotation: It is understood from this that the new method schools of the jadids had begun to gradually achieve their goal, being able to encourage young people around them. Bukhara jadids have raised pressing issues such as the struggle for national independence, reform of the educational system, sending the most capable students to study in developed countries of the world, introducing foreign technologies in our country, establishing commerce that will withstand foreign competition.

Key words: national education, upbringing, educational process, caddism, madrasa, Higher School, Method savtia School, Organization of young bukharians.

Kirish. Buxoro jadidlari milliy istiqlool uchun kurash, ta'lim tizimini isloh qilish, eng qobiliyatli talabalarni dunyoning rivojlangan mamlakatlariga o'qishga yuborish, chet el texnologiyalarini yurtimizda joriy qilish, xorij raqobatiga bardosh beradigan tijoratni yo'lga qo'yish kabi dolzarb masalalarni ko'tarib chiqqan Yosh buxoroliklar partiyasi a'zolari tarixda eng ko'p azob – uqubatlarga duchor bo'ldilar: taraqqiyparvarlik va ma'rifatparvarlik faoliyatlari uchun rus mustamlakachilaridan, yangilik tarafdorlari bo'lganliklari uchun amirlikdan jazo oldilar, keyinchalik esa jadidchilik faoliyatlari uchun sovet hokimiyati tomonidan qatag'on qilindilar. Yangi usul maktablari – musulmon maktablarining dasturlarini va ta'lim usulini isloh qilib, bolalarga o'z ona tilida xat-savod o'rgatishga qaratilgan o'quv muassasalari bo'lib, ilk bor Qrimning Boqchasaroy shahrida tatar ma'rifatparvari Ismoilbek Gaspirinskiy tomonidan 1884-yilda tashkil etilgan va unga usuli savtiya tadrijiya (rivojlanuvchi tovush usuli) deb nom berilgan. Ismoilbek Gaspirinskiy 1884-yilda Qrimning Boqchasaroy shahrida usuli jadida maktabini ochib, 12 bolaning savodini 40 kunda chiqarib, bolalarning otanalar oldida o'quvchilardan imtihon olib shuhrat qozondi. U an'anaviy maktabning 5 yillik tahsilini 2 yilda o'quvchilarga bera olgan. Ismoilbek Gaspirinskiy taklif qilgan usulda maktab tashkil etgan va gazeta nashr qilgan yoshlar jadidlar deb atala boshlangan. Boshqacha aytganda, musulmonlar jamiyatini zamonaviy aloqa vositalari va muloqotning yangi shakllaridan foydalanish orqali isloh qilishga urinuvchi shaxslar "jadidlar" deb atalgan[1]. Ammo ular

o'zlarini jadid deb atamas edilar. Ko'pincha ular o'zlarini taraqqiyparvarlar, munavvarlar va keyinchalik yoshlar deb atashgan[2].

“Jadid” termini arabchadan olingan bo'lib, yangi, yangilik tarafdori degan ma'noni bildiradi[3]. Ular tomonidan tashkil etilgan maktablar ham yangi usul yoki jadid (usuli jadida) maktablari deb nom olgan. An'anaviy maktabdagi o'qitish usuli yod olish, ya'ni harflar va matnlarni o'qituvchi ovoizidan ilib olinib, takrorlash usuliga asoslangan bo'lib, unda savod chiqarish qiyin kechar edi. Ismoilbek Gaspirinskiy ilgari surgan savtiya, yangi usul, ya'ni tovush usuli harflarni tovush chiqarib o'qish tartibi esa oson va tez savod chiqarish imkonini berar edi. Shu sababli bu yangi ta'lim tizimi usuli savtiya (tovush usuli), usuli jadid (yangi usul) nomlarini olgan edi[4]. yangi usulda o'qish va yozish barobar o'rgatilganligi, ayniqsa, muhim edi.

Ismoilbek Gaspirinskiy Turkistonda yangi usul maktablari tashkil qilinishi, yangi usul afzalliklari haqida Turkiston general-gubernatori N.O.Rozenbaxga jo'natgan maktubiga rad javobini oladi. Shundan keyin u Buxoro amiri Abdulahadxonga murojaat etib, yangi usuldagi maktablar ochishga izn so'raydi. Amir Abdulahadxonga murojaat etib, yangi usuldagi maktablar ochishga izn so'raydi. Amir Abdulahadxon 1893-yilning boshida Boqchasaroy I.Gaspirinskiy bilan tanishib, uzoq suhbatlashadi va uni Buxoroga taklif e'etadi. Bu taklifni mamnuniyat bilan qabul qilgan I.Gasprinskiy 1893-yilning may oyida Buxoroga tashrif buyuradi. Ta'kidlash joizki, 1883-yil 12 oktyabarda I.Gasprinskiy tomonidan tashkil etilgan. “tarjimon” jurnaliga amir Abdulahadxon ham obuna bo'lgan[2]. Amirning Shahrisabzdagi yozgi qarorgohida bo'lib o'tgan suhbat chog'ida I.Gasprinskiy fikrlariga keskin qarshilik bildirilmasa-da, ularni amalga tadbiq etish oson kechmadi. Buning asosiy sababi Buxoro amiri Rossiya imperiyasi hukumatidan izn olmay turib, biror masalani shaxsan hal etish erkidan mahrum edi[5]. Buxoro yangi usul maktablarining tashkil etilishi 1900-1903 yillarga to'g'ri keladi. Aynan shu yillarda tatar o'qituvchilari tomonidan ilk yangi usul maktablari ochiladi. 1900-yilida Buxoro Pirmast tumanidagi Po'stindo'zon qishlog'ida bo'lgan Mulla Jo'raboy tomonidan amir Abdulahadxon ruxsati bilan yangi usul maktablari ochiladi, ammo oradan uch oy o'tgach, uning faoliyati to'xtatilib, muallimlari quvg'inga uchraydi.

Adabiyotlar tahlili. Sadridin Ayniyning yozishicha, buxoroda bu paytda mavjud bo'lgan yangi usuldagi tatar maktabi tatar tilida bo'lganligidan buxoroliklarning foydalanishlari qiyinroq edi. Shu sababli mahaliy tariqqiyparvarlar o'zlari yangi usul maktabi ochish harakatiga tushdilar. Bu maktablarda milliy jadidlar bilan birgalikda tatar millatiga mansub muallimlar ham dars berardilar. Yangi Buxoro (Kogon)da ham yangi usul maktabi tatar muallimlari tomonidan ochilib, unga joyni amir hukumatining o'zi ko'rsatib bergan edi. Dastlab unda tatar muallimlar, keyinchalik esa mahalliy muallimlar dars beradi. Bu maktab uchun hukumat 20 ming rubl (so'm) in'om etadi. U bir necha bor yopilib, yana faoliyat ko'rsatgan.

Buxorodagi ilk mahalliy yangi usul maktablari 1903-1904-yillardan ochila boshlangan. 1903-yilga kelib Buxoroda 6 ta yangi usul maktabi tashkil etilgan edi. 1908-yilda Buxoro amirligiga I.Gasprinskiy maktab islohoti masalalari yuzasidan tashrif buyuradi.

Buxoroda u ilg'or fikrli tatar ziyolilaridan Sobitov (Buxoroga Markaziy Rossiyadan ko'chgan tatar oilalaridan birini farzandi bo'lib madrasa tahsilini olgan. Buxoroda birinchi usuli jadid maktabini ochganlardan biri, 1918-yil butun oilasi bilan amirlik tomonidan vahshiylarcha o'ldirilgan. Ismini abadiylashtirish maqsadida 1- Buxoro dorilmuallimiga BXSР davrida uning nomi qo'yilgan) bilan uchrashgan I.Gaspirali muallim Nizom Sobitovga yangi usul maktablari uchun o'zi yozgan (keyinchalik 27 marta qayta-qayta nashr etilgan) “Xo'jai Sibiyon” (“Bolalar muallimi”) nomli birinchi darslik asosida ish boshlashni tavsiya etadi. Ushbu darslikda foydali maslahatlar, hikoyalar berilgan edi[6]. Sobitov tatar bolalarini yosh xususiyatlariga qarab sinflarga bo'ladi. O'rtacha bir kunda 5 soat dars, har bir darsdan so'ng 10 daqiqa tanaffus joriy qilinadi. Birinchi bosqichda o'quvchilarga harflar o'rgatiladi, o'quvchi bir darsni o'zlashtirmasa, ikkinchisiga o'tolmasdi. Bolalarni yorug' xonalarda, ko'rgazmali qurollar, globus va xaritalar orqali o'qitish yo'lga qo'yilgan[7]. Bu maktab an'anaviy usuldagi

maktablardan nafaqat shart-sharoitlari, balki o'quvchilar tezda savodini chiqarishi bilan ham afzal edi. Ularga 10 oylik tahsildan so'ng ta'til berilgan, hafta mobaynida juma va bayram kunlari dam olish kunlari hisoblangan.

Buxorodagi N.Sobitovning tatar maktabini nafaqat tatar bolalari, balki buxoroliklarning bolalari uchun ham rasmiylashtirmoqchi bo'ladilar. Maktabni I.Gaspirinskiy sharafiga Ismoiluya deb nomlashga qaror qilinadi. Ammo I.Gaspirinskiy bunga rozi bo'lmaydi va maktabni marhum amir Muzaffarxon nomiga bag'ishlab Muzaffariya deb atashni taklif etadi. I.Gaspirinskiy amir Abdulahadxon bilan uchrashib, maktab ochish, uning binosi va boshqa tashkiliy ishlar to'g'risida gaplashib oladi. Biroq buxorolik muttassib ulamolar qarshiligi tufayli ushbu maktabni rasmiylashtirish ishi to'xtab qoladi. Sobitovning buxorolik bolalar ham o'qib turgan tatar maktabi Homid Burnashevning hovlisiga ko'chiriladi va bir yilga yaqin shu taxlitda faoliyat ko'rsatadi. Hatto ulamolarning ilg'or fikrli ayrim vakillari, xususan, Mufti Ikrom yangi usul maktabi shariatga xilof emasligini tan oladi[9]. Ilk jadid maktabi buxoro xalqining ilg'or qatlami vakillarini o'ziga jalb eta boshladi. Mahalliy aholi vakillari o'z farzandlarini tatar maktablariga bera boshladilar. Biroq ushbu maktab ko'p o'tmay yopildi.

Muhokamalar va tajriba. 1908-yilning oktyabr oyida Buxoroning Darvozai Sallohxona guzarida Mirzo Abdulvohidning uyida o'qish mahalliy tilda olib boriladigan, yangi usul maktabi rasman ochiladi va unga Mirzo Abdulvohid muallim etib tayinlanadi[10]. Yangi usul maktabini tashkil etish ishi, uni tashkil etganlarning yangi usul va qoidadan xabarsizligi tufayli ancha qiyin kechdi. Shu sababli tatar maktabi o'qituvchilari bilan olib borilgan hamkorlik natijasida ishlar ancha jonlanib, ta'lim berish sifati yaxshilandi. Oradan bir oz muddat o'tgach, Mirzo Abdulvohid kattalar uchun kechki maktab kurslar ochadi va yoshi 20-30 ga yetgan shaharliklarni yig'ib, har kuni 2 soatdan ta'lim bera boshlaydi. Ko'p yillar davomida an'anaviy maktabga nihoyat darajada ixlos qo'yadilar[11].

Mahalliy ziyolilardan Sadriddin Ayniy boshlang'ich maktabning to'rt sinfdan iborat bo'lishini taklif qiladi[12]. Shu sababli yangi usul maktablaridagi sinf xonalarida geografiya xaritalari, globuslar va boshqa ko'rgazmali qo'llanmalar bo'lgan. Xat-savod bolalarning ona tilida, tovush usuli (usuli savtiya)da o'rgatilgan. Yangi usul maktablari, asosan, 1-4 sinfdan iborat boshlang'ich maktab bo'lgan[13]. Maktab ishini to'g'ri yo'lga qo'yish, o'qitishni samarali tashkil etish, usul va qoidalarini yaxi o'zlashtirib olish uchun Buxoroda faoliyat ko'rsatayotgan tatar maktablari nizomidan foydalaniladi. "Biz maktabchilar shu kungacha Buxorodagi tatar maktabidan xabarsiz edik. Oradan fursat o'tkazmay, to'g'ri mazkur maktabga bordim. Maktab muallimi meni nihoyat mamnuniyat bilan qabul qilib, har to'g'rida yordam berishni va'da qildi. Darslarni ko'rsatdi. Ta'lim qoidalaridan bir oz ma'lumot berdi. Ibtidoiy maktab dars kitoblaridan namuna bo'larlik bir donadan va ta'lim-tarbiyaga doir bir kitob berdi", - deb yozadi S.Ayniy.

Yangi usuldagi maktablarda yangi dunyoviy bilimlar o'qitilib, eskirib qolgan o'qitish uslubidan esa voz kechilsa-da, lekin o'quvchilarning ma'naviy dunyosini shakllantirishda islom dini asos qilib olindi. 1908 yilda Sadriddin Ayniy yangi, usuldagi tatar maktablarining tajribasiga tayanib, tatar maktabi muallimi Buvali Abdurahmon Saidiy bilan birgalikda darsliklar yozadi. Shulardan biri "Tartil ul-Qur'on", ya'ni Qur'oni Karimni o'qish va talaffuz qilish qoidalarini o'rganishga bag'ishlangan kitob, "Tahzib us-sibiyon" – axloqiy tarbiya, ya'ni odobnoma kitobi edi. Bu erda o'nlab qisqa hikoyalar axloqiy tarbiyaga qaratilgan edi.

Maktablar ishi sekin-asta xalq orasida shuhrat qozona boshladi. Sadriddin ayniyni yozishicha, "Bir necha yil eski maktablarda yurib xat va savod chiqara olmaganlarning yoki eski maktabga bo'ysunmaganlarning otalari bizning maktab o'quvchilarining ikki oylik ma'lumotlarini ko'rib, kamoli ixlos va ishtiyoq bilan bolalarini keltirib topshira berdilar".

Buxoroda tashkil etilgan yangi usul maktablarida o'qitish jarayonini samarali bo'lishini ta'minlash uchun jadid muallimlari darslik, qo'llanma va adabiyotlarga ehtiyoj kuchayib bordi. "Shuning uchun, - deb qayd etadi S.Ayniy o'z xotiralarida kitob hozirlamoq orzusi bilan o'z oramizda bir shirkat tuzib, birinchi navbatda tajvid qoidalarini "Tartiul-Qur'on" ismida nashr

qilishga qaror berildi. Buni tatar muallimi vositasi bilan Orenburg matbaasiga topshirdik”, -deb yozadi Sadriddin Ayniy. Maktablarda o'qitishning yangi usulini o'zlashtirgan muallimlar tayyorlash uchun bir qator buxorolik muallimlar Qrim va Turkiyaga yuboriladi. Xususan, Usmon Xo'ja va Homid Ho'ja Boqchasaroy hamda Istanbulga yuboriladi.

1908-yilda Buxoroning Sallohxona mahallasida tatar maktabi muallimlar o'quvchilarni imtihon qilib, ular qo'llagan usul qanday samara berganini namoyish etadilar[12]. Mazkur voqeani Sadriddin Ayniy qo'yidagicha ta'riflaydi: “Bahor faslida tatar maktabida umumiy imtihon bo'ldi. Imtihon majlisida tatar va buxorolik bolalarning otalari hozir bo'ldilar. Biz ham o'z maktabimizdan bir-ikki shogirdni ergashtirib bordik. Imtihon majlisi osudalik va tinchlik bilan o'tdi. Bu munosabat bilan biz, shahrimizning yangi maktab tarafdorlari bilan tanishdik. Ular ham Buxoroda o'z buxoroliklari tarafidan yangi maktab ochilganini anglab ziyodasi-la quvondilar. Ushbu kundan boshlab bizning maktabimiz shuhrat chiqardi.”

1909-yilning kuzida Mirzo Abdulvohidning maktabida ham xuddi tatar maktabidagi kabi oshkora imtihon tashkil etiladi. Imtihonda Buxoro qo'shbegisi Ostanaqul, qozi kalon Burhoniddin va raisning vakillari ishtirok etishadi, Buxoro muftiylaridan yangi usul tarafdori bo'lgan Domla Ikrom, Samarqaddagi yangi usul maktabidan Mullo Abduqodir Shakuriy ham qatnashadi. Imtihon majlisi ertadan oqshomgacha davom etadi. Sadriddin Ayniyniing qayd etishicha, Buxoroning voqeatalab kishilarning ko'pchiligi qiziqish bilan imtihonga keladilar. Imtihon kelganlarga juda zo'r taassurot qoldirgan. Birovlar bolalarning tayyorligini ko'rib, quvonganidan yig'lab yuborgan, yana kimlardir ushbu yangi usul maktabi uchun yangi bino hozirlash haqida fikr qilgan. Majlisda fatnashgan mufti Domla Ikrom va Buxoroda eng birinchi gazeta o'qigan 80 yashar Bo'riboy afandining “Men umidvormanki, o'n yilgacha Buxoroda inqilob voqe' bo'lur, vatan avlodi bu kungi razolat va safolatlardan qutulur. Esizki, u kunni men ko'ra olmaymiz, siz yoshlar, ko'rasiz. Ming qatla shukurkim, ishning boshlanganligini ko'rdim” deb ko'ziga yosh olib, majlis ahliga qilgan murojaati to'planganlarga katta ta'sir etgan. Domlo Ikrom esa shunday degan: “Yosh bolalarning oz bir fursatda shuncha kerakli narsalarni o'rganganliklarini o'z ko'zimiz bilan ko'rdik. Men, bu maktabni shariatga muvofiq va musulmonlarga nofe' (foйда) deb bildim”. Majlis ishtirokchilarining aksariyati domlaning fikrlariga qo'shiladilar. Xuddi shunday imtihon Samarqandda ham Shakuriy maktabida ham o'tkazilgan edi. Mirzo Abdulvohid maktabidagi oshkora imtihondan keyin yangi usul maktabi to'g'risidagi fikr bildiruvchilar ikki guruhga bo'lingan. Ishtirokchilar o'rtasida katta bahs boshlanib ketgan. Bu bahsning kelib chiqishiga, birinchidan, yangi maktabga baho berish masalasi, ikkinchidan, maktabda qanday fanlarni o'qitish masalasi sabab bo'ldi. Vaziyat murakkablasha boshladi. Bundan xavfsiragan Buxorodagi Rossiya siyosiy agentligi xodimi Lyutin 1909-yilning 12-dekabrida Turkiston general-gubernatori nomiga maktub yo'lladi. Maktubda, jumladan, Buxoro shahridagi mutaassib mullalar va ularning xatti-harakatlari, yangi usul maktabiga munosabatlari haqida fikr bildiriladi. Amirning yangi usul maktabini shahar tashqarisiga chiqarish fikri ma'lum qilinadi.

Yangi usuldagi maktablarni tashkil qilish masalalari 1910- yillardan boshlab hokimiyatga aloqador shaxslar o'rtasida muhokama qilinadi boshlandi. Buxoro muftilaridan biri, domla Ikromcha, an'anaviy maktablarni jadid maktablari bilan almashtirish haqida keng targ'ibot ishlarini olib boradi va madrasa talabalari, ko'pchilik sarmoyadorlar, shaharning 700-800 nafar nufuzli kishilari uni qo'llab quvvatlaydilar. Domla Ikromning fors-tojik tilida yozilgan “Uyqudagilarning uyg'onishi va nodonlarning ogoh bo'lishi” nomli risolasining 1910-yilda Yangi Buxoro (Kogon)da nashr etilishi katta ahamiyat kasb etdi. U muftiy sifatida Buxorodagi jadid maktablarini Mulla Abdurazzoq boshchiligidagi qadimiychi guruhlarining tajovuzlaridan himoya qilgan. 1914-yil 25-yanvarda yuqori martabali ulamolarning yig'ilishida Domla Ikrom jadid maktablarini ochish to'g'risidagi dastur loyihasini taqdim etadi. Domla Ikromchanning faoliyati tortishuvga sabab bo'ladi. Lekin u o'z dasturini qat'iyat bilan himoya qiladi va muayyan natijaga erishadi. Hattoki, qozi kalon ham, agar amir rozilik bersa, jadid maktablarining faoliyatiga qarshi emasligini bildiradi. Domla Ikromchanning ta'kidlashicha,

“bir vaqtlar ilmning markazi bo‘lgan Buxoro ta’lim tizimida faqat sanoqli iqtidor egalari olim darajasiga etishishi, o‘qitish usullari o‘zgarsa, minglab haqiqiy olimlar etishib chiqishi mumkin edi.” Shu tariqa, Mulla Ikrom boshchiligidagi bir guruh (ilg‘or fikrli ulamolar guruhi) nufuzli kishilar yangi maktablarni shakl jihatidan ham, mohiyat e’tibori bilan ham xalq uchun, mamlakat ravnaqi uchun foydali va bu yangi maktablarda din yoki davlat manfaatlariga zid keladigan hech bir narsa yo‘q, deb hisoblab, maorif tizimini isloh etish tarafdori bo‘ladilar.

Mulla Abduroziq boshchiligidagi ikkinchi guruh (qadimiychilar guruhi) esa yangi usul maktablarini din va davlat manfaatlariga zid bo‘lgan zararli maktablar deb topdi, hamda bu maktablarga qarshi jamiyat va davlat kurash olib borishi zarur deb hisobladi. Ular bolalarning partalarda o‘tirishini, arifmetika, tabiatshunoslik, geografiya kabi fanlarni “Musulmonchilikka zid” deb hisoblab, ularning o‘qitilishini qoraladilar. Ammo, Buxoro qo‘shbegisi yangi usul maktabini ijobiy baholab, o‘z hukmlarini ulamolarga ma’lum qilishi bilan ular to‘polon ko‘tardilar va shunday shart qo‘ydilar: “Agar ushbu maktab yopilmasa, fitna qo‘zg‘atamiz, qo‘shbegi va qozikalonga hujum qilamiz. Mufti Ikromni oradan yo‘qotamiz, maktabning muallimini o‘ldiramiz. Bolalarning otalarini uylarini talon-taroj qilamiz. Ularni musulmonlikdan chiqaramiz”. Ish bu darajaga etib kelganidan keyin qo‘shbegi va qozi kalon maktabni yopish uchun tayyorlangan fatvoga muhr bosishga majbur bo‘ldilar. Maktab rasman yopildi. Shunday qilib, ikkinchi guruh, ya’ni qadimiylar guruhi ustun chiqib, yangi usul maktabining yopilishiga erishdi. Mutaassiblar bu bilan ham cheklanmay, Mirzo Abdulvohidni olomon qilib o‘ldirmoqchi bo‘ladilar. U Buxorodan qochib, ma’lum muddatga Qarshida yashashga majbur bo‘ladi va Sadridin Ayniy ham birmuncha vaqt yashirib yuradi.

1910-yilda Turkiston matbuotida “Buxoroda usuli jadid” deb nomlangan maqolada shunday yozilgan edi: “Yangi usul masalasi Buxoroda har xil fikrlarga sabab bo‘libdi va har joylarda taftish bo‘linib, Buxoro hukumatdorlari no‘g‘ay (yangi) muallimlarni va irqiy muallimlarni tekshirib, qorovul qo‘ymoqda emishlar. Abdurahmon nomli bir muallim kunduz kunlari katta va kichik odamlarni xat yozmoqqa ta’lim bera boshlagan ekan. Qo‘shbegi tarafidan 4 nafar kumush kamarlik kishilar kelib, man’ qilibdur. Ba’zi xabarga qaraganda bu ishni tatar Qamariddingina qiladurgan emish. Uning ma’murlar ila munosabati bor ekan. Shundan foydalanib, usuli jadidning avom orasig‘a tarqatishdan xavf qilib, bu ishni qilgan emish. Yana Peterburgdan bir taftishchi kelib, Ko‘kaldosh madrasasiga xalqni yig‘ib, bir necha savol so‘ramish. Savollarning bari usuli jadid ekan. 27 martda Ko‘kaldosh madrasasida bir majlis bo‘lib, taxminan yuz nafar odam jam’ bo‘lg‘an ekan. Peterburgdan kelgan mufattish ruscha hamda forscha so‘zlashadur emish. Savollari: 1. Maktab jadidni nima uchun man’ qilasiz, bunga sabab nimadur? 2. Madrasalarda hujralarni bay’ ishro qilasizlar emish, bu shariatga durusmu? 3. Ziroatlardan podsholigk‘a olunadurgan ushr va xiroj shariatga muvofiqmu? Shul uch savolning javoblari g‘a rivoyat topib muhr bosib beringizlar deb ulamo hammalari ittifoq ila bu ishni eshoni a‘lamga topshurdilar. Eshoni a‘lam 10 kun muhlat olib, javob bermakchi bo‘libdurlar. Bul xususda ulamolar orasida ko‘p muxolafat bo‘libdur. Ko‘rinib turibdiku, yangi maktab masalasi bilan nafaqat amir hukumati, balki rus hukumati ham qiziqib qolgan. Buxoroda amalga oshirilgan islohot ishlari xususida Abdurauf Fitratning fikr-mulohazalari “Oyina” jurnalida nashr etilgan maqolada qo‘yidagicha ko‘rsatilgan: “Ana, janobi oliy bizning ma’ruzalarimizni nazari e’tiborga olib, avvalo, Buxoro maktablari islohoti uchun himmat ko‘rguzdilar. Ammo ulardagi mavjud dars berish tarzini o‘zgartirib, besavod maktabdorlarni almashtirish o‘rniga, o‘sha qo‘hna maktabga moyana tayin qilib, asli ta’lim usulini qoldirib, muallimlar ustidan umumiy bir mufattish qo‘yib qo‘ydilar[15]. Ammo maktablardagi ko‘pgina o‘qituvchilar islohotdan bexabar bo‘lib, ularning ta’lim usuli eski holda edi. Shuning uchun ham o‘qituvchilarga maosh tayinlanishi, ular faoliyatini nazorat qilish uchun taftishchi qo‘yilishi unchalik samara bermagan. “Bir necha fursat o‘tib, maktabdorlar va o‘rtamiyona mufattish (taftishchi)lar bir-birlarini topdilar. Bir navi qilib maslahatni bir joyga qo‘ydilar. Maktablar asli holicha qoldi. Ketgani hukumatning puli bo‘ldi. Bekordan bekorga maktabdorlar cho‘ntagiga ketdi. Ya’ni, faryodlarimiz va janobi oliy tashabbuslari zoe’

ketdi[16]". 1912-yilning 9-oktyabrida Chorjo'yda Otaxo'ja (Otaulla Xo'jaev)ning yangi usul musulmon maktabi ochiladi. Bu maktabga Chorjo'y hokimi tomonidan xayriya qilinganligini 1912-yil 28-iyundagi 1243 raqam ostidagi qo'shbegi farmonidan ko'rishimiz mumkin. 1912 yilning boshlarida Yosh buxoroliklarning faol a'zolaridan bo'lgan Usmon Xo'ja jadid maktablaridan birini qayta tashkil etadi[17]. Usmon Xo'ja tashkil etgan jadid maktablarida ta'lim-tarbiya jarayonlari butunlay yangi tartiblar asosida yo'lga qo'yilgan edi. Bolalarni yoshlariga qarab sinflarga bo'lish, bir kunda 4-5 soatdan ortiq dars o'tmaslik, har bir darsdan so'ng 10 daqiqalik tanaffus joriy qilish, asosiy e'tiborni dunyoviy fanlarni o'qitishga qaratish, asosan, birinchi bosqichda o'quvchilarning savodini chiqarish, juma va yakshanba kunlari dam olishni joriy qilish, 10 oylik tahsildan so'ng bolalarga ta'til berish, o'quvchilardan vaqti-vaqti bilan imtihon olib turish, bolalarni yorug' va mumkin qadar shinam xonalarda o'qitib, o'qitish jarayonida ko'rgazmali qurollar: globus va xaritalardan foydalanish qoidalariga e'tibor qaratilgan.

1912 yilning oxirlarida Usmon Xo'janing qarindoshi Latif Xo'ja tomonidan Govkushon mahallasida yangi maktab ochiladi. Shahar savdogarlari homiyligida ishlagan ushbu maktab 2 sinfdan iborat bo'lib, har bir sinfda uchta globus, kitoblar, o'tirish va yozish uchun partalar, o'quvchilarga beriladigan daftarlar, o'quv qurollari, devoriy taxta (doska) bo'lgan. Bitta sinfda boshlang'ich ta'lim oluvchilar, ikkinchisida esa, olti oy ta'lim olganlar o'qigan. Darslarni Usmon Xo'ja va Yosh buxoroliklar partiyasi a'zosi Mulla G'ulom Qodirali olib borgan. Darslar Samarqandda nashr etilgan, fors-tojik tilidagi darsliklar asosida olib borilgan. 30 kishidan iborat ikki sinf o'quvchilarining barchasi Buxorodagi boy savdogarlarning farzandlari bo'lib, ular tez va to'g'ri o'qiydigan bo'lishgan. Mazkur maktabda tan jazosi qo'llanilmagan. 1912-yilda Bozori Nav guzarida o'qituvchi Mullo Hamidxo'ja uyida yangi maktab ochiladi, unda 32 nafar o'quvchi bo'lib, darslar rus tilida olib borilgan. O'qituvchi Mulla Vafo darslarni Grameniskiy darsligi asosida olib borgan. Ko'p o'quvchilar olti oyda rus tilida ravon yozib va o'qib bilgan[18]. Mulla Vafo maktabida 30-35 bola o'qigan. Bundan tashqari yana bir qancha maktablar faoliyat ko'rsatgan. Bunday maktablar Buxoro xalqining e'tiborini qozongan va o'zining kelajagi porloq ekanligini ko'rsatgan.

Ayrim jadid maktablarida, masalan: Usmon Xo'ja, Hamidxo'ja Mehriy maktablarida bir necha o'qituvchi ishlagan, shuning uchun pedagogika kengashi faoliyat ko'rsatgan, tanaffus paytida o'qituvchilar navbatchilik qilishgan.

Maktablar ko'pincha uning tashkilotchilari tomonidan ta'minlab turilgan, ayrim hollarda, ularga boy-badavlat kishilar homiylik qilib turishgan. Bundan tashqari, maktablarning ta'minoti ota-onalar tomonidan beriladigan o'qish puli hisobidan ham yo'lga qo'yilgan. Masalan, Abdulvohid Munzim (Burxonov) tashkil etgan maktabda o'qish puli oyiga 3 so'mni tashkil etgan. O'quvchilarning 15-20% asosan kambag'allarning farzandi bo'lib, ular bepul o'qitilgan. Shuni ham e'tirof etish kerakki, yangi usul maktabida o'qish puli an'anaviy maktabga nisbatan ancha yuqoriroq bo'lgan, bu o'quv jarayonini tashkil etish bilan bog'liq edi: an'anaviy maktabda 6-10 yil o'qilsa, yangi usul maktabida 4 yil o'qitilgan. Jadid maktablarida o'qitish bosqichlari, o'qitish usullari va o'qitiladigan fanlar aniq bo'lgan.

Jadid maktablari ikki bosqichda tashkil etilgan. Birinchi bosqich boshlang'ich, ikkinchi bosqich o'rta deb ataldi.

Birinchi bosqichda tahsil muddati 4 yil (1-4 sinflar) bo'lib, birinchi yili forsha, arabcha yozuv va o'qish o'rgatilgan. Qur'oni Karimdan suralar yod olingan. Hisob ilmi o'rgatilgan.

Ikkinchi yilida - Haftiyak, imyon va e'tiqod darslari, turkiy, forsiy va arabiy tillarda she'rlar o'qitilgan.

Uchinchi - yilda esa, Qur'oni Karim, islom ibodati, tajvid (qiroat ilmi), Sa'diydan nasihatlar (axloq ilmi), turkiy va forsiy til (tilshunoslik ilmi) o'rgatilib undan insholar yozdirilgan. Hisobdan turli taqvimiy va ish yuritish kabi zaruriy jihatlar o'qitilgan.

To'rtinchi – yilda Kalomi Sharif tavsiri, mufassal tajvid, turkiy va forsiy tilida nazmu-nasr (adabiyot), turkiy va forsiy til, hisob, tarix va jug'rofiya o'qitilgan[4].

Maktabning bu bosqichini bitirgan o'quvchilar forsiy va turkiy tilda savodlari chiqib, arab tilidan ham bilimga ega bo'lib, Qur'oni Karimni tajvid asosida o'qir edilar. Behbudiyning fikricha, 4 sinfli "usuli jadid"da o'qigan tolib, 10 sana eski maktabda o'qigan tolibdan puxta bilimga egadur.

I bosqich maktabning 4 – sinfini bitirgan bolalar 2 bosqich maktabga qabul qilinadi. Maktabning bu bosqichi o'rta hisoblanadi.

II bosqich maktabi:

Birinchi yili arab tili, jo'g'rofiya, shafaqiya (falakiyot), fors tilidan turkiyga tarjima, tarix, islom tarixi, Sa'diyning "Guliston"i, fors va turkiy tillar o'qitiladi.

Ikkinchi yili arab tili, shifohiya (tibbiyot), tarix, islom tarixi, axloq darsi, fors, turkiy tillari, hisob kabi darslar o'tiladi.

Uchinchi yil- arab tili, hisob, islom muhokamasiga oid dars, umumiy tarix, rus tili (xat va turli hujjatlarni yozishni mashq qilganlar). Turkiy tilda ish yuritish qog'ozlari ham o'rgatilgan.

To'rtinchi yili- arab tili, rus tilida ish yuritish, ta'lim (pedagogika), adabiyot, maktab va hayot, tabiat darslaridan saboq oladi.

Sakkiz yillik maktabni bitirgan savodli, hatto adabiy maqolalar yozish qobiliyatiga ega bo'lgan islomshunos, yuksak axloqiy shogirdlar edilar. Bu shogirdlar istasa tijorat, mirzolik, muharrirlik va usuli jadid maktabida muallimlik qilishga qodir edilar.

Behbudiy o'zbek va tojik tillarida o'z maktablari uchun darsliklar yaratdi. Dunyoga tanilgan xalq ilm vositasi ila taraqqiy qiladi. Ilmning zarurligini u o'zining "Bolalar uchun kitob" darsligida asoslab berdi. Bu darslik fors va o'zbek tillarida yozilgan. Darslikning asosiy mazmuni ish yuritish tartib-qoidalariga qaratilgan. Behbudiyning fikricha: "... ovrupo ila savdo qilaturg'on kishi avvalo un sani zamona ilmi o'qimog'i lozim". Bu yo'lda boylarga ham murojaatim shulki, boshqa millatlarning boylari, faqir va etimlar uchun maktab va dorulfununlar soldirurlar, ularning o'qimog'i uchun pul tayin qilurlar". Behbudiy kelajak avlod-Ovrupa, Turkiya va boshqa xorijiy davlatlar bilan aloqa qilish, ular hayotini o'rganish, tijorat ishlarida ish yuritish, qonun-qoidalarini o'rganishi, zarur deb hisoblaydi.

Darslikda (5-bet) xat yozmoq shartlari beriladi.

-Xatni kam so'z, sermazmun yozmoq;

-Maktabda haqorat, ta'na, hazil, gunohga taalluq so'zlar aslo yozilmasligi;

-Xat borib tegadurg'on odamni mulohaza qilib, oniy fahm va bilishiga muvofiq bo'lmoq lozim;

-Kotib har muddaoni yozmoqchi bo'lganida o'shal muddaoni o'zi yaxshi tushunib yozishi kerak;

-G'azab, xiralik va yo nihoyat xursand va behushlik vaqtlarda xat yozmaslik, o'zini oldingi holatiga kelganida yozmog'i kerak.

Bu darslikda yana xususiy xatlar, rasmiy xatlar haqida ham ma'lumot beriladi. Ayniqsa yozgan xatlarda va hujjatlarda tinish belgilaridan to'g'ri foydalanish zarurligini ko'rsatadi. Behbudiy o'z zamonasidagi madrasalar ahvolini o'zining 1907-yilda yozgan "Faryodi Turkiston" maqolasida shunday ta'riflagan edi: "Bir madrasaga 20 talaba gapi ila bir noaql mudarris saylanur, bir volosda 40 nafar el boshlaridan 21 nafarni sadosi ila bir johil qozi saylanur". Behbudiy fikrini davom ettirib, bu mudarris, mufti va qozilarni sakson foizi qariyalardir. Ular yoshlarga qanday bilim va tarbiya bera oladilar, deydi.

XIX asrning oxirlari va XX asr boshlarida kelib reaksiya guruhlar qarshiligiga qaramay yangi usul, rus-tuzem maktablari va rus tilini o'rganishga qiziquvchilar soni bir muncha ortdi. Bu maktablarda dunyoviy fanlar va ona tili bilan bir qatorda rus tili ham o'qitiladi. is'hoqxon Ibrat rus tili bilan birga o'nga yaqin sharq, g'arb tillarini ancha mukammal bilgan. U olti tildagi arabcha, forsha, hindcha, sarcha (o'zbekcha) bo'lib, birinchi qismidava ruscha so'zlarni o'z ichiga olgan "Lug'ati sitta al-sina" nomli mukammal lug'at kitobini yaratdi. Asar ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismida fe'llarning noaniq va kelasi zamon shakllari berilgan. Asarning ikkinchi qismi 37 bosqichdan iborat bo'lib, unda fe'llarning boshqa shakllari, otlar, kishilik

olmoshlari, kun, oy nomlari, odam a'zolari, hayvonlar, parandalar, oziq-ovqat va boshqa buyumlarning nomlari berilgan.

Mingdan ortiq ko'p qo'llaniladigan so'zlarni o'z ichiga olgan Ibratning bu asari ko'p maktablarda foydalanib kelindi. Ibrat inson kamolotida ilm o'rnini alohida ta'kidladi: "Madrasalar garchi ilm ma'rifat makoni bo'lsada, uning mazmuni bechoralarni bilim olishga qaratmagan edi". Ibrat xalq farzandlarini ham dunyoviy bilimlardan bahramand qilishga chorlaydi:

O'qingiz ilmi hikmat sizga bu ish sizga ibratdur,
Agar ilm o'rganursiz barcha ishda sizga nusratdur,
Agar ilm o'lmasa, nodon umri barcha kulfatdadur.

Ibrat o'zining pedagoglik faoliyatida xat-savod chiqarish jarayonida husnixatga alohida e'tibor berdi. U buni o'zining "San'ti Ibrat", "Qalami Ibrat" nomli she'rilarida asoslab berdi. O'zining "Bo'lubdur" radifli she'rida ba'zi madrasalardagi holatni shunday ifodalagan edi:

Madrasalar ichinda kub fitna birla sho'rish (fitna)
Har kunda o'n xil urush, oq salla non bo'lubdur.
Qassobu qo'yfurushlar, jangu jadal urushlar....
Ellikboshi deganlar, uy boshidan eganlar.
O'z mansabiga mag'rur go'yoki xon bo'lubdur.

Bu bilan u tengsizlik va adolatsizlikni qoralaydi. Ibrat ma'rifat va madaniyat nurini srchuvchi muallimlik kasbiga katta ahamiyat berdi. Muallimlik kasbini ulug'lab unda qo'yidagi fazilatlar mujassam bo'lishi lozim deb hisobladi: ilm ma'rifat sirlarini o'rgatuvchi bilimdon, bolalarning mehribon najotkori, ziyo tarqatuvchi, yuksak axloqli bo'lishi. U muallim-ustozga atalgan she'rida qo'yidagilarni yozadi:

Johilning ko'zlarini ochdi ilm yo'lida.
Qo'lga berdi ilm chirog'in, yo'l ko'rsatdi muallim.

Xulosa. Madrasalar ham eski maktablar singari o'quv rejasi va dasturlariga ega bo'lmagani uchun ularda aniq belgilangan ta'lim muddati bo'lmas, natijada talabalar vaqtdan yutqazar edi. Lekin Qori-Niyoziy madrasalaridagi ta'limning mazmuni nimalardan iborat bo'lganini, ularda o'qitilgan kitoblarning turlarini ham ta'riflagan. Masalan, "Aqoid" darsligida borliq, xudo va oxirat masalalari "Hikmatulayn" (metafizika)da Mulla Jaloliddin aqidalari, "Muxtasari viqoya"da shariat qonunlari "Fiqxi Kandoniy"da savob farz, sunnat, makruh va gunoh ishlar ifodalanganini bayon qilgan. Qori-Niyoziy Turkiston o'lkasidagi xalq maorifi tarixini o'sha davrdagi ijtimoiy tuzumning samarasi va madaniyatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida talqin etgan. Olim fanning afzalliklarini va inson hayoti uchun zarurligini qo'yidagicha ta'riflaydi: "Fan minglab, o'n minglab, hatto yuz minglab yillar mobaynida zarrama-zarra, tomchilab vujudga kelgan va xalq xizmatiga qaratilgandir. Fanni egallagan insonning ongi va vijdoni pokligi, tili va dilining birligi uning ma'naviy shaxs ekanligidan dalolat beradi. Haqiqiy fanning o'zi yorqin axloqning namunasidir. Fan borasidagi ta'limotni bila turib unga xiyonat qilish axloqsizlikdir. Buning uchun avvalo adolatsiz bo'lish lozimdir. Adolatlilik – axloqiy fazilat va yuksak ongni talab etadi. Barkamol insonning eng muhim belgisi axloqiylikdir." Olimning fikricha, axloqiylik ong va vijdon zahirida shakllanadi. Yuksak axloqqa ega bo'lish, insonga baxt keltiradi. Baxt va uning mohiyatini tushunish kishining ongiga, vijdoniga va ma'naviy saviyasiga bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Azizov Sh., Azizova S. Ma'rifatparvarlik – ijtimoiy-madaniy hodisa. – Toshkent, 2008. – B. 51.
2. Анке Фон Кюгельген. Легитиматсия среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII-XIX вв.). – Алматы. Изд.: Дайк-Пресс. 2004. – С. 364.
3. Арабско-русский словарь. – М: Главная редакция восточной литературы, 1970. – С.220.

4. Tursunmetova G. XX asr boshlarida Turkiston ta'lim-tarbiya tizimida jadid maktablari / Tarixiy xotira-ma'naviyat asosi. – Buxoro, 2008. – B.124.
5. Mexmet Saray. Turk dunyosida maorif islohoti va G'aspirali Ismoil (Turkiya). – Anqara, 1987. – B. 49.
6. Hayitov Sh., Badriddinov S. Buxoro tarixidan lavhalar (XIX-XX)
7. Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане. – С.378.
8. Бюллетень САГУ, №16. – С.85.
9. Zenkovsky S.A. Ran-Turcism and islam in Russia. – Cambrige, Massachusetts: Harward Unikersity Rress, 1967. – P.86.
10. Buxoro Davlat me'moriy-badiiy muzey-qo'riqxonasi qo'lyozma fondi, 1573-inventar.
11. Ayniy S. Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar. // Asarlar. – Toshkent: Badiiy adabiyot, 1963. I-tom. – B. 203-204.
12. Ayniy S. Tahzib us-sibyon. – B. 8-14.
13. O'zR MDA, 1010-fond, 1-ro'yxat, 66-ish, 41-varaq.
14. Эргашев Б. Идеология национально-освободительного движения в Бухарском эмирате. – С.24.
15. Fitrat A. Buxoro hukumatining islohkorona qadamlari // Oyina, 1915. – № 8.
16. O'zR MDA, 126-fond, 1-ro'yxat, 1988-ish, 1-varaq.
17. Rajabov Q., Hayitov Sh. Usmon Xo'ja. – Toshkent: Abu matbuot konsalt, 2011. – B.8.
18. Qarang: // Oyina, 1914. – 28 yanvar.

Rahmatov Nuriddin Negqadamovich,
Buxoro davlat tibbiyot instituti o'qituvchisi,
O'zMU izlanuvchisi
rakhmatov.nuriddin.83@gmail.com

**HUSAYN VOIZ KOSHIFIY MEROSINI O'RGANISH JARAYONIDA
TALABALARDA MA'NAVY-AXLOQIY FAZILATLARNI RIVOJLANTIRISH –
PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**

Annotatsiya: Husayn Voiz Koshifiy javonmardlarni shaxsiy, axloqiy, huquqiy, ijtimoiy sifatlarini sodda, ravon bayon qilib, mazkur tariqatning boshqa tariqatlardan ayri tomonlarini bayon qilib, yoshlarda shu talab va sifatlarini tarbiyalovchi sifatlarini ham atroflicha bayon qiladi. Mazkur tariqat yo'li qiyin va murakkab. Shuning uchun bu yo'lni ixtiyor etgan yoshlar adashmasliklari, ularni har xil kishilar shalg'itmasliklari uchun ham pir rahnamolik vazifasini bajaradi.

Kalit so'zlar: javonmardlik, pir, shayx, shogird, murid, futuvvat, axloq namunalari.

Абстрактный: Хусейн Воиз Кашифи просто и бегло описывает личные, моральные, правовые и социальные качества молодых людей, объясняет аспекты этого ордена, которые отличаются от других орденов, а также подробно описывает качества, которые способствуют этим требованиям и качествам в молодых людях. . Путь этой секты труден и сложен. Таким образом, пир также выступает в качестве проводника, чтобы молодые люди, выбравшие этот путь, не сбились с пути и не отвлеклись на разных людей.

Ключевые слова: молодежь, пир, шейх, ученик, мюрид, футувват, моральные образцы.

Annotation. Husayn Woyz Kashifi simply and fluently describes the personal, moral, legal, and social qualities of young people, describes the aspects of this order that are different from other orders, and also describes in detail the qualities that foster these requirements and qualities in young people. The path of this order is difficult and complex. Therefore, the pir also acts as a guide so that young people who have chosen this path do not go astray and are not distracted by various people.

Key words: youth, pir, sheikh, disciple, murid, futuvvat, moral models.

Kirish. Bugungi kunda Yangi O'zbekistonning yosh avlodni tarbiyalash sohasidagi muammolar davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Bugungi kun yoshlarini barkamol etib tarbiyalashda ma'naviy-axloqiy rivojlantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarining o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, talaba-yoshlarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirishda ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan boy ma'naviy meros hamda nodir boylıklardan unumli foydalanish, ularning asarlarida qayd qilingan yoshlar tarbiyasiga oid g'oyalarni samarali qo'llash pedagogika fani oldida turgan dolzarb muammolardan biri sanaladi.

Talabalarni mutafakkirlarning ma'naviy merosidan foydalanib ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish muammosi o'zining dolzarbligi bilan ajralib turadi. Jahonda talaba-yoshlarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish muammosini tadqiq qilish – ularning ongi tafakkuri, shuuri bilan belgilangan qoidalar darajasiga ko'tarilishi-xalqimiz yaratgan boy ma'naviy merosi, o'lmas qadriyatlari, e'tiqodiy an'analarini tadqiq etish muhim ahamiyatga ega. Bu kabi tadqiqotlar hozirgi kunda bizni ikki jihati bilan o'ziga jalb qiladi. Birinchidan, Sharq mutafakkirlarining jahon sivilizatsiyasi rivojlanishida ma'naviy merosining ahamiyati asos vazifasini bajargan bo'lsa, ikkinchidan esa respublikamiz yoshlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, o'z Vatanini sevishtirish, ularda milliy g'urur sifatlarini shakllantirishda ma'naviy asos bo'lib xizmat qiladi.

Sho'ro davri pedagogikasida butun bir avlod tarbiyasida milliy qiyofani, o'zimizga xos bo'lgan ma'naviy-axloqiy fazilatlarini unutishga, ajdodlarimizning ma'naviy merosini o'rganishda "kommunistik mafkura"ni o'zlashtirish g'oyasi ruhida tarbiyalash an'anaga aylangan. Shu nuqtayi nazardan ushbu tadqiqotimizni bugungi kunda dolzarb bo'lgan yosh avlodning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish muammosiga bag'ishladik.

Yangi O'zbekiston yoshlari ajdodlarimizning ilmiy merosini o'rganishi, undan o'zining kamol topishida foydalanishi zarurligini zamonning o'zi talab etmoqda. Jumladan, Suhrevardiy (549- tug'ilgan), Al-Farg'oniy (797 - 865) Imom Muhammad ibn Ismoil Buxoriy (810-870), Al-Motrudiy (vafoti 945) Burxoniddin Marg'inoniy (1123-1197), Bahouddin Naqshbandiy (1318-1389), Jaloliddin Manguberdi (1199-1231), Jaloliddin Rumiy (1207-1273), Sohibqiron Amir Temur (1336-1405), Husany Voiz Koshifiy (1440-1505) kabi ulug' shaxslarning ma'naviy-axloqiy merosini o'rganish ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan islohotlar uchun asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu dissertatsiyada Husayn Voiz Koshifiy asarlaridagi ma'naviy-axloqiy fazilatlar: ustoz-shogird munosabatlari, chiroyli xulq va muloyimlik, rostgo'ylik, sabr, qanoat, adolat, vafo va ahd, omonat va diyonat, shafqatlilik, muomala va suhbatlashish, farosat tushunchalari dissertant tomonidan zamon talabi nuqtayi nazaridan tadqiq qilingan. Ushbu tushunchalarning bugungi kun yoshlar tarbiyasidagi o'rni va ahamiyati, shaxs sifatida shakllanishidagi ijobiy sifatlar haqida so'z yuritiladi.

Mazkur dissertatsiyaning obyekti sifatida Husayn Voiz Koshifiy hayoti va ilmiy merosi asos qilib olingan. Husayn Voiz Koshifiy hayoti va ilmiy merosi o'tgan asrning 80-yillarigacha nisbatan kam o'rganilgan. Ammo Husayn Voiz Koshifiyning ism-sharifi manbalarda, olimlarning asarlarida turlicha nomlangan. Masalan, XV asrning "Amir al-muarrixin" ("Tarixchilar amiri") unvoniga ega mashhur tarixchisi G'iyosiddin Xondamir "Makorim ul-axloq" asarida "Ismi Husayn ibn Ali Bayhaqiy Hiraviy, taxallusi bo'lib, Voiz Koshifiy nomi bilan mashhur" deb qayd qilsa, "Xulosat ul-axbor fi bayon ul-ahvol ul-ahyor" ("Xayrli kishilar ahvolini bayon etish borasida xabarlar xulosasi") 1498-1499-yillar orasida yozilgan asarida esa "Mavlono Kamoluddin Husayn Voiz", O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi B.Ahmedov [36] Kamoluddin Husayn ibn Ali Voiz al- Koshifiy, Husayn binni Aliyul-Koshifiy, akademik A.Mirzoyev Mullo Husayn binni Ali Voiz Koshifiy, Xoliq Mirzozoda Husayn Voiz Koshifiy, tadqiqotchi O.Usmonova esa Kamoluddin Husayn ben Ali Boyhaqi Xurosoni, mutafakkir asarlarining qo'lyozmalarini ko'chiruvchi xattotlar esa "Kitobi Hotamnoma" asarida "Husayn al Koshifiy" [3], "Axloqi Muxsiniy" asarida esa Mavlono Husayn Voiz [4] degan nomlar bilan atalganligini ko'rish mumkin.

Sank-Peterburglik sharqshunos olim Abdurahmon Tohirjonov esa Kamoliddin Husayn ibn Ali Voiz deb adabiy taxallusini esa al-Koshifiy, al-Bayhaqi, as-Sabzavori, al-Haravi deb yuritilishi haqida ma'lumot beradi [3].

Eron olimi Said Nafisiy "Eron antologiya"sining birinchi jildida Kamoliddin Husayn bin Koshifiy Bayhaqi Haravi, mulla Husayn Koshifiy deb ishlatsa, boshqa asarlarida esa al-Shikafiy deb nomlanganini e'tirof etadi. Husayn Voiz Koshifiyning ism-sharifi turlicha qo'llanishi uning shaxsi bilan bog'liq ma'lumotlardagi nomlanishlar bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Natijada ba'zi olimlar Husayn Voiz Koshifiyning o'g'li shoir, olim Faxriddin Ali Safiy asarlarini ham Koshifiy asarlari deb talqin qiladigan tadqiqotchilar ham uchraydi[1].

Bizningcha "mavlono", "hakim", "kamol", "mahdum", "mulla" so'zlarining umumiy ma'nosi bir xil bo'lib hurmat, yetuklik, o'qimishlilik, donishmadlik ma'nosida qo'llanilgan. Shuning uchun ham uning ismi Kamoliddin, otasining ismi esa Husayn, adabiy taxallusi voiz Koshifiy deb yuritilgan.

O'rganilgan manbalar va olib borilgan tadqiqotlarning xulosasiga tayanib, Husayn Voiz Koshifiy 1440-yilda Xuroson viloyati Sabzavor shahri Bayhaq kentida tug'ilgan. U boshlang'ich ma'lumotni Sabzavorda oladi. U arab, fors va turkiy (chig'atoy) tillarni va matematika, astronomiya, kimyo, adabiyot kabi fanlardan chuqur ma'lumotga ega bo'lgan.

Yoshligidanoq voizlik, soʻz sanʼati bilan shugʻullanadi. Natijada Sabzavorda oʻzi yosh boʻlsa-da, koʻzga koʻringan voiz boʻlib taniladi. Bizga nomaʼlum boʻlgan manbalarda qayd qilinishicha, Husayn Voiz Koshifiy 1455-1468-yillarda Nishopur va Mashhadda yashab voizlik qilgan. U 1468 - yilning oxirida Hirotga keladi.

Tarixchi olim Said Nafisiyning [5] aytishicha, Koshifiy umrining oxirida Hindistonga safar qiladi. Koshifiy 1505 - yilda Hirotga vafot etadi. Husayn Voiz Koshifiydan koʻp ilmiy, badiiy, tarjima asarlar meros qolgan.

Xoliq Mirzozoda “Tojik adabiyoti tarixi” [2] kitobida Koshifiyning 37, Said Nafisiy [74] – 38, tadqiqotchi O.Usmonova – 200 dan ortiq, A.Tohirjonov [1] – 25 ta asari borligi haqidagi maʼlumotni tadqiqotlarida qayd qiladi. A.Tohirjonovdan boshqa tadqiqotchilar Husayn Voiz Koshifiy asarlarining roʻyxatini keltirmaganlar. Tadqiqotchi O.Usmonova Koshifiy asarlarining roʻyxati qaysi kutubxonalarda va qaysi mamlakatlarda saqlanayotganligini izohlab, bugungi kunda 86 asari roʻyxatga olinganligini taʼkidlaydi. Shundan 36 tasi yurtimizda [1], 50 tasi chet ellarda, shundan 14 tasi Eron milliy kutubxonasi kataloglarida, 18 tasi Rossiya Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik institutining Sank-Peterburg boʻlimida, 4 tasi S.Shchedrin nomidagi Sank-Peterburg kutubxonasida, 3 tasi Sank-Peterburg davlat universiteti kutubxonasida saqlanmoqda, – deb koʻrsatgan [1].

Husayn Voiz Koshifiy asarlari Rarij, London, Berlin shaharlarida, Iroq, Turkiya, Eron, Afgʻoniston, Hindiston, Bangladesh va boshqa mamlakatlar kutubxonalarda saqlanmoqda.

Gʻarbiy Yevropaning X.Kin, M.Duayt, D.Donelson, E.Braun, A.Arberri, E.Kennedi, E.Rozental, X.Masse, K.Lambton, R.Levi, A.Shastri kabi sharqshunos olimlari Markaziy Osiyo va Eronning XIV–XV asrlardagi ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyotini atroflicha oʻrganishga harakat qilgan. Jumladan, Husayn Voiz Koshifiyning ham asarlarini tadqiq qilishga harakat qilingan.

Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qoʻlyozmalar fondida Husayn Voiz Koshifiy asarlarining 75 ta toshbosma nusxasi, 197 ta qoʻlyozma nusxasi saqlanmoqda [1].

“Axloqi Muhsiniy” asari XV asrda yaratilgan axloqqa oid ham ilmiy, ham badiiy ahamiyatga ega boʻlgan muhim manba sanaladi [1]. Tuzuvchi asarga koʻplab sheʼriy namuna, qissa va rivoyatlar kiritganki, undagi ilgari surilgan gʻoyalar esa bugunki kun jamiyati kishilarining ham axloq-odob toʻgʻrisidagi sharqona tasavvurini boyitadi. Koshifiy har bir mavzuga oʻsha davr dunyoqarashidan kelib chiqib yondashgani kitobxonni tanqidiy fikrlashga yetaklaydi.

Kitob Alisher Navoiy rahnamoligida Hirot saroy kutubxonasida yozilgan boʻlib, oʻsha davrning mohir xattoti Mir Ali Hiraviy tomonidan 1501- yil nastaʼliq xatida koʻchirilgan. Kitobda asar voqealariga monand Hirot miniatyura maktabi uslubida tayyorlangan rasmlar oʻta hayotiyiligi bilan oʻsha davrni badiiy-tasviriy uslubining mukammalligini koʻrsatib beradi. Asar mashhur oʻzbek shoiri Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan 1858-yilda forschadan oʻzbek tiliga tarjima qilinib, toshbosma usulda bosilgan. Mana shu toshbosma nashr matnini tarix fanlari doktori Mahmud Hasanov (Muqaddima qismini qayta tarjima qilib) va tarix fanlari nomzodi Asadali Hakimjonov tomonidan maʼqullangan. 1876-yilda esa Mulla Oʻroz Muhammad bin Ustamquliboyev asarni fors tilidan eski oʻzbek tiliga tarjima qilgan.

Oʻrganilgan manblarga asoslanib, biz, Husayn Voiz Koshifiy ilmiy merosida 200 dan ortiq turli mavzulardagi asarlari mavjud ekanligining guvohi boʻldik.

Biz tadqiqotni amalga oshirish davomida R.Mahmudovning fikriga tayanib, Husayn Voiz Koshifiy asarlarini mavzu jihatdan oʻrganib, ularni quyidagicha tasniflashga harakat qildik.

1. Odob-axloq mavzusidagi asarlari: “Axloqi Muhsiniy”, “Risolai Xotamia”, “Anvori Suxayliy”, “Axloqi Karim”, “Lubob–ul maʼnaviy fi–intixobi”, “Javohirnoma”, “Masnaviy”.

2. Sheʼr sanʼati, adabiyotshunoslik, tilshunoslikka bagʻishlangan asarlari: “Badoe al–afkor fi sanoe ul–ashʼor”, “Matlai anvor”, “Tafsiri forsiy”, “Sharhi Masnaviy”, “Manzum avomul almata fi alna xu”.

3. Tarixiy mavzudagi asarlari: "Iskandar oynomasi" ("Jomi-jam"), "Allasama al Husayniy", "Mavohibi aliya" ("Tafsiri Husayniy", "Oliy tuhfarlar"), "Lab-e lubob-e masnaviy-Rumi", "Zod-ul- musofirin", "Nuvsol-e asr", "Avomul".

4. Davlatni boshqarish to'g'risidagi asarlari: "Axloqi Muxsiniy", "Javohirul tavsif fi tuhfat ul amir" ("Tafsif javohirlari va amir sovg'alari"), "Tuhfat as-salavat".

5. Kimyoga oid asarlari: "Mafoteh-ul kunuz fi-kimiyo", "Asror Qosimiy dar ilmi kimyo, simyo, rimyo, ximyo, muxtimal bar tillosim va shafobad va g'aroyim tasxirati masnafi".

6. Astronomiyaga oid asarlari: "Lavoyihul qamar", "Sab'ai Koshifiya", "Ixti yarat an-nudjum", "Labi lavoyixul kamari fi la x'ayorot".

7. Matematikaga oid asarlari: "Risola dar ilmi a'dod".

8. Voizlik san'atiga oid asarlari: "Dah majlis", "Maxzan ul insho" ("Sahifai shohi"), "Insho".

9. Musiqaga oid asarlari: "Tuh-fat at-Tafsir".

10. Diniy asarlari: "Tasxil al-bayoyon fi tafsiri al-Qur'on", "Tafsir mavohibul xalid ma'a Qur'oni Karim", "Muxtasar al-Djavohir", "Tafsir mavohibul xalid xalalin ma'n al-qur'on", "Tafsire Husayn ma Qur'on", "Ba foiri Qur'on mavohib ul dosir", "Risolayi aliya fi-al-axadisa nabaviya", "Fayz-ul navol fi bayon-iz-zavol".

11. Tasavvufga oid asari: "Futuvvatnomai Sultoni", "Zod-ul musofirin".

12. Badiiy asarlari: "Anvori Suxayliy" ("Kalila va Dimna"), fors va o'zbek tillaridagi ikki she'rlar, g'azallar devoni, "Matla'-ul anvor", va boshqalar.

13. Tibbiyotga oid asarlari: "Risola dar avrod va adviya" "Lubabul-bob".

14. Geografiyaga oid: "Al risolatul xamiya fa al xadis nabiviyata Hirot".

15. Turli fanlarga oid boshqa asarlari: "Kitobi ul ma'navi fi intihob ul ash'ori", "Suhrat is va fatx va al-voqea tafsirlari", "Al lubab al ma'naviy fi intihob ul masnaviy", "Suhrati alna ad-mayda al-laaronidan boshqa so'zlar", "Tafsir suratu fatx va tar vaf'a", "Xoxar-ul isron va zavo xabul-unvon", "Marsadas asniy dar istihrodi asmo Hasaniy", "Xozarul tafsir tuhfat-al amir", "Tafsiri oyaot farona", "Tafsiriy ayatimiroz", "Al xidoyikul loxul" kabilardir.

Husayn Voiz Koshifiy hayoti va ijodiga qiziqish uning tirikligidayoq boshlangan. Buni Xondamir, Mirxond, Alisher Navoiylarning Husayn Voiz Koshifiyga bergan tavsiflaridan anglash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Husayn Voiz Koshifiyning ma'naviy-axloqiy qarashlari ilmiy faoliyati bilan chambarchas bog'liq edi. Bu quyidagisha namoyon bo'ldi: birinchidan, ilmni va poklikni moddiy boylikdan hamda har qanday mansablardan ustun qo'ya oldi; ikkinchidan, ilm yolg'onga emas, haqiqatga asoslanishi lozim, degan fikrni ilgari surdi, yolg'on adolatning buzilishiga olib keladi, deb xulosa chiqaradi va hayoti davomida unga amal qildi; uchinchidan, ma'naviy-ruhiy tetiklikka erishish, yolg'ondan va boshqa buzg'unchi unsurlardan qutulishning yo'li kishining o'ziga bog'liq, degan xulosa shiqardi. Shuningdek, alloma bilimsiz kishilarning ko'ngli xurofotga moyil bo'ladi, deb aytadi. Haqiqatan ham, ilmsiz kishi o'zining mustaqil fikriga ega bo'lolmaydi. Mustaqil fikrning bo'lmaganligi esa kishini o'zga g'oya, fikrlar mutesiga aylantiradi. Xamirdan qanday shaklda zuvala olinsa, bilimsiz, xurofotga berilgan mute kishini ham istagan shaklga solish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Husayn Voiz Koshifiy. Axloqi Muhsiniy. Futuvvatnomai sultoni. Toshkent.: O'zbekiston. 2019-238b

2. Abu Homid G'azzoliy. Ri'zatun nafs (Nafs tarbiyasi). Toshkent.Movorounnahr.2006.-18b

3. Imom Ahmad ibn Qudoma Maqdisiy. Minhajul qosidiyn (saodat izlovchilarga qo'llanma). Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot - mantbaa birlashmasi. 2009. - 175 b.

4. Abu Homid G'azzoliy. Ri'ozatun nafs (Nafs tarbiyasi). Toshkent. Movorounnahr. 2006.-55b
5. Mahmud As'ad Jo'shon. Tasavvuf va go'zallik. Toshkent: Adolat. 2004- 155b.

Yo'ldashev Alisher Axrorovich,
Buxoro davlat universiteti, Sport faoliyati kafedrası o'qituvchisi
yulalisher777@gmail.com

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILAR ORASIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSISYATLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishning asosiy aspektlari, mazkur yoshdagi bolalar orasida jismoniy tarbiyaga bo'lgan qiziqishlarini o'stirish, ularning faoliyat turidan kelib chiqqan holda o'yin orqali ko'nikmalarini shakllantirish kabi jarayonlar yoritib berilgan. Pedagoglarning mazkur yoshdagi o'quvchilarni sog'lom turmush tarziga yo'naltira olish qobiliyatlarini shakllantirish. Bolalarning kichik yoshidan boshlab turli xil t to'garaklarga yo'naltirish muammolari, sog'lom turmush tarzi haqidagi ko'nikmalarni eng avvalo oila sharoitidan boshlan shakllantirish haqidagi asosiy tushunchalar yoritib berilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish maslalarini o'rganilgan.

Kalit so'zlar: pedagogika, boshlang'ich sinf, yosh davrlari, pedagogik aspektlar, maktabgacha yosh davri, maxsus qobiliyatlarni shakllantirish, sog'lom turmush tarsi.

Аннотация: данной статье рассмотрены основные аспекты формирования здорового образа жизни у учащихся начальных классов, развитие интереса к физической культуре у детей этого возраста, формирование у них умений через игровую основу вида деятельности и др. процессы. Формирование умения педагогов ориентировать учащихся этого возраста на здоровый образ жизни. Изучены проблемы направления детей в различные секции с раннего возраста, разъясняются основные понятия формирования навыков здорового образа жизни, прежде всего, исходя из семейных условий. Изучены вопросы пропаганды здорового образа жизни среди учащихся начальных классов.

Ключевые слова: педагогика, начальный класс, возрастные периоды, педагогические аспекты, дошкольный период, формирование специальных способностей, здоровый образ жизни.

Annotation: In this article, the main aspects of the formation of a healthy lifestyle among elementary school students, the development of interest in physical education among children of this age, the formation of their skills through games based on the type of activity, etc. processes are explained. Formation of the ability of pedagogues to direct students of this age to a healthy lifestyle. The problems of directing children to various t circles from a young age, the basic concepts of forming the skills of a healthy lifestyle, first of all, starting from family conditions, are highlighted. Issues of promoting a healthy lifestyle among primary school students were studied.

Key words: pedagogy, primary class, age periods, pedagogical aspects, preschool period, formation of special abilities, healthy lifestyle

Kirish. Nazariy jihatdan olib qaralganda odamlarning kundalik hayotida bu uchburchak turlicha variantlarda shakllangan bo'lishi mumkin. Har bir shaxsning o'z salomatligini mustahkamlashga bo'lgan ichki ehtiyoji uning bu yo'ldagi amaliy harakatini belgilaydi. Shunga ko'ra barcha omillarni: gigienik jihatdan to'g'ri va asoslangan turmush tarzida, ya'ni sog'lom turmush tarzida yashovchilarga; tibbiy gigienik jihatdan asoslanmagan, ya'ni nosog'lom turmush tarzida yashovchilarga ajratish mumkin. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti o'sib va rivojlanib borayotgan hozirgi davrda sog'lom turmush tarzining ijtimoiy – gigienik mezonlarini aniq belgilab olishning ahamiyati juda kattadir. Mamlakatimizda sog'lom turmush tarzi mafkurasi – inson salomatligining qonunatlari va bilimlari majmui emas, balki, inson salomatligini mustahkamlashga bo'lgan qarashlar tizimidan

iboratdir. STT mafkurasi, R.U.Arziqulovning fikricha, turmush tarzining falsafasini, davlatning sog'lom turmush tarzini shakllanishi bo'yicha yuritayotgan siyosatini, STT ning huquqiy, ahloqiy asoslarini, STTning pedagogikasi, psixologiyasi, sotsiologik madaniyati, etikasi va hechinasligi o'zida mujjasmalashtirgan bo'lishi lozim. Ma'lumki, me'zon – bu shunday bir o'lchamki, uning yordmida biz uchun o'lchanishi zarur bo'lgan jarayonlarni shakllantirilgan etalon (standart) bilan taqqoslash imkoniyatiga ega bo'lamiz, uni baholay olamiz. Sog'lom turmush tarzidek murakkab ijtimoiy jarayonlarni o'lchashda uning biz uchun maqbul va zarur bo'lgan o'lchamlarini shakllantirish muhim amaliy ahamiyatga egadir. Sog'lom turmush tarzini o'lchashda ishlatilishi mumkin bo'lgan bunday me'zonlar qatoriga shaxsning:

jamoatchilik va mehnat jarayonlarida faollik ko'rsatib, samarali ijodiy faoliyat bilan mashg'ul bo'lishi;

oilada va kundalik turmushda namunali yashashi;

o'zidagi jismoniy va ma'naviy qobiliyatlarni ro'yobga chiqarishga intilishi;

tabiiy va ijtimoiy muhit bilan mutanosiblikda yashashi;

sog'lom va barkamol inson bo'lib shakllanish uchun o'z shaxsini bosqichma-bosqich rivojlantirib borishga intilishi;

nosog'lom turmush tarziga xos zararli odatlarning quliga aylanib qolishdan va o'z umrini hayot oqimining ayovsiz girdobiga tushib qolishdan asrashga intilib yashashi;

faqat uzoq yashayotgani uchungina emas, balki hayotda to'g'ri yashayotganidan ham qoniqishi hosil qilib, zavqlanib yashashi intilishi;

sog'lom turmush tarzini o'zi uchun bir umrga hamroh qilib olishi kabi qimmatli sifat va xususiyatlarini kiritish mumkin.

Har bir inson o'z tana a'zolarining zahiraviy imkoniyatlarini oshirish uchun, ularni muntazam ravishda chiniqtirib borishi lozim. Salomatlik zahiralari yaratish uchun sog'lom turmush tarzining quyidagi qoidalariga amal qilish tavsiya etiladi: · muntazam ravishda jismoniy tarbiya va jismoniy mehnat bilan shug'ullanish. Haftada organizmga kamida 6 soat jismoniy yuklama berish; · me'yoriy aqliy va jismoniy yuklama bilan ishlash, kuchli aqliy mehnatdan so'ng faol dam olish. Mehnat bilan dam olishni galmagal va mazmunli tashkil qilish; ratsional va tarkib jihatdan tenglashtirilgan ovqatlanish, ortiqcha vazndan qutilish, hayvon yog'lari, qand va shirinliklarni iste'mol qilishini chegaralash; zararli odatlardan yuz o'girish; · organizmni chiniqtirish; toza havoda har kuni kamida 2-3 soat bo'lish; kun tartibiga qat'iy amal qilish, bir kecha-kunduzda kamida 8 soat uxlash; · ehtiyoj tug'ilganda turmush tarzini va ishini o'zgartirish;

turmush, o'qish va ishdan qanoatlanib yashash. Organizmning zahiraviy imkoniyatlarini oshirishni palapartish emas, batartib tashkil qilishga erishish lozim.

Sog'lom turmush tarzi birinchi navbatda salomatlikni saqlash va mustahkamlash, yuqori mehnat qobiliyatini, insonning doimiy faolligi, ilmiy asoslangan tibbiy-gigiyenik me'yorlarga asoslangan xulq-atvorni ta'minlashga qaratilgan, ya'ni odamlarning tanani saqlash va mustahkamlashga yo'naltirilgan sog'lom turmush tarzi sifatida namoyon bo'ladi. Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, avvalambor, o'yin faoliyati jarayonida ular ongiga singdiriladi va bosqichma-bosqich rivojlantiriladi. Mamlakatimizda aholi o'rtasida sog'lom muhitni shakllantirish, odamlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etishning muayyan mexanizmlarini shakllantirish borasida ko'plab muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Prezident Sh.M.Mirziyoyev tomonlaridan sog'lom turmush tarzini shakllantirish odamlarning bo'sh vaqtini sog'lom jismoniy mashqlar bilan ta'minlashga juda katta e'tibor berilmoqda. Har bir viloyat, shahar va tumanga birlashtirilgan sektorlarda yoshlarning doimo sog'lom jismoniy mashqlar bilan band bo'lishi uchun aniq ishlar amalga oshirilmoqda. Yosh avlodni sog'lom turmush tarzi ruhida tarbiyalash maqsadi nafaqat yosh avlod, balki o'rta yoshdagi hamda katta yoshdagi insonlar orasida ham keng targ'ib qilinmoqda, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Har bir shaxsning mukammal bo'lib shakllanishi teran o'ylab fikrlay oladigan doimiy katta maqsadlarni ko'zlay oladigan bo'lishi uchun bolalik davrida eng avvalo sog'lom turmush tarziga e'tibor qaratilishi juda muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik yillaridan boshlab mamlakatimizda sog'lom turmush tarziga e'tibor yosh davriga qaramasdan doim sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlar bilan band bo'lishi uchun qanchadan qancha shart sharoitlar yaratib kelindmoqda, hozirgi kunga kelib bu jarayonlar o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Yosh avlodning doim sog'lom turmush tarziga rioya etib shakllanishi uchun albatta Prezidentimiz tomonlaridan alohida e'tibor va topshiriqlar berib kelinmoqda, insonlar orasida sog'lom turmush tarzini ma'lum yosh davriga yetgandan keyin emas balki maktabgacha bo'lgan davr va boshlang'ich sinf yoshidan shakllantirib borish masalalari juda keng targ'ib etib kelinmoqda. Har bir ta'lim dargohida maktabdan tashqari sog'lom turmush tarzini shakllantirish aspektlari sifatida turli xil yosh davrlariga qaratilgan sport to'garaklari doimiy o'z faoliyatini olib borishi ham bu sohaga qaratilayotgan juda katta e'tiborning yaqqol isboti hisoblanadi. Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar orasida o'yin faoliyat turining katta ahamiyatga ega ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, mazkur yoshdagi bolalar uchun har bir mahallada sport maydonchalari qurib foydalanishga topshirilmoqda, bundan tashqari ta'lim dargohida ham bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etish uchun turli xil chora tadbirlar ishlab chiqilmoqda va doimiy shakllantirib borilmoqda.

Asosiy qism metodologiya. Salomatlikni mustahkamlovchi turmush tarzida, eng avvalo, ruhiy zo'riqish va jismoniy yuklamalar o'rtasidagi muvozanat o'rganilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarida jismoniy tayyorgarlik va ruhiy barqarorlikni bosqichma-bosqich shakllantirish birlamchi vazifa hisoblanadi. To'g'ri ovqatlanishga e'tibor berish yosh avlodning boshlang'ich sinf o'quvchilari oldidagi eng muhim vazifalardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu yoshdagi o'quvchilarda ovqatlanish jarayonida noaniqlik va nazoratning yo'qligi turli kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar o'rtasida uyg'un munosabatlarning mavjudligi sog'lom turmush tarzini shakllantirishning yana bir muhim jihati hisoblanadi, ya'ni agar bu yoshda bolalarga beriladigan vazifalar katta emasligini hisobga olsak, ular bilan jamoaviy yuklamalar pedagoglar tomonidan ishlab chiqilib bosqichma bosqich shakllantirilsa ijobiy natijaga erishish osonlashadi. Ammo bu holatning yana bir tomoni borki, biz pedagoglar sog'lom turmush tarzini shakllantirishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ota-onalari yordamida aynan shu yoshdagi bolalarni sog'lom turmush tarziga yo'naltira olamiz.

Bu jarayonlarni tashkil etishda eng avvalo, boshlang'ich sinf o'quvchilarining qiziqishlaridan kelib chiqib harakat qilish, ya'ni ularning asosiy faoliyatini hisobga olgan holda o'yin jarayonlarini orqali tashkil etishga alohida e'tibor qaratish lozim. Ya'ni, asosiy yuklamalarni katta hajmda emas, balki asta-sekin kichik hajmda va o'yin faoliyat turi bilan bog'liq holda tashkil etish juda muhim jarayondir. Sog'lom turmush tarzi - bu yoshdagi bolalar uchun o'yinqarolik, harakatchanlik har doim biror narsa bilan band bo'lish odatiy jarayondir. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari oldiga qo'yilgan vazifalar asosan shu jarayonlarni hisobga olgan holda o'quvchilarni aqliy va jismonan shakllantirishning o'ta muhim va mas'uliyatli vazifasi hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish, avvalambor, ularni tarbiyalovchi o'qituvchining faoliyatiga asoslanadi, bu kasb egalari doimo bolalarga ortiqcha zarar yetkazmasdan, to'g'ri vazifa berib, ularni har tomonlama shakllantirishlari lozim bo'ladi. Ko'p hollarda boshlang'ich sinf o'qituvchilari bolalarning ongida nimalar bo'layotganini bilmay turib, ortiqcha yuklamani berishlari oqibatida bolalarda psixologik stabillikning buzulishiga olib kelishi mumkin. Bunday hollarda boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lishi va boshlang'ich sinf o'quvchi yosh xususiyatlaridan kelib chiqib ishlay olish qobiliyatiga ega bo'lishlari zarur.

Juda ko'p sog'lomlashtirishga qaratilgan holatlar boshlang'ich sinf o'quvchilarini shaxsiy gigiyenaga rioya eta olishlariga qaratilgan e'tiborga bog'liq bo'ladi. Bunda ko'pgina

ta'lim jarayonlari boshlang'ich sinf o'quvchilarining ota-onalari, sinf rahbarlari, to'garak rahbarlari kabi shaxs sifatleri bilan ishlashimiz kerak bo'ladi.

Bu sohaning ko'pgina olimlari fikrlarida mulohazalarida boshlang'ich maktab davridagi yosh xususiyatlari o'quvchining bilish jarayonlari va undan keyingi faoliyatiga kuchli ta'sir ko'rsatishini doimo ta'kidlab keladilar. Mazkur yoshda bolalar o'z faoliyatlarining asosiy qismidagi yuklamani o'zlarida shakllantirib olishlarini hisobga oladigan bo'lsak, biz pedagoglar oldida juda katta ma'suliyatli vazifa turibdi desak to'g'ri bo'ladi. Juda ko'p olib borilgan tadqiqotlar natijasida mazkur yoshdagi bolalar jismoniy chiniqqanlikni shakllantirish eng avvalo ularning atrof muhitdagi holatiga bog'liqligi aniqlangan.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ko'p hollarda boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish jarayoni, birinchi navbatda, oilaviy sharoitdan kelib chiqqan holda faoliyat jarayoniga singib ketadi. Har bir bolaning to'g'ri ovqatlanishi va to'g'ri gigiyenasi maktab jarayoniga qo'shilgandan keyin bosqichma-bosqich shakllanadi. Mazkur yoshda bolalar orasida foydali odatlarni shakllantirish, pedagoglar tomonidan beriladigan yuklamalarni hajmiga e'tibor qaratgan holda nazariy jihatdan ham jismonan ham boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixologik holatlariga ta'sir ko'rsatmasdan shakllantirilishi lozim. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, biz pedagoglar uchun o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida yomon odatlardan uzoqlashish, bolaning rivojlanishiga to'sqinlik qilmaydigan fazilatlariga ega bo'lish kabi holatlarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Mashhur olim Gegel ham odatlar insonni uning quli qilishini ta'kidlagan. Shuning uchun ham maktabgacha va maktab yoshida foydali odatlarni shakllantirish va ularning illatlarga aylanib qolish xavfini kamaytirish, zararli odatlarga qarshi kurashish juda muhimdir. Sog'lom turmush tarzi deganda eng avvalo pedagogning boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan bajaradigan faoliyatiga ko'p holatlar bog'lanib ketadi. Bunda foydalaniladiga metodlar va usullarga ham ko'p jarayonlar bog'liq bo'ladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Yana bir jarayonni qo'shimcha qilish muhim deb hisobladik ya'ni, boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyalashda shaxsiy gigiyena tushunchasini shakllantirish juda muhim hisoblanadi. To'g'ri ovqatlanish ovqatlangandan avval va keyin albatta qo'llarni yuvish, uyqudan oldin va ovqatlangandan keyin tishlarni tozalash, toza kiyim, umuman, tozalikka qat'iy rioya etish sog'lom turmush tarzining asosiy shartlaridan hisoblanadi va aynan shu jarayonlarni mazkur yoshdagi bolalarda shakllantirsak sog'lom turmush tarzini takomillashtirishda birinchi qadamni qo'ygan bo'lamiz. Sog'lom turmush tarzi, bu har qanday kasalliklar profilaktikasi va salomatlik uchun kuch quvvat garovidir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda turli xil qirralarni inobatga olgan holda bosqichma bosqich shakllantirish muvaffaqiyatga erishish asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Sog'lom turmush tarzi qoidalariga rioya etgan odam oilasi, mehnat jamoasi, umuman, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'ladi, turli murakkab vaziyatlarni yengib o'tish, hayot qiyinchiliklari oldida o'zini yo'qotmaslikka o'rganadi. Sog'lom turmush tarzi qoidalari bir-birini qo'llab-quvvatlaydi, biri ikkinchisiz sodir bo'lishi amrimahol.

Bu jarayonlarni e'tiborimizdan chetda qoldirmasdan ma'suliyat bilan yondashsak, boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida so'g'lom turmush tarzi haqida ma'lum bir ko'nikmalarga yo'naltira olamiz desak aniqroq bo'ladi. An'anaviy shakllangan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning ko'p vaqti o'tirgan holatda bo'ladi. Shuning uchun pedagoglar o'quvchilarni dars vaqtida o'tirish holatlarini nazorat qilishlari, darslarda jismoniy tarbiya daqiqalarini o'tkazishlari, ijobiy ta'sir qiladigan harakatlar tartibini tashkil qilishlari, jismoniy tarbiya mashqlariga gavdani to'g'ri tutishga yo'naltirilgan mashqlarni kiritishlari zarur.

Mashqlarni jismoniy yo'naltirib bajarish yanada ko'proq ijobiy samara beradi. Maktabda o'qishning birinchi kunidan boshlab birinchi sinf o'quvchilarida to'g'ri o'tirishni shakllantirishga e'tibor qaratish zarur. Bolalarni maktabda va uyda o'tirish holatini nazorat qilishning oddiy usullarini pedagoglar o'rgatishlari zarur. Pedagoglar bolaning o'tirishini sabr bilan boshlang'ich sinflarda kuzatishlari kerak bo'ladi. Yozma ishlarni bajarish uchun zarur

bo'lgan egilib o'tirish holatida orqa mushaklarga og'irlik tushadi, yurak urushi tezlashadi, nafas olish harakatining amplitudasi kamayadi. Bunday holatda tenglikni saqlash uchun o'quvchilar stol ustiga ko'krak bilan suyanadilar, bu esa ichki organlar ishini yanada og'irlashadi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilarining nazorati bolalarning sog'lom bo'lishlari uchun katta ahamiyatga ega. Darslarda jismoniy tarbiya daqiqalarini o'tkazish o'quvchilarning ishga layoqatligini ushlab turish uchun samarali vositadir. Ayniqsa sog'lom turmush tarzini shakllantirish maqsadida dars jarayonlarida ham bolalarning har bir holatiga e'tibor berib shakllantirish o'qituvchi pedagoglar oldida turgan eng asosiya vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T. “O'zbekiston” NMIU, 2018. – B.19-20.
2. Umedjanova M. L., Salikhov S. M., Salikhov T. M. The Role of National Education in Preparing Young People for Family Life //European journal of innovation in nonformal education. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 271-276.
3. Салихов Т. и др. Psychological Characteristics Of Increasing Cognitive Activity In Elementary School Students //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
4. Salixov S. M., Salixov T. M. Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligini

Qosimova Gulxumor Muxtorjon qizi,

*Doctorate researcher institute for retraining
and advanced training of preschool education personnel and manager*

STRATEGIES FOR TEACHING LISTENING SKILLS TO KINDERGARTENERS IN ENGLISH: A REVIEW OF EFFECTIVE METHODS

Shu bilan birga, interfaol usullarning kimyo fanini o'qitishda qo'llanilishi faqat metodik jihatdan emas, balki o'quvchilarning umumiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilar jamoada ishlashni, bir-biriga yordam berishni, ijtimoiy va kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantirishni o'rganadilar. Bu ta'limning yirik maqsadlaridan biri bo'lgan shaxsni rivojlantirishga katta hissa qo'shadi.

Bundan tashqari, interfaol usullarni qo'llashda raqamli texnologiyalar, multimedia vositalari va virtual laboratoriyalar kabi zamonaviy raqamli resurslardan foydalanish ta'lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi. Bunday texnologiyalar yordamida o'quvchilar kimyo fanining abstrakt va murakkab tushunchalarini o'zlashtirishda vizual va amaliy tajribalar asosida o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar o'quvchilarga real sharoitda amalga oshirilishi mumkin bo'lmagan tajribalarni amalga oshirish, kimyoviy reaksiyalarni o'rganish va ularning natijalarini tahlil qilish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, umumiy o'rta ta'lim maktablarida kimyo fanini o'qitishda interfaol usullardan foydalanish nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini oshiradi, balki ularda ilmiy fikrlashni, mustaqil ishlash va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu usullar kimyo fanining o'quvchilarga tushunarli va qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi, shuningdek, ta'limning sifatini yaxshilaydi. Bunday metodik yondashuvlar o'quvchilarning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularni kelajakda ilmiy izlanishlar va amaliy faoliyatlarga tayyorlaydi. Shu bilan birga, o'qituvchilarni o'z pedagogik yondashuvlarini yangilash va ta'limda innovatsion texnologiyalarni qo'llashga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Abdullaeva, M. & Tursunov, Sh. (2019). Pedagogik texnologiyalar: ta'limda innovatsiyalar va interfaol usullar. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi O'quvchilarni tayyorlash markazi.

2. Baxramov, B. & Karimov, A. (2020). Kimyo fani metodikasi. Bukhara: Bukhara State University Publishing.

3. Davronov, K. & Islomov, A. (2021). Innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar. Tashkent: Pedagogika va psixologiya instituti.
4. Kuzieva, A. (2018). Ta'limda interfaol metodlarning ahamiyati va uning kimyo faniga qo'llanishi. O'zbekiston Ta'limi, 4(1), 45-56.
5. Mamatova, N. (2020). Kimyo darslarida raqamli texnologiyalarni qo'llash. O'qituvchi va ta'lim metodikasi, 1(2), 72-80.
6. Pirov, O. & Rahmatov, S. (2017). O'quv jarayonida interfaol metodlarni qo'llash va uning samaradorligi. Ta'lim va ilm-fan, 3(5), 112-118.
7. Sirojiddinov, R. (2022). Kimyo fani o'qituvchilariga metodik qo'llanma. Toshkent: O'qituvchi.
8. Usmanova, G. (2021). Multimedia texnologiyalari va interfaol usullarni kimyo fanida qo'llash. Kimyo ta'limi, 2(3), 28-37.
9. Vahobov, E. (2023). Kimyo fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Xalq ta'limi, 2(4), 50-60.
10. Yuldoshev, M. (2019). Ta'limda interfaol usullarni qo'llash: metodologiya va amaliyot. Bukhara: Bukhara State University Press.

Mahmudov Maqsud Kamolovich,

Buxoro davlat universiteti sport faoliyati kafedrası dotsenti, (PhD)

VOLEYBOLCHILAR INTELLEKTUAL-JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA SPORT MASHG'ULOTLARINING AHAMIYATI

Annotatsiya: mazkur maqolada sport mashg'ulotlari jarayonida voleybolchilarda intellektual-jismoniy sifatlarni rivojlantirish mexanizmlari mazmuni yoritilgan. Shuningdek, ushbu jarayonda muayyn mashg'ulotlar uchun mashqlar tizimi, murabbiy ko'rsatmalari asosida turli ampuadagi voleybolchilarning individual aqliy hamda jismoniy imkoniyatlarini takomillashtirish yo'llari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: sport, mashg'ulot, mashq, intellekt, sifat, qobiliyat, rivojlantirish, tayyorgarlik, ampu, mantiqiy topshiriq, natija.

Аннотация: В данной статье освещены механизмы развития интеллектуальных и физических качеств у волейболистов в процессе спортивных занятий. Также рассматриваются системы упражнений для определенных тренировок, а также способы улучшения индивидуальных умственных и физических возможностей волейболистов разных ампу на основе рекомендаций тренера.

Ключевые слова: спорт, тренировка, упражнение, интеллект, качество, способности, развитие, подготовка, ампу, логическое задание, результат.

Annotation: This article highlights the mechanisms for developing intellectual and physical qualities in volleyball players during training sessions. It also discusses the exercise systems for specific drills and ways to improve the individual mental and physical capabilities of volleyball players in different positions, based on coach's instructions.

Key words: sport, training, exercise, intellect, quality, ability, development, preparation, position, logical task, result.

Kirish. Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarda intellektual-jismoniy xususiyatlarni rivojlantirish, ilmiy dunyoqarashni tarkib toptirishning innovation texnologiyalarini takomillashtirishning didaktik parametrlarini aniqlashtirishni taqozo etmoqda.

Ayniqsa, talabalarda intellektual-jismoniy xususiyatlarni rivojlantirishning kreativ komponentlariga ustuvorlik berish, innovation yondashuvlar asosida olamning ilmiy manzarasini yaxlit idrok etish malakalarini tarkib toptirishga alohida zarurat mavjud.

Talabalar intellektual qobiliyati insoniyat rivojlanishi, ijtimoiy hamda ilmiy-texnikaviy taraqqiyot ta'sirida yuz beradi. Intellektual qobiliyat yangi shakllarining yuzaga kelishi uning taraqqiyotidagi uzilish, oldingi shakllar barham topishi va madaniy merosni inkor etish degani emas, albatta. Har bir keyingi bosqich uning amaliyot, hayot sinovi tasdig'idan o'tgan asl jihatlarini o'zida gavalantiradi.

Talabalar intellektual-jismoniy sifatlarni rivojlantirish asosini dunyoviy bilimlar majmuasi tashkil qiladi, ular bilan intellekt o'rtasidagi aloqa dialektik jarayon tarzida amal qiladi: bilimlar, bir tomondan, bilish faoliyati natijalari bo'lsa, boshqa tomondan, inson faoliyatining o'ziga xos ko'rinishi tarzida intellektning, intellektual madaniyatning ajralmas qismi sanaladi.

Asosiy qism. Muayyan mashg'ulot uchun mashqlarni tanlash, jamg'arish-bu murakkab yoki ijodsiz jarayon emas. Sportchilarning salomatligi, jismoniy va ruhiy imkoniyatlari, jamoaning ehtiyoji va rejalashtirilgan vazifalarga qarab mashg'ulot mazmuni shunday o'zgartirilishi kerakki, qo'yilgan asosiy maqsad amalga oshirilishi darkor.

Mashqlar amaliyotning asosiy kuchi va kuchli jamoaning oldindan rejalashtirgan poydevoridir. O'z navbatida sportchilar mashqlar yordamida ham shug'ullanidal ham ish qobiliyatini tiklaydilar.

Mashg'ulot aynan bir maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilgan bo'lishi hamda chigalyozdi razminkadan boshlanishi darkor. Bu o'yinchilarni birlashtiradi va ularni jamoada hamjixat bo'lib ishlashga yordam beradi.

Murabbiylar va o'yinchilar shuni bilishlari zarurni, har bir mashg'ulot imkoniyatlarni rivojlantirishga, jamoaviy his-tuyg'ular va yuklamalardan baxramand bo'lishini ta'minlashga qaratiladi. Bunda o'yinchilarni mashg'ulot oldindanoq g'alabaga-samarali natijaga erishishi kerakligi haqida shakllantiruvchi ko'rsatma berish muhim ahamiyat kasb etadi. Murabbiylar o'z o'yinchilarga qanchalik ishonsa, mashg'ulot davomida tashabbuskorlikni ta'minlasa, mashqlarni o'zlashtirish sur'ati shunchalik yuksak bo'ladi.

Murabbiy navbatdagi mavsumda yuksak natijaga erishishga qaratgan mashg'ulotlar dasturini aniqlashtirib olganidan so'ng tayyorgarlik jarayonining umumiy andozasini ishlab chiqishga kirishishi lozim. Mashqlarni tanlash va ulardan foydalanish muvofiq ravishda murabbiyga ham, o'yinchilarga ham moslashtirilgan bo'lmog'i darkor. Chunki murabbiy ushbu mashqlarni qo'llashda shaxsan o'zi ham ishtirok etadi. Demak, murabbiy ham bu borada yetarli tayyorgarlikka ega bo'lishi kerak.

Murabbiy zarur ko'rsatmalar, yo'l-yo'riqlar beradi, mashqlar shiddatini nazorat qiladi, to'p yo'nalishlarini boshqaradi. Bunday yondashuv va bunday mashqlar mavsumning o'rgatish fazasida beriladi. Mashqlar o'yinchilarning diqqat markazida bo'ladi, ular to'p harakatini boshqaradi, nazorat qiladi, mashqlar shiddatini baholaydi. Ushbu jarayonda murabbiyning roli o'zaro aloqani o'rgatish, zaruriyatga qarab o'rgatish, ko'rsatma berish va o'zgartirishlar kiritishdan iborat bo'ladi.

Mavsumoldi mashqlar ko'p martalab takrorlanishi zarur, zero o'yinchilar bu mashqlarni mukammal va yuksak aniqlik bilan bajarishlari talab qilinadi. Mavsumoldi bosqichida o'yinchilarning to'p bilan o'ynash soni tayyorgarlik qimining barcha fazalariga nisbatan ancha ko'proq bo'lishi lozim. Shunday mashqlarni tanlash zarurki, har bir o'yinchi imkon boricha ko'proq to'p bilan o'ynasin.

Mavsumoldi tayyorgarlik davri shunday jarayonki, unda ham individual o'yinda, ham guruhli o'yinda o'rgatish va texnik mahoratni ko'rikdan o'tkazish choralari ko'riladi. Yuqori malakali jamoalar ham, quyi malakali jamoalar ham tayyorgarlik darajasidan qat'iy nazar o'rgatish-o'rganish jarayonidan chetda qolmasligi kerak.

Mavsumoldi tayyorgarlik fazasi – bu musobaqa o'yinlaridan istisno jarayon degani emas. Aksincha! Har bir mashq, har bir mashg'ulot musobaqa tarzida tashkil qilinmog'i lozim. Birinchi kundan boshlab juftlikda va to'rtlikda ijro etiladigan mashqlarni musobaqa shaklida qo'llash o'yin malakalarini (texnik-taktik usullarni) 6x6 tartibdagi o'yin mashg'ulotlariga nisbatan yanada salmoqliroq takomillashtiradi. Bu borada aksariyat individual mashqlarga ustunlik borish, kamroq darajada guruh va jamoa mashqlariga ahamiyat qaratish zarur.

Musobaqaoldi fazasi davomida mashg'ulotlarning asosiy va ustivor qismlariga e'tibor qaratish kerak. Qayta-qayta takrorlanuvchi elementlarga esa kamroq urg'u berish maqsadga muvofiq, lekin ushbu jarayon ham nazoratdan holi bo'lmasligi lozim. Mashg'ulotni o'tkazish uslubi mashqlarni uzoq muddatda ko'p martalab takrorlash, ularni mukammal darajada o'zlashtirishga qaratilishi lozim. Buning uchun mashg'ulotlar o'yinchilarda qiziqish va ijobiy emotsional motivasiyani uyg'otishi kerak.

Mavsumning oraliq fazasi – bu himoyada o'ynash, guruhli va jamoa mashg'ulotlariga o'tish davridir. Bu davrda ko'nikma, usul va malakalarni takrorlashga katta ehtiyoj bo'lsada, lekin bunga kamroq urg'u berib, asosan jamoani musobaqa o'yinlariga maqsadli tayyorlash kerak bo'ladi. Ushbu jarayonda asosiy e'tibor turli yo'nalish, zonalar va balandlik bo'ylab to'p uzatish mashqlariga ustunlik berish talab qilinadi.

Mashg'ulotlarga bunday yondashish g'alabaga erishish istagini mustaxkamlaydi, ishonchni kuchaytiradi.

Muhokama. Turli ampluadagi voleybolchilarning intellektual qobiliyatlari tabiiy ravishda turli tarzda rivojlanadi. Tadqiqotlarimiz natijalari shuni ko'rsatdiki, voleybolchilar intellektual qobiliyatining samarali rivojlanishi quyidagi holatlarga bog'liq bo'ladi:

1. O'quv-trenirovka jarayonida taktik kombinatsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq maxsus intellektual topshiriqlarni qo'llash;

2. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish va maxsus harakat faoliyati tajribasini egallash maqsadida katta yoshdagi voleybolchilar bilan o'yinlarni tashkil etish;

3. Faoliyat natijalarini baholashda refleksiv tahlil usullaridan foydalanish.

Tadqiqotimiz davomida turli o'yin amplusini afzal ko'radigan voleybolchilar intellektual-jismoniy qobiliyatlarining rivojlanganlik ko'rsatkichlari aniqlash maqsad qilib qo'yildi va ushbu faoliyatni amalga oshirishga qaratilgan tajriba sinov ishlari tashkil etildi.

Qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida quyidagi vaziflar hal etildi.

1. Turli ampluadagi voleybolchilarning intellektual-jismoniy qobiliyatlari o'rganildi.

2. Turli ampluadagi voleybolchilar intellektual-jismoniy qobiliyatlarining aniqlik va tezkorlik ko'rsatkichlari tahlil qilindi.

3. Voleybolchilarning intellektual-jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan mantiqiy topshiriqlar tizimi ishlab chiqildi.

4. Voleybolchilarning intellektual jismoniy rivojlanishini ta'minlaydigan amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi va tajribadan o'tkazildi.

1 va 2 razryadga ega voleybolchilar tanlab olinib ular jamoada o'ynaydigan amplusi bo'yicha guruhlariga ajratildi.

Voleybolchilarning intellektual qobiliyatlarini aniqlash maqsadida "Uchlik" o'yinidan foydalandik.

Uchalla topshiriqni bajarishga ketgan vaqt umumlashtirilib vaqtning, shuningdek 3 ta topshiriqni bajarishga sarflangan qadamlarning o'rtacha qiymati aniqlandi.

Tadqiqotimiz davomida biz tomonimizdan taqdim etilgan mantiqiy topshiriqlarni yechish tezligi va operativ tafakkurning namoyon bo'lishi darajasi bo'yicha bog'lovchi-o'yinchilar peshqadamlikka ega bo'ldilar.

O'rtacha hisoblaganda bog'lovchi o'yinchilar 3 ta topshiriqni bajarishda 8,5 qadam sarflashdi.

Bu holat shu bilan izohlanadiki, bog'lovchilar o'yin vaziyatlarida ko'p xodli taktik kombinatsiyalarni aniq amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan turli xil taktik vaziflarni aniq va ratsional yechish va amalga oshirishlari lozim bo'ladi.

Hujumchilarda bu ko'rsatkich bog'lovchilarga qaraganda yuqori ya'ni 3 ta topshiriqni bajarishda 9-15 qadamni tashkil etadi.

Bu holatni quyidagicha izohlash mumkin: zamonaviy voleybolda hujumchilar kombinatsiyani samarali yakunlashga qaratilgan faol harakatlari bilan ajralib turadi. Ular hujumkor o'yinni ta'minlovchi murakkab taktik vazifalarni yechishga qaratilgan faoliyat bilan kam shug'ullanadilar.

Himoyachilarning vazifasi raqib hujumlarini buzish va qaytarishga yo'naltirilgan bo'lib, ularning hatti harakatlari asosan aniq pozitsiyalarni egallash orqali, keyingi hujumni tashkil etib berishdan iborat.

Uchchala ampluadagi voleybolchilarning qarorlarni qabul qilish tezligini sekundomer orqali aniqladik (PV-53sh).

Qarorlarni qabul qilish tezligi bo'yicha hujumchilar yetakchi hisoblanadi. Har bir qarorni qabul qilish tezligi ularda o'rtacha 6,8 sekundni tashkil etdi. Ularning hatti harakati yuqori ko'tarinkilik ruhi bilan bog'liq bo'ladi. Bu holat qator psixologik funksiyalarning yuqori darajada namoyon bo'lishini talab etib, shu bilan bir qatorda operativ tafakkurning tezligi ruhiy xususiyatining shakllanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi. Himoyachilar hujumchilarga

nisbatan vazifalarni yechish tezligi bo'yicha yutqazishadi. (7,72 va 8,5 s) Taktik vazifalarni yechishda bog'lovchi o'yinchilar eng yuqori natijani ko'satishadi (6,6 sek.)

Yuqorida qayd etganimizdek, himoyachi voleybolchilarda o'yin davomida yuzaga keladigan holatlarni bashorat qilish va sezish qobiliyatlari rivojlangan bo'ladi. Ular tomonidan juda qisqa mudat ya'ni sekundning o'ndan bir daqiqasida uchib kelayatgan to'pni qaytarish xususiyati shu bilan izohlanadi.

Vazifalarni bajarish tezligi shuni ko'rsatdiki, himoyachilarga qaror qabul qilishda o'rtacha 13, 96 sek vaqt sarflanar ekan. Himoyachi tez va natijaga yo'naltirilgan voqe'alarni bashorat qila olishi zarur, chunki hujumchi bilan to'qnashuvda vaqt va variantlarni tanlashda ustunlik hujumchi tomonida bo'ladi.

Himoyachilar 3 ta vazifani yechishda qolgan amplitudadagi o'yinchilardan ko'ra vaziyatni yutqazadilar (o'rtacha ko'rsatkich 16, 98 sek.) Chunki himoyachilar asosan pozitsion kurashda ishtirok etib, xato qilib qolishdan hadiksiraydilar.

Xulosa. O'yinchilar va murabbiylar o'rtasida, o'yinchilarning o'zaro munosabatlarida hamkorlik va hamjixatlik aloqalarini o'rnatish muhim amaliy ahamiyatga egadir. Mashg'ulotlarda, trenajer zallarida va musobaqalarida bunday jarayonni maqsadli amalga oshirish uchun vaqt chegaralangan bo'ladi. Bunday jarayonni mashg'ulot va musobaqalarda tashqari vaqtlarda uyushtirish foydalidir.

Shuni esda tutish lozimki, sportni qadrlash, unga mehr qo'yish kuchli omil bo'lsada, o'yinchilar o'rtasidagi o'zaro birdamli o'z-o'zidan shakllanmaydi.

Jamoa faoliyati o'z ichiga ijtimoiy yig'inlar, ovqatlanish, filmlarni ko'rish yoki boshqa tadbirlar sportchilarni bir – biriga yaqinlashtiradi, birlashtiradi, ularni bir – biri bilan yaqindan tanishish imkoniyatini yaratadi. Bu o'yinchilarga o'zini tushunish va boshqalarni bilishga olib keladi. O'yinchilar ko'p jixatlardan bir – biridan farq qiladi. Ularni birlashtirish va yagona maqsadga yo'naltirish birinchi navbatda ruhiy xislatlarni bilishni talab qiladi.

Mashg'ulot va musobaqalardan tashqari o'tkaziladigan tadbirlar o'yinchilarni ruhan va emotsional jihatdan birlashtirishga xizmat qiladi.

Taktik vazifalarni hal etishda voleybolchining tafakkuri baholovchi, izlanuvchi, bashoratlovchi funksiyalarni bajarib, turli o'zgarib turuvchi vaziyatlarda optimal va eng samarali qarorlarni qabul qilishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Taktik harakatlarda voleybolchilarda ijodiy tafakkur amalga oshiriladi. Voleybolda maqsadga yo'naltirilgan va optimal samarali usullarni izdab topadigan, raqib uchun kutilmagan vaziyatlarni taklif etadigan, jamoa o'yinchilari uchun esa qulay imkoniyatlarni yaratadigan, jamoaning taktik o'ylanma va ishlanmalarini amalga oshira oladigan hamda raqib taktikasiga qarshi taktika qo'llay oladigan jamoagina yutadi. Bu holatlarning hammasi voleybolchining intellektual-jismoniy qobiliyatlari va xususiyatlarinig rivojlanishi orqali ro'yobga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Педагогика назарияси ва тарихи. 1-қисм. Педагогика назарияси. – Тошкент: “Iqtisod-moliya”, 2007. – 379 б.

2. Mamurov B. et al. Acmeological Approach to the Formation of Healthy Lifestyle Among University Students //III International Scientific Congress Society of Ambient Intelligence 2020 (ISC-SAI 2020). – Atlantis Press, 2020. – С. 347-353.

3. Абдуллаев К.Ф. Воспитание двигательных качеств подростков в семье // Вестник науки и образования, 2020. № 9-2 (87).

4. Махмудов М.К. Акмеологический подход к развитию педагогического мастерства будущих учителей физической культуры //Научный редактор. – 2021. – С. 19.

5. Mahmudov M.K Ways to improve the physical education of children aged 5-7 in preschool institutions. Middle European Scientific Bulletin, VOLUME 12 May 2021/

Orinbayev Ansatbay Amanbaevich,

*Nukus davlat pedagogika instituti "Aniq va tabiiy fanlarni masofadan o'qitish"
kafedrasi stajyor o'qituvchisi*

MUSTAQIL TA'LIM OLISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH VA BOSHQARISH MODELLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish va boshqarish modellari chuqur tahlil qilinadi. Maqolada mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarining asosiy jihatlari, motivatsiya va o'z-o'zini boshqarishning ahamiyati, shuningdek, o'rganish jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan turli o'rganish strategiyalari ko'rib chiqiladi. Bularning barchasi o'quvchilarning mustaqil ravishda o'rganish qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari, maqolada ta'lim jarayonini boshqarish uchun muhim bo'lgan Kolb va Gagne modellari taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: Mustaqil ta'lim, o'rganish ko'nikmalari, ta'lim modellar, boshqarish strategiyalari, o'quvchilar faolligi, motivatsiya, o'z-o'zini boshqarish, innovatsion yondashuvlar.

Аннотация: В данной статье подробно анализируются модели развития и управления навыками самостоятельного обучения. В статье рассматриваются ключевые аспекты навыков самостоятельного обучения, важность мотивации и саморегуляции, а также различные стратегии обучения, которые можно использовать в процессе обучения. Все это способствует совершенствованию навыков самостоятельного обучения учащихся. Кроме того, в статье представлены модели Колба и Ганье, важные для управления образовательным процессом.

Ключевые слова: Самостоятельное образование, навыки обучения, образовательные модели, стратегии управления, студенческая активность, мотивация, самоуправление, инновационные подходы.

Abstract: In this article, the models of development and management of independent learning skills are analyzed in depth. The article examines the key aspects of independent study skills, the importance of motivation and self-regulation, as well as the various learning strategies that can be used in the learning process. All this helps to improve students' independent learning skills. In addition, the article presents the Kolb and Gagne models, which are important for the management of the educational process.

Key words: Independent education, learning skills, educational models, management strategies, student activity, motivation, self-management, innovative approaches.

Kirish. Mustaqil ta'lim olish zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismidir va uning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Har bir insonning o'ziga xos o'rganish uslubi, qobiliyatlari va motivatsiyasi mavjud bo'lib, bu mustaqil ta'lim olish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda ta'lim jarayoni nafaqat maktab va universitetlarda, balki onlayn platformalarda ham amalga oshiriladi, bu esa o'quvchilarning mustaqil ravishda o'rganish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Mustaqil ta'lim o'quvchilarga o'z qobiliyatlarini baholash, shaxsiy maqsadlar belgilash va o'z-o'zini motivatsiya qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimini modernizatsiya qilish maqsadida qabul qilingan turli qaror va farmonlar, masalan, 2020-yil 29-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim tizimini rivojlantirish to'g'risida"gi qarori, ta'lim jarayonida mustaqil o'rganishga alohida e'tibor qaratilayotganini ko'rsatadi. Ushbu qarorda o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirish va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini oshirish zarurligi ta'kidlangan.

Ta'lim jarayonida mustaqil o'rganish qobiliyatlarini shakllantirish, o'qituvchilardan yangi yondashuvlar va metodologiyalarni talab etadi. Ushbu yondashuvlar o'quvchilarning o'z

fikrlarini ifoda etishiga, muammolarni hal qilishga va mustaqil ravishda qaror qabul qilishga imkon beradi.

Maqolada mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarining rivojlanishi, ularning ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati haqida chuqur fikr yuritiladi. Shuningdek, o'qituvchilar va o'quvchilar uchun samarali strategiyalar taklif etiladi. Bular orqali, o'quvchilarning mustaqil o'rganish qobiliyatlarini oshirish va ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishga xizmat qilinadi.

Ushbu maqola, shuningdek, ta'lim jarayonini boshqarish uchun zarur bo'lgan muhim modellarni, jumladan, Kolb va Gagne modellari kabi yondashuvlarni ko'rib chiqadi. Ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni amalga oshirish va o'quvchilarning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatish, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarining zamonaviy talablarga mos kelishini ta'minlaydi.

Adabiyotlar sharhi. Kolbning tajribaviy o'rganish modeli, mustaqil ta'lim jarayonida tajriba asosida o'rganishni ta'kidlaydi. Bu model o'quvchilarga yangi bilimlarni amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi, bu esa mustaqil o'rganishga asos bo'ladi [1].

Gagne modeli ta'lim jarayonini strukturalash va o'quvchilarning o'z maqsadlarini belgilashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu model, o'quvchilarga o'z-o'zini boshqarish va o'rganish jarayonini samarali boshqarish imkoniyatlarini taqdim etadi, bu esa mustaqil ta'limni rivojlantirishga xizmat qiladi [2].

Candyning asari, mustaqil ta'lim oluvchilarning o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Bu adabiyot, mustaqil ta'lim jarayonida motivatsiya va shaxsiy maqsadlarni belgilashning ahamiyatini yoritadi [3].

O'zbek muallifi Boshqirtuvning asari, O'zbekiston ta'lim tizimida mustaqil o'rganishning dolzarbligini va amaliyotini tahlil qiladi. U o'quvchilarning mustaqil o'rganish qobiliyatlarini oshirishda o'qituvchilarning rolini alohida ta'kidlaydi [4].

Yusupovning asarida, O'zbekistondagi ta'lim tizimidagi yangi yondashuvlar va innovatsion metodlar ko'rib chiqiladi. Bu adabiyot mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun zamonaviy usullarni taklif etadi [5].

Karimova o'qituvchilarning mustaqil o'rganishga bo'lgan yondashuvlarini tahlil qiladi. O'qituvchilarning motivatsiya berish va o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirishdagi roli, bu adabiyotda alohida e'tibor qaratiladi [6].

Brookfieldning asari, kattalar ta'limida mustaqil o'rganish va o'z-o'zini boshqarishni yoritadi. Ushbu adabiyot, o'qituvchilarga kattalar ta'limida mustaqil o'rganish jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi [8].

Knowles kattalar ta'limida mustaqil o'rganish qobiliyatlari va motivatsiya haqida chuqur tahlil beradi. Bu adabiyot, o'z-o'zini boshqarish va shaxsiy o'rganishning ahamiyatini ko'rsatadi, bu esa mustaqil ta'limni rivojlantirish uchun muhimdir [9].

Ilgarovaning asari, mustaqil o'rganish ko'nikmalarini amaliyotga tatbiq etish usullarini taklif etadi. U, o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirishda amaliy maslahatlar beradi [10].

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil.

Mustaqil ta'lim olish ko'nikmalari

Mustaqil ta'lim olish ko'nikmalari o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish, motivatsiya, vaqtni rejalashtirish va o'rganish jarayonida tanlov qilish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Bularning barchasi o'quvchilarning o'z ta'lim jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlaydi.

1. O'rganish strategiyalari

O'quvchilarga o'z o'rganish uslublarini aniqlash va qo'llashga yordam beruvchi strategiyalarni ishlab chiqish muhimdir. Bu strategiyalar orasida:

- O'qish texnikalari (masalan, tez o'qish, belgilash).
- Mavzularni ajratish va ularni o'zaro bog'lash.
- Taqqoslash va tahlil qilish usullari.

2. Motivatsiya va o'z-o'zini boshqarish

O'quvchilarning motivatsiyasini oshirish va ularni o'z ta'lim jarayonini boshqarishga undash uchun:

- Maqsadlarni belgilash.
- O'z-o'zini baholash imkoniyatlarini yaratish.
- Ta'lim jarayonida natijalarni qayta ko'rib chiqish.

BOSHQARISH MODELLARI

Mustaqil ta'lim jarayonini boshqarish uchun bir nechta modellar ishlab chiqilgan. Ushbu modellardan ba'zilari:

1. Kolbning tajribaviy o'rganish modeli

Bu modelga ko'ra, o'rganish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

- Tajriba
- Tahlil
- Teoriyalash
- Amaliyotga tatbiq qilish

2. Gagne modeli

Gagne modeli, ta'lim jarayonini tuzilma bo'yicha boshqarishni ko'zda tutadi. Ushbu model o'quvchilarning o'z maqsadlarini belgilash, motivatsiya, yangi bilimlarni o'zlashtirish va baholashni o'z ichiga oladi.

O'zini-o'zi rivojlantirish - bu «muayyan motivlar va ehtiyojlar ta'siri ostida o'ziga xos faoliyat va xatti-harakatni o'zgartirish yoki o'z o'zini o'zgartirish orqali aniq maqsadlar qo'yiladigan va erishiladigan doimiy jarayon» bo'lib, uning asosiy xususiyatlari (shaxsiy qadriyatli yo'nalishlari, o'zini o'zi qadrlash, motivatsion-ixtiyoriy komponentlar, maqsadni belgilash bo'lg'usi mutaxassislariga o'zini o'zgartirishga va o'zini o'zi takomillashtirish uchun mustaqil faoliyatni tashkil qilishga imkon beradi.

Bo'lajak mutaxassisning mustaqil ta'lim faoliyati mustaqil faoliyatdan farqli ravishda o'rganilayotgan fanlarning o'quv dasturidan tashqarida, o'z vazifalariga muvofiq ravishda talabaning mustaqil rahbarligi ostida amalga oshiriladi. Talabalarning mustaqil ravishda o'qib o'rganish faoliyati o'quv faoliyatining eng murakkab ko'rinishi hisoblanadi, chunki u o'zini-o'zi aniqlash tartiblari va tegishli bilimlarni mustaqil ravishda egallash va ularni amaliy faoliyatga aylantirish ko'nikmalarini rivojlantirish va nazorat qilish hamda baholash bilan bog'liq.

Talabalarda mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirishda elektron resurslardan keng foydalaniladi. Elektron ta'lim resurslarini ikki turga bo'linadi.

Online – elektron ta'lim resurslariga internet tarmog'ida joylashtirilgan ma'lumotlar to'plami kiradi. Masalan moodle tizimi va boshqa ta'limga oid resurslarni keltirish mumkin. Bu tizimlar bir qancha afzalliklar bilan bir qatorda kamchiliklarga ham ega. Afzalliklari yangi ma'lumotlarni taqdim etishga qulayliklarga ega. Turli internet resurslari tahlil qilinganda, o'rganilayotgan fanlarning aniq mavzusi mazmunini to'liq qamrab oladiganlarni izlab topishning deyarli imkoni yo'q. Kamchiliklar sifatida bunday tizimlardan foydalanish uchun internet tarmog'ining uzluksizligini ta'minlash va berilgan topshiriqlarni mustaqil bajarilishini nazorat qilish hamda foydalanuvchilarning haqiqiy bilimlarini baholashdagi muammolar ko'zga tashlanishi mumkin.

Offline – elektron ta'lim resurslariga internet tarmog'isiz foydalanishga mo'ljallangan ma'lumotlar to'plami kiradi. Bunday resurslar, ta'lim tizimining o'quv dasturida ko'zda tutilgan barcha mavzularni to'liq qamrab olishi, turli ko'rinishdagi multimediali, virtual laboratoriya ishlarini qo'llash imkoniyati, talabalarning bilimlarini nazorat qilishning turli xil usul va vositalardan foydalanish, hamda foydalanuvchilarning xohishlarini inobatga olgan holda qulay interfeyslarni yaratish imkoniyatiga ega. Bunday resurslarda yangi ma'lumotlarni havola qilish kamchiligi ko'zga tashlanadi.

Sinov savollari tanlanganda mavzuda taqdim etilayotgan atamalarning ta'rifi, qisqartma so'zlarning berilishi va boshqa asosiy tushunchalar taqdim etilgan. Bu topshiriqni bajarish davomida talaba savollarga javoblarini yozma shaklda taqdim etish bilan bir qatorda mavzu bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Natijalar. Mustaqil ta'lim olishni tashkil etishda masofaviy ta'lim muhim ahamiyatga ega. Masofaviy ta'lim modellarini to'g'ri yo'lga qo'yish maqsadga erishishni tezlashtirishi mumkin. Masofaviy ta'lim o'z rivojlanish davrida quyidagi davrlarni bosib o'tgan:

1. Bitta texnologiyadan foydalanish va talaba bilan o'qituvchi o'rtasida bevosita o'zaro aloqa yo'q, bunday texnologiyaga sirtqi ta'lim shakli misol bo'la oladi, ya'ni o'zaro yozishma orqali ta'lim olish.

2. Turli xil texnologiyalarni integratsiyalashuvi orqali. Bir tomonlama axborotlar oqimiga va talabaning mustaqil o'qishiga ko'proq e'tibor berish, ochiq universitetlar.

3. Ikki tomonlama kommunikatsion texnologiyadan keng foydalanishga asoslangan o'qituvchi talaba va talabalar bir-biri bilan aloqadagi ta'lim, internet asosidagi masofaviy ta'lim tizimi.

Masofaviy ta'lim (MT) - bu o'qituvchi va talaba bir biri bilan masofa yoki vaqt orqali ajratilgan holda axborot texnologiyalardan foydalanilgan ta'lim turidir.

Bu ta'lim turining bir necha modellari mavjud bo'lib, ular masofaviy ta'limni tashkil etishga sabab bo'lgan quyidagi vaziyatlari bilan farqlanadi:

➤ Geografik sabablar (mamlakat maydoni, markazlardan geografik uzoqlashgan hududlar mavjudligi);

➤ mamlakatni kompyuterlashtirish va axborotlashtirish darajasi;

➤ transport va kommunikatsiyalarni rivojlanish darajasi;

➤ masofaviy ta'lim uchun mutaxassislar mavjudligi;

➤ ta'lim sohasida informatsion va kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish darajasi;

➤ mamlakatning ta'lim sohasidagi siyosati.

Birinchi model "Michael Moore «Distance Education. A Systems View» kitobida yoritilgan bo'lib, quyidagi ko'rinishga ega:

Manba	dizayn	uzatish	o'zaro aloqa	o'quv muhiti
ehtiyoj	O'quv jarayonini rejalashtirish	Qog'oz materiallar	o'qituvchi- lar	Ish joyi
talaba	muhit	audio/video yozmalar	Tyutorlar	uy
tashkil- lashtirish	dastur	Radio/televideni ya Kompyuterlar va dasturiy ta'minot	maslahatchilar	Sinf
Nazariya/ tarix	baholash	Audio- konferensiya	ekspertlar	O'quv markazi
falsafa		videokonfere nsiya	Administra tor	
		Lokal va global tarmoq	Boshqa talablar	

Ushbu modelda talaba ehtiyoji va tashkillashtirish xususiyati (missiya, ekspertiza masofaviy ta'lim kursini ishlab chiqish g'oyasi va qarorini yuzaga keltiradi. Kurs dizayni o'quv

jarayonini ishlab chiqish sohasidagi mutaxassislardan: prodyusser, dasturchilar, o'quv jarayoni samaradorligini baholovchilardan iborat bo'ladi. Talabalarning imkoniyatlari va pedagogik prinsiplar o'qish texnologiyasini tanlashni asoslaydi. O'quv kursi talabalar bir-biri va o'qituvchi, ekspertlar, administrator bilan o'zaro aloqasi asosida tashkil etiladi. Ushbu modelda asosiy e'tibor o'quv muhitiga, ya'ni bir xil o'quvchilarning samaradorligiga qaratiladi. Yuqoridagi modelning barcha elementlari o'zaro bog'langan va masofaviy ta'lim tizimida foydalanishda muhim o'rin tutadi.

Ushbu model faqat talabalar bilan masofaviy ishlashda foydalaniladi. Bunda talabalarning har biri virtual o'qituvchiga biriktiriladi. Maslahatlar va yakuniy nazoratlarni topshirish uchun hududiy bo'limlar tashkil etiladi. Bunday o'quv kurslarida o'qituvchi va talabalarga o'quv shaklini va formasini tanlashda katta imkoniyatlar va erkinliklar beriladi. Bu modelga misol qilib Buyuk Britaniyaning Ochiq Universitetidagi (<http://www.ou.uk>) ta'limni olish mumkin.

Ikkinchi model Tony Bates tomonidan ishlab chiqilgan va uning «Technology, Open Learning and Distance Education» nomli kitobida yoritilgan. Bu model **ACTIONS** deb nomlanadi va masofaviy ta'lim sohasida qarorlar qabul qilishda, xususan MT texnologiyasini tanlashda foydalaniladi. Model nomi quyidagi iboralarining bosh harflaridan olingan:

-**Access (Ruxsat)**- ushbu texnologiyani barcha talabalar uchun foydalanish mumkinligi;

-**Costs (Xarajatlar)** – texnologiyadan foydalanish xarajatlari tarkibi, bitta o'quvchi xarajati;

-**Teaching and Learning (ta'lim berish va o'qitish)** - o'qitish va ta'lim berish pedagogik texnologiyasi, uslubi;

-**Interactivity and User-friendliness (Interaktivlik va foydalanishda qulaylik)** – tanlangan texnologiya qanday interaktivlikka ega, undan qanday foydalanish mumkin;

-**Organizational issues (Tashkiliy masalalar)** – tanlangan texnologiyani joriy etishda qanday tashkiliy muammolar mavjud, ularni qanday hal etish mumkin, buning uchun qanday o'zgarishlar qilish kerak;

-**Novelty (Yangiligi)** – tanlangan texnologiya qanchalik yangi, zamonaviy.

-**Speed (Tezlik)** – ushbu texnologiya yordamida MT kursini qanday tezlikda tashkil etish va unga o'zgartirishlar kiritish mumkin.

Ushbu model masofaviy hamda kunduzgi an'anaviy ta'limda talabalar bilan ishlash uchun yaratiladi. Ikkala ta'lim turida ham bir xil o'quv dasturi va dars jadvallari, nazorat turlari va ularni baholash mezonlaridan foydalaniladi. Bu kabi o'quv muassasalarida kunduzgi ta'lim talabalarining soni masofaviy ta'limdagiga qaraganda ko'proq bo'lishi mumkin. Ushbu masofaviy kurslar pedagogika va uslubiyotdagi yangi yo'nalishlarni izlashda qo'llaniladi. Bu modelga Angliya va Avstraliya Universitetidagi (<http://www.une.edu.au>) ta'limni misol qilish mumkin.

Xulosa va munozara. Mustaqil ta'lim olish ko'nikmalari, zamonaviy ta'lim tizimining asosiy omillaridan biri sifatida, o'quvchilarning shaxsiy va professional rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada taqdim etilgan tahlil va misollar, mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishning ahamiyatini va bu jarayonda o'qituvchilarning roli qanday ekanligini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qabul qilingan qarorlari va farmonlari, ta'lim tizimida mustaqil o'rganishni rivojlantirishga qaratilgan yangi yondashuvlar va strategiyalarni o'z ichiga oladi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish, motivatsiya va vaqtni rejalashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish, ularga mustaqil ravishda o'rganish imkoniyatlarini beradi. Mustaqil o'rganish jarayonida o'quvchilar o'z maqsadlarini belgilash, shaxsiy qobiliyatlarini oshirish va ta'lim tizimida faol ishtirok etish imkoniyatlariga ega bo'lishadi. Bu jarayon, shuningdek, o'quvchilarning umumiy akademik muvaffaqiyatlarini oshiradi, chunki mustaqil o'rganish qobiliyatlariga ega bo'lgan o'quvchilar o'zlarini yanada ishonchli his qiladilar va ko'proq natijalarga erishadilar.

Biroq, mustaqil ta'lim olish jarayonida ba'zi qiyinchiliklar mavjudligi ham yodda tutulishi kerak. O'quvchilarning motivatsiyasini oshirish, o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirish va o'rganish strategiyalarini samarali qo'llash zarur. O'qituvchilar, bu jarayonda qo'llab-quvvatlash va motivatsiya berish orqali o'quvchilarning muvaffaqiyatini ta'minlashda muhim rol o'ynaydilar. Ularning yordami bilan o'quvchilar, o'z maqsadlariga erishish va mustaqil o'rganish jarayonida muvaffaqiyat qozonish imkoniyatlarini oshiradilar.

O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar va innovatsion yondashuvlar, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan va bu jarayon kelajakda ta'lim tizimining samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi. O'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlik, o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirish va ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishda muhimdir.

Kelajakda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirishda, o'qituvchilar va ta'lim muassasalari o'z o'rnini to'ldirib, o'quvchilarning shaxsiy va professional muvaffaqiyatlarini oshirishga hissa qo'shishi kerak. Buning natijasida, o'quvchilar zamonaviy hayotda muvaffaqiyatli bo'lishlari va jamiyatning faol a'zolari sifatida o'z o'rnini topishlari uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni egallashlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Kolb, D. A. (2014). *Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development*.
2. Gagne, R. M. (2015). *The Conditions of Learning and Theory of Instruction*.
3. Candy, P. C. (2011). *Self-Direction for Lifelong Learning: A Comprehensive Guide to Theory and Practice*.
4. Boshqirtuv, T. (2020). *Ta'limda Mustaqil O'rganish: Teoriya va Amaliyot*. Tashkent: Ma'naviyat.
5. Yusupov, I. (2018). *O'zbek Ta'lim Tizimidagi Innovatsion Usullar*. Tashkent: O'qituvchi.
6. Karimova, D. (2021). *O'qituvchining Roli: Mustaqil O'rganishga Yondashuvlar*. Tashkent: Fan va Texnologiya.
7. Garrison, D. R., & Anderson, T. (2003). *E-Learning in the 21st Century: A Community of Inquiry Framework*.
8. Brookfield, S. D. (2006). *Understanding and Facilitating Adult Learning*.
9. Knowles, M. S. (2000). *The Adult Learner: A Neglected Species*.
10. Ilgarova, N. (2022). *Mustaqil O'rganish Ko'nikmalari: Teoriyadan Amaliyotgacha*. Tashkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.

Амонов Асқар Номозбоевич,

*Институт переподготовки и повышения квалификации специалистов
по физической культуре и спорту, Проректор по учебной работе, доцент*

ЭФФЕКТЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ТОЧНОСТИ УДАРОВ У ЮНЫХ ТЕННИСИСТОВ НА ФОНЕ ПОСЛЕДЕЙСТВИЯ КРАТКОВРЕМЕННОЙ НАГРУЗКИ В ХОДЕ ЭКСПЕРИМЕНТА

Аннотация: В статье представлены результаты исследования влияния кратковременной вестибулярной нагрузки на улучшение точности ударов у юных теннисистов в ходе эксперимента. Установлено, что у юных теннисистов экспериментальной группы (ЭГ), которые тренировались по экспериментальной программе, количество и точность ударов за 30 секунд значительно увеличились к концу 10-месячного эксперимента. В то же время в контрольной группе (КГ), занимавшейся по традиционной программе, таких положительных изменений в изучаемых параметрах не наблюдалось.

Ключевые слова: юные теннисисты, точность ударов, вестибулярная нагрузка, экспериментальная тренировка, традиционная тренировка, улучшение результатов, 10-месячный эксперимент.

Abstract: The article presents the results of a study on the effects of improving the accuracy of strokes in young tennis players under the influence of short-term vestibular load during an experiment. It was found that in the experimental group (EG) of young tennis players, who trained according to the experimental program, the number and accuracy of strokes within 30 seconds showed a significant increase by the end of the 10-month experiment. In contrast, the control group (CG), which followed a traditional training program, did not exhibit such positive changes in the studied parameters.


Key words: young tennis players, stroke accuracy, vestibular load, experimental training, traditional training, performance improvement, 10-month experiment.

Введение. В современном настольном теннисе для успешного выполнения игровых действий с прицельной точностью чрезвычайно важно совершенная устойчивость сохранения равновесия к воздействию различных прямолинейных и угловых ускорений, многократно повторяющихся в ходе интенсивных соревновательных игр, что изучалось на примере ряда других видов спорта. Так, например, А.С. Назаренко, Н.Ш. Хаснутдинов [2016, с. 157-159], изучая данную проблематику у футболистов, считают, что статокINETическая устойчивость к сохранению равновесия может быть выше в покое, но даже при небольшом раздражении вестибулярного анализатора она приобретает выраженную тенденцию к снижению и поэтому авторы рекомендуют регулярно тренировать функцию сохранения равновесия тела. А.С. Назаренко, А.С. Чин Кин [2011, р. 721-732] показали, что в ситуационных видах спорта утомление, возникающее в ходе интенсивных тренировочных или соревновательных нагрузок, в первую очередь отражается в функциональной деятельности вестибулярного анализа-тора, в последствии которого может последовать снижение уровня прицельной точности игровых действий и рассогласование механизмов управления движения. Л.Д. Назаренко [2015, с. 99-101], на основании собственных исследо-ваний, полагает, что дальность и точность броска в баскетболе, например, обуславливается не только показателями работающих мышц, уровнем развития глазомера, но и во многом зависит от устойчивости тела для сохранения соответствующей позы. А по мнению А.А. Джумок, А.А. Павловой [2018, с. 45-48], в игровых видах спорта весьма важно совершенствовать устойчивость к сохранению равновесия тела как в режиме открытых глаз, так и закрытых, что, оказывается очень

важно «оттачивания» точности дифференцировки мышечных усилий при выполнении прицельных игровых приемов.

Целью настоящего исследования являлась изучение эффектов совершенствования точности ударов у 7-8 летних спортсменов настольного тенниса без и с раздражением вестибулярного анализатора в условиях эксперимента.

Методика и организация исследования. К исследованию, проведенного в рамках 10-месячного педагогического эксперимента, были привлечены две группы юных спортсменов 7-8 лет (по 12 человек), занимающихся настольным теннисом на этапе начальной подготовки, одна из которых в этом процессе участвовала в качестве контрольной, а другая – экспериментальной. В контрольной группе (КГ) тренировочные занятия проводились по традиционной программе. А в экспериментальной группе (ЭГ) дети ежедневно в ходе утренней зарядки выполняли следующие упражнения: круговое движение головой в позах сидя и стоя вправо-влево, наклоны головы вперед-назад, вправо-влево, повороты вправо-влево, вращения тела влево-вправо в позе наклона туловища вперед на 90° , эти же упражнения применялись в ходе подготовительной части каждого тренировочного занятия, а в заключительной части занятий дети выполняли максимальное число ударов с отскоком от теннисного стола в мишень 30 сек; для этого теннисный стол плотно устанавливается поперек к стенке; на стене высотой 45 см от поверхности стола начерчивается круг – мишень диаметром 45 см; теннисист стоя в середине кромки стола выполняет заданные удары; данное упражнение 5 раз повторяется просто без нагрузки, 5 раз сразу после 10-кратного вращения головы влево и 5 раз то же самое с вращением головы вправо (рис.).



Оценивается соотношение максимального числа точных и неточных ударов за 30 сек, произведенных в «покое» и сразу после выполнения 10-кратного вращения тела влево в позе наклона вперед на 90° . Тестирование проводилось до и после завершения 10-месячного педагогического эксперимента.

Результаты и их обсуждение. Результаты тестирования показали, что общее число ударов в покое за 30 сек в КГ до начала эксперимента составило $28,2 \pm 2,81$ раз, а к концу завершения эксперимента оно возросло до $29,7 \pm 2,88$ раза ($p > 0,05$) или его абсолютное повышение достигло всего лишь до 1,8 раз, при этом относительное его повышение составило 12,41% (табл.). Из них число точных ударов в этой группе до эксперимента было равно $9,3 \pm 2,04$ разу, которое к концу эксперимента увеличилось незначительно и составило $10,8 \pm 2,32$ раза ($p < 0,05$).

Таблица

Показатели дифференцированной оценки развития точности ударов у юных теннисистов контрольной и экспериментальной групп к концу педагогического эксперимента

Параметры	Группа	До эксперимента $X \pm \sigma$	После эксперимента $X \pm \sigma$	АП	ОП	p

Удары в покое за 30 сек						
Число ударов	КГ	$28,2 \pm 2,81$	$29,7 \pm 2,88$	1,5	5,32	>0,05
	ЭГ	$26,9 \pm 6,72$	$34,5 \pm 8,32$	7,6	28,2	<0,01
Точность ударов	КГ	$9,3 \pm 2,04$	$10,8 \pm 2,32$	1,5	16,1	<0,05
	ЭГ	$8,7 \pm 3,65$	$14,9 \pm 6,13$	6,2	71,2	<0,001
Удары после 10 вращений тела за 30 сек						
Число ударов	КГ	$14,5 \pm 3,33$	$16,3 \pm 3,65$	1,8	12,4	>0,05
	ЭГ	$13,8 \pm 4,96$	$19,9 \pm 6,98$	6,1	44,2	<0,01
Точность ударов	КГ	$4,1 \pm 0,65$	$4,6 \pm 0,71$	0,5	12,2	<0,05
	ЭГ	$3,9 \pm 1,51$	$6,5 \pm 2,48$	2,6	66,6	<0,001

Примечание: АП – абсолютное повышение; ОП – относительное повышение.

Видно, что абсолютное повышение точности ударов также составило 1,5 раза, тогда как относительное увеличение составляет 16,13%. В то же время в ЭГ, которая в ходе эксперимента регулярно выполняла рекомендованные нами экспериментальные упражнения, общее число ударов за 30 сек до эксперимента оказалось равно $26,9 \pm 6,72$ раза, а к концу эксперимента оно увеличилось до $34,5 \pm 8,32$ раза ($p < 0,01$) или в абсолютном выражении оно увеличилось до 7,6 раз, а относительное увеличение этого показателя составило 28,75%. Число точных ударов при этом в группе за период эксперимента возросло с $8,7 \pm 3,65$ до $14,9 \pm 6,13$ раза ($p < 0,001$), где оно по абсолютной величине увеличилось до 6,2 раза или в относительном выражении точность ударов в ЭГ возросло до 71,26%.

Общее число ударов за 30 сек под влиянием 10-кратного вращения тела влево в позе наклона вперед на 90° в КГ до эксперимента составило $14,5 \pm 3,33$ раза, а после увеличилось всего лишь до $16,3 \pm 3,65$ раза ($p > 0,05$) или разница возрастания данной величины в абсолютном выражении составила 1,8 раз, а относительное увеличение общего числа ударов в этой группе равнялось 12,41%. Число точных ударов при этом до эксперимента составило $4,1 \pm 0,65$ раз, которое к концу эксперимента возросло до $4,6 \pm 0,71$ раза ($p < 0,05$). Видно, что число точных ударов в КГ в абсолютном выражении увеличилось всего лишь до 0,5 раз и это в относительном выражении равнялось 12,20%. У юных теннисистов ЭГ, которая тренировалась в экспериментальном режиме, общее число ударов за 30 сек, выполненных на фоне последствия 10-кратного вращения тела в позе наклона вперед на 90° , до эксперимента составило $13,8 \pm 4,96$ раз, а после – оно увеличилось незначительно и было равно $19,9 \pm 6,98$ раз ($p < 0,01$), т.е. данная величина в абсолютном смысле возросла до 6,1 раза, а ее относительный уровень увеличился на 44,20%. Точность ударов за 30 сек при этом в этой группе за период эксперимента возросла с $3,9 \pm 1,51$ до $6,5 \pm 2,48$ раз ($p < 0,001$) или данная величина в абсолютном выражении увеличилась к концу эксперимента 2,6 раза, а в относительном смысле это увеличение составило 66,67%.

Заключение. Из сравнительного анализа приведенных данных видно, что, во-первых, до начала эксперимента общее число ударов по заданной мишени за 30 сек в «покое» у обеих групп теннисистов были относительно низкими, из которых объем точных ударов не составил даже 50%. Такое положение позволяет предположить, что в процессе традиционных тренировочных занятий не уделяется акцентированное внимание на сопряженную отработку ударной работоспособности с учетом точности ударов различными способами. Во-вторых, в КГ даже за период 10-месячного педагогического эксперимента как число ударов за 30 сек, так и их точность не имели тенденцию к выраженному возрастанию к концу завершения эксперимента. Общее число ударов за 30 сек и их точность почти на два раза снизились в условиях их выполнения на фоне последствия 10-кратного вращения тела в позе наклона туловища вперед на 90° , что связано, на наш взгляд, не только с недостаточной отработкой ударных

действий на точность, но и такое последствие главным образом обусловлено со слабым развитием вестибулярного анализатора. Это подтверждается прогрессивными данными, полученными в ЭГ, которая в период эксперимента регулярно утром и в ходе тренировочных занятий выполняли различные стато- и вестибулокинетические упражнения с отработкой на тренировках различных ударов на фоне последствия вестибулярных нагрузок.

Список использованной литературы.

1. Назаренко А.С., Хаснутдинов Н.Ш. Регуляция равновесия на фоне вестибулярного раздражения у футболистов / Ж.: Ученые записки университета им. П.Ф. Лесгафта, 2016, № 1 (131), - с. 157-160.
2. Назаренко Л.Д. Концепция классификации двигательных координаций / Ж.: ТиПФК, 2015, № 3, - с. 99-101.
3. Джумак А.А., Павлова А.А. Особенности статокинетической устойчивости спортсменов игровых видов спорта / Ж.: Ученые записки университета им. П.Ф. Лесгафта, 2018, № 6 (160), -с. 45-48.
4. Nazarenko A.S., Chinkin A.S. Cardiovascular, motor, and Sensary responses to vestibular stimulation in athletes of different specializations / Human Physiology. Pleicdes Publishing, Ins – 2011, - vol, 37. - № 6, - p. 726-732/

Djalilova Zarnigor Obidovna,
Teacher, Asian International University

Saidova Dibar Shuxratovna,
Master student, Asian International University

APPROACH TO UTILIZING GRAMMAR GAMES IN DIFFERENT PHASES OF LANGUAGE LEARNING

Abstract: This article explores the approach to utilizing grammar games in various phases of language learning. The study highlights the effectiveness of incorporating interactive and engaging grammar games to enhance learners' understanding and retention of grammatical rules. It emphasizes the adaptability of such games to different stages of language acquisition, from beginner to advanced levels, and their role in making the learning process more dynamic and enjoyable. The findings suggest that grammar games not only improve linguistic competence but also boost learners' motivation and confidence in using the target language.

Key words: grammar games, language learning, interactive learning, grammatical competence, motivation, language acquisition, beginner level, advanced level.

their future students. By engaging in authentic projects, teacher trainees develop key competencies such as critical thinking, creativity, collaboration, and communication-skills essential for fostering a generation of learners who can thrive in the rapidly changing global landscape. However, the study also identified challenges to implementing STEAM and PBL in teacher training, including the need for sufficient resources, ongoing professional development, and institutional support. Despite these challenges, the positive outcomes observed in this study suggest that with proper training, mentorship, and a supportive learning environment, teacher trainees can successfully adopt these innovative pedagogies and transfer them into their future classrooms. This research highlights the importance of evolving teacher education to include STEAM and PBL methodologies as central components of effective teacher preparation. By equipping future educators with the tools to create engaging, interdisciplinary, and collaborative learning environments, teacher training programs can better prepare educators for the complexities of the modern educational landscape. As the demand for 21st-century skills continues to rise, it is essential that teacher preparation programs remain adaptive and forward-thinking, integrating strategies that promote holistic, innovative, and student-centered learning. Future research could further explore the long-term impact of STEAM and PBL training on educators' teaching practices and student outcomes, providing deeper insights into the potential of these methodologies to shape the future of education.

List of literature used.

1. Hatcher, C., & Stovall, D. (2017). Project-Based Learning for Teacher Education: A Model for Integrating Interdisciplinary Pedagogies. *Journal of Teacher Education*, 68(1), 57-69.
2. Barton, A. C., & Tan, E. (2010). We Be Burnin': Agency, Identity, and Science Learning. *Journal of Research in Science Teaching*, 47(6), 645-669.
3. Bequette, M. B., & Bequette, J. S. (2012). A Place for Art and Design Education in the STEAM Era. *Art Education*, 65(4), 40-47.
4. Gura, M. (2018). *The EdTech Handbook: How Teachers Can Use Technology to Integrate STEAM*. Corwin Press.
5. Beers, S. Z. (2011). 21st Century Skills: Preparing Students for Their Future. *Technology and Engineering Teacher*, 70(1), 5-13.
6. Billington, J. (2014). *The Power of STEAM: The Importance of Integrating the Arts into STEM Education*. Brooklyn College of City University of New York.
7. Boss, S., & Krauss, J. (2007). *Reinventing Project-Based Learning: Your Field Guide to Real-World Projects in the Digital Age*. International Society for Technology in Education.
8. Darling-Hammond, L., & Bransford, J. (2005). *Preparing Teachers for a Changing World*. John Wiley & Sons.
9. Mourshed, M., Chijioke, C., & Barber, M. (2010). *How the World's Most Improved School Systems Keep Getting Better*. McKinsey & Company.
10. Thomas, J. W. (2000). *A Review of Research on Project-Based Learning*. The Autodesk Foundation.
11. Wang, H. (2015). Promoting Creativity in STEAM Education: A Case Study. *Journal of Educational Research and Practice*, 5(1), 12-23.
12. Harris, C. J. (2014). Innovative Pedagogies in Teacher Education: Exploring the Benefits of STEAM and PBL for Pre-Service Teachers. *Journal of Educational Research*, 107(4), 294-305.
13. Chesley, G., & Jordan, M. (2012). The Role of Collaborative Learning in Teacher Professional Development. *Teaching and Teacher Education*, 28(4), 536-549.
14. Liu, M., & Chen, W. (2015). Exploring the Implementation of STEAM Education: A Case Study of Educators' Perceptions and Practices. *International Journal of Science and Mathematics Education*, 13(3), 453-477.

Amaniyazov Saodatdin Kosbergenovich,

Ajiniyez nomdagi NukusDPI

Tasviriy sanat va muxandislik grafikasi kafedrası o'qituvchisi

CHIZMACHILIKDAN O'QUVCHILARNING IJODIY GRAFIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI VA METODIKASI

Annotatsiya: Ushbu maqola o'quvchilarning chizmachilikdan ijodiy grafik faoliyatini rivojlantirishning mazmuni va metodikasini tahlil qilishga bag'ishlangan. Chizmachilik, o'quvchilarda estetik tafakkur, tasavvur va ijodkorlikni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Maqolada chizmachilikni o'qitishda ishlatiladigan pedagogik metodlar, ijodiy faoliyatni rivojlantirishda zarur bo'lgan psixologik yondashuvlar va o'quvchilarning tasavvurini kengaytirishga qaratilgan usullar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ijodiy faoliyatni rivojlantirishda turli texnika va yondashuvlarning ahamiyati va samaradorligi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: chizmachilik, ijodiy faoliyat, grafik tasvirlar, pedagogik metodlar, tasavvur, estetik tafakkur, o'quvchilarni rivojlantirish, psixologik yondashuvlar, ijodkorlik, san'at ta'limi.

Аннотация. Эта статья посвящена анализу содержания и методики развития творческой графической деятельности у учащихся через рисование. Рисование играет важную роль в развитии эстетического мышления, воображения и креативности у учащихся. В статье рассматриваются педагогические методы, используемые в обучении рисованию, психологические подходы, необходимые для развития творческой деятельности, а также методы, направленные на расширение воображения учащихся. Также анализируется значимость и эффективность различных техник и подходов в развитии творческой деятельности.

Ключевые слова: Рисование, творческая деятельность, графические изображения, педагогические методы, воображение, эстетическое мышление, развитие учащихся, психологические подходы, креативность, художественное образование.

Annotation: This article is dedicated to the analysis of the content and methodology for developing creative graphic activities in students through drawing. Drawing plays an important role in the development of aesthetic thinking, imagination, and creativity in students. The article discusses the pedagogical methods used in teaching drawing, psychological approaches necessary for developing creative activities, and methods aimed at expanding students' imagination. Furthermore, the significance and effectiveness of various techniques and approaches in developing creative activities are analyzed.

Key words: Drawing, creative activities, graphic images, pedagogical methods, imagination, aesthetic thinking, student development, psychological approaches, creativity, art education.

Kirish. Chizmachilik o'quvchilarda nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki ijodiy tafakkur va estetik sezgilarni rivojlantirishda ham muhim vositadir. O'quvchilarning ijodiy grafika faoliyatini rivojlantirish ularning tasavvurlarini kengaytirishga, san'atga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga, shuningdek, ularni ta'lim jarayonida faol ishtirok etishga undaydi. Chizmachilik san'ati orqali o'quvchilar o'z fikrlarini va his-tuyg'ularini ifodalash imkoniyatiga ega bo'lib, bu jarayon ular uchun yaratuvchanlikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Maqolada chizmachilikdan ijodiy grafik faoliyatni rivojlantirishning mazmuni va metodikasi ko'rib chiqiladi. Bu faoliyatni samarali amalga oshirish uchun pedagogik yondashuvlar, turli metodik usullar va ijodiy fikrlashni rag'batlantirish uchun zarur bo'lgan psixologik omillarni tahlil qilish talab etiladi. Chizmachilikni o'rgatishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning roli katta bo'lib, u o'quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olib, ularni yaratish va tasavvur qilishga ilhomlantiradi. O'qituvchilar chizmachilik orqali nafaqat

estetik ko'nikmalarni shakllantiradilar, balki o'quvchilarda ijodiy yondashuvni ham rivojlantiradilar, bu esa ularga kelajakda turli sohalarida muvaffaqiyatli ishlashda yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili. Chizmachilikdan o'quvchilarning ijodiy grafik faoliyatini rivojlantirish masalasi pedagogika va psixologiya sohalarida keng qamrovli tadqiqotlarni talab etadi. Turli yillarda olib borilgan ilmiy ishlar, asosan, tasavvur, estetik tafakkur, va ijodkorlikni rivojlantirishda chizmachilikning o'rnini ta'kidlashgan. Chizmachilikning ta'limdagi ahamiyati va uning o'quvchilarni rivojlantirishdagi roli haqida ko'plab pedagoglar va psixologlar o'z fikrlarini bildirishgan.

1. V.A. Kukharev ("Chizmachilik va uning san'at ta'limidagi o'rnini") o'quvchilarda tasavvur va ijodiy tafakkurni rivojlantirishning asosiy vositasi sifatida chizmachilikni ko'radi. Uning ta'kidlashicha, chizmachilik o'quvchilarda estetik qarashlarni shakllantiradi va ularning ichki dunyosini ochadi. Chizmachilik o'quvchilarning vizual tafakkurini rivojlantiradi, bu esa san'atni o'qitishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

2. S.N. Rudenko ("Pedagogik texnologiyalar va ularning ijodiy faoliyatga ta'siri") ijodiy faoliyatni rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarning o'rnini o'rganib, ijodiy yondashuvlar va zamonaviy metodlar bilan ta'limning samaradorligini oshirishni taklif etadi. U pedagogik metodlarning to'g'ri qo'llanilishi o'quvchilarni nafaqat chizmachilik, balki umumiy san'at ta'limi jihatidan ham rivojlantirishi mumkinligini ko'rsatadi.

3. E.M. Gromova ("Ijodiy faoliyatni rivojlantirishda psixologik yondashuvlar") maqolasida chizmachilikni o'qitishda psixologik yondashuvlarning ahamiyatini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, tasavvurni rivojlantirishda psixologik metodlarning ahamiyati katta, chunki ular o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, ularning hissiy va intellektual salohiyatini ochishga yordam beradi.

4. I.V. Yelagin ("Ijodiy jarayonlarni boshqarish va tasavvur") ijodiy faoliyatni rivojlantirishda chizmachilikning ahamiyatini va o'quvchilarda tasavvurni shakllantirishning psixologik aspektlarini ko'rib chiqadi. U chizmachilikni nafaqat estetik, balki aqliy va hissiy rivojlanishning muhim vositasi sifatida ta'kidlaydi.

5. M. Sherwood ("Creating Visual Arts in the Classroom") esa o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishda pedagogik metodlar va yondashuvlarning samaradorligini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, o'quvchilarning tasavvurini kengaytirish, ularning ijodiy faoliyatini yuksaltirish uchun o'qituvchilar ilg'or pedagogik usullarni qo'llashi zarur.

Muhokama. Chizmachilikdan o'quvchilarning ijodiy grafik faoliyatini rivojlantirish masalasi bugungi ta'lim tizimida dolzarb ahamiyatga ega. Bu faqatgina o'quvchilarda estetik tafakkurni rivojlantirish bilan cheklanmay, ular uchun aqliy, hissiy va ijodiy salohiyatni oshirishga xizmat qiladi. O'quvchilarning tasavvuri, ularning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, chizmachilik o'qitishning metodik yondashuvlari o'zgargan va takomillashgan.

O'qituvchilar chizmachilikda ijodiy yondashuvni qo'llaganlarida, o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini kengaytirish va tasavvurini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lalilar. Ushbu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagi metodik usullarni taqdim etish mumkin:

Yaratuvchanlik va tashabbusni qo'llab-quvvatlash: O'quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishda o'zini ifodalashning turli shakllarini qo'llash juda muhim. O'qituvchilar chizmachilik darslarida o'quvchilarning har birini o'ziga xos tarzda yondashishga, yangi g'oyalarni amalga oshirishga rag'batlantirishi kerak.

Tajribaviy yondashuv: O'quvchilarning tasavvurlarini kengaytirish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun tajribaviy yondashuvlarni amalga oshirish zarur. Bunday yondashuvda o'quvchilar turli materiallar, vositalar va texnikalarni qo'llash orqali o'z tasavvurlarini grafika orqali ifodalashlari mumkin.

O'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish: Har bir o'quvchining chizmachilikka yondashuvi, tasavvuri va qobiliyati farq qiladi. Shu bois, o'qituvchilar

o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda darslarni rejalashtirishi va moslashtirishi zarur.

Estetik tafakkurni rivojlantirish: Chizmachilik san'at va estetik tafakkur bilan chambarchas bog'liq bo'lib, o'quvchilarni estetik jihatdan to'g'ri qarashlarni shakllantirishda yordam beradi. O'quvchilarni chizmalar va tasvirlar orqali go'zallik va estetikaga qiziqtirish, ularning ko'rish qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi.

Innovatsion texnologiyalardan foydalanish: Hozirgi kunda chizmachilikni o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash, masalan, kompyuter dasturlari va grafik dizayn vositalaridan foydalanish, o'quvchilarga yangi uslubda ishlash va o'z ijodlarini yangi shakllarda ifodalash imkoniyatini yaratadi.

Muhokama qilish lozim bo'lgan masalalar:

Pedagogik metodlarning ahamiyati: Qanday pedagogik metodlar o'quvchilarning ijodiy faoliyatini eng samarali tarzda rivojlantirishga yordam beradi? Misol uchun, ilg'or texnikalardan foydalanish, o'quvchilarni o'z fikrlarini erkin ifodalashga rag'batlantirish.

Psixologik omillar: O'quvchilarning tasavvuri va ijodiy faoliyatini rivojlantirishda psixologik yondashuvlarning roli qanday? O'quvchilarni yangi fikrlarni yaratishga va ijodiy tarzda o'ylashga qanday rag'batlantirish mumkin?

Individual yondashuv: O'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, chizmachilik darslarida qanday yondashuvni tanlash kerak? O'quvchilarning o'ziga xos tasavvurlarini rivojlantirishda o'qituvchining roli qanday?

Jadvalda chizmachilikni o'qitishning metodik yondashuvlari, ijodiy faoliyatni rivojlantirishning psixologik asoslari va pedagogik texnikalarining samaradorligi ko'rsatilgan.

1-jadval

№	Yondashuv	Metodlar	Natijalar
1	Pedagogik metodlar	- Ijodiy erkinlik berish - Yangi texnikalarni o'rgatish	O'quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish
2	Psixologik yondashuvlar	- Individual xususiyatlarni hisobga olish - Motivatsiyani oshirish	O'quvchilarning ijodiy salohiyatini kengaytirish
3	Innovatsion texnologiyalar	- Kompyuter grafikasidan foydalanish - Dasturiy ta'minotlarni o'rgatish	Zamonaviy texnologiyalarni o'rgatish
4	Ijodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash	- Jamoaviy ishlar - Chizmalarni muhokama qilish	Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish
5	Estetik tafakkurni rivojlantirish	- San'at asarlarini tahlil qilish - Ijodiy mashqlar	San'atga nisbatan estetik qiziqishni oshirish
6	Tajribaviy yondashuvlar	- Turli materiallar bilan ishlash - Chizmalarni bir nechta usullarda yaratish	Yangi materiallar yordamida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish
7	Hamkorlik	- O'qituvchi bilan fikr almashish - O'quvchilarga mustaqil ish berish	O'quvchilarning faol ishtirokini oshirish

Xulosa. Chizmachilikdan o'quvchilarning ijodiy grafik faoliyatini rivojlantirishning mazmuni va metodikasi, o'quvchilarda estetik tafakkur va ijodkorlikni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Maqolada keltirilgan pedagogik va psixologik yondashuvlar, ijodiy faoliyatni

rivojlantirishda samarali bo'lib, o'quvchilarning tasavvurini kengaytiradi va ularni turli texnikalar va yondashuvlarni qo'llashga undaydi. O'qituvchilar ijodiy erkinlik berish, yangi texnikalarni o'rgatish, jamoaviy ishlar va innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali o'quvchilarning grafik faoliyatlarini samarali ravishda rivojlantirishi mumkin. Shu bilan birga, psixologik qo'llab-quvvatlash va motivatsiya, o'quvchilarning ijodiy salohiyatini eng yuqori darajaga yetkazishda muhim omil bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kon, I.S. (2000). *Chizmachilik va estetik tafakkur. O'quvchilarni ijodiy faoliyatga yo'naltirish metodikasi*. Toshkent: Fan va texnologiya.
2. Shamshodov, M.M. (2010). *San'at ta'limi va o'quvchilarni ijodiy faoliyatga tayyorlash metodikasi*. Toshkent: O'qituvchi.
3. Petrova, T.A. (2005). *Ijodiy tasavvur va uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar*. Moskva: Pedagogika.
4. Tursunov, U. (2013). *Chizmachilikdan o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish*. Samarqand: Yangi avlod.
5. Grigorieva, A.V. (2008). *San'at ta'limida innovatsion yondashuvlar va metodlar*. Moskva: San'at va ta'lim.
6. Perebeynis, V.A. (2011). *Chizmachilik va grafik san'atni o'rgatishning psixologik asoslari*. Sankt-Peterburg: Pedagogika.
7. Andreeva, E.V. (2014). *Ijodiy faoliyat va tasavvurning rivojlanishi: metodik yondashuvlar*. Moskva: Psixologiya.

Aldabergenov Azamat Utegenovich,
*Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI «Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi»
kafedrasida katta o'qituvchisi*

ANATOMIK BOSH QALAM TASVIRINI ISHLASHNING METODIK BOSQICHLARI

Annotatsiya: Maqola kelajakdagi rassom-pedagogni tayyorlashning dolzarb masalalaridan biriga bag'ishlangan bo'lib, pedagogik rasm chizishda ilmiy bilimlar va amaliy ko'nikmalarning roli yoritilgan. O'quv ishlanmalarini bajarish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, kompozitsiya, shakl, hajm, proporsiya, rasm, shakl konstruksiyasi.

Аннотация: Статья посвящена одной из актуальной теме подготовке будущего педагога художника, о роли научных знаний и практических навыков в педагогическом рисовании. Дается практические советы по выполнению учебных постановок.

Ключевые слова: изобразительное искусство, композиция, форма, объем, пропорция, рисунок, конструкция формы.

Annotation: The article is dedicated to one of the current topics in the training of future art educators, focusing on the role of scientific knowledge and practical skills in pedagogical drawing. Practical advice on completing educational assignments is provided.

Key words: visual art, composition, form, volume, proportion, drawing, form construction.

Kirish. O'zbekiston o'z mustaqillini qo'lga kiritgandan so'ng mamlakatimizning barcha oliy ta'lim muassasalarining fakultet va bo'linmalarida zamonaviy talablar asosida ta'lim sifatini oshirish, jumladan, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash tizimini xalqaro malaka talablari asosida tashkil etishdek muhim vazifalarga alohida e'tibor qaratildi. Ta'lim sohasida amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar natijasida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashning ilg'or xorijiy tajribalarga asoslangan milliy tizimini yaratishga harakat qilindi. Shu bilan bir qatorda bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash sifatini oshirish, ularning amaliy mashg'ulotlarda olgan amaliy malakalari va kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishga oid muhim vazifalar bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.

Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, oliy ta'lim muassasalarida yuksak amaliy malakalarga ega pedagogik kadrlar zahirasi yaratish", «pedagog kadrlarning kasbiy mahorati sifati va saviyasini uzluksiz yuksaltirish» kabi vazifalar belgilanib, oliy ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi. Grizayl qalam tasvirning ajralmas qismi hisoblanib u rang bilan birgalikda tasvirlanadi. Tajribasiz rassomlar o'zlarining dastlabki ishlarida faqat rang bilan ovora bo'lib qo'yilmadagi tus yaxlitligini yoddan chiqaradilar, natijada ish sifati buziladi.

Qalamtasvirni puxta o'rganishda ko'pgina yetuk rassom va pedagoglar (oq va qora bo'yoqlarda) naturani tusda tasvirlashga katta ahamiyat berganlar. Bu masalada D.N.Kardovskiy shunday degan: «Tusni yorug'lik orqali yetkazishdan ko'ra Qalamtasvirda berish murakkabdir. Shuning uchun rang tasvirga o'tishda, yorug'likdagi tusga bo'lgan ko'nikmaga ega bo'lish kerak». Demak, Qalamtasvirning boshlang'ich kursida grizayl texnikasida mashqlar bajarishni tavsiya qilamiz.

Tasvir qalamda puxta bajarilgach, har bir narsa va buyumning materialligi, uning hajmi, tus munosabatlari qalamtasvirda vositasida hal qilishga o'tiladi. Realistik qalamtasvirning bunday sifatlariga har bir narsalardagi (shula, yorug'lik, yarim soya, soya va x.k.) soya-yorug'lik gradatsiyasi va ularning qalamtasvirdagi o'zaro tusli farqlarini to'g'ri

hal etish orqali erishish mumkin. Tusli farqlar nimani anglatadi? Rang jihatidan ba'zi narsalar naturada zich va to'qroq, boshqalari esa ochroq ko'rinadi. Ayrim narsalarda shaxsiy soya to'qroq va zichroq «og'ir» (masalan, chinni ko'zada, cho'yan qozonda), boshqalarida esa soyalar ancha ochroq «nozik» (gipsli odam boshi, qog'oz rulon va x.k.) ko'rinadi. Bu tusli farqlarni qalamtasvirda ham teng ravishda mutonasiblikda ifodalash kerak. Bu chog'da narsalar orqasidagi fonni ham hisobga olish zarur. Natura qo'yilmasidagi barcha narsalarni tusga nisbatan fonning och-to'qligi munosabatlarining to'g'ri olinayotganligi kenglikni ko'rsatishga imkon tug'diradi.

Tus munosabatlarini eng to'q narsalardan yoki chuqur ichki soyalardan boshlab ko'rsatilishi to'g'riroqdir. Har bir narsalarning tus kuchini bir-biri bilan solishtirish zarur, narsalarning o'zaro och joylarini, soyani-soyalar bilan, yarim tusni yarim tuslar bilan taqqoslash zarur. Qandaydir to'q idishda shaxsiy soya undan tushuvchi soyaga nisbatan to'qroqdir. Odam boshidagi yorug'lik eng yorug' joyiga qaraganda to'qroq bo'lishi mumkin. Tasvirda va naturadagi narsalarni bir-biri bilan doimiy taqqoslash orqali ular orasidagi farqlarni kamayishiga erishish zarur. Eng to'q narsalar yoki uning soyasi – bu qora baxmalda va ko'mir rangida emasligini, esda tutish kerak. Qora buyumlar va ularning soyalarini ancha yumshoqroq... lekin juda ham to'q qora tusda ishlash kerak emas. Hattoki qora baxmalni tasvirlashda ham qalam yoki qora bo'yoqni bor kuchidan foydalanish noto'g'ri, aks holda qog'ozda yoki matoda huddi qora teshik paydo bo'ladi. Shuningdek, naturadagi juda oq narsalarni toza oq bo'yoqlar bilan tasvirlashning iloji yo'q chunki, u oq bo'yoqqa nisbatan ancha to'qroq bo'ladi.

Ishning birinchi bosqichida – asosiy munosabatlarni aniqlash kerak. Naturadagi asosiy obektlarning yorug'-soya munosabatlari: fonning och-to'qligi, narsalarning sirtidagi och-to'qligiga va ularning o'zaro bir-birlariga nisbatan aniqlanadi. Avvalo qo'yilmadagi narsalarning umumiy tusi bir sidra qoplanadi. Agar umumiy munosabatlarni noto'g'ri olsak qalamtasvirning aniqligi, keyingi alohida narsalarning hajmli shakllaridagi yorug'-soya ham, tasvir aniqligi va haqqoniyligini, materiallik va kenglikni ko'rsata olmaymiz. Ishni soyadan yorug'likka qarab yuritish kerak, buning ustiga soya joylariga imkon boricha bo'yoq qatlamini yupqa va nozik berish, yorug'likni esa ularga nisbatan quyuk bo'yoqda ancha to'qroq qatlamli, va aniq surtmalar bilan qoplash zarur.

Grizayl texnikasida soya, yarimsoya, reflekslarni birdaniga kerakli tusda mos bo'yoqlar bilan qoplash, (iloji boricha bo'yoqni qayta-qayta berishni takrorlamasdan) bo'yoq surtmala-rini shakl yo'nalishi bo'yicha harakatlantirish kerak. Masalan, silindrsimon shaklga ega bo'lgan narsaga turli tasodifiy yo'nalishda surtmalar berilsa, ushbu shaklning aylanaligini ko'rsatish mushkuldir.

Naturadan tasvirlayotib narsalarning munosabatlarini nafaqat tus kuchi bo'yicha balki uning aniqligini ham, narsalar sirtlarining kontrastli chega-ralarini ham kuzatishimiz kerak. Har bir narsaning ko'rinib turgan tashqi ko'rinishi o'zining ko'lamida turlicha: qandaydir narsaning yoritilgan chap tomoni yorug'lik kuchi bo'yicha fonga nisbatan yaqinroq bo'lishi mumkin. Shu narsaning o'ng tomonidagi chegarasi tus jihatdan fon bilan deyarli qo'shilib, uning yuqori qirrasida fonda yaqqol ajralib turadi.





Asosiy narsalar va ularning sirtlari orasidagi tus munosabatlarini to'g'ri ko'rsatishdan tashqari, har bir narsaning hajmli shaklini soya-yorug' bilan ham puxta ishlash kerak. Gipsli odam boshi sharsimon va silindrsimon shakllar (yorug'likdan soyaga bora turib) yuzasini har bir millimetri asta-sekin to'qlashtiriladi, buning ustiga shaxsiy soyasining eng to'q joyi soya tomonidagi narsa chegarasida emas, aksincha bir oz ichkari tomonida bo'ladi. Tashqi ko'rinishning o'ng tomonidagi shaxsiy soyasi refleks tufayli yoritiladi.

Tekisliklar bilan chegaralangan (gipsli odam boshi va x.k.) narsalarning yorug'-soyalarini bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tish izchilligining hususiyati shundan iboratki, har bir tekislik boshqa tekislik tusidan farqlanib o'zining malum tusiga ega bo'ladi. Bunday narsalarning hajmi - hamma tomonlari tekislik bilan chegaralangan kenglikdir.

Yorug'likka qaratilgan tekisliklardagi yoyilib tushayotgan tekisliklarga nisbatan, yorqinlik ravshan yoritilgan bo'ladi. Shakllarni turlicha tusli tekisliklar bilan yasashning bunday tartibi katta qismlarga ham kichik shakllarga ham tegishlidir.

Tusli tasvirlash mobaynida tasvirlovchidan narsalarning uzoqligini hisobga olish zarur bo'ladi. Agarda bir qatorga bir xil narsalarni turli masofada joylashtirsak, yaqindagi narsalarning mayda bo'laklari va materiallik fakturasi ancha aniqroq ko'rinadi. Uzoqlashgan sari bu aniqligi yo'qolib xiralasha boradi. Uzoqdagi obektlar siluetli va tekis (yassi) bo'lib ko'rinadi. Old ko'rinishdagi buyumlarning soya-yorug' qismlari olisdagidan ravshan va aniqroq o'qiladi.

Narsalarning hajmli shakliga puxta ishlov berilgandan so'ng, ularni umumlashtirishga o'tish zarur. Har bir narsani tasvirlash jarayonida alohida mayda bo'laklarni, ularning yorug' soyasini maromiga yetkazib ishlash lozim. Narsalar guruhini yaxlit bir butun tasvirlash uchun, hammasini bir vaqtda kuzatib, xar birining yorug' va soya joylarini barchasiga nisbatan taqqoslash kerak. Narsalar guruhini yaxlitligini saqlash, haqqoniy tasvirlashning asosiy shartidir.



Portret kompozitsiyasi

Qalamtasvir mukammal insonlarning portretlarini chizishga asoslanadi. Shuning uchun qalamtasvir jarayoniga o'tishdan oldin natyurmortning qalamtasvir kompozitsiyasini surat tekisligida tasvirlash xususiyatlariga qisqacha to'htalib o'tamiz. Tasvirlovchi narsalar to'plamiga (portret) ma'lum bir ko'rish nuqtasidan qaraydi va u ko'z qarashiga qat'iy ravishda kuzatish perspektivasi qonuniyatining o'zaro bog'liqligi bilan namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, naturadagi narsalar o'zaro yoritilganligi va bir-biriga bog'langan bo'lib, ular oralig'ida reflekslar, yarimsoyalar, soyalar va yorug'liklar taqsimoti ma'lum bir tartibda bo'ladi. Mabodo ko'rish nuqtasi o'zgartirilsa naturaning o'zaro joylashuvi va yoritilganligi yangi ko'rinishda namoyon bo'ladi. Ko'rish nuqtasi yorug'likka qarama-qarshi bo'lganda tasvirni siluet tarzida ko'rish mumkin. Portretni tasvirlash jarayonida to'plamdagi barcha narsalar, ularning o'zaro joylashuvi, soya-yorug' va tus munosabatlarini obrazli ko'rinishiga buysundiriladi va idrok qilinadi. Portret kompozitsiyasini shunday tuzish kerakki, uni qaysi nuqtadan kuzatganda ham u yaxlit bir butun ko'rinishiga erishmoq zarur. Bu ishning muvaffaqiyatli chiqishi rassomning shaxsiy badiiy didi va tajribasiga bog'liqdir. Naturaga nisbatan qiziqarli ko'rish nuqtasini tanlab olgach, qog'oz varog'i yoki mato qanday o'lchamda bo'lishligini aniqlash zarur. Qog'oz varog'ida ifodalanadigan natyurmort qo'yilmasini naturadan to'g'ri aniqlab tasvirlay olish kerak.

Tajribasiz rassomlarning mato yoki qog'oz varog'i tekisligida tasvirlashlaridagi asosiy kamchilik shundan iboratki, ularda plastikali tasvirlash, izlanish jarayoni mukammal emas. Shuning uchun tasvirlash mobaynida aniq metodik ketma-ketlikka qat'iy rioya qilish, samarali natija garovidir.

Portret kompozitsiyasini qurilishida dastlab qog'oz yuzasida tasvirlanayotgan narsalarni puxta joylashuvi, qog'oz o'lchamiga nisbatan tasvirning katta kichikligini aniqlashdan iborat. Har bir natura qo'yilmasi muayyan o'lchamdagi qog'ozni talab qiladi.

Tasvirlanayotgan narsalar ma'lum o'lcham tekisligida «tiqilinch», yoxud juda ham kichik joylashib qolmasligi zarur. Haddan tashqari kichik joylashgan tasvirlar qog'oz tekisligida aniq ko'rinmaydi.

Tasvirda asosiy e'tiborni o'ziga jalb etuvchi buyum – kompozitsiya markazini, qolganlari esa unga tobe bo'lib hizmat qiladi.

Tasvirda tomoshabinning nazari ana shu markazga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. O'lchamni aniqlab olgach, asosiy ishni boshlashdan oldin kichik o'lchamdagi qog'oz bo'lagida bo'lajak natura qo'yilmasini xomaki variantlari tayyorlanadi, shundan so'ng, asosiy ishga o'tish maqsadga muvofiqdir.

Dastlab oddiy natura qo'yilmalaridan (gipsli geometrik shakllardan), keyin esa geometrik shakllarga yaqin bo'lgan maishiy buyumlardan tuzilgan natyurmortlarni astoydil ishlash, so'ngra, turli rangdagi, materiallikdagi buyumlardan tuzilgan qo'yilmalarni (plener sharoitida va intererda joylashtirilgan natyurmortlar) tasvirlash mumkin.

Portret qo'yilmasini tasvirlashda ishni alohida-alohida buyumlardan boshlab so'ngra boshqalariga o'tish aslo mumkin emas. Narsalar guruhini qog'ozga to'g'ri joylashtirishda nisbat, oraliq masofalar, fazoviy joylashuvda xatolikka yo'l qo'ymaslik muhimdir. Buning uchun narsalar to'plamini yengil chiziqlar bilan belgilab chiqish zarur. Tasvirlashda narsa va buyumlarning perspektiv qisqarishlarini puxta bajarish o'ta muhim.

Qalamtasvir uchun dastlabki qalamtasvir ishlarini bajarayotganda yosh rassomlar narsa va buyumlarning tekislikdagi fazoviy joylashuvi, nisbatlari, hajmini, buyumlarning konstruktiv qurilish kabi vazifalarni to'liq bajarishmaydi. Ularning diqqat e'tibori narsalarni kontur chiziqlarini tasvirlashga qaratilgan bo'ladi. Ularning fikricha narsaning sirtqi ko'rinishi chizilsa, shakl ham to'g'ri tasvirlanadi deb hisoblaydilar. Buyumning tashqi ko'rinishini tasvirlayotib, uning konstruktiv qurilishi, nisbat kabi xususiyatlari nazardan qolib ketishi mumkin.

Narsalarning o'zaro joylashuvi, istagan qirrasini yo'nalishi naturada osongina aniqlanadi va naturaning yo'naltiruvchi va vertikal (tik), gorizont (yotiq) chiziqlari yordamida tasvir qog'ozda yengil quriladi. Uzun qalam yordamida qurilmaning perspektiv burchaklarini, qirra nisbatlarini, stol tekisligida o'zaro turgan joylarini tekshirish mumkin. Buning uchun qalamni cho'zilgan qo'lda vertikal, gorizont yoki burchak ostida ushlab qirralarni perspektiv yo'nalishini tekshirish mumkin.

Portret tasvirda konusning asos qismini kubning yuqori tomonining eniga bo'lgan nisbatini qalam bilan asosini chekka o'ng burchak yoniga qo'yib vertikal bo'yicha tekshirish mumkin. Naturada bu vertikal kubning qoraytirilgan tomonini o'rtasidan kesib o'tadi. Qalam tasvirda esa bunday bo'lmasligi mumkin. Xatosini aniqlab uni darhol tuzatamiz. Agarda konusning chap tomonini davom ettirsak, u silindrning aylana asosiga zo'rga tegadi. Bu yerda ham qalam tasvir aytarli darajada aniq emas. Portretning yuqori qismi orqali gorizont chiziq o'tkazib uning balandligini konus bo'yiga nisbatan aniqlash mumkin. Yana silindrning ikki tomonini davom ettirsak, qaerga borib taqalishini tekshirib ko'rish mumkin. Naturada kubning oldingi qirrasini konusning markazi bilan ro'para kelmaydi, qalamtasvirda u aynan markazda bo'lib ko'rinishi ham mumkin. Shunday qilib yana bitta xatosini topamiz.

Endi gorizont joylashgan qalamni naturadagi kubning asosiga keltiramiz va qanchalik silindr asosini pastida bu chiziq o'tishini kuzatamiz. Naturada ikkalasini asosi deyarli bitta gorizont chiziqda joylashgan. Buni qalam tasvirda tekshirib ko'ramiz.

Narsalarning nisbatlarini aniqlab, ularni perspektiva qonun-qoidalariga amal qilib qurish hamda yengil-yelpi soyalarni berish mumkin. Bu esa narsalarning nisbatlarini ham va ularning o'zaro joylashganligini ancha aniq yetkazishga imkon beradi. Stol tekisligidagi narsalar to'plamini joy-lashtirishda ularning asoslarini qurish juda ham muhim. Har bir narsaning joyini aniqlamasdan ular orasidagi kenglikni yetkazish mumkin emas. Ayrim narsalar havoda «muallaq» bo'lishi yoki biri ikkinchisiga «o'yib» kirgandek ko'rinishi mumkin.

Tasvirlash jarayonida alohida narsalarni va ularning qismlarini katta-kichikligini har doim bir-biriga taqqoslab borish zarur.

Qalamtasvir uchun matoda ko'mir yordamida yorug' va soyalar bilan qalamtasvir ishini bajarish mumkin. Narsalarni hajmdor shakli yorug' soyalar bilan qurilsa qalamtasvir aniq ko'rinadi. Tayyor bo'lgan tasvirni tashqi ko'rinishlari tush bilan chizib chiqib, ko'mirni esa latta bilan qoqib tashlanadi. Shunday qilinsa bo'yash uchun zarur bo'lgan natyurmortning aniq ko'rinishi qoladi.

Portret bilan ishlash jarayonida shakllarning xarakteriga aniqlik kiritib borish zarur. Tasvirlash jarayonida ishni boshidan oxirigacha albatta metodik ketma-ketlikka rioya qilish muhimdir.

Endi o'quv portretning amaliy bajarishga o'tamiz. Dastlab faqat tusli (grizayl texnikasidagi qalamtasvir), keyin rangli (akvarel va moyli bo'yoqlarda) tasvirlash jarayoni bilan tanishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг “XXI асрнинг Олий таълими” Бутунжаҳон декларацияси (1998 й.), ЮНЕСКО нинг “Олий таълимни ислоҳ қилиш ва ривожлантириш” дастурий ҳужжати (1995 || CEFR. Learning, teaching, assessment. Language Policy Unit, Strasbourg www.coe/lang-CEFR

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947 – сон Фармони.

3. Б.Байметов. “Қаламтасвир” педагогика олий ўқув юртлари учун дарслик.Т., “Муסיқа” 2006.

4. Б.Б.Байметов, М.Толипов. Пластик анатомия. Ўқув қўлланма. «Илм зиё» нашриёти, 2007.

5. Botir Boltabaevich Baymetov, Muratov Khusan Kholmuratovich, Self Sketches as a Tool in the Professional Training of a Future Artist-Teacher. Vol.63. No. 2, (2020) @ www.solidstatetechnology.us

6. Б.Байметов. История развития изобразительного искусства Узбекистана. Наука, образование и культура, Москва, 2016. стр. 19-23.

*Narzullayev Farrux Ashrapovich,
Sport faoliyati kafedrası dosenti*

MALAKALI VOLEYBOLCHILARNING MUSOBAQAGA OID QOBILYATLARINI MASHGULOT JARAYONIDA TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: mazkur maqolada bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining pedagogik mahoratini rivojlantirish tizimida faoliyatni samarali amalga oshirishning asosiy sharti sifatida qobiliyatlar tasnifi mazmuni keltirilgan. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining pedagogik mahoratini rivojlantirish tuzilmasini tavsiflashning ilmiy metodi sifatida klassifikatsiya metodidan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: faoliyat, pedagogik mahorat, tasnif, qobiliyat, rivojlanish, jarayon, tuzilma, natija.

Аннотация: В данной статье изложено содержание классификации способностей как основного условия для эффективного осуществления деятельности в системе развития педагогического мастерства будущих преподавателей физической культуры. В качестве научного метода для описания структуры развития педагогического мастерства будущего преподавателя физической культуры использован метод классификации.

Ключевые слова: деятельность, педагогическое мастерство, классификация, способности, развитие, процесс, структура, результат.

Annotation: This article presents the content of the classification of abilities as a key condition for the effective implementation of activities in the system of developing the pedagogical skills of future physical education teachers. The classification method is used as a scientific method to describe the structure of developing the pedagogical skills of future physical education teachers.

Key words: activity, pedagogical skills, classification, ability, development, process, structure, result.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish davr talabiga aylangan. Ushbu talabdan kelib chiqqan holda, ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonun, farmon va qarorlar qabul qilinmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 2020-yil 23-sentyabr kuni qabul qilingan bo'lib, uning maqsadi ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Ushbu qonundagi asosiy vazifalardan biri sifatida O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish belgilangan.

Shuningdek, 2019-yilning oktyabrida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" da intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish singari vazifalar asos qilib olindi. Bu borada, ya'ni bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda raqobatbardoshlikni ta'minlash, rivojlangan ta'lim tizimiga uyg'unlashish, ta'limda hamkorlikni rivojlantirish, bo'lajak mutaxassislarni innovatsion rivojlangan qilib shakllantirish masalalari dolzarb vazifalar bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" vazifasi ham mazkur yo'nalishga tegishli ijodiy faoliyatimizning barcha bo'g'inlarini tubdan isloh qilishni talab etadi. Bunday

vazifalarni bajarish, albatta, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy hamda shaxsiy kompetentligini shakllantirish, pedagogik mahoratini takomillashtirish bilan bevosita bog'liq bo'lib, u oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.11.2020 yil PQ-4877-sonli "Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorida ham oliy ta'lim sifatiga qo'yiladigan xalqaro talablarga muvofiq, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish sohasidagi vazifalarni yuqori darajada bajarishga qodir malakali kadrlar tayyorlash vazifasi belgilandi.

Voleybol – jismoniy faollik va yuqori intellektual talablarni birlashtirgan murakkab sport turi bo'lib, unda muvaffaqiyatga erishish uchun nafaqat jismoniy tayyorgarlik, balki strategik fikrlash, tezkor qarorlar qabul qilish ham zarur. Malakali voleybolchilarni tayyorlashda ularning jismoniy va aqliy qobiliyatlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Mashg'ulot jarayonida voleybolchilarning individual imkoniyatlarini rivojlantirish, ularning o'yin uslubi va taktik ko'nikmalarini oshirish uchun murabbiylarning samarali yondshuvi va mashqlar tizimi asosiy rol o'ynaydi.

Voleybolchilarni sport musobaqalariga tayyorlash jarayonida, ularning qobiliyatlari va tayyorgarlik darajasi turli bosqichlarga ajratilib, har bir bosqichda o'ziga xos yondoshuvlar talab etiladi. Jismoniy va intellektual fazilatlarining uyg'un rivojlanishi, ularning musobaqalardagi natijalariga bevosita ta'sir qiladi. Shu sababli, voleybolchilarni tayyorlashda zamonaviy pedagogik texnikalar va metodlardan foydalangan holda mashg'ulot jarayonini takomillashtirish zarurati ortib bormoqda.

Shu nuqtai nazardan jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy hamda shaxsiy faoliyati, shuningdek intellektual xususiyatlarini rivojlantirish orqali pedagogik mahoratini takomillashtirish bugungi kundagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Pedagogik mahorat o'qituvchilar va tarbiyachilarga pedagogik ijodkorlik, pedagogik texnika, ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi, muloqot olib borish taktikasi, nutq madaniyati, tafakkuri, tarbiyachining ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarini tashkil etish va amalga oshirish, bu jarayonda xulq-atvor va hissiyotni jilovlay olish xususiyatlarini o'rgatadi va o'z kasbini rivojlantirib boruvchi pedagogik faoliyatlar tizimi to'g'risida ma'lumotlar beradi.

Tuzilma yoki tarkib – biron-bir narsaning ichki tuzilishi, biron-bir narsaning tabiati, qonuniyatlari, qismlarining o'zaro harakatlari bilan bog'liq bo'lgan fundamental, moddiy yoki nommodiy tushuncha ma'nosini anglatadi.


Tadqiqotlarimiz natijasida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining pedagogik mahoratini rivojlantirish tuzilmasini tavsiflashning ilmiy metodi sifatida klassifikatsiya metodidan foydalandik.

I. O'qituvchi pedagogik mahoratini rivojlantirish tuzilmasining klasterli tavsifi

1. «Shaxs xususiyatlari» klasteri.

Ushbu klasterda pedagogik mahorat uning yuqori darajada namoyon bo'lishini ta'minlovchi pedagog shaxsi xususiyatlarining kompleksi tarzida ko'rib chiqiladi. Bo'lajak o'qituvchi pedagogik mahoratini belgilovchi xususiyatlar orasidagi asosiy o'rinni qadriyatli-motivasion(kasbiy-pedagogik yo'nalganlik) tashkil etuvchilar hamda individual-ruhiy(umumiy hamda kasbiy pedagogik qobiliyatlar) o'ziga xoslik holatlarining o'zaro birligi egallaydi. Pedagogik mahoratning yuqori darajasini ta'minlovchi shaxsiy xususiyatlarning bir qancha shakllari tasniflanadi.

Bo'lajak o'qituvchi pedagogik mahorat tuzilmasida kasbiy-pedagogik yo'nalganlik asosiy tashkil etuvchi sifatida namoyon bo'lib, shaxs rivojlanishi xususiyatlarini barchasini qamrab olib, o'zaro bog'liqlik asosida umumiy tuzilmani tashkil etadi.



1-rasm. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisi pedagogik mahorati tuzilmasi.

Bo'lajak o'qituvchi shaxsida kasbiy-qadriyatli oriyentatsiya, ya'ni yo'nalganlikning mavjudligi, uni o'z kasbi va faoliyatiga vijdonan yondashish bilan bir qatorda izlanish va ijodga undaydi. Aksincha, ijobiy oriyentatsiyaning mavjud emasligi, pedagogik inqirozga olib kelib, egallangan pedagogik mahoratning bartaraf bo'lish imkoniyatini yaratadi.

Bashoratlovchi hamda loyihaluvchi funksiyalarni bajaruvchi kasbiy-qadriyatli yo'nalganlik o'qituvchiga o'z faoliyat modelini tuzish.

Pedagogik o'zini-o'zi anglash - ong, diqqatning o'z-o'ziga yo'naltirilgandagi holati. Bu holat pedagogning shaxsiy ustanovkalari va dispozitsiyalariga sezgirligini oshiradi.

Har bir kishi o'z-o'ziga yaxshi, ob'yektiv baho berishni istaydi, lekin o'z shaxsiy fazilatlarini qanday anglab tan olishni ko'pchilik tushunmaydi. Bizning o'z-o'zimizga baho berishimiz yashab o'tgan yillarimizda to'plagan barcha tushunchalarni xayolan tasavvur etish orqali shakllanadi.

Mutaxassis sifatida o'ziga ishonch tuyg'usini kuchaytirib, pedagoglik burchi va mas'uliyatini sezish orqali o'zini baholashga imkon beradi. O'zini-o'zi baholash shaxs

xususiyatlarini namoyon qiluvchi filtr sifatida o'qituvchi pedagogik mahoratini rivojlantirishda muhim o'rin egallaydi.

O'qituvchi pedagogik mahoratini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatadigan shaxs xususiyatlari orasida pedagogik hamkorlik asosidagi faoliyatni tashkil qilish va amalga oshirish imkoniyatini hosil qiluvchi ijtimoiy xususiyatlar, kognitiv jarayonlarni samarali kechishini ta'minlaydigan intellektual xususiyatlar hamda pedagogik faoliyatning yo'nalishlarini belgilaydigan axloqiy xususiyatlar va fazilatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

1. "Pedagogik qobiliyatlar" klasteri.

Pedagogik qobiliyat-pedagog tomonidan pedagogik faoliyatni oqilona tashkil etilishi va olib borilishini, amaliy vazifalarning samarali bajarilishini ta'minlashda ahamiyatli bo'lgan xususiyatlarni ifodalaydi.

Pedagogik qobiliyatlar-pedagogik faoliyatni samarali amalga oshirishning asosiy sharti hisoblanadi.

Zamonaviy pedagog quyidagi qobiliyatlarni o'zida aks ettirishi lozim:

1. Tashkilotchilik qobiliyati - talabalarni birlashtirish, vazifalar bilan band qilish, javobgarlikni taqsimlash, umumiy topshiriqlar bajarishda ko'rinadi.

2. Didaktik qobiliyati - o'quv materialini, ko'rgazmalarni tanlash va tayyorlash, talabalarining bilishga nisbatan qiziqish va ehtiyojlarini rag'batlantirish, o'quv faolligini oshirishda namoyon bo'ladi.

3. Perseptiv qobiliyati - talabaning ma'naviy dunyosiga kira olish, ruhiy-emosional holatini aniqlash va ob'yektiv baholay olish, pedagogik intuisiya va empatiyada ko'rinadi.

4. Kommunikativ qobiliyati - talabalar, hamkasblar va rahbariyat bilan pedagogik maqsadga muvofiq munosabat o'rnatish, muloqotga tez kirishish, ekstrovertlikda namoyon bo'ladi.

5. Suggestiv qobiliyati - talabalarga emotsional irodaviy ta'sir ko'rsatish, ularni o'z imkoniyatlariga ishonтира olishda ko'rinadi.

6. Ilmiy-tadqiqotchilik qobiliyati - pedagogik vaziyat va jarayonlarni o'rganish va baholash malakalari tushuniladi.

7. Nutq qobiliyati - aniq va ishonchli, emosiyali, madaniyatli, lug'atijihatdan boy nutq texnikasiga ega bo'lish.

7. Akademik qobiliyat- (ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirish va o'z shaxsiy hamda kasbiy tajribasini umumlashtirish) bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining pedagogika-psixologiya sohasida doimiy o'z bilimlarini takomillashtirib borishi hamda faoliyatida ilmiy-tadqiqot metodlarini qo'llashida namoyon bo'ladi.

Ko'rinib turibdiki jismoniy tarbiya o'qituvchisining pedagogik qobiliyatlari rivojlanishi borasida uning pedagogik mahorat ham takomillashib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Derkach A.A. Akmeologicheskiye osnovy razvitiya professionala. M.: Izd-vo MPSI; Voronej: NPO MODEK, 2004. -752 s.

2. Kostixina N.M. Akmeologiya fizicheskoy kultury i sporta : ucheb. posobiye. – Omsk: Izd-vo SibGUFG, 2005. – 180 s.

3. Ma'murov B.B. Bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik yondashuv asosida ta'lim jarayonini loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish tizimi. Monografiya-T.: "Fan va texnologiya", 2017, 128

4. Nemov, R.S. Psixologiya: ucheb. dlya stud. vysshix ped. uch. zavedeniy: v 3 ch. / Kn. 2. Psixologiya obrazovaniya [Tekst] / R.S. Nemov. – M.: Prosveshcheniye, 1994. – 496 s

5. Pedagogika: ensiklopediya / tuzuvchilar: jamoa. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. B. 45-46

Husanov Zafar Jo'raqulovich,

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)

Mamatqulov Mansur Furqatovich,

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi
akademik litsey fizika fani o'qituvchisi

FIZIKA FANINI O'QITISHDA FIZIK MASALALARNI YECHISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya: Maqolada fizika fanini o'qitish samaradiligini oshirish uchun masalalar yechishda interfaol metodlarning muhim rol o'ynashi umumiy fizika kursin bo'limlari misolida ko'rib o'tilgan. Fizikaviy masalalarni yechishda interfaol metodlarning turlari, qo'llanilishi, maqsad va vazifalari misollar bilan yoritilgan.

Kalit so'zlar: fizika fanini o'qitish, masalalarni yechish, fanni o'qitish samaradorligi, interfaol metodlar, intellektual salohiyat, o'zlashtirish samaradorligi, pedagogik mahorat.

Аннотация: В статье на примере разделов общего курса физики рассматривается важная роль интерактивных методов в решении задач по повышению эффективности обучения физике. На примерах проиллюстрированы виды, применение, цели и задачи интерактивных методов при решении физических задач.

Ключевые слова: обучение физике, решение задач, эффективность преподавания науки, интерактивные методы, интеллектуальный потенциал, эффективность обучения, педагогическое мастерство.

Abstract: In the article, the important role of interactive methods in solving problems to increase the effectiveness of teaching physics is considered on the example of sections of the general physics course. The types, application, goals and tasks of interactive methods in solving physical problems are illustrated with examples.

Key words: teaching physics, solving problems, effectiveness of teaching science, interactive, methods, intellectual potential, efficiency of learning, pedagogical skills.

Kirish. Ta'limda, o'quvchi asosiy invariant bilimlar asosida ko'plab o'ziga xos xususiy-o'zgaruvchi holatlarni takrorlovchi-variant bilimlarni egallasa va amaliyotda qo'llasa, u qo'shimcha maxsus mashg'ulotlarga qatnashmasdan har qanday vaziyatdagi muammoga yechim topa oladi. Chunki, u fundamental bilimlar orqali mazkur muammolarning umumiy yechimiga mos keladigan faoliyat elementlari o'rganishga imkon beradi.

Bo'lajak mutaxassisning ko'nikma va kasbiy malakalarni egallashlari uchun bitiruvchini o'quv faoliyatda fanlararo bog'lanishni amalga oshirish metodikasini o'zlashtirish zarur. Inson, jumladan, fizikani o'rganish bilan bog'liq bo'lgan mutaxassislik kasb egalarining fikrlash qobiliyatini o'stirish uchun o'zining kasbiy-mutaxassislik faoliyatiga bog'liq bo'lgan fanlararo integrativ nazariy va kasbiy bilimlarga ega bo'lishi talab etiladi. Har bir vazifa-tizimiy xarakterga ega va uni tahlil qilish hamda amalga oshirish uchun integrativ o'quv modelini yaratishni talab etadi. Bilim orqali kasbiy faoliyatda muammolarning tizimiy yechimlarini topish va ta'lim sohalarida fanlararo didaktik integratsiyani amalga oshirishning asosiy mezonidir.

Asosiy qism. Oliy ta'limdagi fanlararo bog'lanishlarning o'ziga xos xususiyatlari ko'pincha quyidagi holatlarga bog'liq:

- 1). fanlararo bog'lanishlarning didaktik yuqori darajalarini qo'llash zaruriyati;
- 2). fanlararo bog'lanishlarning ichki va tashqi turlari hamda ularning kasbiy yo'naltirilganligi;
- 3). fanlararo bog'lanishlarni qo'llashda tashkiliy shakllarning o'ziga xos xususiyatlariga.

Shunday qilib, o'quvchilarning kasbga tayyorgarligini rivojlantirishning metodologik jihatlaridan biri fizik masalalarning invariant va variativli komponentlarining fanlararo bog'lanishlarini didaktik integratsiya darajasida kasbiy-texnikaviy va ixtisoslik kurslari bilan

dialektik birlikda uyg'unlashtirishdan iborat. Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida bunday imkoniyatlar fanlararo didaktik integrasiya va sintezini amalga oshirish usullarini va yo'llarini ishlab chiqishni talab qiladi.

Oliy ta'lim tizimi umumta'lim, umumkasbiy va ixtisoslik hamda maxsus-harbiy tayyorgarlik fanlarini o'z ichiga oladi. Umumta'lim fanlari, jumladan fizika fanini o'zlashtirishda masalalar yechishning shakllanishiga nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, o'quvchilar fizikadan nazariy bilimlarini egallashlari bilan bir qatorda, masalalar ham yechadilar. Fizikadan masalalar yechish kursantlarning ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ular olimlarning ishlari, fan va texnika yutuqlari bilan tanishib boradi. Fizika fanini uzluksiz va izchil o'qitishda, yangi mavzuni bayon qilish va mustahkamlashda, o'tilgan mavzularni takrorlashda, o'quvchilarning mustaqil ishlari va bilimlarini tekshirishda masala yechish usullaridan foydalanish samarali natija beradi.

